M.X. Narbayeva

IQTISOD TERMINLARI ASOSIDA TALABALARNING MULOQOT KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH



M.X. Narbayeva

IQTISOD TERMINLARI ASOSIDA TALABALARNING MULOQOT KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Toshkent – 2026

UDK: 378.147:811.1:33

KBK: 74.480.26:81

N26

Narbayeva M.X. Iqtisod terminlari asosida talabalarning muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: Monografiya. – Toshkent, «ALIMENTATION SAINE» 2026. – 184 bet.

Muallif:

M.X. Narbayeva	Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mas’ul muharrir:

B.S. Abdullayeva	Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Taqrizchilar:

N.J. Isakulova	Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Sh.A. Abdullayeva	Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Monografiya iqtisodiyot yo‘nalishi talabalarining ingliz tilidagi iqtisodiy terminlar asosida muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish muammosini kompleks tadqiq etishga bag‘ishlangan. Unda muloqot kompetensiyasining mazmun-mohiyati va tarkibiy tuzilmasi aniqlashtirilgan, ingliz tilidagi iqtisodiy terminologiyaning kasbiy muloqot vositasi sifatidagi lingvistik va lingvodidaktik xususiyatlari ochib berilgan, iqtisodiyot yo‘nalishi talabalariga ingliz tilini o‘qitishning xorijiy va milliy tajribasi tahlil qilingan. Muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish konsepsiyasi, uning pedagogik shart-sharoitlari, rivojlantirish modeli hamda iqtisodiy terminologik minimum, modulli ta’lim mazmuni, mashqlar va topshiriqlar tizimi, interfaol va raqamli vositalarni o‘z ichiga olgan metodik tizim taklif etilgan.

Kitob chet tili o‘qitish metodikasi bo‘yicha tadqiqotchilar, oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari, tayanch doktorantlar, magistrantlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

Ushbu monografiya O’zbekiston milliy pedagogika universitetining ilmiy-texnik kengashi qaroriga ko’ra nashrga tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9910-4532-3-6

© «ALIMENTATION SAINE» nashriyoti, 2026

© M.X. Narbayeva, 2026

So‘z boshi

Jahonda iqtisodiyotning globallashuvi, xalqaro moliya institutlari, transmilliy kompaniyalar va xorijiy investorlar bilan hamkorlikning kengayishi ingliz tilini xalqaro ishbilarmonlik muloqotining umumiy vositasiga aylantirdi. Xalqaro biznes muhitida ingliz tili turli millat vakillari o‘rtasida lingua franca vazifasini bajarib, muloqotning muvaffaqiyati kasbiy soha bilimi, aniq terminologiya va muloqot strategiyalarining uyg‘unligiga tayanmoqda. Yevropa Kengashining til kompetensiyalarini baholash bo‘yicha umumevropa tizimining 2020-yildagi qo‘shimcha jildida mediatsiya, onlayn muloqot va kasbiy vaziyatlardagi o‘zaro ta’sir shkalalarining kiritilishi [12] til ta’limi natijasini kasbiy vazifaning bajarilishi orqali o‘lchash tendensiyasini kuchaytirdi. Biroq iqtisodiy terminlarni bilish talabaning ularni taqdimot, muzokara, yig‘ilish va biznes yozishmada vaziyatga mos, aniq va kollokatsion to‘g‘ri qo‘llay olishi uchun yetarli bo‘lmaydi. Shu bois iqtisodiy terminni kasbiy muloqot birligi sifatida o‘zlashtirishga asoslangan muloqot kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda sohaviy terminologiya asosida muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishga doir ilmiy tadqiqotlar maxsus leksikani tanlash, uning autentik diskursdagi vazifalarini aniqlash va kommunikativ qo‘llanishini o‘rgatishga yo‘naltirilmoqda. Buyuk Britaniyaning Birmingem universitetida biznes diskursining tuzilishi va kommunikativ vazifalari, Yangi Zelandiyaning Vellington Viktoriya universitetida akademik hamda sohaviy leksikani o‘rganish va o‘qitish, Xitoyning Gonkong politexnika universitetida esa kasbiy muloqotning leksik-grammatik, janriy va pragmatik xususiyatlari ustuvor yo‘nalishlar sifatida tadqiq etilmoqda. Mazkur ilmiy natijalarni iqtisodiy ta’limga tatbiq etish terminning ma’nosini o‘zlashtirish bilan uni axborot almashish, dalillash va hamkorlikda qaror qabul qilishda qo‘llash o‘rtasidagi bog‘lanishni maxsus metodik asoslashni talab etadi. Bu holat terminologik bilimni kasbiy-kommunikativ faoliyatga aylantiruvchi bosqichlar, mashqlar tizimi va baholash mezonlarini uyg‘unlashtiruvchi metodik modelni ishlab chiqish zaruratini belgilaydi.

Respublikamizda so‘nggi yillarda oliy ta’lim mazmunini iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlariga moslashtirish, talabalarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish va xorijiy tillarni amaliy egallash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, oliy ta’limda “amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish”[2] vazifasi belgilangan. Biroq iqtisodiy terminlarni kasbiy ahamiyati va qo‘llanish chastotasiga ko‘ra tanlashni talabalarning til tayyorgarligiga mos kommunikativ topshiriqlar hamda natijaviy baholash bilan bog‘lash yaxlit metodik ta’minotni talab qiladi. Shu bois iqtisodiy terminlarni kontekstda o‘zlashtirish, vaziyatli topshiriqlarda faollashtirish va kasbiy

muloqotda mustaqil qo‘llash natijalarini baholash asosida talabalarning muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish mazkur tadqiqotning dolzarbligi va zaruratini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni [1], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” [2], 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [3], 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” [4], 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari [5], 2012-yil 10-dekabrdagi PQ-1875-son “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [6], 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari [7], Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi 312-son “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [8] va 2022-yil 19-yanvardagi 34-son “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari [9] hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu monografiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Dunyoda kasbga yo‘naltirilgan ingliz tili va ishbilarmonlik muloqoti bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida, jumladan, Aalto University School of Business (Finlyandiya) [34], Victoria University of Wellington (Yangi Zelandiya) [142], University of Michigan (AQSH) [167], Cambridge Assessment English (Buyuk Britaniya) [231], Yevropa Kengashi (Council of Europe, Fransiya) [12], University of International Business and Economics (Xitoy) [51] hamda Abilay xon nomidagi Qozog‘iston xalqaro munosabatlar va jahon tillari universitetida (Qozog‘iston) [207] olib borilmoqda.

Jahonda kasbga yo‘naltirilgan ingliz tili va ishbilarmonlik muloqoti bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda quyidagi ilmiy natijalarga erishilgan: ishbilarmonlik muloqotida ingliz tilining lingua franca (BELF) sifatidagi tuzilmasi va kompetensiya tarkibi aniqlangan (Aalto University School of Business, Finlyandiya); kasbiy matnlardagi texnik leksikani ajratish va so‘z boyligini o‘rgatishning to‘rt yo‘nalishli modeli ishlab chiqilgan (Victoria University of Wellington, Yangi Zelandiya); kasbiy hamjamiyat janrlarini tahlil qilish nazariyasi asoslangan (University of Michigan, AQSH); ishbilarmonlik ingliz tilini bilish darajasini CEFR bilan muvofiqlashtirilgan BEC va Linguaskill Business imtihonlari orqali baholash tizimi joriy etilgan (Cambridge Assessment English, Buyuk Britaniya); mediatsiya va kasbiy o‘zaro

ta’sirni qamrab oluvchi deskriptorlar tizimi ishlab chiqilgan (Council of Europe); Business Englishni til, kasbiy bilim va muloqot ko‘nikmalarini integratsiyalovchi mustaqil o‘quv yo‘nalishi sifatida rivojlantirish modeli asoslangan (University of International Business and Economics, Xitoy); chet tili ta’limining kognitiv-lingvomadaniy metodologiyasi ishlab chiqilgan (Abilay xon nomidagi universitet, Qozog‘iston)..

Dunyoda iqtisodiy terminlar asosida muloqot kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: ehtiyojlar tahlili asosida kasbiy kurs mazmunini loyihalash; korpus ma’lumotlari asosida kasbiy terminologik minimumni tanlash; terminlarni kollokatsiya va nutqiy formulalar tarkibida o‘rgatish; kasbiy muloqot janrlarini o‘qitish; fan mazmuni va tilni integratsiyalab o‘qitish (CLIL); kasbiy vaziyatlarni modellashtiruvchi interfaol va raqamli texnologiyalarni qo‘llash; muloqot kompetensiyasini CEFR deskriptorlari va xalqaro imtihonlar formatlari asosida baholash.

Respublikamizda chet tili o‘qitish metodikasi va talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish masalalari J.J.Jalolov [119], G.T.Makhkamova [61], O‘.X.Hoshimov, I.Yoqubov [114], I.A.Saturova [158], T.K.Sattorov [157], F.I.Ikromxonova [118], M.X.Gulyamova [111], Sh.A.Atadjanova [16], G.O.Maqsudova [134] va F.M.Rashidova [151] tomonidan tadqiq etilgan. Talabalarning muloqot, kommunikativ, nutqiy, pragmatik va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari U.G.Porsayev [149], M.U.Mavlanova [136], D.A.Usarova [171], M.B.Shodiyev [164], G.B.Prenova [150], F.Sh.Negova [144], U.A.Murodova [140], B.B.Tangatov [168], D.M.Abdullayeva [73], N.M.Ashurova [77], G.A.Asilova [78], K.J.Riskulova [155] va A.T.Nurmanov [43] ishlarida, o‘zbek terminshunosligi va sohaviy terminlarning qiyosiy tadqiqi esa H.Dadaboyev [99], A.Madvaliyev [132], A.Hojiyev, S.I.Zinin [31], F.X.Qosimova [45], D.M.Azimova [17] va K.N.Tojiyeva [47] tadqiqotlarida yoritilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida kommunikativ kompetensiya va chet tili o‘qitish metodikasi muammolari Ye.I.Passov [215], I.L.Bim [186], N.D.Galskova [190], A.N.Shchukin [226], I.A.Zimnyaya [56], A.V.Xutorskoy [69], A.A.Verbitskiy [188], S.S.Kunanbayeva [207], V.V.Safonova [217] va S.G.Ter-Minasova [221], iqtisodiy va boshqaruv yo‘nalishlari talabalarining kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish masalalari N.Yu.Pavlova [214], Ye.V.Klimenko [58], L.V.Marennikova [60], O.B.Tarnopolskiy, S.P.Kojushko [220] va Ye.V.Timoxina [67], terminshunoslikning nazariy asoslari esa A.A.Reformatskiy [65], D.S.Lotte [212], V.M.Leychik [209], S.V.Grinev [193] va A.V.Superanskaya [219] tadqiqotlarida maxsus o‘rganilgan.

Xorijiy tadqiqotlarda kommunikativ kompetensiya nazariyasi N.Chomsky [94], D.Hymes [32], M.Canale, M.Swain [24], S.Savignon [159], L.Bachman [81],

M.Celce-Murcia, Z.Dörnyei, S.Thurrell [25] va M.Byram [92], maxsus maqsadlar uchun ingliz tili va Business English o‘qitish masalalari T.Hutchinson, A.Waters [116], T.Dudley-Evans, M.J.St John [104], H.Basturkmen [84], M.Ellis, C.Johnson [106], E.Frendo [110], N.Brieger [89] va D.Belcher [18], leksik yondashuv va so‘z boyligini o‘rgatish masalalari M.Lewis [129], I.S.P.Nation [142], N.Schmitt [162] va J.Sinclair [165], terminologiya nazariyasi esa E.Wüster [176], J.C.Sager [156], M.T.Cabré [93] va R.Temmerman [169] ishlarida atroflicha yoritilgan.

Mavjud tadqiqotlarda muloqot kompetensiyasining tarkibiy qismlari, ESP kurslarini loyihalash va terminologik ish masalalari batafsil yoritilgan, biroq iqtisodiy terminologiya muloqot kompetensiyasining tizim hosil qiluvchi asosi sifatida, terminni o‘zlashtirish bosqichlari esa muloqot kompetensiyasini rivojlantirish bosqichlari bilan uzviy bog‘liq holda maxsus tadqiq etilmagan. Shu bois ingliz tilidagi iqtisodiy terminlar asosida talabalarning muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishning yaxlit konsepsiyasi, modeli va metodik tizimini ishlab chiqish zarurati mavjud.

Mazkur monografiyaning maqsadi iqtisodiyot yo‘nalishi talabalarining ingliz tilidagi iqtisodiy terminlar asosida muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash hamda uni oliy ta’lim amaliyotiga joriy etish yuzasidan ilmiy-metodik taklif va tavsiyalar berishdan iborat. Monografiyada iqtisodiy termin yodlash obyekti sifatida emas, balki kasbiy muloqot vaziyatlarida kasbiy vazifani hal etishning faol vositasi sifatida ko‘rib chiqiladi va terminni o‘zlashtirish bosqichlari muloqot kompetensiyasini rivojlantirish bosqichlari bilan uzviy bog‘lanadi.

Monografiya so‘z boshi, uch bob, xulosa, amaliy tavsiyalar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Birinchi bobda iqtisodiyot yo‘nalishi talabalarining ingliz tilidagi muloqot kompetensiyasi tushunchasining mazmun-mohiyati va tarkibiy tuzilmasi, ingliz tilidagi iqtisodiy terminologiyaning kasbiy muloqot vositasi sifatidagi lingvistik va lingvodidaktik xususiyatlari hamda iqtisodiyot yo‘nalishi talabalariga ingliz tilini o‘qitishning xorijiy tajribasi va O‘zbekiston oliy ta’lim tizimidagi holati tahlil qilingan. Ikkinchi bobda muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish konsepsiyasining metodologik asoslari, yetakchi g‘oyasi va tamoyillari, pedagogik shart-sharoitlari hamda rivojlantirish modeli yoritilgan. Uchinchi bobda ushbu modelni amalga oshiruvchi metodik tizim – iqtisodiy terminologik minimumni tanlash va ta’lim mazmunini modulli asosda tashkil etish, mashqlar va topshiriqlar tizimi hamda interfaol va raqamli vositalardan foydalanish bayon etilgan.

Monografiya chet tili o‘qitish metodikasi va ESP sohasidagi tadqiqotchilar, oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari, tayanch doktorantlar, magistrantlar va talabalarga mo‘ljallangan. Undagi materiallardan iqtisodiy ta’lim yo‘nalishlari uchun “Xorijiy til” fanining o‘quv dasturlari, darslik va qo‘llanmalarini takomillashtirish, mustaqil ta’limni tashkil etish hamda ingliz tili o‘qituvchilarining malakasini oshirishda foydalanish mumkin.

I BOB. INGLIZ TILI TA’LIMIDA IQTISODIY TERMINLAR ASOSIDA TALABALARNING MULOQOT KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

1.1-§. Iqtisodiyot yo‘nalishi talabalarining ingliz tilidagi muloqot kompetensiyasi tushunchasining mazmun-mohiyati va tarkibiy tuzilmasi

Zamonaviy iqtisodiyot mutaxassisining kasbiy faoliyati xalqaro moliya institutlari, xorijiy investorlar, transmilliy kompaniyalar, auditorlik va konsalting tashkilotlari bilan uzluksiz axborot almashinuvi sharoitida kechadi. Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish, investitsiya loyihasini himoya qilish, yetkazib berish shartlari bo‘yicha muzokara olib borish, hamkor bilan elektron yozishma yuritish, video-konferensiyada bozor kon’yunkturasini muhokama qilish kabi vaziyatlarning aksariyati ingliz tilida amalga oshadi. Bunday sharoitda oliy ta’lim muassasasining iqtisodiyot yo‘nalishida ingliz tilini o‘qitish natijasi umumiy til bilimi bilan emas, balki kasbiy muloqotga tayyorlik bilan o‘lchanadi. Shu bois tadqiqotimizning tayanch tushunchasi bo‘lgan “iqtisodiyot yo‘nalishi talabalarining ingliz tilidagi muloqot kompetensiyasi”ning mazmun-mohiyatini aniqlash metodikani takomillashtirishning dastlabki nazariy sharti hisoblanadi. Ushbu paragrafda “kompetensiya”, “kommunikativ kompetensiya”, “muloqot kompetensiyasi” va “kasbiy muloqot kompetensiyasi” tushunchalari umumiydan xususiyga qarab boruvchi ierarxik tizim sifatida tahlil qilinadi, so‘ng ular asosida tadqiqot uchun ishchi ta’rif va komponentlar tuzilmasi asoslanadi. C.Nickerson xalqaro biznes muhitida ingliz tili turli millat vakillari o‘rtasida umumiy muloqot vositasi (lingua franca) vazifasini bajarishini va bunday muloqotda til me’yoriga emas, balki kommunikativ vazifaning bajarilishiga urg‘u berilishini ko‘rsatadi [42].

“Kompetensiya” tushunchasining ilmiy muomalaga kirishi tilshunoslik bilan bevosita bog‘liq. N.Chomsky til kompetensiyasi va nutqiy ijroni bir-biridan farqlab, kompetensiyani bir jinsli til jamoasidagi ideal so‘zlovchi-tinglovchining o‘z tili tizimi haqidagi yashirin bilimi sifatida talqin etadi [94]. Olim uchun kompetensiya cheksiz miqdordagi grammatik to‘g‘ri gaplarni yaratish va tushunish imkonini beruvchi ichki qoidalar tizimidir, nutqiy ijro esa xotira, diqqat va boshqa psixologik omillar ta’sirida bu bilimning nomukammal namoyon bo‘lishidir. Bizningcha, ushbu qarash keyingi barcha talqinlarning boshlang‘ich nuqtasi bo‘lsa-da, kasbiy til ta’limi uchun yetarli emas, chunki u tilni muloqot vaziyatidan ajratilgan holda ko‘radi. Masalan, iqtisodiyot talabasi “The central bank raised the interest rate” (Markaziy bank foiz stavkasini oshirdi) gapini grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzishi mumkin, biroq analitik sharhda “raised”, moliyaviy yangiliklar sarlavhasida “hiked”, rasmiy hisobotda esa “increased the policy rate” shakli afzal ekanini bilmasligi mumkin. Demak, kasbiy muloqotda

kompetensiyaning mazmuni til tizimini bilishdan kengroq bo‘lib, tanlov va moslik mezonlarini ham qamrab oladi.

Aynan shu cheklanishni D.Hymes tanqid ostiga olib, “kommunikativ kompetensiya” tushunchasini ilmiy muomalaga kiritadi [32]. Olimning fikricha, til egasining malakasi to‘rt savolga javob berish qobiliyatida namoyon bo‘ladi: ifoda formal jihatdan mumkinmi, u ruhiy-fiziologik jihatdan amalga oshirilishi mumkinmi, u muayyan kontekstga mosmi va u amalda qanchalik qo‘llanadi. N.Chomsky va D.Hymes qarashlarini qiyoslaganda umumiy jihat shundaki, ikkala olim ham kompetensiyani ichki bilim va qobiliyat sifatida ko‘radi; farqli jihat esa D.Hymes bu bilimga ijtimoiy kontekst va vaziyatga moslikni qo‘shishidadir. Bizningcha, “kontekstga moslik” parametri iqtisodiy muloqot uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Investorlar bilan kvartal natijalarini muhokama qilishda “Our revenue went up a lot” jumlasi grammatik jihatdan to‘g‘ri bo‘lsa-da, kasbiy registrga mos emas; uning o‘rnida “Revenue showed steady year-on-year growth” (tushum yildan-yilga barqaror o‘sishni ko‘rsatdi) jumlasi kutiladi. Tadqiqotimiz uchun bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, iqtisodiy terminlarni o‘rgatish ularning vaziyatga mos qo‘llanishini o‘rgatish bilan birga olib borilishi lozim va bu talab keyinchalik lingvopragmatik komponent sifatida asoslanadi.

Pedagogika va psixologiyada “kompetensiya” tushunchasi kengroq, faoliyat nazariyasi doirasida talqin etiladi. I.A.Zimnyaya kompetensiyani bilimlar, tasavvurlar, harakat dasturlari va qadriyatlar tizimida ifodalangan ichki potensial sifatida ko‘radi; bu potensial keyinchalik shaxsning kompetentligida, ya’ni faoliyatda namoyon bo‘ladigan shaxsiy sifatida aktuallashadi [56]. A.V.Xutorskoy esa kompetensiyani muayyan obyektlar va jarayonlar doirasiga nisbatan sifatli faoliyat uchun zarur bo‘lgan o‘zaro bog‘liq shaxs sifatlari (bilimlar, ko‘nikmalar, faoliyat usullari) majmuasiga qo‘yiladigan oldindan belgilangan ijtimoiy talab sifatida, kompetentlikni esa shaxsning tegishli kompetensiyani egallaganligi va unga shaxsiy munosabati sifatida ta’riflaydi [69]. Ikkala olim kompetensiya va kompetentlikni “imkoniyat – amalga oshgan sifat” juftligi sifatida farqlaydi, biroq I.A.Zimnyaya psixologik yondashuvdan, A.V.Xutorskoy esa normativ-didaktik yondashuvdan kelib chiqadi. Bizningcha, iqtisodiyot yo‘nalishida ingliz tilini o‘qitish uchun A.V.Xutorskoy talqini me’yoriy jihatdan qulay: Davlat ta’lim standartlari va CEFR deskriptorlarida belgilangan talablar kompetensiya mazmunini, talabaning real muloqot vaziyatlarida ko‘rsatgan natijasi esa uning darajasini ifodalaydi. I.A.Zimnyaya yondashuvi esa kompetensiya tarkibiga qadriyat va motivatsiyani kiritish zarurligini ko‘rsatadi, bu esa motivatsion-refleksiv komponentning nazariy asoslaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

E.G.Azimov va A.N.Shchukin metodik terminlar lug‘atida kompetentlikni ta’lim jarayonida shakllanadigan bilim, ko‘nikma va malakalar hamda ular asosida faoliyatni amalga oshirish qobiliyati sifatida izohlaydi [178]. G.A.Asilova esa mavjud

ta’riflarni umumlashtirib, kompetensiyani muayyan sohada faoliyat yuritishda shaxsiy sifatlar hamda bilim, ko‘nikma va malakalarning samarali qo‘llanishi sifatida, kompetentlikni esa faoliyat uchun mavjud va yuzaga chiqishi mumkin bo‘lgan layoqat sifatida belgilaydi [78]. Ko‘rinib turibdiki, G.A.Asilova talqinida tushunchalar munosabati A.V.Xutorskoy talqiniga nisbatan teskari: unda kompetentlik imkoniyat, kompetensiya esa uning amaliy namoyon bo‘lishidir. Bizningcha, bunday nomuvofiqlik terminologik barqarorlikka hali to‘liq erishilmaganini ko‘rsatadi va har bir tadqiqotda atama mazmunini aniq qayd etishni talab qiladi. J.J.Jalolov chet til o‘qitish mazmunini muayyan mavzular doirasida til birliklaridan foydalangan holda nutq malakalarining shakllanishini ta’minlovchi metodik hodisa sifatida qaraydi [119]. Bu qarash kompetensiyaning mavzuli-vaziyatli tabiatini ta’kidlaydi. Tadqiqotimizda o‘zbek pedagogikasida qaror topgan an’anaga tayangan holda “kompetensiya” atamasi faoliyatda namoyon bo‘ladigan integrativ sifat ma’nosida qo‘llanadi va uning uch umumiy belgisi qayd etiladi: integrativlik, faoliyatda namoyon bo‘lish va muayyan faoliyat sohasiga bog‘liqlik. Iqtisodiyot talabasi uchun bu soha xalqaro iqtisodiy muloqotdir.

Kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy modellari orasida eng ko‘p iqtibos keltiriladigani M.Canale va M.Swain modelidir. Olimlar kommunikativ kompetensiya tarkibida grammatik, sotsiolingvistik va strategik kompetensiyalarni ajratadi [24], keyinchalik M.Canale ulardan diskursiv kompetensiyani alohida komponent sifatida ajratib, modelni to‘rt komponentli ko‘rinishga keltiradi [23]. Grammatik kompetensiya leksika, morfologiya, sintaksis va fonologiya qoidalarini bilishni, sotsiolingvistik kompetensiya ifodalarni ijtimoiy kontekstga mos tanlashni, diskursiv kompetensiya matnning bog‘liqligi va yaxlitligini ta’minlashni, strategik kompetensiya esa muloqotdagi uzilishlarni bartaraf etish usullarini egallashni anglatadi. Bizningcha, strategik kompetensiya iqtisodiyot talabasi uchun alohida ahamiyat kasb etadi, chunki terminologik bo‘shliq kasbiy muloqotdagi eng ko‘p uchraydigan uzilish manbaidir. Masalan, “accounts receivable” (debitorlik qarzi) terminini bilmagan talaba uni “money that our customers still owe us” (mijozlarimiz bizga hali to‘lamagan pul) tarzida parafraza qilib, muloqotni davom ettira oladi. Diskursiv kompetensiya esa hisobot, taqdimot va biznes xatning tuzilmasini egallash bilan bog‘liq. Shu sababli tadqiqotimizda diskursiv va strategik jihatlar yagona diskursiv-strategik komponentga birlashtiriladi: ikkalasi ham alohida jumladan yuqori darajadagi muloqot birligini boshqarishga xizmat qiladi.

S.Savignon kommunikativ kompetensiyani mutlaq emas, nisbiy va dinamik hodisa sifatida ko‘radi: u barcha ishtirokchilarning hamkorligiga bog‘liq bo‘lib, ma’no muloqot jarayonida kelishiladi, kompetensiya esa faqat nutqiy ijro orqali kuzatilishi va baholanishi mumkin [159]. Olim modelida ham grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik komponentlar mavjud, biroq ularning nisbati o‘quvchi rivojlanishi bilan

o‘zgarib boradi. M.Canale va M.Swain modeli bilan qiyoslaganda S.Savignon talqinining yangiligi ma’noni kelishuv jarayonida yaratilishiga urg‘u berishidadir. Bizningcha, bu jihat muzokara vaziyatlarida yaqqol ko‘rinadi. To‘lov shartlari muhokama qilinayotganda “When you say ‘net 30’, do you mean thirty days from the invoice date?” (“net 30” deganda hisob-faktura sanasidan boshlab o‘ttiz kunni nazarda tutyapsizmi?) kabi aniqlashtiruvchi savol terminning ma’nosini ikki tomon kelishuvi orqali qat’iylashtiradi. Demak, iqtisodiy terminlar asosidagi muloqot kompetensiyasi termin ma’nosini interaktiv tarzda aniqlashtirish ko‘nikmasini ham o‘z ichiga olishi zarur.

L.Bachman modelida kommunikativ til qobiliyati til kompetensiyasi, strategik kompetensiya va psixofiziologik mexanizmlardan iborat bo‘lib, til kompetensiyasi tashkiliy (grammatik va matnli) hamda pragmatik (illokutiv va sotsiolingvistik) kompetensiyalarga bo‘linadi; strategik kompetensiya esa vaziyatni baholash, nutqni rejalashtirish va ijro etish funksiyalarini bajaruvchi alohida qobiliyat sifatida ajratiladi [81]. M.Celce-Murcia, Z.Dörnyei va S.Thurrell kommunikativ kompetensiyani diskursiv kompetensiya markazda joylashgan besh komponentli model shaklida taqdim etadi: lingvistik, harakat (actional), sotsiomadaniy, diskursiv va strategik kompetensiyalar [25]. Harakat kompetensiyasi muloqot niyatlarini nutqiy aktlar orqali ifodalash, ya’ni taklif qilish, rozilik yoki e’tiroz bildirish, iltimos qilish kabi funksiyalarni egallashni anglatadi. Ikki modelni qiyoslaganda umumiy jihat shundaki, ikkalasi ham pragmatik bilimni grammatik bilimdan alohida tuzilma sifatida ajratadi; farqi shundaki, L.Bachman modeli baholashga, M.Celce-Murcia va hammualliflarining modeli esa o‘qitish mazmunini tanlashga yo‘naltirilgan. Bizningcha, iqtisodiyot talabasi uchun illokutiv va harakat kompetensiyalari kasbiy funksiyalar bilan bevosita bog‘lanadi: yig‘ilishda “I see your point, but the figures suggest otherwise” (fikringizni tushunaman, biroq raqamlar boshqacha ko‘rsatmoqda) tarzida e’tiroz bildirish yoki muzokarada “We could consider a lower unit price if you increase the order volume” (buyurtma hajmini oshirsangiz, birlik narxini pasaytirishni ko‘rib chiqishimiz mumkin) tarzida qarshi taklif kiritish aynan ushbu kompetensiyalarning namoyon bo‘lishidir. Shu asosda tadqiqotimizda illokutiv, harakat va sotsiolingvistik bilimlar yagona lingvopragmatik komponent doirasida birlashtiriladi, L.Bachman modelining baholash salohiyati esa mezonlarni ishlab chiqishda inobatga olinadi.

M.Byram kommunikativ kompetensiya tushunchasini madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyagacha kengaytiradi. Uning modelida lingvistik, sotsiolingvistik va diskursiv kompetensiyalarga madaniyatlararo kompetensiya qo‘shiladi, u esa o‘z navbatida boshqa madaniyat haqidagi bilimlar, ochiqlik va qiziqish munosabatlari, talqin qilish va qiyoslash ko‘nikmalari, kashf etish va o‘zaro ta’sir ko‘nikmalari hamda tanqidiy madaniy anglashdan iborat [92]. Bizningcha,

xalqaro iqtisodiy muloqotda madaniyatlararo omil bevosita kasbiy natijaga ta’sir qiladi. Muzokaradagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri rad etish uslubi, vaqtga munosabat, yig‘ilishdagi rasmiylik darajasi, biznes yozishmadagi murojaat shakllari madaniyatlar bo‘yicha farqlanadi va bu farqlarni bilmaslik kelishuvning buzilishiga olib kelishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi biznes muloqotida bevosita “No” o‘rniga “That might be difficult for us at this stage” (bu bosqichda biz uchun qiyin bo‘lishi mumkin) kabi yumshatilgan rad etish shakli keng qo‘llanadi va o‘zbek talabasi bu ifodaning aslida rad javobi ekanini anglashi kerak. Shu bois tadqiqotimizda madaniyatlararo-kasbiy komponent alohida ajratiladi va u umumiy madaniy bilimga emas, balki xalqaro biznes muloqotining me’yorlariga yo‘naltiriladi. C.Kramsch chet tili ta’limini madaniyatlararo muloqot konteksti bilan bog‘lab, til o‘rganuvchining “uchinchi makon”da, ya’ni ona va o‘rganilayotgan til madaniyati kesishmasida faoliyat yuritishini asoslaydi [125].

Tillarni egallashning umumevropa kompetensiyalari (CEFR) kommunikativ til kompetensiyalarini lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik kompetensiyalar sifatida tasniflaydi, ularni esa bilimlar, ko‘nikmalar, shaxsiy munosabatlar va o‘rganish qobiliyatini qamrab oluvchi umumiy kompetensiyalar bilan bog‘laydi [11]. Hujjatning 2020-yildagi qo‘shimcha jildida retseptiya, produksiya va interaksiya faoliyatlariga mediatsiya qo‘shiladi, plyurilingval va plyurikultural kompetensiya deskriptorlari ishlab chiqiladi [12]. CEFRning tadqiqotimiz uchun ahamiyati uning darajaviy shkalasidadir. Bizningcha, iqtisodiy-kasbiy muloqot vaziyatlarini CEFR darajalari bilan quyidagicha bog‘lash maqsadga muvofiq: B1 darajasida talaba telefon orqali oddiy kasbiy so‘rovni bajara oladi, standart biznes xatni yoza oladi va tanish mavzudagi grafik ma’lumotni sodda tilda tavsiflaydi; B2 darajasida u yig‘ilishda faol ishtirok etadi, “The figures levelled off in the third quarter” (uchinchi chorakda ko‘rsatkichlar barqarorlashdi) kabi tendensiyalarni izohlab taqdimot qiladi, hisobot tuzadi; C1 darajasida esa murakkab muzokarani olib boradi, nozik ma’no farqlarini ifodalaydi va moliyaviy tahliliy matnlarni erkin talqin etadi. Mediatsiya faoliyati esa iqtisodiyot mutaxassisi uchun ayniqsa dolzarb: ingliz tilidagi moliyaviy hisobot mazmunini o‘zbek tilida hamkasbga yetkazish yoki aksincha holat kasbiy amaliyotda doimiy uchraydi.

Business English bo‘yicha xalqaro imtihonlarning talablari ham kasbiy muloqot kompetensiyasining tarkibini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Cambridge Business Certificates turkumi xalqaro biznes va ish muhiti uchun ingliz tilini bosqichma-bosqich rivojlantirishga mo‘ljallangan uch malakadan iborat: B1 Business Preliminary, B2 Business Vantage va C1 Business Higher [232]; bunda B2 Business Vantage imtihoni mazmuni kundalik ish va biznes vazifalarini aks ettiradi [232]. Linguaskill testining Business varianti umumiy variantdan farqli ravishda ish joyida qo‘llanadigan tilga ko‘proq e’tibor qaratadi va to‘rt nutq faoliyatini alohida modullar shaklida baholaydi

[234]. TOEIC Listening and Reading testi esa izoh va ko‘rsatmalarni tushunish, ommaviy chiqish va e’lonlarni tinglash, ish joyidagi suhbatlarni tushunish qobiliyatini baholaydi, test savollari real ish vaziyatlariga asoslanadi [235]. Bizningcha, uchala imtihonning umumiy jihati shundaki, ularda kompetensiya alohida til birliklarini bilish orqali emas, balki kasbiy topshiriqni bajarish (hisobotni o‘qish, yig‘ilishni tinglab tushunish, biznes xat yozish, taqdimot qilish) orqali o‘lchanadi. Bu esa iqtisodiy terminlarni muloqot vaziyati ichida, kasbiy vazifa bilan bog‘lab o‘rgatish zarurligini tasdiqlaydi. L.Louhiala-Salminen, M.Charles va A.Kankaanranta korporativ birlashuvlardagi muloqotni tahlil qilib, ishbilarmonlik ingliz tilida muloqotning muvaffaqiyati kasbiy soha bilimi, aniq terminologiya va muloqot strategiyalariga tayanishini aniqlaydi [37]. A.Kankaanranta va L.Louhiala-Salminen bu hodisani BELF (Business English as a Lingua Franca) tushunchasi bilan ifodalab, uning tarkibida soha bilimi, umumiy muloqot kompetensiyasi va ingliz tilini bilishni ajratadi [34].

MDH olimlarining ishlarida kommunikativ kompetensiya ko‘proq shaxs faoliyati va muloqot psixologiyasi nuqtai nazaridan talqin etiladi. Ye.I.Passov muloqotni chet til ta’limining ham maqsadi, ham vositasi sifatida ko‘radi, nutqiy vaziyatni o‘qitishni tashkil etish birligi deb hisoblaydi va kommunikativ kompetensiya shaxsning muloqot subyekti sifatida o‘zini namoyon etishiga, hamkorlikdagi munosabatlarni o‘rnatishiga xizmat qilishini ta’kidlaydi [215]. N.D.Galskova kommunikativ kompetensiyani shaxsning muhim maqsadlariga erishish uchun muloqot strategiyasini ongli tanlash natijasida shakllangan shaxslararo o‘zaro ta’sir tajribasini aks ettiruvchi integrativ sifat sifatida belgilaydi va uni o‘zaro bog‘liq subkompetensiyalar majmuasi deb hisoblaydi [190]. Ikki olim qarashidagi umumiy jihat kompetensiyaning subyektlararo tabiatini e’tirof etishdir; farqi esa Ye.I.Passov o‘qitish jarayonining tashkiliy birligiga (vaziyatga), N.D.Galskova esa shaxsning strategik tanlov qobiliyatiga urg‘u berishidadir. Bizningcha, ikkala qarash ham iqtisodiy muloqotni modellashtirishda qo‘llanadi: o‘quv jarayoni “taqdimot”, “muzokara”, “yig‘ilish”, “biznes yozishma”, “telefon orqali muloqot” kabi tipik kasbiy vaziyatlar asosida quriladi, har bir vaziyatda esa talaba maqsadga mos muloqot strategiyasini ongli ravishda tanlashga o‘rgatiladi. V.V.Safonova xalqaro muloqot tillarini madaniyatlar va sivilizatsiyalar muloqoti kontekstida o‘rganishni asoslab, kommunikativ kompetensiya tarkibiga ijtimoiy-madaniy komponentni kiritadi [217].

A.N.Shchukin kommunikativ kompetensiya tarkibida yettita kompetensiyani ajratadi: lingvistik, nutqiy, ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy (pragmatik), diskursiv, strategik (kompensator) va predmetli kompetensiya; oxirgisi muloqot mavzusi mazmuni bo‘yicha axborotga ega bo‘lishni anglatadi [225]. T.N.Shcherbakova ham kommunikativ kompetensiya tarkibiga til malakasi va pragmatik kompetensiya bilan bir qatorda fan kompetensiyasini kiritadi, u esa bayonning mazmuniy, denotativ rejasini qurish uchun javob beradi [71]. Ikki olimning qarashidagi muhim umumiylik

shundaki, ular muloqotning mazmuniy-predmetli asosini alohida komponent sifatida ajratadi. Bizningcha, iqtisodiyot yo‘nalishi uchun aynan shu komponent tizim hosil qiluvchi ahamiyatga ega, chunki iqtisodiy muloqotning predmeti iqtisodiy tushunchalar tizimi bo‘lib, bu tizim tilda terminlar orqali ifodalanadi. “Supply and demand” (talab va taklif), “inflation rate” (inflyatsiya darajasi), “cash flow” (pul oqimi), “balance sheet” (buxgalteriya balansi), “merger and acquisition” (qo‘shilish va yutib olish) kabi terminlarni bilish tushunchaviy mazmunni bilishdan ajralmas. Shu sababli tadqiqotimizda predmetli kompetensiya iqtisodiy-terminologik komponent sifatida qayta talqin etiladi va u muloqot kompetensiyasi tuzilmasining o‘zagi deb qaraladi. I.L.Bim chet tili o‘qitish metodikasini mustaqil fan sifatida asoslab, o‘quv mazmunini nutq faoliyati birliklari asosida tanlash zarurligini ta’kidlaydi [186]. A.N.Shchukin keyingi ishida bu kompetensiyalarni chet tili ta’limining maqsadi va natijasi sifatida tizimlashtiradi [226].

Iqtisodiyot yo‘nalishi talabalari misolida kommunikativ kompetensiyani maxsus tadqiq etgan N.Yu.Pavlova uning tarkibida lingvistik, nutqiy, ijtimoiy-madaniy, kompensator va o‘quv komponentlarini ajratadi, tuzilmasida esa kommunikativ bilimlar (muloqot jarayonining mazmuni, turlari, qonuniyatlari haqidagi bilimlar) va kommunikativ ko‘nikmalarni (og‘zaki va yozma xabarni adekvat tashkil etish, kommunikativ to‘siqlarni yengish) farqlaydi [214]. T.P.Popova esa kommunikativ kompetensiyani lingvistik, nutqiy va ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarga ajratish bilan birga, uni psixologik jihatdan hissiy-motivatsion, kognitiv va xulq-atvor komponentlari majmuasi sifatida ham tavsiflaydi [64]. Bu ikki talqin ilmiy adabiyotda kommunikativ kompetensiya tuzilmasini aniqlashning ikki yo‘nalishi mavjudligini ko‘rsatadi: lingvodidaktik yo‘nalish subkompetensiyalarni, psixologik yo‘nalish esa shaxs sifatlarining tarkibini ajratadi. Bizningcha, iqtisodiyot talabasining muloqot kompetensiyasi tuzilmasi ikkala yo‘nalishni uyg‘unlashtirishi lozim: lingvodidaktik yo‘nalishdan iqtisodiy-terminologik komponent, lingvopragmatik komponent va diskursiv-strategik komponent, psixologik yo‘nalishdan esa motivatsion-refleksiv komponent olinadi. N.Yu.Pavlova ajratgan o‘quv komponenti tadqiqotimizda motivatsion-refleksiv komponent tarkibida, ya’ni talabaning o‘z terminologik lug‘atini mustaqil boyitishi va o‘z nutqini baholashi shaklida aks ettiriladi.

O‘zbek ilmiy tadqiqotlarida “kommunikativ kompetensiya” va “muloqot kompetensiyasi” atamalari ko‘pincha sinonim sifatida qo‘llanadi. Biroq, bizningcha, ularni farqlash ilmiy jihatdan asosli. “Kommunikatsiya” atamasi ko‘proq axborotni uzatish va qabul qilish jarayonini, “muloqot” atamasi esa subyektlararo o‘zaro ta’sirni bildiradi va axborot almashinuvidan tashqari sheriklarni idrok etish, munosabat o‘rnatish va birgalikdagi harakatni tashkil etishni ham qamrab oladi. Iqtisodiy-kasbiy faoliyatda bu farq amaliy ahamiyat kasb etadi: muzokaradan oldingi qisqa suhbat (small talk), hamkor bilan ishonchli munosabat o‘rnatish, yig‘ilishda kelishilgan

qarorga erishish kabi jarayonlar faqat axborot almashinuvi bilan izohlanmaydi. Shu sababli tadqiqot mavzusida “muloqot kompetensiyasi” atamasi tanlangan va u kommunikativ kompetensiyaning barcha tarkibiy qismlarini qamrab olgan holda, ularni shaxslararo kasbiy o‘zaro ta’sir bilan boyitilgan kengroq tushuncha sifatida qo‘llanadi.

So‘nggi yillarda himoya qilingan milliy tadqiqotlarda ham kommunikativ va muloqot kompetensiyasining tuzilmasi va mazmuni turlicha talqin etiladi. U.G.Porsayev kommunikativ kompetensiya tarkibida lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik va strategik komponentlarni ajratadi: lingvistik komponentni grammatik va leksik bilimlarni milliy tafakkurga mos kontekstlarda qo‘llash, sotsiolingvistik komponentni o‘zbek madaniyatiga xos muloqot odatlarini (hurmat ifodalash, rasmiy va norasmiy uslub farqlari) hisobga olish, pragmatik komponentni kelishuv, taklif, e’tiroz va rad etish kabi maqsadga yo‘naltirilgan muloqot, strategik komponentni esa kommunikativ uzilishlarni sinonim va parafrazalar yordamida yengish sifatida izohlaydi [149]. M.U.Mavlanova muloqot kompetensiyasini og‘zaki va yozma shaklda fikr almashish, ta’sir o‘tkazish, axborotni tahlil qilish va tushunarli yetkazish qobiliyatlarini qamrab oluvchi, lingvistik bilim bilan bir qatorda ijtimoiy-madaniy, psixologik va strategik omillarga tayanuvchi kompetensiya sifatida ta’riflaydi hamda uni kasbiy diskursni o‘zlashtirish bilan uyg‘un holda rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi [136]. D.A.Usarova kommunikativ kompetensiyani boshqa shaxslar bilan zarur aloqalarni o‘rnatish va qo‘llab-quvvatlash imkonini beruvchi bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasi sifatida belgilaydi, u bevosita muloqot sharoitida, guruh va juftlikdagi muloqot tajribasi natijasida rivojlanishini qayd etadi va kasbiy sohaga oid terminologik tizimni bilish hamda xorijiy kasbiy terminologiyani tarjima qila olish mutaxassis tayyorgarligining zaruriy sharti ekanini asoslaydi [171]. M.B.Shodiyev esa kompetensiyani bir tizimga birlashtirilgan bilimlar, malakalar va shaxsiy sifatlarni kommunikativ xatti-harakat samaradorligi bilan bog‘liq holda safarbar qilishga oid integral qobiliyat sifatida ko‘radi va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishni ta’lim jarayonini kommunikativ, lingvomadaniy va axborot-texnologik komponentlar asosida yaxlit tizim sifatida tashkil etish bilan bog‘laydi [164]. To‘rt tadqiqotchining qarashlarini qiyoslaganda umumiy jihat shundaki, ularning barchasi kompetensiyani ko‘p komponentli va muloqot amaliyotida shakllanadigan hodisa sifatida ko‘radi. Farqli jihatlar esa U.G.Porsayevning milliy-madaniy kontekstga, M.U.Mavlanovaning kasbiy diskursga, D.A.Usarovaning terminologik tizimga, M.B.Shodiyevning esa integrativlikka urg‘u berishida namoyon bo‘ladi. Bizningcha, iqtisodiyot yo‘nalishi uchun ushbu qarashlar bir-birini to‘ldiradi. U.G.Porsayev ajratgan pragmatik va strategik komponentlar tadqiqotimizdagi lingvopragmatik komponent va diskursiv-strategik komponent mazmuniga bevosita mos keladi, D.A.Usarova ta’kidlagan kasbiy terminologiyani bilish zarurati iqtisodiy-terminologik komponentni ajratish g‘oyasini

qo‘llab-quvvatlaydi, M.U.Mavlanova ilgari surgan kasbiy diskurs g‘oyasi biznes yozishma, hisobot va taqdimot janrlarini egallash talabini, M.B.Shodiyev tavsiya etgan integrativlik esa komponentlarni alohida emas, yaxlit tizimda rivojlantirish tamoyilini asoslaydi. I.A.Saturova kasbiy-uslubiy malakalarni shakllantirishda amaliy mashg‘ulotlarning muloqotga yo‘naltirilgan mazmuni hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini asoslaydi [158].

Milliy olimlarning tadqiqotlarida chet tilidagi muloqot kompetensiyasining kasbiy va madaniy jihatlari alohida o‘rin egallaydi. G.T.Maxkamova tilni kasbiy darajada bilishni til tizimini qiyosiy-tipologik xususiyatlarini hisobga olgan holda chuqur bilish hamda nutqning turli kommunikativ-pragmatik registrlarida lingvistik va nolingvistik xatti-harakat strategiyasi va taktikasini egallash bilan bog‘laydi [61]. F.I.Ikromxonova nolisoniy oliy ta’lim muassasalarida kommunikativ-kognitiv yondashuv mohiyatini talabaning chet tilda nutqiy muloqot olib borishi va shu jarayonda yangi bilimlarni egallashi bilan izohlaydi [118]. M.X.Gulyamova ingliz tilini o‘qitishda talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishni integrativ yondashuv asosida tashkil etish zarurligini asoslaydi [111]. Bu qarashlarni qiyoslaganda umumiy jihat shundaki, uchala olim ham kommunikativ kompetensiyani til bilimi bilan cheklamay, uni bilish faoliyati, pragmatik strategiyalar va o‘quv jarayonining integratsiyasi bilan bog‘laydi. Bizningcha, F.I.Ikromxonova talqinidagi “muloqot orqali bilim egallash” g‘oyasi iqtisodiyot yo‘nalishi uchun ayniqsa samarali: talaba “quantitative easing” (miqdoriy yumshatish) terminini o‘zlashtirar ekan, bir vaqtning o‘zida pul-kredit siyosati mexanizmi haqidagi kasbiy bilimni ham kengaytiradi. G.T.Maxkamova ta’kidlagan registrlar farqi esa lingvopragmatik komponent mazmunini, M.X.Gulyamova ilgari surgan integrativlik g‘oyasi esa komponentlarning o‘zaro bog‘liqligini asoslashda tayanch bo‘ladi. Sh.A.Atadjanova chet til ta’limida talabalarning kasbiy malakasini shakllantirishni kasbiy vaziyatga yaqinlashtirilgan topshiriqlar orqali amalga oshirish zarurligini ko‘rsatadi [16]. G.O.Maqsudova talabalarning chet til tayyorgarligini integrativ rivojlantiruvchi yondashuv asosida takomillashtirib, til bilimi va kommunikativ faoliyatning uyg‘unligini asosiy shart sifatida belgilaydi [134].

F.M.Rashidova chet tilini ijobiy biznes muhitini yaratish, iqtisodiy va diplomatik hamkorlik uchun kommunikatsiya o‘rnatish vositasi sifatida baholaydi va uzluksiz ta’lim tizimida CEFRni joriy etishning konseptual-metodik asoslarini ishlab chiqadi [151]. K.J.Riskulova sotsiolingvistik kompetensiyani til shakllarini kommunikativ vaziyatga muvofiq tanlash, qo‘llash va o‘zgartira olish, til egalari uchun tabiiy bo‘lgan muomala me’yorlariga rioya qilish qobiliyati sifatida tavsiflaydi [155]. A.T.Nurmanov kommunikativ kompetensiyani samarali muloqotning yetakchi omili, muloqot subyektlari o‘rtasida o‘zaro tushunishga erishish va vaziyatga mos aloqa usullarini qo‘llash natijasi sifatida ko‘radi [43]. Bizningcha, F.M.Rashidova qarashi chet tilni

iqtisodiy hamkorlik vositasi sifatida e’tirof etish orqali tadqiqotimizning ijtimoiy-iqtisodiy zaruratini, K.J.Riskulova talqini muloqotning me’yoriy-vaziyatli jihatini, A.T.Nurmanov qarashi esa muloqot natijasini o‘zaro tushunish va kelishuv bilan o‘lchash imkonini beradi. Iqtisodiy muloqotda o‘zaro tushunish ko‘pincha terminlar ma’nosining bir xil talqin qilinishiga bog‘liq: “revenue” (tushum) va “profit” (foyda), “turnover” (aylanma) va “income” (daromad) terminlarining farqlanmasligi muzokara yoki hisobot muhokamasida jiddiy kelishmovchilikka olib keladi. Demak, iqtisodiy-terminologik komponent faqat leksik bilim emas, balki muloqotda o‘zaro tushunishning kafolati hamdir.

Kasbiy muloqot kompetensiyasining xususiyatlarini aniqlashda kasbga yo‘naltirilgan ingliz tili (ESP) nazariyasi muhim manba hisoblanadi. T.Hutchinson va A.Waters ESPni mahsulot emas, balki yondashuv sifatida ta’riflaydi: unda o‘qitish mazmuni va metodlariga oid barcha qarorlar o‘quvchining tilni o‘rganish sabablaridan kelib chiqadi; olimlar ehtiyojlar tahlilida maqsadli ehtiyojlarni (zaruriyatlar, yetishmovchiliklar, xohishlar) va o‘quv ehtiyojlarini farqlaydi [116]. T.Dudley-Evans va M.J.St John ESPning mutlaq va o‘zgaruvchan xususiyatlarini ajratib, biznes maqsadlari uchun ingliz tilini (EBP) umumiy biznes ingliz tili va maxsus biznes ingliz tiliga bo‘ladi, biznes muloqotini esa til, muloqot ko‘nikmalari va kasbiy mazmunning o‘zaro ta’siri sifatida tavsiflaydi [104]. H.Basturkmen ESP kursini loyihalashda maqsadli ish joyi diskursi va janrlarini tahlil qilish, kurs fokusini tor yoki keng tanlash masalasini markaziy deb hisoblaydi [84]. M.Ellis va C.Johnson biznes ingliz tilining o‘ziga xos belgilari sifatida maqsadga yo‘naltirilganlik (natijaga, masalan, kelishuvga erishish), ijtimoiy jihatlar (xalqaro muloqotning rasmiylashgan qoidalari) va aniq muloqot (tushunmovchilikning oldini olish) xususiyatlarini ajratadi hamda o‘quvchilarni ish tajribasiga ega bo‘lmaganlar, kam tajribaga egalar va tajribali mutaxassislarga ajratadi [106]. L.Entoni ESP ni maqsadli guruhning kasbiy ehtiyojlariga mos o‘quv mazmuni, metodlar va baholashni loyihalash yondashuvi sifatida ta’riflaydi [76].

ESP nazariyotchilarining qarashlarini qiyoslaganda quyidagi umumiylik ko‘zga tashlanadi: barcha mualliflar kasbiy muloqot kompetensiyasini o‘quvchining maqsadli kasbiy faoliyati ehtiyojlaridan kelib chiqib belgilaydi va til birliklarini kasbiy janr hamda vaziyat ichida o‘rgatishni talab qiladi. Farqli jihatlar shundan iboratki, T.Hutchinson va A.Waters o‘quvchining ehtiyojlariga, T.Dudley-Evans va M.J.St John kasbiy mazmun bilan til integratsiyasiga, H.Basturkmen diskurs va janrlarga, M.Ellis va C.Johnson esa biznes muloqotining pragmatik va ijtimoiy tabiatiga ko‘proq e’tibor qaratadi. Bizningcha, bakalavriat bosqichidagi iqtisodiyot talabalari M.Ellis va C.Johnson tasnifidagi ish tajribasiga ega bo‘lmagan o‘quvchilar guruhiga mansub. Bu ularning kasbiy muloqot vaziyatlari haqidagi tasavvuri asosan o‘quv jarayonida yaratilishini anglatadi. Shu sababli iqtisodiy terminlar ta’limi kasbiy vaziyatlarni

simulyatsiya qilish (biznes-o‘yin, keys, rolli muzokara) bilan uyg‘unlashtirilishi lozim. T.Dudley-Evans va M.J.St John ta’kidlagan kasbiy mazmun esa iqtisodiyot yo‘nalishida terminlar orqali voqelanadi: termin ayni paytda til birligi ham, kasbiy tushuncha ham bo‘lgani uchun u til va kasbiy mazmun integratsiyasining tabiiy nuqtasi hisoblanadi. K.Geytxaus ESP o‘quv dasturini ishlab chiqishda soha tili, umumiy til va ish joyiga xos muloqot ko‘nikmalarini birgalikda rejalashtirish talabini qo‘yadi [29].

Yuqoridagi tahlil asosida iqtisodiyot yo‘nalishi talabasining ingliz tilidagi muloqot kompetensiyasiga xos quyidagi xususiyatlar ajratiladi. Birinchidan, terminologik-tushunchaviy xususiyat: iqtisodiy termin tushunchalar tizimining tuguni bo‘lib, “inflation” (inflyatsiya) termini “inflation rate” (inflyatsiya darajasi), “consumer price index” (iste’mol narxlari indeksi), “deflation” (deflyatsiya), “stagflation” (stagflyatsiya) kabi terminlar bilan tizimli bog‘lanadi, ularni alohida emas, tizimda o‘rgatish talab etiladi. Ikkinchidan, polisemiya xususiyati: umumiy va iqtisodiy ma’noni farqlash zarur bo‘lgan “interest” (qiziqish – foiz), “share” (ulush – aksiya), “security” (xavfsizlik – qimmatli qog‘oz), “bond” (rishta – obligatsiya), “capital” (poytaxt – kapital) kabi so‘zlar kasbiy muloqotda tushunmovchilik manbai bo‘ladi. Uchinchidan, kollokatsion xususiyat: iqtisodiy terminlar barqaror birikmalar tarkibida qo‘llanadi (“to raise capital” – kapital jalb qilmoq, “to cut costs” – xarajatlarni qisqartirmoq, “to go public” – aksiyalarni ommaviy savdoga chiqarmoq), shu bois terminni birikmalarsiz bilish muloqotda uni qo‘llashga yetarli emas. To‘rtinchidan, raqamli-grafik diskurs xususiyati: iqtisodiy muloqotda grafik va jadvallarni og‘zaki tavsiflash (“rose sharply”, “levelled off”, “peaked”, “fell slightly”) doimiy talab etiladi. Beshinchidan, janr xususiyati: hisobot, memorandum, investorlar uchun taqdimot (pitch), tijorat taklifi kabi janrlarning tuzilmasi va til vositalari qat’iy me’yorlangan. Oltinchidan, madaniyatlararo-me’yoriy xususiyat: xalqaro biznes muloqoti xushmuomalalik, yumshatish va rasmiylik me’yorlari bilan tartibga solinadi.

Tahlil qilingan ta’riflarni tizimlashtirish va har birining tadqiqotimiz uchun ahamiyatini aniqlash maqsadida ular 1.1-jadvalda qiyosiy tarzda keltiriladi.

1.1-jadval

“Kompetensiya”, “kommunikativ kompetensiya”, “muloqot kompetensiyasi” va “kasbiy muloqot kompetensiyasi” tushunchalari ta’riflarining qiyosiy tahlili

Muallif	Ta’rifning mazmuni	Asosiy belgi	Tadqiqotimiz uchun ahamiyati
N.Chomsky [94]	Kompetensiya – ideal so‘zlovchi-tinglovchining til tizimi haqidagi yashirin bilimi, nutqiy ijrodan farqlanadi	Til tizimini bilish	Iqtisodiy terminlarning grammatik-leksik asosini belgilaydi
D.Hymes [32]	Kommunikativ kompetensiya – ifodaning mumkinligi,	Vaziyatga moslik	Terminni kasbiy registrga mos qo‘llash talabini asoslaydi

	amalga oshirilishi, kontekstga mosligi va qo‘llanishi haqidagi bilim va qobiliyat		
M.Canale, M.Swain [24], M.Canale [23]	Grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik kompetensiyalar majmuasi	Ko‘p komponentlilik	Terminologik bo‘shliqni parafraza orqali yengish strategiyalarini asoslaydi
S.Savignon [159]	Ishtirokchilar hamkorligida ma’no kelishiladigan nisbiy va dinamik kompetensiya	Interaktivlik	Muzokarada termin ma’nosini aniqlashtirish ko‘nikmasini asoslaydi
L.Bachman [81]	Tashkiliy va pragmatik kompetensiyalardan iborat til kompetensiyasi hamda strategik kompetensiya	Pragmatik bilimning ajratilishi	Baholash mezonlarini ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi
M.Celce-Murcia, Z.Dörnyei, S.Thurrell [25]	Diskursiv kompetensiya markazda joylashgan besh komponentli model, harakat kompetensiyasi ajratiladi	Nutqiy aktlarni egallash	Taklif, e’tiroz, qarshi taklif kabi biznes funksiyalarini asoslaydi
M.Byram [92]	Lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv va madaniyatlararo kompetensiyalar birligi	Madaniyatlararo jihat	Xalqaro biznes muloqoti me’yorlarini egallashni asoslaydi
CEFR [11; 12]	Lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik kompetensiyalar, mediatsiya faoliyati	Darajaviy shkala	B1–B2–C1 darajalari bo‘yicha kutilgan natijalarni belgilaydi
A.V.Xutorskoy [69]	Kompetensiya – oldindan belgilangan ijtimoiy talab, kompetentlik – egallangan sifat	Me’yoriy talab	Kompetensiya mazmunini DTS va CEFR talablari bilan bog‘laydi
I.A.Zimnyaya [56]	Bilim, harakat dasturlari va qadriyatlardan iborat ichki potensial	Qadriyat va motivatsiya	Motivatsion-refleksiv komponentni asoslaydi
N.D.Galskova [190]	Muloqot strategiyasini ongli tanlash natijasida shakllangan integrativ shaxsiy sifat	Strategik tanlov	Vaziyatga mos strategiya tanlashga o‘rgatishni asoslaydi
A.N.Shchukin [225], T.N.Shcherbakova [71]	Tarkibida predmetli (fan) kompetensiya mavjud bo‘lgan ko‘p komponentli tuzilma	Mazmuniy-predmetli asos	Iqtisodiy-terminologik komponentni tizim hosil qiluvchi o‘zak sifatida asoslaydi

N.Yu.Pavlova [214]	Lingvistik, nutqiy, ijtimoiy-madaniy, kompensator va o‘quv komponentlari	Iqtisodiyot talabasiga xoslik	Komponentlar tuzilmasini iqtisodiy ta’lim sharoitiga moslashtiradi
G.T.Maxkamova [61]	Kommunikativ-pragmatik registrlarda xatti-harakat strategiyasi va taktikasini egallash	Registr va strategiya	Lingvopragmatik komponent mazmunini aniqlashtiradi
U.G.Porsayev [149], D.A.Usarova [171]	Lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik va strategik komponentlar; kasbiy terminologik tizimni bilish	Komponentlilik va terminologik asos	Lingvopragmatik, diskursiv-strategik va iqtisodiy-terminologik komponentlarni asoslaydi
K.J.Riskulova [155]	Til shakllarini vaziyatga muvofiq tanlash va o‘zgartirish qobiliyati	Me’yoriy-vaziyatli moslik	Biznes muloqotidagi rasmiylik darajalarini asoslaydi
A.T.Nurmanov [43]	Samarali muloqotning yetakchi omili, o‘zaro tushunishga erishish natijasi	Natijaviylik	Muloqot samarasini kelishuv bilan o‘lchash imkonini beradi
T.Hutchinson, A.Waters [116]	ESP – o‘quvchining til o‘rganish sabablaridan kelib chiquvchi yondashuv	Ehtiyojga yo‘naltirilganlik	Iqtisodiy terminologik minimumni ehtiyojlar tahlili asosida tanlashni asoslaydi
M.Ellis, C.Johnson [106]	Biznes ingliz tili – maqsadga yo‘naltirilgan, ijtimoiy me’yorlangan, aniq muloqot	Kasbiy natija	Ish tajribasiz talabalar uchun vaziyatlarni simulyatsiya qilish zaruratini asoslaydi

1.1-jadval ma’lumotlari ko‘rsatadiki, tushunchaning talqini tarixan uch bosqichda kengayib boradi: til tizimini bilishdan (N.Chomsky) vaziyatga mos qo‘llashga (D.Hymes, M.Canale, M.Swain, L.Bachman), undan esa madaniyatlararo va kasbiy-predmetli muloqotga (M.Byram, A.N.Shchukin, ESP nazariyotchilari). Bizningcha, iqtisodiyot talabasining ingliz tilidagi muloqot kompetensiyasi ushbu uch bosqich natijalarini birlashtiradi va unga yangi sifat beruvchi omil iqtisodiy terminlardir: ular til birligi, kasbiy tushuncha va muloqot vositasi funksiyalarini bir vaqtda bajaradi. Shu asosda tadqiqotimizda iqtisodiyot yo‘nalishi talabalarining ingliz tilidagi muloqot kompetensiyasi beshta o‘zaro bog‘liq komponentdan iborat tuzilma sifatida asoslanadi.

Motivatsion-refleksiv komponent talabaning ingliz tilida kasbiy muloqotga ichki ehtiyoji, iqtisodiy terminologiyani egallashning kasbiy ahamiyatini anglashi, o‘z nutqiy faoliyatini nazorat qilish va baholash qobiliyatini qamrab oladi. Uning nazariy asosini I.A.Zimnyaya ta’kidlagan qadriyat-motivatsion tarkib [56] hamda T.P.Popova ajratgan hissiy-motivatsion komponent [64] tashkil etadi. Iqtisodiyot talabasi uchun motivatsiya bevosita kasbiy istiqbol bilan bog‘lanadi: xalqaro kompaniyada ishlash,

xorijiy magistraturada o‘qish, Business English sertifikatini olish. Refleksiv jihat esa talabaning o‘z terminologik lug‘atidagi bo‘shliqlarni aniqlashi, muloqotdagi xatolarini tahlil qilishi va mustaqil o‘rganish yo‘nalishini belgilashida namoyon bo‘ladi. A.A.Musayeva refleksiv kompetensiyani o‘z faoliyatini tahlil qilish, baholash va tuzatish qobiliyati sifatida talqin etib, uni o‘quv-kasbiy faoliyat samaradorligining ichki sharti deb biladi [141].

Iqtisodiy-terminologik komponent ingliz tilidagi iqtisodiy terminlarni tushunchaviy mazmuni, tizimli aloqalari, kollokatsion birikmalari va o‘zbek tilidagi muqobillari bilan birga egallashni anglatadi. Uning nazariy asosini A.N.Shchukinning predmetli kompetensiyasi [225] va T.N.Shcherbakovaning fan kompetensiyasi [71] haqidagi qarashlari, shuningdek T.Dudley-Evans va M.J.St John ta’kidlagan kasbiy mazmun va til integratsiyasi g‘oyasi [104] tashkil etadi. Bu komponent tuzilmada tizim hosil qiluvchi o‘rin egallaydi: talaba “balance sheet” (buxgalteriya balansi) terminining “assets” (aktivlar), “liabilities” (majburiyatlar), “equity” (xususiy kapital) terminlari bilan bog‘liqligini bilmay turib, hisobot taqdimotini ham, auditor bilan muloqotni ham amalga oshira olmaydi. Iqtisodiy-terminologik komponent faqat retseptiv bilim bilan cheklanmaydi: u terminni kasbiy nutqda faol va aniq qo‘llash, polisemantik so‘zlarning iqtisodiy ma’nosini kontekstdan ajrata olishni ham qamrab oladi.

Lingvopragmatik komponent iqtisodiy terminlar va boshqa til vositalarini muloqot maqsadi, vaziyati, sherikning maqomi va kasbiy registrga mos tanlash, kasbiy nutqiy aktlarni (taklif, e’tiroz, kelishuv, rad etish, iltimos, ishontirish) amalga oshirish qobiliyatini anglatadi. U D.Hymesning kontekstga moslik parametri [32], L.Bachmanning pragmatik kompetensiyasi [81], M.Celce-Murcia va hammualliflarining harakat kompetensiyasi [25], G.T.Maxkamova ta’kidlagan registrlar [61] va K.J.Riskulovaning sotsiolingvistik kompetensiya talqini [155] asosida shakllantiriladi. Masalan, bitta “price increase” (narx oshishi) haqidagi xabar ichki yig‘ilishda “We’re putting prices up next month” shaklida, mijozga yozilgan rasmiy xatda esa “Please be advised that our prices will be adjusted with effect from next month” shaklida ifodalanadi; lingvopragmatik komponent aynan shu tanlovni ta’minlaydi. P.Braun va S.Levinson xushmuomalalik nazariyasida suhbatdoshning “yuzi”ni saqlashga qaratilgan strategiyalarni ajratadi; bu strategiyalar muzokara va yozishmadagi yumshatilgan rad javobining nazariy asosidir [90].

Diskursiv-strategik komponent iqtisodiy mazmundagi yaxlit og‘zaki va yozma matnlarni (taqdimot, hisobot, biznes xat, yig‘ilish bayonnomasi) qurish va tushunish, muloqotni boshlash, davom ettirish va yakunlash, terminologik yoki boshqa sabablarga ko‘ra yuzaga kelgan uzilishlarni kompensator strategiyalar orqali bartaraf etish qobiliyatini qamrab oladi. Uning nazariy asosini M.Canale va M.Swainning strategik kompetensiyasi [24], M.Canalening diskursiv kompetensiyasi [23], N.Yu.Pavlovaning kompensator komponenti [214] va H.Basturkmenning janr va diskurs tahlili haqidagi

qarashlari [84] tashkil etadi. Telefon orqali muloqotda “Could you put me through to the accounts department?” (meni buxgalteriya bo‘limiga ulay olasizmi?) iborasi bilan boshlangan suhbatni mantiqiy yakunlash, eshitilmagan raqamni “Sorry, did you say fifteen or fifty?” savoli bilan aniqlashtirish, taqdimotda “Let me now turn to the cash flow statement” (endi pul oqimlari hisobotiga o‘tsam) kabi o‘tish iboralari orqali matnni bog‘lash diskursiv-strategik komponent namoyon bo‘lishining tipik misollaridir.

Madaniyatlararo-kasbiy komponent xalqaro biznes muloqotining madaniy me’yorlarini (muzokara uslublari, rasmiylik darajasi, vaqtga munosabat, biznes etiketi, yozishma an’analari) bilish va ularni hisobga olgan holda muloqot olib borish qobiliyatini anglatadi. U M.Byramning madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya modeli [92], CEFRning plyurikultural kompetensiya deskriptorlari [12] va M.Ellis hamda C.Johnson ta’kidlagan biznes muloqotining ijtimoiy jihatlari [106] asosida asoslanadi. Madaniyatlararo-kasbiy komponent talabaning “We’ll get back to you” (sizga keyinroq javob beramiz) kabi ifodalar ortidagi pragmatik ma’noni, yumshatilgan rad javobini, muzokara oldidan qisqa suhbatning munosabat o‘rnatishdagi rolini anglashida namoyon bo‘ladi. G.O.Maqsudova madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani global muloqotga tayyor shaxsni tarbiyalashning zaruriy sharti sifatida talqin etadi [39]. G.Hofstede madaniyat o‘lchovlari nazariyasida ishbilarmonlik muloqotidagi farqlarni hokimiyat masofasi, individualizm va noaniqlikdan qochish kabi o‘lchovlar bilan izohlaydi [113].

Ajratilgan komponentlarning o‘zaro bog‘liqligi va tuzilmadagi o‘rni 1.1-rasmda sxematik tarzda ifodalanadi. Sxemaning markazida tizim hosil qiluvchi o‘zak sifatida iqtisodiy-terminologik komponent joylashadi. Uning atrofida operatsional vazifani bajaruvchi lingvopragmatik komponent va diskursiv-strategik komponent hamda kontekstual vazifani bajaruvchi madaniyatlararo-kasbiy komponent joylashadi. Barcha komponentlarni tartibga soluvchi va harakatga keltiruvchi motivatsion-refleksiv komponent sxemaning tashqi doirasini tashkil etadi. Sxemaning yuqori qismida maqsad (xalqaro iqtisodiy muloqotga tayyor mutaxassis), pastki qismida esa komponentlar namoyon bo‘ladigan kasbiy muloqot vaziyatlari (taqdimot, muzokara, yig‘ilish, biznes yozishma, telefon orqali muloqot) va ularga mos CEFR darajalari (B1–B2–C1) ko‘rsatiladi. Komponentlar orasidagi ikki tomonlama strelkalar ularning bir-birini taqozo etishini anglatadi.

INGLIZ TILIDAGI IQTISODIY-KASBIY MULOQOTGA TAYYOR MUTAXASSIS
Tashqi doira: MOTIVATSION-REFLEKSIV KOMPONENT (kasbiy motivatsiya, o‘z nutqini nazorat qilish va baholash, mustaqil terminologik o‘sish)
LINGVOPRAGMATIK KOMPONENT (registr, nutqiy aktlar, vaziyatga moslik) □ DISKURSIV-STRATEGIK KOMPONENT (janr, matn yaxlitligi, kompensator strategiyalar)
Markaz: IQTISODIY-TERMINOLOGIK KOMPONENT

(termin – tushuncha – kollokatsiya – o‘zbekcha muqobil)
MADANIYATLARARO-KASBIY KOMPONENT (biznes etiketi, muzokara uslublari, yozishma an’analari)
Namoyon bo‘lish sohasi: taqdimot · muzokara · yig‘ilish · biznes yozishma · telefon orqali muloqot
CEFR darajalari: B1 – B2 – C1

1.1-rasm. Iqtisodiyot yo‘nalishi talabalarining ingliz tilidagi muloqot kompetensiyasi tarkibiy tuzilmasi

Komponentlarning o‘zaro bog‘liqligini muzokara vaziyati misolida ko‘rsatish mumkin. Talaba yetkazib beruvchi bilan narx bo‘yicha muzokara olib borar ekan, avvalo “unit price” (birlik narxi), “volume discount” (hajm uchun chegirma), “payment terms” (to‘lov shartlari), “letter of credit” (akkreditiv) terminlarini tushunishi va qo‘llashi kerak; bu iqtisodiy-terminologik komponent faoliyatidir. Taklifni rasmiy va yumshatilgan shaklda ifodalash, sherik e’tiroziga muloyim javob qaytarish lingvopragmatik komponent bilan, muzokarani bosqichlarga ajratish, kelishuvni umumlashtirish va noma’lum terminni aniqlashtirish diskursiv-strategik komponent bilan ta’minlanadi. Sherikning muloqot uslubini hisobga olish, uning bilvosita rad javobini to‘g‘ri talqin qilish madaniyatlararo-kasbiy komponentga tayanadi. Muzokaradan so‘ng o‘z ishtirokini tahlil qilib, qaysi terminlar yoki iboralar yetishmaganini aniqlash esa motivatsion-refleksiv komponent vazifasidir. Bizningcha, birorta komponentning yetarli darajada shakllanmagani butun muloqot kompetensiyasining samarasini pasaytiradi: terminni bilgan, biroq uni vaziyatga mos qo‘llay olmagan talaba ham, pragmatik jihatdan to‘g‘ri gapirgan, biroq terminni noaniq qo‘llagan talaba ham kasbiy vazifani to‘liq hal eta olmaydi. Shu sababli metodik tizimda iqtisodiy-terminologik komponent alohida emas, balki lingvopragmatik, diskursiv-strategik va madaniyatlararo-kasbiy komponentlar bilan birgalikda, kasbiy muloqot vaziyati ichida rivojlantiriladi.

Komponentlarning shakllanish darajasi CEFR shkalasi bilan bog‘lanadi. B1 darajasida iqtisodiy-terminologik komponent asosiy iqtisodiy tushunchalarni ifodalovchi tayanch terminlar bilan, lingvopragmatik komponent standart kasbiy ifodalar bilan, diskursiv-strategik komponent oddiy biznes xat va telefon suhbati tuzilmasi bilan cheklanadi. B2 darajasida talaba terminlarni tizimli bog‘lanishlarida qo‘llaydi, yig‘ilish va taqdimotda registrni o‘zgartira oladi, hisobot va taqdimotni yaxlit tuzadi, madaniyatlararo-kasbiy komponent esa asosiy biznes etiketi me’yorlarini anglash darajasiga yetadi. C1 darajasida talaba murakkab muzokarada nozik ma’no farqlarini ifodalaydi, polisemantik terminlarni kontekstdan erkin ajratadi, mediatsiya faoliyatida ingliz tilidagi moliyaviy matn mazmunini o‘zbek tilida aniq yetkazadi, motivatsion-refleksiv komponent esa uning o‘z muloqot faoliyatini tanqidiy baholashi

va mustaqil kasbiy-til rivojlanishi yo‘nalishini belgilashida namoyon bo‘ladi. Bunday bog‘lash keyingi boblarda mezonlar va ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi.

O‘tkazilgan terminologik tahlil va komponentlar tuzilmasi asosida tadqiqot uchun quyidagi ishchi ta’rif taklif etiladi: iqtisodiyot yo‘nalishi talabalarining ingliz tilidagi muloqot kompetensiyasi – kasbiy muloqot kompetensiyasining xususiy turi bo‘lib, talabaning ingliz tilidagi iqtisodiy terminlar tizimini tushunchaviy mazmuni bilan egallaganligiga tayangan holda taqdimot, muzokara, yig‘ilish, biznes yozishma va telefon orqali muloqot vaziyatlarida kasbiy vazifalarni CEFRning B1–B2–C1 darajalariga muvofiq hal etish qobiliyati va tayyorligida namoyon bo‘ladigan, motivatsion-refleksiv, iqtisodiy-terminologik, lingvopragmatik, diskursiv-strategik va madaniyatlararo-kasbiy komponentlarning integrativ birligidan iborat shaxsiy-kasbiy sifatdir.

Ishchi ta’rifning mantiqiy tuzilmasi jins va tur belgilari asosida quriladi. Umumiy (jins) belgi sifatida “integrativ shaxsiy-kasbiy sifat” tanlanadi: bu belgi ta’rifni kompetensiya haqidagi umumpedagogik talqinlar (I.A.Zimnyaya, A.V.Xutorskoy, N.D.Galskova) bilan bog‘laydi va muloqot kompetensiyasini alohida bilim yoki ko‘nikmaga emas, balki ularning yaxlit birligiga tenglashtiradi. Xos (tur) belgilar esa quyidagilardan iborat. Birinchi xos belgi – kasbiy muloqot kompetensiyasining xususiy turi ekanligi; u tushunchani umumiy kommunikativ kompetensiyadan ajratadi. Ikkinchi xos belgi – iqtisodiy terminlar tizimiga tayanishi; u tushunchani boshqa yo‘nalishlardagi kasbiy muloqot kompetensiyalaridan farqlaydi va iqtisodiy-terminologik komponentning tizim hosil qiluvchi o‘rnini qayd etadi. Uchinchi xos belgi – namoyon bo‘lish sohasining aniq kasbiy vaziyatlar (taqdimot, muzokara, yig‘ilish, biznes yozishma, telefon orqali muloqot) bilan chegaralanishi; u kompetensiyaning faoliyatli tabiatini ifodalaydi. To‘rtinchi xos belgi – CEFR darajalariga muvofiqlik; u kompetensiyani o‘lchanadigan va bosqichma-bosqich rivojlantiriladigan hodisa sifatida belgilaydi. Beshinchi xos belgi – besh komponentli tuzilma; u tushunchaning ichki tarkibini va keyingi boblarda ishlab chiqiladigan model bloklari hamda mezonlarning mazmuniy asosini belgilaydi. Mazkur ta’rif ilgari mavjud talqinlardan iqtisodiy terminlarni muloqot kompetensiyasining tizim hosil qiluvchi asosi sifatida belgilashi va kompetensiya tarkibini xalqaro iqtisodiy muloqot vaziyatlari bilan bevosita bog‘lashi bilan farqlanadi.

Paragraf yuzasidan quyidagi umumlashma chiqariladi. “Kompetensiya” faoliyatda namoyon bo‘ladigan integrativ sifat, “kommunikativ kompetensiya” esa uning til va muloqot sohasidagi ko‘rinishi bo‘lib ko‘p komponentli, vaziyatga bog‘liq va darajaviy hodisadir. “Muloqot kompetensiyasi” atamasi subyektlararo o‘zaro ta’sirni qamrab olgani uchun iqtisodiy-kasbiy faoliyatga ko‘proq mos keladi. ESP nazariyasi va Business English imtihonlari kompetensiyani maqsadli ehtiyojlar, janrlar

va real ish vaziyatlari orqali belgilashni talab qiladi. Iqtisodiyot talabasining ingliz tilidagi muloqot kompetensiyasi motivatsion-refleksiv, iqtisodiy-terminologik, lingvopragmatik, diskursiv-strategik va madaniyatlararo-kasbiy komponentlardan iborat bo‘lib, iqtisodiy-terminologik komponent tizim hosil qiluvchi o‘zakdir.

1.2-§. Ingliz tilidagi iqtisodiy terminologiyaning kasbiy muloqot vositasi sifatidagi lingvistik va lingvodidaktik xususiyatlari

Iqtisodiyot yo‘nalishi talabalarining ingliz tilidagi muloqot kompetensiyasi 1.1-§ da kasbiy vaziyatlarda iqtisodiy tushunchalar vositasida axborot almashish, sherikka ta’sir ko‘rsatish va hamkorlikda qaror qabul qilish layoqati sifatida talqin etildi hamda uning tarkibida lingvistik, diskursiv, pragmatik, sotsiolingvistik va strategik komponentlar ajratildi. Mazkur ta’rifdan kelib chiqadigan bo‘lsak, kasbiy muloqotning mazmuniy o‘zagini iqtisodiy terminlar tashkil etadi: muzokara, taqdimot, biznes yozishma yoki yig‘ilishdagi har qanday nutqiy harakat muayyan iqtisodiy tushunchani nomlash, aniqlashtirish, qiyoslash va baholash orqali amalga oshadi. Shu bois ushbu paragrafda ingliz tilidagi iqtisodiy terminologiya ikki jihatdan tahlil qilinadi: lingvistik jihatdan – termin, terminologiya va terminosistemaning tabiati, terminlarning tuzilishi, semantikasi va ingliz-o‘zbek qiyosidagi xususiyatlari; lingvodidaktik jihatdan – termin kasbiy muloqot birligi sifatida qanday o‘zlashtirilishi, terminologik minimum qanday tanlanishi va terminologik ish muloqot kompetensiyasi komponentlari bilan qanday bog‘lanishi.

Terminshunoslikning nazariy asoslari MDH tilshunosligida izchil ishlab chiqilgan bo‘lib, “termin” tushunchasining zamonaviy talqinlari ham shu maktab qarashlariga tayanadi. A.A.Reformatskiy terminni tilning umumiy leksikasidan ajralib turuvchi, maxsus tushunchani ifodalashga xizmat qiluvchi, aniqlikka va bir ma’nolilikka intiluvchi hamda ifodaviylikdan xoli bo‘lgan so‘z sifatida tavsiflaydi; olimning muhim xulosasi shundaki, termin muayyan terminologiya tarkibidagina termin maqomiga ega bo‘ladi, undan tashqarida esa oddiy so‘zga aylanishi mumkin [65]. D.S.Lotte esa termin va terminologiyaga qo‘yiladigan me’yoriy talablarni – tizimlilik, bir ma’nolilik, sinonimiyaning yo‘qligi, qisqalik va motivatsiyalanganlikni – ilmiy-texnik terminologiyani tartibga solish nuqtayi nazaridan asoslab bergan [212]. Har ikki olimning qarashlarida termin avvalo tushunchaning nomi sifatida, ya’ni mantiqiy-ma’noviy birlik sifatida talqin etiladi. Farqli jihat shundaki, A.A.Reformatskiy terminning tizimga bog‘liqligini, D.S.Lotte esa terminning bo‘lishi lozim bo‘lgan me’yoriy xususiyatlarini birinchi o‘ringa qo‘yadi.

V.M.Leychik bu yondashuvlarni rivojlantirib, terminni tabiiy til leksik birligi asosida shakllangan, uning ustiga mantiqiy va terminologik qatlam qo‘shilgan murakkab hosila sifatida ko‘radi: termin “substrat” – tabiiy til birligi, “superstrat” –

mantiqiy-tushunchaviy mazmun va “infrastrat” – terminning qaysi terminosistemaga mansubligini ko‘rsatuvchi belgilar uyg‘unligidan iborat [209]. Olim terminologiya va terminosistemani ham farqlaydi: terminologiya ma’lum soha terminlarining tarixan, ko‘pincha stixiyali shakllangan majmui bo‘lsa, terminosistema mazkur soha nazariyasi asosida ongli ravishda tartibga solingan, elementlari o‘zaro tizimli munosabatda bo‘lgan terminlar majmuidir [209]. S.V.Grinyov ham terminologik leksikani tavsiflashda terminning nominativ, definitiv va tizimlilik belgilarini asosiy deb hisoblaydi, terminologiyaning tabiiy shakllanishi bilan terminosistemaning ongli qurilishi o‘rtasidagi farqqa urg‘u beradi [193]. A.V.Superanskaya, N.V.Podolskaya va N.V.Vasilyevalar umumiy terminologiya nazariyasida terminning maxsus nominatsiya birligi ekanligini, uning ma’nosi soha tushunchalar tizimidagi o‘rni bilan belgilanishini ta’kidlaydilar [219]. B.N.Golovin va R.Yu.Kobrin esa terminni maxsus faoliyat sohasining til birligi sifatida talqin etib, termin kasbiy faoliyat bilan uzviy bog‘liqligini, uning amal qilishi aynan kasbiy muloqotda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi [192]. T.L.Kandelaki terminning semantikasi va motivatsiyalanganligini tadqiq etib, terminning ichki shakli tushuncha belgilarini qay darajada aks ettirishi uning o‘zlashtirilishi va to‘g‘ri qo‘llanishiga ta’sir qilishini asoslaydi [202].

Termin tabiatiga oid munozarada G.O.Vinokurning qarashi alohida o‘rin tutadi: olim terminlar maxsus so‘zlar emas, balki maxsus vazifadagi so‘zlar ekanini, ya’ni har qanday so‘z muayyan sohada aniq tushunchani nomlash vazifasini olganda termin bo‘lishini asoslagan [54]. V.P.Danilenko terminni maxsus til osti tizimining birligi sifatida tavsiflab, termin nominativ va definitiv vazifalarni bajarishini, uning ma’nosi soha tushunchalar tizimidagi ta’rif bilan belgilanishini ko‘rsatadi [196]. O.S.Axmanova lingvistik terminlar lug‘atida terminni maxsus tushunchalarni aniq ifodalash va maxsus predmetlarni nomlash uchun yaratilgan so‘z yoki so‘z birikmasi sifatida ta’riflaydi [180]. G.O.Vinokurning funksional talqini bilan V.P.Danilenko va O.S.Axmanovaning tizimiy-definitiv talqini bir-biriga zid emas: birinchisi terminning qanday yuzaga kelishini, ikkinchisi esa uning qanday mavjud bo‘lishini tavsiflaydi. Iqtisodiy terminologiya uchun funksional talqin ayniqsa dolzarb, chunki ingliz iqtisodiy terminlarining katta qismi umumiste’mol so‘zlarining iqtisodiy vazifada qo‘llanishi natijasida shakllangan; bu esa talaba uchun tanish so‘zning yangi, maxsus ma’nosini anglash vazifasini yuzaga keltiradi.

Keltirilgan qarashlarni qiyoslash shuni ko‘rsatadiki, MDH terminshunosligida termin talqinida uchta yetakchi belgi barqaror: tushunchaviylik (termin soha tushunchasini nomlaydi), tizimlilik (termin terminosistema tarkibida ma’no kasb etadi) va maxsus faoliyatga bog‘liqlik. Bizningcha, metodik tadqiqot uchun B.N.Golovin va R.Yu.Kobrin ilgari surgan faoliyatga bog‘liqlik belgisi alohida ahamiyatga ega, chunki u terminni lug‘atdagi statik birlik sifatida emas, balki mutaxassislar o‘rtasidagi muloqotda amal qiluvchi dinamik birlik sifatida ko‘rish imkonini beradi.

V.M.Leychikning terminologiya va terminosistema farqlanishi esa ta’lim mazmunini tanlashda muhim: talaba avval iqtisodiy terminologiyaning muloqotda faol qo‘llanuvchi qatlamini, so‘ng shu qatlamni iqtisodiy nazariya mantiqi asosida tartibga soluvchi terminosistemani o‘zlashtiradi.

G‘arb terminshunosligi terminni ko‘proq tushunchalar nazariyasi va kommunikatsiya nuqtayi nazaridan talqin qiladi. Umumiy terminologiya nazariyasining asoschisi E.Vyuster terminologik ishni tushunchadan nomga qarab borish (onomasiologik yondashuv) asosida qurish, har bir tushunchaga bitta nom biriktirish va terminlarni xalqaro miqyosda standartlashtirish g‘oyasini ilgari surgan [176]. J.Sager terminni maxsus bilim sohasidagi tushunchaning lingvistik ifodasi sifatida ta’riflab, terminologiyani kognitiv, lingvistik va kommunikativ o‘lchamlar birligida o‘rganishni taklif qiladi; olim terminning asosiy vazifasi maxsus bilimni mutaxassislar o‘rtasida uzatish ekanligini, demak, terminologiya mohiyatan kommunikativ hodisa ekanini ta’kidlaydi [156]. M.T.Kabre esa terminologiyaning kommunikativ nazariyasini ishlab chiqib, termin oddiy so‘zdan tizimiy jihatdan emas, balki maxsus muloqot sharoitida faollashadigan ma’no qirrasi bilan farq qilishini, bir xil leksik birlik turli kommunikativ vaziyatlarda termin yoki umumiy so‘z vazifasini bajarishi mumkinligini asoslaydi [93]. R.Temmerman sotsiokognitiv terminologiya nazariyasida E.Vyusterning qat’iy “bir tushuncha – bir termin” tamoyilini tanqid qilib, ko‘plab fan sohalarida terminlar prototipik tuzilishga ega ekanini, sinonimiya va ko‘p ma’nolilik ularning tabiiy rivojlanishi natijasi ekanini, metafora esa yangi tushunchalarni anglash va nomlashning muhim vositasi ekanini isbotlagan [169].

Xorijiy qarashlarni MDH maktabi bilan qiyoslaganda quyidagi tendensiya ko‘zga tashlanadi: me’yoriy-preskriptiv yondashuvdan (E.Vyuster, D.S.Lotte) deskriptiv-kommunikativ yondashuvga (J.Sager, M.T.Kabre, R.Temmerman) o‘tish ro‘y bergan. Bu o‘zgarish metodika uchun muhim xulosaga olib keladi: agar termin faqat me’yoriy birlik sifatida o‘rgatilsa, talaba uning lug‘aviy ta’rifini yodlaydi, biroq muzokara yoki taqdimotda uni vaziyatga mos qo‘llay olmaydi. Termin kommunikativ birlik sifatida o‘rgatilganda esa uning ma’nosi, birikuvchanligi va nutqiy vazifasi birgalikda o‘zlashtiriladi. Tadqiqotimizda iqtisodiy termin aynan shu kommunikativ-faoliyatli talqinda, ya’ni ingliz tilidagi kasbiy muloqot vaziyatlarida maxsus iqtisodiy tushunchani nomlash, aniqlashtirish va baholash vazifasini bajaruvchi, iqtisodiy terminosistemaga mansub til birligi sifatida qaraladi.

O‘zbek terminshunosligida ham termin tabiati, milliy terminologiyani shakllantirish va tartibga solish masalalari keng yoritilgan. H.Dadaboyev o‘zbek terminologiyasining shakllanish bosqichlarini, termin yasash usullarini va o‘zlashma terminlarning o‘zbek tili fonetik-grammatik qonuniyatlariga moslashuvini tadqiq etib, bir soha terminlarining o‘zaro bog‘liqligi ularning yagona tushunchaviy maydonga mansubligi bilan belgilanishini ko‘rsatadi [99]. A.Madvaliyev o‘zbek terminologiyasi

va leksikografiyasi masalalarini yoritib, so‘z birikmali terminlarning tuzilish modellarini, terminlarning izohli va tarjima lug‘atlarida berilishi tamoyillarini asoslagan [132]. A.Hojiyev va S.I.Zininlar o‘zbek tili ilmiy-texnikaviy terminologiyasini tartibga solish prinsiplarini ishlab chiqib, milliy terminologiyada o‘z qatlam va o‘zlashma terminlar nisbatini maqbullashtirish zarurligini ta’kidlagan [31]. F.X.Qosimova o‘zbek-ingliz soha terminlarini semantik, sintagmatik va pragmatik jihatlardan qiyosiy tadqiq etib, terminning ma’no aniqligi, birikuvchanlik me’yorlari va nutqiy qo‘llanish imkoniyatlarini birgalikda tavsiflash zarurligini asoslagan [45]. K.N.Tojiyeva iqtisodiy-moliyaviy terminlarning shakllanishi va evolyutsiyasini tarixiy-lingvistik jihatdan o‘rganib, terminlarning barqarorlik darajasini aniqlash hamda tarjima va lug‘at tuzish amaliyotida ekvivalent tanlashning to‘rt mezonli jadvalini taklif etgan; olim iqtisodiy terminlarning elektron korpusini yaratish ingliz va o‘zbek tillarida qiyosiy izlanishlar uchun metodik poydevor bo‘lishini ko‘rsatadi [47]. D.M.Azimova ingliz va o‘zbek tillaridagi buxgalteriya hisobi va audit terminlarini manba tillari bo‘yicha tasniflab, o‘zbek tilida ularning o‘z qatlam va o‘zlashgan qatlamga bo‘linishini, ingliz tilida esa lotin va fransuz tillaridan kirgan birliklar salmoqli ekanini aniqlagan [17].

Milliy tadqiqotlarni umumlashtirib aytish mumkinki, o‘zbek terminshunosligida terminni tizimiy birlik sifatida talqin qilish (H.Dadaboyev, A.Madvaliyev) bilan bir qatorda uni qiyosiy-pragmatik aspektda o‘rganish (F.X.Qosimova, K.N.Tojiyeva, D.M.Azimova) yo‘nalishi kuchaymoqda. Biroq bu ishlarning aksariyati filologik xarakterga ega bo‘lib, ularda olingan natijalar ingliz tilini kasbga yo‘naltirib o‘qitish metodikasiga hali yetarli darajada tatbiq etilmagan. Lingvodidaktik nuqtayi nazardan D.A.Usarovaning qarashi diqqatga sazovor: olima kasbiy sohaga oid terminologik tizimni sohaning hozirgi tushunchalar tizimini ochib beruvchi va uning tilini belgilovchi tizim deb hisoblaydi hamda chet tilidagi kasbiy terminologiyani o‘zlashtirishda xorijiy hamkasblar qo‘llaydigan terminlarning o‘ziga xosligini majburiy hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi [171]. Bu fikr bizning tadqiqotimiz uchun shu jihatdan muhimki, iqtisodiyot yo‘nalishi talabasi uchun ingliz tilidagi iqtisodiy terminosistema nafaqat lingvistik obyekt, balki xalqaro kasbiy hamjamiyat tilining o‘zagi hisoblanadi.

Ingliz tilidagi iqtisodiy terminlarning tuzilishi ularni o‘zlashtirish qiyinligini belgilovchi birinchi omildir. Tuzilishiga ko‘ra iqtisodiy terminlar to‘rt guruhga ajratiladi. Birinchi guruhni oddiy terminlar tashkil etadi: ular bir o‘zakli, ko‘pincha lotin, fransuz yoki italyan tillaridan o‘zlashgan birliklar bo‘lib, iqtisodiy terminosistemaning eng qadimgi va eng barqaror qatlamini hosil qiladi. Ikkinchi guruh – qo‘shma terminlar: ular ikki o‘zakning qo‘shilishidan yoki affiksatsiya asosida yasalib, ingliz tilida yozilishi qo‘shib, chiziqcha bilan yoki ajratib berilishi mumkin. Uchinchi guruh – so‘z birikmali (ko‘p komponentli) terminlar: ular iqtisodiy

terminologiyaning eng serqirra va eng tez kengayayotgan qismi bo‘lib, “ot + ot”, “sifat + ot”, “sifatdosh + ot” modellari asosida tuziladi, ba’zan esa uch-to‘rt komponentli zanjirlarni hosil qiladi. To‘rtinchi guruh – abbreviaturalar va qisqartmalar: ular xalqaro tashkilotlar, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, moliyaviy hisobot standartlari va bank operatsiyalarini nomlashda faol qo‘llanadi. Bu tasnif A.Madvaliyev ajratgan so‘z birikmali terminlar modellariga [132] va H.Dadaboyevning termin yasash usullari haqidagi qarashlariga [99] mos keladi, biroq ingliz tilida analitik qurilishning ustunligi sababli birikma terminlar va abbreviaturalarning salmog‘i o‘zbek tilidagiga nisbatan sezilarli darajada yuqori.

Tuzilish nuqtayi nazaridan talaba uchun eng katta qiyinchilikni ko‘p komponentli birikma terminlar tug‘diradi. Ingliz tilida bunday birikmalarning bosh so‘zi oxirida joylashadi, aniqlovchilar esa undan oldin keladi; o‘zbek tilida ham aniqlovchi oldin turadi, biroq ko‘p komponentli ingliz birikmasini o‘girishda qaratqich-qaralmish munosabatlari, -lik, -li qo‘shimchalari va izohlovchi so‘zlar qo‘shilib, komponentlar tartibi ko‘pincha o‘zgaradi. Natijada talaba ingliz birikmasini so‘zma-so‘z tushunishga urinib, uning yaxlit tushunchaviy mazmunini yo‘qotadi. Abbreviaturalar bilan ishlash ham alohida malaka talab qiladi: og‘zaki nutqda ular harf-harf yoki bo‘g‘in tarzida talaffuz qilinadi, yozma biznes yozishmada esa birinchi qo‘llanishda to‘liq shakli berilishi kerak. Demak, tuzilishga oid bilim faqat lingvistik komponentga emas, balki diskursiv va sotsiolingvistik komponentlarga ham taalluqli bo‘lib, terminologik ish birikmaning yaxlit idrok etilishi, talaffuzi va yozma matnda to‘g‘ri kiritilishini qamrab olishi lozim.

Semantik jihatdan ingliz tilidagi iqtisodiy terminlar me’yoriy terminshunoslik talab qiladigan bir ma’nolilikdan ancha uzoq. Birinchidan, ular ko‘p ma’nolilikka ega: bir xil leksik birlik iqtisodiyotning turli kichik sohalarida – bank ishi, buxgalteriya, birja faoliyati, marketingda – turlicha tushunchani ifodalashi mumkin. Bu holat M.T.Kabre ilgari surgan g‘oyani tasdiqlaydi: terminlik maqomi leksik birlikning o‘ziga emas, balki u faollashadigan kommunikativ vaziyatga bog‘liq [93]. Ikkinchidan, iqtisodiy terminologiyada sinonimiya keng tarqalgan: Britaniya va Amerika ingliz tili variantlarida, buxgalteriya hisobining turli standartlarida, rasmiy hujjat va ishbilarmonlik nutqida bitta tushuncha turlicha nomlanadi. D.S.Lotte nuqtayi nazaridan bu terminologiyaning “kamchiligi” bo‘lsa [212], R.Temmerman nazariyasi nuqtayi nazaridan u terminlarning ijtimoiy-kognitiv tabiatining tabiiy ko‘rinishidir [169]. Metodik jihatdan muhim xulosa shuki, talaba sinonimik qatorlarni faqat tanib olishi emas, balki ularning qaysi biri qaysi kasbiy muloqot vaziyatlari va registrga xosligini farqlay olishi zarur.

Uchinchidan, iqtisodiy terminologiyaning muhim semantik xususiyati – metaforiklik. Uning nazariy asosini J.Lakoff va M.Jonson ishlab chiqqan konseptual metafora nazariyasi tashkil etadi: olimlar metaforani nutqni bezovchi vosita emas,

balki mavhum tushunchalarni aniqroq tajriba sohalari orqali anglash va tashkil etishning tafakkur mexanizmi sifatida talqin qiladilar [126]. Bu nazariyaga koʻra, metaforik termin tasodifiy nom emas, balki butun konseptual modelning til sathidagi koʻrinishidir. F.Boers va M.Demexelerlar gʻarb iqtisodiy diskursini tahlil qilib, iqtisodiyotni tirik organizm, mexanizm, harakatlanuvchi transport vositasi, sport musobaqasi va urush sifatida tasavvur qiluvchi barqaror konseptual metaforalar mavjudligini aniqlagan [21]. F.Boers keyingi tadqiqotida esa talabalarning metaforik modellarni ongli ravishda anglashi, ya’ni metaforaning manba sohasini aniqlay olishi iqtisodiy leksikani yodda saqlash va toʻgʻri qoʻllash samaradorligini oshirishini tajribada isbotlagan [20]. R.Alexo iqtisodiy diskursda “idish” metaforasini tahlil qilib, bozor va iqtisodiyotni chegaralangan makon sifatida tasavvur qilish moliyaviy oqimlarning “ichkariga kirishi”, “tashqariga chiqishi” va “toʻlib-toshishi” haqidagi terminlar tizimini yuzaga keltirishini koʻrsatgan [13]. Bu qarashlar iqtisodiy terminlarni oʻrgatishda kognitiv-lingvistik yondashuvning samaradorligini asoslaydi: metaforik termin alohida birlik sifatida emas, balki u mansub boʻlgan konseptual model doirasida oʻrgatilganda, talaba bir modelga oid oʻnlab terminlar va ularning birikmalarini tizimli oʻzlashtiradi. Ayni vaqtda metaforik terminlar madaniyatlararo jihatdan ham sezgir: ingliz tilidagi barcha konseptual metaforalar oʻzbek iqtisodiy nutqida ekvivalent modelga ega emas, shu sababli ular kasbiy muloqotda tushunmovchilik manbaiga aylanishi mumkin.

Tematik jihatdan ingliz tilidagi iqtisodiy terminologiya bir necha kichik terminosistemalardan tashkil topadi. Makroiqtisodiyot terminlari milliy iqtisodiyot koʻrsatkichlari, pul-kredit va fiskal siyosat, iqtisodiy oʻsish va beqarorlik hodisalarini nomlaydi. Moliya terminlari bank ishi, qimmatli qogʻozlar bozori, investitsiya va moliyaviy risklarni qamrab oladi. Marketing terminlari bozorni tadqiq etish, mahsulot va narx siyosati, iste’molchi xulq-atvori va reklamaga oid tushunchalarni ifodalaydi. Menejment terminlari tashkilotni boshqarish, rejalashtirish, kadrlar siyosati va qaror qabul qilish jarayonlarini nomlaydi. Buxgalteriya hisobi va audit terminlari moliyaviy hisobot shakllari, aktiv va majburiyatlarni hisobga olish, xarajat va daromadlarni tasniflashga xizmat qiladi. Xalqaro savdo terminlari esa eksport-import operatsiyalari, toʻlov shakllari, yetkazib berish shartlari, bojxona rasmiylashtiruvi va savdo siyosatini ifodalaydi. Bu guruhlar yopiq emas: koʻplab terminlar bir necha guruhga birdaniga mansub boʻlib, guruhlararo kesishma aynan koʻp ma’nolilik va kontekstual ma’no oʻzgarishining manbai hisoblanadi.

Tematik tasnifning lingvodidaktik ahamiyati shundaki, u ta’lim mazmunini modulli asosda tashkil etish uchun tabiiy asos boʻlib xizmat qiladi. N.M.Ashurova oʻquv-uslubiy ta’minotning eng kichik tarkibiy qismlari qatorida kasbiy va sohaviy birliklarni – terminologiyani alohida ajratadi hamda kredit-modul tizimida sohaga oid kasbiy mavzular, matnlar va zarur sohaviy terminlar mehnat bozori va ish beruvchilar

talablaridan kelib chiqib tanlanishi, so‘ng semestrlar bo‘yicha modullarga uzviy taqsimlanishini asoslaydi [77]. Fikrimizcha, iqtisodiy terminologiyaning tematik guruhlari aynan shunday modullarning mazmuniy o‘zagi bo‘lishi mumkin: har bir modul bitta kichik terminosistemani va unga xos kasbiy muloqot vaziyatlari majmuini qamrab oladi. Masalan, moliya moduli bank bilan telefon orqali muloqot, investitsiya loyihasi taqdimoti va kredit shartlari bo‘yicha muzokarani, xalqaro savdo moduli esa tijorat taklifi, buyurtma va reklamatsiya xatlarini yozishni o‘z ichiga oladi. Bu g‘oya 3.1-§ da terminologik minimumni modulli asosda tashkil etish metodikasi sifatida ishlab chiqiladi.

Ingliz va o‘zbek iqtisodiy terminlarining qiyosiy tavsifi ekvivalentlik masalasini markazga qo‘yadi. Ekvivalentlik nazariyasi tarjimashunoslikda chuqur ishlab chiqilgan. Ya.I.Retsker tillararo muvofiqliklarni uch turga ajratadi: kontekstdan qat’i nazar o‘zgarmas bo‘lgan ekvivalentlar; kontekstga qarab bir necha variantdan biri tanlanadigan variantli muvofiqliklar; to‘g‘ridan to‘g‘ri muvofiqlik mavjud bo‘lmaganda qo‘llanadigan transformatsiyalar [216]. Olim ilmiy-texnik va iqtisodiy terminlar ekvivalent muvofiqliklarga eng boy qatlam ekanligini, biroq bu qatlamda ham variantli muvofiqliklar salmoqli ekanini ko‘rsatadi [216]. V.N.Komissarov esa ekvivalentlikni bir necha darajada – nutq maqsadi, vaziyat tavsifi, xabar mazmuni, til vositalari darajasida – o‘rnatilishini asoslab, ekvivalentlik faqat so‘z darajasida emas, balki kommunikativ maqsad darajasida ham ta’minlanishi lozimligini ta’kidlaydi [204]. F.Sh.Negova terminologiyaga oid bilimlarni rivojlantirishda tillararo leksik muammolarni tahlil qilishni ustuvor indikator sifatida belgilash zarurligini asoslaydi [144]. K.N.Tojiyevaning ekvivalent tanlash mezonlari haqidagi xulosasi [47] va F.X.Qosimovaning terminlarning sintagmatik va pragmatik xususiyatlarini qiyosiy o‘rganish zarurligi haqidagi qarashi [45] ham shu yo‘nalishni to‘ldiradi.

Bu qarashlarni iqtisodiy terminologiyaga tatbiq etib, ingliz va o‘zbek iqtisodiy terminlari o‘rtasidagi ekvivalentlikning olti turini ajratish mumkin: to‘liq ekvivalentlik; qisman (ma’no hajmi bo‘yicha farqlanuvchi) ekvivalentlik; variantli (kontekstual) ekvivalentlik; kalka asosidagi ekvivalentlik; muqobilsizlik (o‘zlashma yoki tasviriy ifoda orqali beriladigan birliklar) va soxta ekvivalentlik, ya’ni “tarjimonning soxta do‘stlari”. 1.2-jadvalda ushbu turlarning tavsifi, namunaviy birliklari, kasbiy muloqotda yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan xavf va ulardan kelib chiqadigan lingvodidaktik vazifa umumlashtirilgan.

1.2-jadval

Ingliz va o‘zbek iqtisodiy terminlari o‘rtasidagi ekvivalentlik turlari va ularning lingvodidaktik oqibatlari

Ekvivalentlik turi	Tavsifi	Namunaviy birliklar	Kasbiy muloqotdagi xavf	Lingvodidaktik vazifa

To‘liq ekvivalentlik	Tushuncha hajmi va qo‘llanish doirasi ikki tilda mos keladi, ko‘pincha xalqaro termin	inflation – inflyatsiya; dividend – dividend; marketing – marketing	Talaffuz va urg‘u farqi, birikuvchanlikdagi farqni sezmaslik	Termin shaklini tez tanitish, uning ingliz tilidagi kollokatsiyalarini o‘rgatish
Qisman ekvivalentlik	Ikki tildagi birlik ma’no hajmi bo‘yicha farq qiladi	capital – kapital, mablag‘, sarmoya; budget – byudjet, smeta	Ma’noni toraytirish yoki kengaytirish, noaniq ifoda	Ma’no chegaralarini ta’rif va kontekst orqali aniqlashtirish
Variantli (kontekstual) ekvivalentlik	Ko‘p ma’noli termin kontekstga qarab turli muqobil bilan beriladi	share – aksiya, ulush; interest – foiz, manfaat; security – qimmatli qog‘oz, kafolat	Noto‘g‘ri ma’no tanlanib, axborot buzilishi	Terminning tematik guruh va kollokatsiya bo‘yicha ma’nosini aniqlash mashqlari
Kalka asosidagi ekvivalentlik	Ingliz termini komponentlari o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z o‘giriladi	cash flow – pul oqimi; supply and demand – talab va taklif; balance sheet – buxgalteriya balansi	Komponentlar tartibi va grammatik shakl o‘zgarishini hisobga olmaslik	Birikma terminni yaxlit birlik sifatida idrok etish, tartib farqini anglash
Muqobilsizlik	O‘zbek tilida tayyor muqobil yo‘q, o‘zlashma yoki tasviriy ifoda qo‘llanadi	goodwill – gudvill (ishchanlik obro‘si qiymati); crowdfunding – kraudfanding (jamoaviy moliyalashtirish)	Tushunchaning mazmunini bilmasdan o‘zlashma shaklni qo‘llash	Tushunchani izohlash, parafraz va definitsiya strategiyalarini o‘rgatish
Soxta ekvivalentlik	Shakli o‘xshash, ma’nosi farqli yoki qisman farqli birliklar	concern – tashvish, ishtirok, firma (faqat “kontsern” emas); speculation – taxmin, mulohaza (faqat “chayqovchilik” emas); balance – qoldiq (hisobdagi), muvozanat	Qo‘pol semantik xato, sherikni noto‘g‘ri tushunish, muzokarada nizoli vaziyat	Interferensiyani oldindan bashorat qilish, qiyoslovchi ogohlantiruvchi mashqlar

1.2-jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, ekvivalentlik turlari o‘zlashtirish qiyinligi bo‘yicha bir xil emas. To‘liq ekvivalentlar talaba uchun eng oson qatlam bo‘lsa-da, ular xavfdan xoli emas: o‘zbek tilida xalqaro terminning rus tili orqali

o‘zlashgan talaffuzi va urg‘usi ingliz tilidagi talaffuzdan farq qiladi, bu esa og‘zaki kasbiy muloqotda, ayniqsa telefon orqali muloqot va taqdimotda tushunishni qiyinlashtiradi. Qisman va variantli ekvivalentlik eng ko‘p uchraydigan va eng ko‘p xatoga olib keladigan turlardir, chunki talaba birinchi o‘zlashtirgan muqobilni barcha kontekstlarga ko‘chiradi. Kalka asosidagi ekvivalentlik o‘zbek iqtisodiy terminologiyasining zamonaviy qatlami uchun xos bo‘lib, uning didaktik qiymati yuqori: kalka terminning ichki shaklini ochib beradi va T.L.Kandelaki ta’kidlagan motivatsiyalanganlik [202] tufayli yodda saqlashni yengillashtiradi.

O‘zlashma terminlar masalasi ingliz-o‘zbek qiyosida alohida o‘rin tutadi. D.M.Azimova ko‘rsatganidek, o‘zbek iqtisodiy terminologiyasida arab, fors, rus va ingliz tillaridan o‘zlashgan qatlamlar o‘z qatlam bilan yonma-yon mavjud [17], H.Dadaboyev esa o‘zlashma terminlarning o‘zbek tili qonuniyatlariga moslashib, milliylashgan terminlarga aylanishini qayd etadi [99]. Mustaqillik yillarida o‘zbek iqtisodiy terminologiyasi rus tili vositachiligidan ingliz tilidan bevosita o‘zlashtirishga tomon siljidi. Bu jarayon talaba uchun ikki tomonlama ta’sirga ega: bir tomondan, ingliz tilidan to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zlashgan terminlar tanib olishni osonlashtiradi; ikkinchi tomondan, rus tili orqali kirgan va ingliz tilidagi ma’nosidan uzoqlashgan birliklar ijobiy ko‘chirishni emas, balki salbiy ko‘chirishni, ya’ni interferensiyani yuzaga keltiradi.

Interferensiya – ona tili yoki avval o‘rganilgan til me’yorlarining o‘rganilayotgan tilga ongsiz ravishda ko‘chirilishi – iqtisodiy terminlar bilan ishlashda bir necha sathda namoyon bo‘ladi. Fonetik sathda xalqaro terminlar urg‘usi o‘zbek yoki rus tili me’yoriga ko‘ra qo‘yiladi. Leksik-semantik sathda shakli o‘xshash birliklarga ona tilidagi ma’no yuklanadi; aynan shu sathda “soxta do‘stlar” eng xavfli bo‘lib, ular muzokara yoki biznes yozishmada qo‘pol semantik xatoga, ba’zan esa nizoli vaziyatga olib keladi. Grammatik sathda sanaladigan va sanalmaydigan otlar farqi, birikma terminlarda ko‘plik qo‘shimchasining qo‘llanishi, artikllar tanlovi xatolarni keltirib chiqaradi. Pragmatik sathda esa o‘zbek ishbilarmonlik nutqiga xos rasmiylik va tavoze shakllarining ingliz ishbilarmonlik yozishmasiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘chirilishi uslubiy nomuvofiqlikka sabab bo‘ladi. S.G.Ter-Minasova tillararo leksik nomuvofiqliklar faqat ma’no hajmi farqi bilan emas, balki so‘zlarning madaniy konnotatsiyalari va ular aks ettiruvchi voqelik farqi bilan ham bog‘liqligini, shu bois so‘z ortidagi madaniy tushunchani bilmasdan uni to‘g‘ri qo‘llab bo‘lmasligini asoslaydi [221]. Bu fikr iqtisodiy terminologiyaga to‘liq taalluqli: bir xil nomlangan iqtisodiy institut yoki moliyaviy vosita turli iqtisodiy tizimlarda turlicha huquqiy va amaliy mazmunga ega bo‘lishi mumkin. Shu sababli interferensiyani bashorat qilish va oldini olish terminologik ishning mustaqil yo‘nalishi sifatida qaralishi lozim. J.Tomas ona tili pragmatik me’yorlarining chet tiliga ko‘chirilishini “pragmatik

muvaffaqiyatsizlik” deb atab, uni grammatik xatoga nisbatan muloqot uchun xavfliroq deb hisoblaydi [46].

Termin kasbiy muloqot birligi sifatida qaralganda uning o‘zlashtirilishi ESP metodikasi nazariyasi bilan uzviy bog‘lanadi. T.Xatchinson va A.Uotersning ingliz tilini maxsus maqsadlarda o‘qitish konsepsiyasida ta’lim mazmuni talabaning maqsadli vaziyatdagi ehtiyojlari tahlilidan kelib chiqishi, ya’ni bo‘lajak mutaxassis qaysi kasbiy vaziyatlarda tildan qanday foydalanishi aniqlanib, shu asosda leksik material tanlanishi lozimligi asoslanadi [116]. T.Dadli-Evans va M.J.Sent-Jonlar ESP leksikasini umumiy, yarim texnik va texnik qatlamlarga ajratib, talaba uchun eng katta qiyinchilikni yarim texnik leksika – umumiy tilda bir ma’noda, iqtisodiy diskursda esa boshqa ma’noda qo‘llanuvchi birliklar tug‘dirishini ko‘rsatadi [104]. A.Y.H.Ha va K.Hayland texniklik darajasini aniqlash modelini taklif etib, so‘zning texnikligi uning ma’nosi sohaga qanchalik ixtisoslashganiga qarab daraja-daraja o‘zgarishini, shu bois leksikani “termin – termin emas” tarzida ikkiga ajratish o‘rniga texniklik shkalasida joylashtirish maqsadga muvofiqligini asoslagan [30]. M.M.Mavlanova kasbiy soha o‘ziga xos terminologik bazaga ega ekanligini, xalqaro hamjamiyat va kasbiy muhitda samarali muloqot uchun ushbu terminlarni to‘g‘ri tushunish va ulardan foydalanish zaruriy shart ekanini ta’kidlaydi [136].

Ushbu qarashlar o‘zaro bir-birini to‘ldiradi. T.Xatchinson va A.Uoters termin tanlashning manbai – maqsadli vaziyatni, T.Dadli-Evans va M.J.Sent-Jon – leksikaning qatlamlanishini, A.Y.H.Ha va K.Hayland esa texniklikning darajali tabiatini ochib beradi. Bizningcha, iqtisodiyot yo‘nalishi talabalari uchun eng muhim qatlam aynan yarim texnik leksikadir: talaba umumiy ingliz tili kursida bu birliklarni maishiy ma’nosida o‘zlashtirgan bo‘ladi va iqtisodiy kontekstda ham shu ma’noni qo‘llashga urinadi. Demak, terminologik ish yangi birliklarni kiritishdangina emas, balki talabaga tanish so‘zlarning iqtisodiy ma’nosini “qayta ochish”dan ham iborat bo‘lishi lozim.

Terminning kasbiy muloqotdagi o‘rnini anglashda diskurs va janr nazariyalari muhim ahamiyatga ega. J.Sueyls diskurs hamjamiyati tushunchasini kiritib, uning belgilaridan biri sifatida hamjamiyat a’zolari umumiy maqsadlarga erishish uchun foydalanadigan o‘ziga xos leksikani, shu jumladan terminologiyani ko‘rsatadi; olimning fikricha, hamjamiyatga kirish uning janrlari va leksikasini egallash orqali amalga oshadi [167]. V.K.Bxatiya kasbiy janrlarni tahlil qilib, ishbilarmonlik xatlari, tijorat takliflari va boshqa professional matnlar barqaror kommunikativ maqsad va strukturaviy qadamlar (moves) asosida qurilishini, ularda terminlarning tanlanishi ham janr talablariga bo‘ysunishini ko‘rsatgan [87]. G.G.Uiddouson ESP pragmatikasini tadqiq etib, maxsus maqsadlardagi til qo‘llanishi kasbiy hamjamiyatning kommunikativ konvensiyalari bilan belgilanishini, demak, ESP o‘qitish faqat leksika va grammatikani emas, balki shu hamjamiyat muloqot me’yorlarini o‘zlashtirishni ham

nazarda tutishini asoslaydi [49]. Uch olimning qarashlari terminni janr va hamjamiyat kontekstida ko‘rish zarurati bo‘yicha bir nuqtada tutashadi. Tadqiqotimiz uchun bundan shunday xulosa kelib chiqadi: iqtisodiy terminlar biznes yozishma, taqdimot yoki hisobot janriga xos qadamlar bilan birga o‘rgatilganda talaba ularni qaysi kommunikativ maqsadda va qaysi janr o‘rnida qo‘llash lozimligini anglaydi. F.Bargiela-Chiappini, C.Nickerson va B.Planken ishbilarmonlik diskursini korporativ muloqotning janrlari, strategiyalari va madaniy me’yorlari tizimi sifatida tavsiflaydi [83]. K.Hayland janr nazariyasini maxsus maqsadlarda til o‘qitishga tatbiq etib, har bir kasbiy hamjamiyat o‘z janrlari va ritorik qoliplariga ega ekanini ko‘rsatadi [117].

Termin o‘zlashtirish jarayonini bosqichli tashkil etish zarurati leksik ko‘nikmalar nazariyasidan kelib chiqadi. N.D.Galskova leksik ko‘nikmani so‘zni nutqiy vazifaga muvofiq tanlash, uni boshqa birliklar bilan to‘g‘ri birlashtirish va vaziyatga mos qo‘llash ko‘nikmasi sifatida talqin etib, uning shakllanishi tanishtirish, mashq qilish va nutqda qo‘llash bosqichlaridan o‘tishini ko‘rsatadi [190]. I.S.P.Neyshn so‘zni bilishni shakl, ma’no va qo‘llanish jihatlaridan iborat ko‘p qirrali bilim sifatida tavsiflaydi, har bir jihatda retseptiv va produktiv bilim farqlanishini ta’kidlaydi; olimning fikricha, so‘z birikuvchanligi va qo‘llanish cheklovlarini bilish produktiv bilimning eng yuqori darajasi hisoblanadi [142]. J.J.Jalolov chet til o‘qitish mazmunida mazmun birlamchi, mashq esa uning hosilasi ekanligini asoslaydi [119]; bu qoida terminologik ishga tatbiq etilganda, avval terminologik mazmun tanlanadi va tizimlashtiriladi, so‘ng unga mos mashqlar tizimi quriladi. N.Shmitt so‘zni bilishni shakl, ma’no, kollokatsiya, registr va chastota kabi jihatlarni qamrab oluvchi ko‘p qirrali bilim sifatida tavsiflaydi [162].

Bu nazariy qarashlarga tayanib, iqtisodiy terminni kasbiy muloqot birligi sifatida o‘zlashtirishning to‘rt bosqichini ajratamiz. Birinchi bosqich – semantizatsiya: termin shakli (yozilishi, talaffuzi, urg‘usi) tanitiladi, uning tushunchaviy mazmuni ta’rif, kontekst va o‘zbekcha muqobil orqali ochib beriladi, ekvivalentlik turi aniqlanadi. Ikkinchi bosqich – tizimlashtirish: termin o‘z tematik guruhi va terminosistemadagi o‘rni bo‘yicha joylashtiriladi, uning sinonim, antonim, giponim va so‘z yasalish oilasi bilan aloqalari o‘rnatiladi. Uchinchi bosqich – kollokatsion-kontekstual o‘zlashtirish: terminning barqaror birikmalari, fe’l bilan birikuvchanligi va autentik iqtisodiy matnlardagi qo‘llanishi o‘rganiladi. To‘rtinchi bosqich – kommunikativ faollashtirish: termin kasbiy muloqot vaziyatlarida – taqdimot, muzokara, biznes yozishma, yig‘ilish va telefon orqali muloqotda – maqsadga muvofiq qo‘llanadi. Birinchi ikki bosqich retseptiv bilimni, keyingi ikki bosqich esa produktiv bilimni shakllantiradi; muloqot kompetensiyasining rivojlanishi aynan oxirgi bosqichda namoyon bo‘ladi.

Terminologik minimum tushunchasi lingvodidaktik tadqiqotning markaziy tushunchalaridan biridir. Iqtisodiy terminologiya hajmi juda katta va u doimiy ravishda yangi birliklar hisobiga kengayib bormoqda, ingliz tili mashg‘ulotlari uchun ajratilgan

vaqt esa cheklangan. Shu sababli tadqiqotimizda terminologik minimum deganda iqtisodiyot yo‘nalishi talabasining ingliz tilida muayyan CEFR darajasida kasbiy muloqotni amalga oshirishi uchun zarur va yetarli bo‘lgan, ilmiy asoslangan mezonlar bo‘yicha tanlangan va tematik-modulli tartibga solingan iqtisodiy terminlar va ularning barqaror birikmalari majmui tushuniladi. Ushbu ta’rifda uch muhim jihat mujassam: minimum muloqot ehtiyojidan kelib chiqadi; u CEFR darajalariga bog‘lanadi; u ro‘yxat emas, balki tizim sifatida tuziladi. E.G.Azimov va A.N.Shchukinning metodik atamalar lug‘atida leksik minimum ta’limning muayyan bosqichida belgilangan maqsadlarga erishish uchun zarur bo‘lgan, ma’lum tamoyillar asosida tanlangan leksik birliklar majmui sifatida tavsiflanadi [178]. Bu ta’rif bilan qiyoslaganda, terminologik minimum ikki jihatdan farqlanadi: u umumiy leksikadan emas, balki iqtisodiy terminosistemadan tanlanadi va uning tanlov mezoni o‘quv bosqichidan tashqari kasbiy muloqot vaziyatlarining tipologiyasini ham hisobga oladi. B.A.Lapidus o‘quv mazmunini tanlashda nutqiy vaziyat, mavzu va til materialining birligini ta’minlash talabini ilgari suradi [208]. J.C.Richards o‘quv dasturini loyihalashda ehtiyojlar tahlili, maqsadlar, mazmunni tanlash va baholashning izchil bog‘lanishini asoslaydi [153].

Terminologik minimumni tanlash mezonlari bo‘yicha xorijiy va milliy tadqiqotlarda turli yondashuvlar mavjud. I.S.P.Neyshn leksik minimum tanlashda chastotalilik va qamrov mezonlarini asosiy deb hisoblaydi: o‘quv maqsadi uchun eng ko‘p uchraydigan va matnlarning eng katta qismini qamrab oluvchi birliklar birinchi navbatda o‘rgatiladi [142]. A.Koksxed akademik so‘zlar ro‘yxatini tuzishda chastotalilik bilan birga tarqalganlik mezonini qo‘llagan: ro‘yxatga faqat bir necha fan sohasi matnlarida barqaror uchraydigan so‘z oilalari kiritilgan [27]. T.M.Chung va I.S.P.Neyshn ixtisoslashgan matnlardagi texnik leksikani aniqlash usullarini qiyoslab, texnik leksika maxsus matnlarda katta salmoqqa ega ekanini va uni aniqlashda soha mutaxassisining bahosi hamda korpus asosidagi qiyosiy tahlil birgalikda qo‘llanishi kerakligini ko‘rsatgan [26]. M.Nelson Business English korpusini tahlil qilib, ishbilarmonlik ingliz tilining leksik o‘zagi umumiy ingliz tilidan sezilarli farq qilishini, o‘quv materiallarida esa bu o‘zak to‘liq aks etmasligini aniqlagan [145].

Milliy tadqiqotlarda D.M.Abdullayeva leksik kompetensiyani kommunikativ kompetensiya bilan uzviy bog‘lab, leksik boylik mazmunli muloqotni qurish, fikrni aniq ifodalash hamda stilistik va pragmatik vaziyatga moslashish vositasi ekanini asoslaydi va kontekstual leksika o‘rgatish, tematik so‘zlar asosida muloqot vazifalarini tuzish, kollokatsiyalar orqali tabiiy nutqni rivojlantirishni tavsiya etadi [73]. G.B.Prenova terminologik lug‘atlarni o‘quv vositalari tizimining muhim qismi sifatida qaraydi: ular yordamida talaba gapirish jarayonida soha leksikasini to‘g‘ri qo‘llashni o‘rganadi, bu esa terminologik savodxonlikni shakllantiradi [150]. N.M.Ashurova esa sohaviy terminlarni tanlashda mehnat bozori va ish beruvchilar talablarini hisobga olishni zarur deb biladi [77].

Ko‘rib chiqilgan yondashuvlarni umumlashtirib, ingliz tilidagi iqtisodiy terminologik minimumni tanlashning quyidagi mezonlar tizimini asoslaymiz. Chastotalilik va tarqalganlik mezoni terminning autentik iqtisodiy matnlarda tez-tez va turli tematik guruhlarda uchrashini nazarda tutadi. Kommunikativ zaruriyat mezoni terminning talabaning kelgusi kasbiy muloqot vaziyatlarida – taqdimot, muzokara, biznes yozishma, yig‘ilish va telefon orqali muloqotda – qo‘llanish ehtimolini baholaydi. Tizimiy ahamiyat mezoni terminning terminosistemadagi o‘rnini, ya’ni u tayanch tushunchami yoki hosila tushunchami ekanligini aniqlaydi. Birikuvchanlik va so‘z yasash faolligi mezoni terminning ko‘plab barqaror birikmalar va hosila terminlar hosil qila olishini hisobga oladi. Tillararo qiyinlik mezoni ekvivalentlik turi va interferensiya xavfini baholaydi: soxta va variantli ekvivalentlar minimumda alohida belgilanadi. Darajaviy muvofiqlik mezoni esa terminning CEFR darajasiga mosligini belgilaydi. Bu mezonlar terminologik minimumni ko‘p bosqichli tanlash jarayonining asosini tashkil etadi va 3.1-§ da amaliy jihatdan ishlab chiqiladi.

Darajaviy muvofiqlik mezoni xalqaro me’yorlar bilan asoslanadi. Yevropa Kengashining “Til bilishning umumyevropa kompetensiyalari” hujjatining qo‘shimcha jildida leksik diapazon va leksik nazorat deskriptorlari keltirilgan bo‘lib, B1 darajasida o‘rganuvchi o‘z sohasiga oid tanish mavzularda yetarli so‘z boyligidan foydalanishi, B2 darajasida o‘z sohasidagi aksariyat umumiy mavzularda keng leksik diapazonga ega bo‘lishi, C1 darajasida esa idiomatik ifodalar va kollokatsiyalarni yaxshi egallagan holda bo‘shliqlarni aylanma ifodalar bilan oson to‘ldira olishi nazarda tutiladi [12]. Business English bo‘yicha xalqaro imtihonlar ham terminologik minimum hajmi va mazmuniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Cambridge ishbilarmonlik sertifikatlari (BEC) B1, B2 va C1 darajalarida ishbilarmonlik muhitida o‘qish, yozish, tinglash va gapirish ko‘nikmalarini baholaydi [231]; Linguaskill Business adaptiv test bo‘lib, ishbilarmonlik kontekstidagi til bilish darajasini CEFR shkalasida belgilaydi [233]; TOEIC esa xalqaro ish muhitida kundalik va kasbiy muloqot uchun zarur ingliz tili ko‘nikmalarini o‘lchaydi [236]. Bu imtihonlarning topshiriqlari – xizmat yozishmasi, hisobot, taklif, telefon suhbati, yig‘ilish va muzokara parchalari – kasbiy muloqot vaziyatlari tipologiyasini va ularda talab qilinadigan terminologik minimum hajmini aniqlash uchun ishonchli me’yor vazifasini bajaradi. Shunday qilib, terminologik minimum B1 darajasida tayanch tushunchalarni tanib olish va oddiy vaziyatlarda qo‘llash, B2 darajasida tematik guruhlar bo‘yicha faol qo‘llash va kollokatsiyalarni egallash, C1 darajasida esa sinonimik va metaforik qatorlarni, registr farqlarini erkin boshqarish darajasida tabaqalashtiriladi.

Leksik yondashuv iqtisodiy terminlarni muloqot birligi sifatida o‘rgatishning metodologik tayanchlaridan biridir. M.Lyuis an’anaviy “grammatika va lug‘at” dixotomiyasini tanqid qilib, tilning asosini grammatiklashgan leksika, ya’ni ko‘p so‘zli tayyor birliklar – kollokatsiyalar, barqaror ifodalar, jumla boshlamalari va nutqiy

formulalar tashkil etishini asoslagan; olimning fikricha, ravon nutq aynan shunday tayyor birliklar zaxirasiga tayanadi [129]. Leksik yondashuvning iqtisodiy terminologiyaga tatbiqi alohida samara beradi, chunki iqtisodiy diskursda termin deyarli hech qachon yakka holda qo‘llanmaydi: u muayyan fe’llar, sifatlar va predloglar bilan barqaror birikmalar hosil qiladi, ularsiz esa terminni bilish passiv bo‘lib qoladi. Masalan, iqtisodiy ko‘rsatkichning o‘sishi, pasayishi yoki barqarorlashuvini ifodalash, shartnoma shartlarini muhokama qilish yoki moliyaviy natijalarni taqdim etish uchun talabaga termindan tashqari unga xos fe’l-kollokatsiyalar va nutqiy formulalar zaxirasi zarur.

Leksik yondashuvning nazariy ildizi J.Sinkler ilgari surgan ikki tamoyilga borib taqaladi: erkin tanlov tamoyiliga ko‘ra so‘zlar grammatik qoidalar asosida birlashtirilsa, idioma tamoyiliga ko‘ra nutqning katta qismi oldindan tayyor, yarim muzlagan birikmalardan tuziladi; olim korpus ma’lumotlari asosida til foydalanuvchisi asosan ikkinchi tamoyilga tayanishini isbotlagan [165]. N.Shmitt so‘z bilimining kengligi (bilinadigan so‘zlar soni) va chuqurligi (har bir so‘z haqidagi bilim sifati) ni farqlab, formulyar ketma-ketliklarni bilish ravon va tabiiy nutqning asosiy sharti ekanini ta’kidlaydi [161]. Iqtisodiy terminologiyaga tatbiqan bu shuni anglatadiki, terminologik minimumning hajmi bilan bir qatorda uning chuqurligi, ya’ni har bir terminning kollokatsiyalari va nutqiy formulalar ichidagi o‘rni ham rejalashtirilishi lozim.

M.Lyuis va I.S.P.Neyshn qarashlari bir nuqtada kesishadi: ikkala olim ham birikuvchanlikni leksik bilimning eng yuqori va eng muhim qatlami deb hisoblaydi [129; 142]. Farqi shundaki, M.Lyuis tayyor birliklarni yaxlit o‘zlashtirishni, I.S.P.Neyshn esa so‘z bilimining jihatlarini izchil rivojlantirishni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Fikrimizcha, iqtisodiy terminlarni o‘rgatishda bu ikki yondashuv bir-birini to‘ldiradi: semantizatsiya va tizimlashtirish bosqichlarida I.S.P.Neyshn modeli, kollokatsion-kontekstual o‘zlashtirish va kommunikativ faollashtirish bosqichlarida esa M.Lyuis yondashuvi yetakchi bo‘ladi.

Korpus lingvistikasi terminologik minimumni tanlash va terminologik ishni tashkil etishning zamonaviy vositasi hisoblanadi. M.Nelson tadqiqoti ko‘rsatganidek, korpus asosidagi tahlil ishbilarmonlik ingliz tilining haqiqiy leksik tarkibini, birliklarning chastotasini va ularning birikuvchanligini ob’ektiv aniqlash imkonini beradi [145]. S.Xanston amaliy lingvistikada korpusdan foydalanish imkoniyatlarini tizimlashtirib, konkordans ma’lumotlari o‘rganuvchiga so‘zning ma’nosi, birikuvchanligi va pragmatik yuklamasini ko‘plab autentik misollar asosida ko‘rish imkonini berishini, bu esa ma’lumotga asoslangan o‘rganishning metodik asosi ekanini ko‘rsatgan [115]. T.M.Chung va I.S.P.Neyshn korpus asosidagi qiyosiy usul texnik leksikani aniqlashning ishonchli usullaridan biri ekanini asoslagan [26], K.N.Tojiyeva esa iqtisodiy terminlarning elektron korpusi qiyosiy izlanishlar va ekvivalent tanlash

uchun metodik asos bo‘lishini ko‘rsatgan [47]. Lingvodidaktik jihatdan korpus uch vazifani bajaradi: tanlash vositasi sifatida u terminologik minimumning chastotaviy asosini ta’minlaydi; tavsiflash vositasi sifatida u terminning barqaror birikmalari va kontekstual ma’nolarini ochib beradi; o‘qitish vositasi sifatida esa talabaga konkordans qatorlarini tahlil qilib, termin qo‘llanishini mustaqil kashf etish imkonini beradi. Oxirgi vazifa talabaning mustaqil ta’limini faollashtiradi va raqamli texnologiyalar asosida terminologik ishni tashkil etishga yo‘l ochadi. D.R.Pulatova korpusga asoslangan o‘qitish texnologiyalari kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda autentik til materialiga tayanish imkonini berishini ko‘rsatadi [44].

Endi terminologik ish bilan muloqot kompetensiyasi komponentlari o‘rtasidagi bog‘lanishni ko‘rib chiqamiz. Kommunikativ kompetensiya tushunchasini fanga kiritgan D.Xaymz til bilishni faqat grammatik to‘g‘rilik bilan cheklamay, gapning ijtimoiy kontekstga, vaziyatga va suhbatdoshga mosligini ham qamrab oluvchi qobiliyat sifatida talqin etgan [32]. M.Kanale va M.Sueyn kommunikativ kompetensiya tarkibida grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik kompetensiyalarni ajratgan [24]. U.G.Porsayev esa kommunikativ kompetensiyani lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik va strategik komponentlar birligida ko‘rib, strategik komponentni nutqiy jarayonda yuzaga keladigan uzilishlarni sinonim va parafrazlar yordamida yengish ko‘nikmasi sifatida, pragmatik komponentni esa kelishuv, taklif, e’tiroz va rad etish kabi maqsadga yo‘naltirilgan muloqotni olib borish ko‘nikmasi sifatida tavsiflaydi [149]. M.B.Shodiyev kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda til birliklarini tanlashdagi lingvistik aniqlik, ularning semantik tarmoqlarga bog‘lanishi va funksional-stilistik muvofiqligi o‘quv materiali konseptual birligining epistemologik izchilligi orqali yagona tizimga birlashtirilishi kerakligini asoslaydi [164]. D.A.Usarova kasbiy yo‘naltirish tamoyiliga ko‘ra terminologiyani o‘rganish uning amaliy qo‘llanishi, sohaga xos til konstruksiyalari, og‘zaki va yozma ko‘nikmalar hamda kontekstli tushunish bilan birgalikda amalga oshirilishi lozimligini ta’kidlaydi [171].


MDH va milliy pedagogik tadqiqotlarda ham leksik bilim bilan muloqot faoliyati o‘rtasidagi bog‘liqlik turli jihatlardan ochib berilgan. O.S.Zorina kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishni nutq faoliyati vositasida kasbiy masalalarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish sifatida talqin etadi [200]. D.T.Pardayeva lingvistik kompetensiya, xususan so‘z boyligi va grammatik me’yorlar kommunikativ vazifalarni bajarishning poydevori ekanini, biroq bu bilimlar faol muloqotda qo‘llanmasa kommunikativ kompetensiya shakllanmasligini asoslaydi [148]. D.X.Saydazimova kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda kasbiy muloqot vaziyatlarini modellashtirish va rolga asoslangan topshiriqlar orqali til va kasbiy tayyorgarlikni integratsiyalash zarurligini ko‘rsatadi [160]. N.M.Axmedova til komponentlari izolyatsiyalangan holda emas, balki mazmunli, muloqotga asoslangan integratsiyalashgan topshiriqlar orqali

o‘rgatilishi lozimligini ta’kidlaydi [79]. Sh.S.Sharipov kompetentlik tarkibiga sof kasbiy bilim va ko‘nikmalardan tashqari hamkorlik, guruhda ishlash, kommunikativ qobiliyat hamda axborotni saralash va undan foydalana olishni ham kiritadi [163]. Bu qarashlarning umumiy jihati – leksik, shu jumladan terminologik bilimning qiymati u faoliyatda, kasbiy masalani hal qilishda qo‘llanganda namoyon bo‘lishini e’tirof etishdir. Farqli jihat esa urg‘uda: O.S.Zorina va Sh.S.Sharipov kasbiy faoliyat natijasini, D.T.Pardayeva lingvistik asosning zarurligini, D.X.Saydazimova va N.M.Axmedova esa vaziyatli va integrativ tashkil etish shaklini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bu qarashlar iqtisodiy terminlarni ingliz tilida kasbiy muloqot vaziyatlariga yo‘naltirilgan integrativ topshiriqlar orqali o‘rgatish g‘oyasini mustahkamlaydi.

Keltirilgan qarashlarning umumiy jihati shundaki, ularning barchasida leksik birlik, xususan termin, kommunikativ kompetensiyaning bir komponenti doirasida emas, balki barcha komponentlarni kesib o‘tuvchi element sifatida namoyon bo‘ladi. Farqli jihatlar urg‘uda: M.Kanale va M.Sueyn tarkibiy tuzilishni, U.G.Porsayev strategik va pragmatik qo‘llanishni, M.B.Shodiyev esa semantik tizimlilik va stilistik muvofiqlikni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Tadqiqotimizda bu qarashlar sintez qilinib, iqtisodiy terminologik ish muloqot kompetensiyasining har bir komponentiga o‘ziga xos hissa qo‘shuvchi, ularni yagona tizimga bog‘lovchi omil sifatida asoslanadi. Bu bog‘lanish 1.2-rasmda sxematik tarzda aks ettirilgan.

1.2-rasmda sxemaning markazida “Ingliz tilidagi iqtisodiy termin – kasbiy muloqot birligi” bloki joylashgan. Undan yuqorida terminologik ishning to‘rt bosqichi – semantizatsiya, tizimlashtirish, kollokatsion-kontekstual o‘zlashtirish va kommunikativ faollashtirish – ketma-ket strelkalar bilan bog‘langan gorizontal zanjir ko‘rinishida beriladi. Markaziy blokdan pastga besh yo‘nalishda strelkalar chiqadi va ular muloqot kompetensiyasining besh komponentiga olib boradi. Lingvistik komponent blokida termin shakli, ma’nosi, tuzilishi va birikuvchanligi bo‘yicha bilim ko‘rsatiladi. Diskursiv komponent blokida terminologik zanjirlar orqali matn izchilligini ta’minlash, termin va uning sinonimlari, qisqartmalari yordamida matnda kogeziya hosil qilish qayd etiladi. Pragmatik komponent blokida terminni nutqiy maqsadga – axborot berish, ishontirish, kelishuvga erishish, e’tiroz bildirishga – muvofiq qo‘llash ko‘rsatiladi. Sotsiolingvistik komponent blokida registrni tanlash, rasmiy termin, kasbiy jargon va so‘zlashuv ifodasini farqlash, Britaniya va Amerika variantlaridagi farqlarni hisobga olish beriladi. Strategik komponent blokida termin noma’lum yoki muqobilsiz bo‘lgan holatda ta’rif berish, parafraz qilish, aniqlashtiruvchi savol berish va tushunmovchilikni bartaraf etish strategiyalari aks etadi. Komponentlar bloklari ostida ularni birlashtiruvchi “Kasbiy muloqot vaziyatlari” bloki joylashgan bo‘lib, unda taqdimot, muzokara, biznes yozishma, yig‘ilish va telefon orqali muloqot ko‘rsatiladi. Sxemaning o‘ng tomonida pastdan yuqoriga yo‘nalgan vertikal strelka “B1 – B2 – C1” darajaviy o‘sishni ifodalaydi, chap tomonida

esa “Terminologik minimum” bloki tanlash mezonlari bilan birga beriladi va u markaziy blokka kirish strelkasi orqali ulanadi.



1.2-rasm. Iqtisodiy terminologik ish va muloqot kompetensiyasi komponentlarining o‘zaro bog‘lanishi

1.2-rasmda aks ettirilgan bog‘lanishlar kasbiy muloqot vaziyatlarida qanday namoyon bo‘lishini ko‘rib chiqamiz. Taqdimotda talaba iqtisodiy ko‘rsatkichlarni nomlash va ularning o‘zgarishini tavsiflash uchun lingvistik komponentga, taqdimot qismlarini terminologik zanjirlar orqali bog‘lash uchun diskursiv komponentga, tinglovchilarni ishontirish uchun esa pragmatik komponentga tayanadi. Muzokarada pragmatik va strategik komponentlar yetakchilik qiladi: sherik qo‘llagan terminni aniqlashtirish, shartlarni muqobil terminlar orqali qayta ifodalash, kelishmovchilikni yumshatish talab etiladi. Biznes yozishmada sotsiolingvistik va diskursiv komponentlar birinchi o‘ringa chiqadi: termin rasmiy registrga mos tanlanadi, abbreviatura birinchi qo‘llanishda izohlanadi, xat matni terminologik jihatdan izchil quriladi. Yig‘ilishda talaba hisobot terminlarini tushunishi va o‘z fikrini terminologik aniq ifodalashi zarur. Telefon orqali muloqotda esa vizual tayanchning yo‘qligi sababli terminlarning talaffuzi, raqam va qisqartmalarni aniq idrok etish hamda tushunmovchilikni aniqlashtiruvchi savollar orqali bartaraf etish – lingvistik va strategik komponentlar – hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Bu tahlil muhim lingvodidaktik xulosaga olib keladi: terminologik ish izolyatsiya qilingan leksik mashg‘ulot sifatida emas, balki muayyan kasbiy muloqot

vaziyatiga yo‘naltirilgan faoliyat sifatida tashkil etilganda muloqot kompetensiyasining barcha komponentlarini birdaniga rivojlantiradi. Aksincha, terminlarni faqat ro‘yxat va tarjima asosida yodlatish lingvistik komponentning ham faqat retseptiv qatlamini shakllantiradi, qolgan to‘rt komponent esa rivojlanmay qoladi. Shu sababli tadqiqotimizda iqtisodiy terminologik ish muloqot kompetensiyasini rivojlantirishning mazmuniy o‘zagi va tizim hosil qiluvchi omili sifatida qaraladi.

Shunday qilib, o‘tkazilgan tahlil asosida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, terminshunoslikda termin talqini me’yoriy-preskriptiv yondashuvdan (E.Vyuster, D.S.Lotte) kommunikativ va sotsiokognitiv yondashuvga (J.Sager, M.T.Kabre, R.Temmerman) tomon rivojlangan. Tadqiqotimizda ingliz tilidagi iqtisodiy termin kasbiy muloqot vaziyatlarida maxsus iqtisodiy tushunchani nomlash, aniqlashtirish va baholash vazifasini bajaruvchi, iqtisodiy terminosistemaga mansub til birligi sifatida, terminologiya esa iqtisodiyot sohasi terminlarining tarixan shakllangan majmui, terminosistema esa shu majmuaning iqtisodiy nazariya mantiqi asosida tartibga solingan ko‘rinishi sifatida talqin etiladi.

Ikkinchidan, ingliz tilidagi iqtisodiy terminlar tuzilishiga ko‘ra oddiy, qo‘shma, so‘z birikmali va abbreviatura ko‘rinishidagi terminlarga bo‘linadi, ularning ichida ko‘p komponentli birikmalar va abbreviaturalar talaba uchun eng katta qiyinchilik tug‘diradi. Semantik jihatdan ular ko‘p ma’nolilik, sinonimiya va metaforiklik bilan tavsiflanadi; tematik jihatdan makroiqtisodiyot, moliya, marketing, menejment, buxgalteriya hisobi va audit hamda xalqaro savdo kichik terminosistemalarini tashkil etadi va bu guruhlar ta’lim mazmunini modulli asosda tashkil etish uchun tabiiy asos bo‘ladi.

Uchinchidan, ingliz va o‘zbek iqtisodiy terminlari o‘rtasida to‘liq, qisman, variantli, kalka asosidagi ekvivalentlik, muqobilsizlik va soxta ekvivalentlik turlari mavjud bo‘lib, ularning har biri kasbiy muloqotda o‘ziga xos xavf tug‘diradi va alohida lingvodidaktik vazifani talab qiladi. Rus tili vositachiligida o‘zlashgan terminlar va “soxta do‘stlar” fonetik, leksik-semantik, grammatik va pragmatik sathlarda interferensiyaning asosiy manbai hisoblanadi.

To‘rtinchidan, iqtisodiy terminni kasbiy muloqot birligi sifatida o‘zlashtirish semantizatsiya, tizimlashtirish, kollokatsion-kontekstual o‘zlashtirish va kommunikativ faollashtirish bosqichlaridan o‘tadi. Terminologik minimum chastotalilik va tarqalganlik, kommunikativ zaruriyat, tizimiy ahamiyat, birikuvchanlik va so‘z yasash faolligi, tillararo qiyinlik hamda darajaviy muvofiqlik mezonlari asosida tanlanadi va CEFR ning B1, B2, C1 darajalari hamda BEC, Linguaskill Business va TOEIC imtihonlari talablariga muvofiq tabaqalashtiriladi.

Beshinchidan, leksik yondashuv, so‘z boyligini o‘rgatishning ko‘p jihatli modeli va korpus lingvistikasi imkoniyatlari iqtisodiy terminologik ishning metodologik tayanchini tashkil etadi: ular terminni yakka birlik sifatida emas, balki kollokatsiyalar

va nutqiy formulalar tizimida o‘rgatish, terminologik minimumni ob’ektiv chastotaviy asosda tanlash va talabaning mustaqil kashfiyotga asoslangan faoliyatini tashkil etish imkonini beradi.

Oltinchidan, iqtisodiy terminologik ish muloqot kompetensiyasining lingvistik, diskursiv, pragmatik, sotsiolingvistik va strategik komponentlarini kesib o‘tuvchi tizim hosil qiluvchi omil hisoblanadi. U taqdimot, muzokara, biznes yozishma, yig‘ilish va telefon orqali muloqot kabi kasbiy muloqot vaziyatlariga yo‘naltirilgan faoliyat sifatida tashkil etilgandagina muloqot kompetensiyasining barcha komponentlarini uyg‘un rivojlantiradi. Ushbu xulosalar keyingi paragrafda iqtisodiyot yo‘nalishi talabalariga ingliz tilini o‘qitishning xorijiy tajribasi va O‘zbekiston oliy ta’lim tizimidagi holatini tahlil qilish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

1.3-§. Iqtisodiyot yo‘nalishi talabalariga ingliz tilini o‘qitishning xorijiy tajribasi va O‘zbekiston oliy ta’lim tizimidagi holati

Iqtisodiyotning globallashuvi, xalqaro moliya institutlari va transmilliy kompaniyalar bilan hamkorlikning kengayishi iqtisodiyot mutaxassisini tayyorlash tizimida ingliz tilini o‘qitish mazmuni va tashkil etilishiga yangi talablar qo‘ymoqda. Ushbu talablarga javob beruvchi metodikani takomillashtirish uchun avvalo iqtisodiyot yo‘nalishi talabalariga ingliz tilini o‘qitish xorijda, MDH mamlakatlarida va O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida qanday tashkil etilganini aniqlash, ilg‘or tajribani milliy amaliyot bilan qiyoslash zarur. Tajribani tavsiflash bilan cheklanmaslik va uni yagona o‘lchov asosida qiyoslash uchun tadqiqotimizda oltita tahlil mezoni belgilanadi: birinchidan, ta’lim maqsadi va CEFR bo‘yicha maqsad darajasi; ikkinchidan, ta’lim mazmuni va uning tanlanish asosi; uchinchidan, terminologik ishning o‘rni, ya’ni terminologik minimumning mavjudligi va terminlarning muloqot bilan bog‘lab yoki undan ajratib o‘rgatilishi; to‘rtinchidan, kasbiy muloqot vaziyatlari (taqdimot, muzokara, biznes yozishma, yig‘ilish, telefon orqali muloqot) ning tashkil etilishi; beshinchidan, mutaxassislik fanlari bilan integratsiya darajasi; oltinchidan, baholash tizimi va uning muloqot kompetensiyasi komponentlariga mosligi. Mezonlar muloqot kompetensiyasi komponentlari bilan bevosita bog‘lanadi: maqsad va baholash mezonlari motivatsion-refleksiv komponent va darajaviy tavsif bilan, terminologik ish mezoni iqtisodiy-terminologik komponent bilan, kasbiy muloqot vaziyatlari mezoni lingvopragmatik komponent va diskursiv-strategik komponent bilan, integratsiya mezoni esa madaniyatlararo-kasbiy komponentning kasbiy-mazmuniy asosi bilan.

Xorijiy tajriba tahlili kasbga yo‘naltirilgan ingliz tili (ESP) va Business English o‘qitish an’anasi shakllangan Buyuk Britaniya va AQSH tajribasidan boshlanadi. Bu an’anada kursni loyihalash ehtiyojlar tahlilidan boshlanadi. M.H.Long ehtiyojlar tahlilini kurs mazmunini tanlashning majburiy dastlabki bosqichi sifatida ko‘radi va

uni bir necha manba (o‘quvchilar, soha mutaxassislari, ish beruvchilar, mavjud hujjatlar) hamda bir necha usul (so‘rov, intervyu, kuzatish, kasbiy matnlar tahlili) asosida o‘tkazishni, olingan ma’lumotlarni triangulyatsiya qilishni talab qiladi; tahlil birligi sifatida esa alohida til birligi emas, balki o‘quvchi kelgusida bajaradigan maqsadli vazifa (target task) olinadi [131]. T.Hutchinson va A.Waters ehtiyojlar tahlilida maqsadli vaziyat ehtiyojlarini o‘quv jarayoni ehtiyojlaridan farqlab, kursni loyihalashni o‘rganishga yo‘naltirilgan yondashuv asosida qurishni taklif etadi: mazmun maqsadli vaziyatdan, o‘qitish usuli esa o‘quvchining qanday o‘rganishidan kelib chiqadi [116]. H.Basturkmen kurs fokusini aniqlashni, ya’ni dastur keng (bir necha turdosh soha uchun umumiy) yoki tor (aniq kasb uchun) bo‘lishini hal qilishni hamda maqsadli ish joyi diskursi va janrlarini tahlil qilishni ESP kursini loyihalashning markaziy masalasi deb hisoblaydi [84]. Uch qarashni qiyoslaganda umumiy jihat shundaki, barcha mualliflar ta’lim mazmunini darslik yoki an’anaviy mavzular ro‘yxatidan emas, balki o‘quvchining kelgusidagi kasbiy faoliyatidan keltirib chiqaradi. Farqli jihat tahlil birligining tanlanishida namoyon bo‘ladi: M.H.Long vazifani, T.Hutchinson va A.Waters vaziyat va o‘quv jarayonini, H.Basturkmen esa diskurs va janrni asosiy birlik deb biladi. Tadqiqotimiz uchun bu uch qarashning uyg‘unligi muhim: iqtisodiyot talabasi uchun maqsadli vazifa (hisobotni taqdim etish, shartnoma shartlarini kelishish, hamkorga xat yozish) bir vaqtning o‘zida kasbiy janr ham, iqtisodiy terminlar qo‘llanadigan muloqot vaziyati ham hisoblanadi. Demak, iqtisodiy terminologik minimum alohida lug‘at sifatida emas, balki ehtiyojlar tahlili orqali aniqlangan kasbiy vazifalar va janrlar ichidan tanlanishi lozim. Bu xulosa III bobdagi terminologik minimumni tanlash metodikasining asosiy talablaridan biriga aylanadi. D.Belcher ESP ni ta’lim oluvchining hozirgi ehtiyojlari bilan birga kelgusidagi kasbiy faoliyatiga yo‘naltirilgan ta’lim sifatida talqin etadi [18]. B.Paltridge va S.Starfield tahriri ostidagi qo‘llanmada ESP ning janr, korpus va ehtiyojlar tahliliga asoslangan zamonaviy yo‘nalishlari umumlashtiriladi [147].

Business English o‘qitish metodikasida o‘quvchi tajribasining o‘rni alohida ta’kidlanadi. M.Ellis va C.Johnson Business English o‘quvchilarini ish tajribasiga ega bo‘lmaganlar, kam tajribaga egalar va tajribali mutaxassislarga ajratib, birinchi guruh uchun kasbiy mazmunni o‘quv jarayonida yaratish, ya’ni keys, simulyatsiya va rolli o‘yinlar orqali kasbiy vaziyatni modellashtirish zarurligini asoslaydi; ular uchun til ko‘nikmalari biznes ko‘nikmalari (yig‘ilish o‘tkazish, taqdimot qilish, muzokara olib borish, telefon orqali muloqot) bilan birga rivojlantiriladi [106]. E.Frendo Business English o‘qitishni o‘quvchining ish joyidagi muloqot ehtiyojlarini tahlil qilishdan boshlab, so‘ngra bu ehtiyojlarni kurs mazmuniga, topshiriqlarga va baholash tartibiga aylantirish jarayoni sifatida tavsiflaydi; olim biznes leksikasini umumiy, yarim texnik va texnik qatlamlarga ajratadi va uni muayyan muloqot ko‘nikmasi (yozishma, yig‘ilish, taqdimot, muzokara, ijtimoiy muloqot) ichida o‘rgatish zarurligini ta’kidlaydi

[110]. Ikki qarashni qiyoslaganda M.Ellis va C.Johnson ko‘proq o‘quvchi tipologiyasi va kurs turlariga, E.Frendo esa amaliy o‘qitish va baholash texnologiyasiga e’tibor qaratadi; umumiy jihat shundaki, ikkalasi ham biznes leksikasini muloqot ko‘nikmasidan ajratmaydi. Bakalavriat bosqichidagi iqtisodiyot talabalari ish tajribasiga ega bo‘lmagan o‘quvchilar guruhiga mansubligi 1.1-§ da qayd etilgan edi. Bundan kelib chiqadiki, ular uchun kasbiy muloqot vaziyati o‘quv jarayonida maxsus modellashtirilishi, iqtisodiy terminlar esa E.Frendo ajratgan qatlamlar bo‘yicha bosqichma-bosqich, muayyan biznes ko‘nikmasi ichida o‘rgatilishi kerak. Ingliz-amerika an’anasidan tadqiqotimiz uchun olinadigan element ehtiyojlar tahliliga asoslangan, vazifa va janrga yo‘naltirilgan kurs loyihalash tamoyili hamda terminlarni biznes ko‘nikmasi ichida o‘rgatish g‘oyasidir. N.Brieger Business English mazmunini umumiy til, kasbiy til, muloqot ko‘nikmalari, kasbiy ko‘nikmalar va madaniy jihatlarning kesishmasi sifatida tavsiflaydi [89]. S.Donna Business English kursini loyihalashda talabalar ehtiyojlari tahlilidan va real ishbilarmonlik vaziyatlaridan kelib chiqish zarurligini ta’kidlaydi [101].

Yevropa tajribasining asosini Tillarni egallashning umumevropa kompetensiyalari (CEFR) va uning 2020-yildagi qo‘shimcha jildi tashkil etadi. Qo‘shimcha jildda an’anaviy retseptiya, produksiya va interaksiya faoliyatlari mediatsiya faoliyati bilan to‘ldiriladi, mediatsiya esa matnni mediatsiya qilish, tushunchalarni mediatsiya qilish va muloqotni mediatsiya qilish turkumlariga ajratiladi; interaksiya shkalalari qatorida esa maqsadga yo‘naltirilgan hamkorlik, ma’lumot almashinuvi, yozishma, onlayn muloqot va jamoaviy muhokama deskriptorlari beriladi [12]. CEFR kasbiy muloqot uchun alohida “biznes darajasi” belgilamaydi, biroq uning deskriptorlari kasbiy vaziyatlarga moslashtirilishi mumkin bo‘lgan umumiy o‘lchov vazifasini bajaradi [11]. Tadqiqotimiz nuqtayi nazaridan qo‘shimcha jildning ikki jihati ahamiyatli. Birinchisi, mediatsiya deskriptorlari iqtisodiyot mutaxassisining real faoliyatini aks ettiradi: ingliz tilidagi moliyaviy hisobot yoki tahliliy sharh mazmunini o‘zbek tilida hamkasbga yetkazish, murakkab iqtisodiy tushunchani sodda tilda tushuntirish, yig‘ilishda turli pozitsiyalarni umumlashtirish mediatsiyaning tipik shakllaridir. Ikkinchisi, maqsadga yo‘naltirilgan hamkorlik va yozishma shkalalari muzokara va biznes yozishma vaziyatlarida B1, B2 va C1 darajalarini farqlash uchun tayyor mezonlar beradi. Shu sababli tadqiqotimizda CEFRning umumiy deskriptorlari iqtisodiy-kasbiy muloqot vaziyatlariga moslashtirilib, baholash mezonlari va ko‘rsatkichlariga asos qilib olinadi.

Yevropa tajribasining ikkinchi yo‘nalishi fan mazmuni va tilni integratsiyalab o‘qitish (CLIL) dir. D.Coyle, P.Hood va D.Marsh CLILni fan mazmuni va chet tili bir vaqtda o‘qitiladigan ikki yo‘nalishli ta’lim yondashuvi sifatida ta’riflaydi va uning asosiga mazmun, muloqot, bilish va madaniyat birligini (“4C” konsepsiyasi) qo‘yadi; muloqot tarkibida esa ular o‘rganish tili (fanga xos terminlar va tuzilmalar), o‘rganish

uchun til (vazifani bajarish uchun zarur funksional vositalar) va o‘rganish orqali yuzaga keladigan tilni farqlaydi [97]. Bu “til triptixi” iqtisodiy terminologiyani o‘qitish uchun muhim metodik farqlashni beradi: iqtisodiy terminlar “o‘rganish tili” qatlamini, taqdimot, muzokara va hisobotda qo‘llanadigan funksional iboralar esa “o‘rganish uchun til” qatlamini tashkil etadi. CLIL tajribasi ESP an’anasidan farqli ravishda mutaxassislik fanining mazmunini til darsining bevosita obyektiga aylantiradi. Iqtisodiyot yo‘nalishida bu talab ingliz tili mashg‘ulotlari mavzularini mikroiqtisodiyot, marketing, moliya kabi fanlar mazmuni bilan uyg‘unlashtirish, ingliz tili o‘qituvchisi va mutaxassislik fani o‘qituvchisi hamkorligini yo‘lga qo‘yishni anglatadi. Tadqiqotimiz uchun CLILdan olinadigan element terminlarni mutaxassislik fani mazmuni bilan birga, ikki tomonlama integratsiya asosida o‘rgatish tamoyilidir; bu tamoyil keyingi bobda mutaxassislik fanlari bilan integratsiyani ta’minlovchi pedagogik shart-sharoit sifatida ishlab chiqiladi.

Osiyo tajribasida Business Englishni mustaqil o‘quv yo‘nalishi sifatida rivojlantirgan Xitoy tajribasi alohida e’tiborga loyiq. Z.Zhang Xitoyda Business English o‘qitishning ellik yillik rivojini tahlil qilib, u intuitsiyaga asoslangan o‘qitishdan mazmunga asoslangan o‘qitishga, so‘ngra tadqiqotlarga tayangan o‘qitishga o‘tganini ko‘rsatadi; olim ESP va biznes diskursi tadqiqotlarini birlashtirgan holda Business Englishning ishchi ta’rifini ishlab chiqadi va uch tarkibiy qismdan iborat o‘quv dasturini taklif etadi; bu dasturning maqsadi til ko‘nikmalari va fan bilimlari bilan cheklanmay, talabada biznes ekspertizasini, ya’ni biznes faoliyatini tushunish va unda ishtirok etish qobiliyatini shakllantirishdir [51]. Ushbu tajribaning ahamiyati shundaki, unda til, biznes diskursi va biznes amaliyoti bir dastur doirasida bog‘lanadi. Z.Zhang qarashini M.Ellis va C.Johnson hamda E.Frendo qarashlari bilan qiyoslaganda, Xitoy tajribasi Business Englishni alohida kurs emas, balki yaxlit ta’lim dasturi darajasida loyihalashi bilan farqlanadi. O‘zbekiston sharoiti uchun bu tajribadan olinadigan element ingliz tili ta’limini iqtisodiy ta’lim yo‘nalishining butun o‘quv rejasi bilan bog‘lab rejalashtirish g‘oyasidir: ingliz tili faqat birinchi kursdagi umumiy fan bo‘lib qolsa, iqtisodiy-terminologik komponent mutaxassislik fanlari o‘qitiladigan yuqori kurslarda qo‘llab-quvvatlanmaydi.

Business English bo‘yicha xalqaro imtihonlar ta’lim natijasini tashqi me’yor bilan solishtirish imkonini beradi. Cambridge Business Certificates turkumidagi B1 Business Preliminary, B2 Business Vantage va C1 Business Higher imtihonlari xalqaro biznes muhitida ishlash uchun zarur til ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich baholaydi [231]; imtihon topshiriqlari ichki yozishma, hisobot va taklif yozish, ish joyidagi suhbat va taqdimotni tinglash, qisqa taqdimot qilish va hamkorlikdagi muhokamada ishtirok etish kabi kasbiy vazifalarga qurilgan. Linguaskill Business testi ish joyida qo‘llanadigan tilga yo‘naltirilgan bo‘lib, natijani CEFR darajalari bilan bog‘langan holda beradi [233], TOEIC Listening and Reading testi esa ish joyidagi suhbatlar,

e’lonlar va yozma kasbiy matnlarni tushunish qobiliyatini o‘lchaydi [236]. Uch imtihonni tahlil qilish ikki xulosaga olib keladi. Birinchidan, xalqaro me’yorda kasbiy muloqot kompetensiyasi termin yoki grammatik shaklni bilish orqali emas, balki kasbiy vazifani bajarish natijasi orqali baholanadi. Ikkinchidan, imtihonlarda leksika hamisha vaziyat ichida tekshiriladi: hisobot yozish topshirig‘ida iqtisodiy terminning to‘g‘ri qo‘llanishi matnning aniqligi va maqsadga muvofiqligi bilan birga baholanadi. Shu sababli tadqiqotimizda xalqaro imtihonlar talablari ikki maqsadda inobatga olinadi: o‘quv topshiriqlari tipologiyasini (taqdimot, yozishma, hisobot, muhokama) shakllantirishda va iqtisodiy-terminologik komponentni lingvopragmatik komponent va diskursiv-strategik komponent bilan birga baholovchi mezonlarni ishlab chiqishda.

MDH mamlakatlarida kasbga yo‘naltirilgan chet tili ta’limi ko‘proq faoliyat nazariyasi va kontekstli ta’lim doirasida rivojlanadi. A.A.Verbitskiy kontekstli ta’lim nazariyasida o‘quv faoliyatining mazmuni talabaning kelgusidagi kasbiy faoliyati predmet va ijtimoiy kontekstini modellashtirishi kerakligini asoslaydi; olim akademik faoliyatdan kvazikasbiy faoliyatga, undan esa o‘quv-kasbiy faoliyatga o‘tishni ta’limning izchil bosqichlari sifatida ajratadi va har bir bosqichga mos ta’lim shakllarini (ma’ruza, seminar, ishbilarmonlik o‘yini, loyiha) belgilaydi [188]. Ushbu qarash Business English nazariyasidagi kasbiy vaziyatni simulyatsiya qilish g‘oyasi bilan mos keladi, biroq undan farqli ravishda u simulyatsiyani tasodifiy usul sifatida emas, balki ta’lim mazmunini qurishning tizimli tamoyili sifatida qaraydi. Iqtisodiyot yo‘nalishiga tatbiq etilganda kontekstli ta’lim iqtisodiy terminlarni o‘rgatishni uch bosqichda tashkil etish imkonini beradi: terminning tushunchaviy mazmunini akademik matn asosida o‘zlashtirish, uni kvazikasbiy vaziyatda (biznes-o‘yin, keys) qo‘llash va nihoyat real kasbiy topshiriqqa yaqin o‘quv loyihasida mustaqil ishlatish. Bu bosqichlar keyingi boblarda modelning protsessual bloki mazmunini belgilashda asos bo‘ladi. O.B.Tarnopolskiy va S.P.Kojushko ishbilarmonlik muloqoti uchun ingliz tilini o‘qitishda kasbiy vaziyatlarni modellashtiruvchi topshiriqlar va rolli o‘yinlar yetakchi o‘rin tutishini ko‘rsatadi [220].

S.S.Kunanbayeva chet tili ta’limini mustaqil didaktik soha sifatida ko‘rib, uning metodologiyasi sifatida kognitiv-lingvomadaniy yondashuvni ishlab chiqadi: ta’limning markaziy obyekti “chet tili – chet madaniyat – shaxs” uchligi bo‘lib, maqsad talabani madaniyatlararo muloqot subyekti sifatida shakllantirish, ya’ni unda ikkilamchi kognitiv va lisoniy ong hosil qilishdir; olim, shuningdek, tilning funksional turlarini (kundalik til, maxsus maqsadlar uchun til, akademik til) farqlaydi [206]. A.A.Verbitskiy qarashi bilan qiyoslaganda S.S.Kunanbayeva yondashuvi kasbiy faoliyat kontekstidan ko‘ra kognitiv va madaniy jihatlarga ko‘proq urg‘u beradi. Iqtisodiy muloqot uchun bu ikki yondashuv bir-birini to‘ldiradi: iqtisodiy termin ortida turgan tushuncha (masalan, korporativ boshqaruv, raqobat, risk tushunchalari) turli iqtisodiy madaniyatlarda turlicha talqin qilinadi, shu bois termin ma’nosini anglash

madaniyatlararo-kasbiy komponentsiz to‘liq bo‘lmaydi. Kunanbayeva farqlagan funksional turlar esa iqtisodiyot talabasi uchun ingliz tilini umumiy, akademik va kasbiy qatlamlarda bosqichma-bosqich o‘qitish zarurligini nazariy jihatdan asoslaydi.

Iqtisodiy va boshqaruv yo‘nalishlari talabalarining kasbiy-kommunikativ kompetensiyasi MDH dissertatsiyalarida maxsus tadqiq etilgan. Ye.V.Klimenko bo‘lajak moliyachilarning chet tilidagi kasbiy kommunikativ kompetentligini tilning lingvistik, kasbiy-kontekstual, psixologik, ijtimoiy va vaziyatli jihatlarini aks ettiruvchi bilim va ko‘nikmalarni egallash natijasi sifatida ta’riflaydi va uning tarkibida lingvistik, predmetli, sotsiomadaniy, psixologik, kommunikativ, o‘z-o‘zini ta’limlash, strategik va ijodiy komponentlarni ajratadi; olim kompetentlikni shakllantirish shartlari qatorida fanlararo aloqalardan foydalanish va diagnostik nazoratni alohida qayd etadi [58]. L.V.Marennikova bo‘lajak menejerlarning kasbiy-kommunikativ chet tili kompetensiyasini kasbiy ahamiyatli integrativ shaxs sifati sifatida tavsiflaydi va uning tarkibida lingvistik, diskursiv, faoliyatli, kasbga yo‘naltirilgan, refleksiv-baholovchi va insonshunoslik komponentlarini ajratadi; olim biznes ingliz tili kursida amaliyotga yo‘naltirilgan loyihalar, rolli o‘yinlar va o‘quvchi kundaligi orqali refleksiyani asosiy vosita deb hisoblaydi [60]. N.Yu.Pavlova esa iqtisodiyot talabalari kommunikativ kompetensiyasini lingvistik, nutqiy, ijtimoiy-madaniy, kompensator va o‘quv komponentlari majmuasi sifatida ko‘radi [214]. Uch tadqiqotni qiyoslaganda umumiy jihat shundaki, barcha mualliflar iqtisodiy va boshqaruv sohasi mutaxassisining kompetensiyasida predmetli yoki kasbga yo‘naltirilgan komponentni, shuningdek refleksiv yoki o‘z-o‘zini ta’limlash komponentini ajratadi. Farqli jihatlar shundaki, Ye.V.Klimenko komponentlar sonini kengaytirib, kompetentlikni psixologik va ijodiy sifatlar bilan boyitadi, L.V.Marennikova diskursiv va refleksiv jihatlarga, N.Yu.Pavlova esa lingvodidaktik tarkibga urg‘u beradi. Ushbu tadqiqotlarda iqtisodiy terminologiya predmetli komponentning bir qismi sifatida tilga olinadi, biroq u kompetensiyaning tizim hosil qiluvchi asosi sifatida ajratilmaydi va terminologik minimumni tanlash mezonlari ishlab chiqilmaydi. Tadqiqotimizda MDH tajribasidan kontekstli ta’limning bosqichlilik g‘oyasi, kognitiv-lingvomadaniy yondashuvning madaniyatlararo jihati va iqtisodiy-kasbiy kompetensiyada refleksiv komponentning zarurligi haqidagi xulosa olinadi; iqtisodiy-terminologik komponentning markaziy o‘rni esa tadqiqotimizning o‘ziga xos jihati sifatida saqlanadi. Ye.V.Timoxina kasbiy-kommunikativ kompetensiyani shakllantirish modelini taklif etib, uning tarkibida kasbiy vaziyatga mos nutqiy harakatlarni bajarish qobiliyatini yetakchi deb biladi [67]. B.B.Karabayev kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda modulli-reyting texnologiyasining samaradorligini asoslaydi [203].

Tahlil qilingan xorijiy va MDH tajribasini ajratilgan mezonlar bo‘yicha qiyosiy tavsiflash va har bir tajribadan O‘zbekiston sharoiti uchun olinadigan elementni aniqlash maqsadida ular 1.3-jadvalda umumlashtiriladi.

1.3-jadval

Iqtisodiyot yo‘nalishi talabalariga ingliz tilini o‘qitish tajribasining qiyosiy tavsifi

Tizim / tajriba	Asosiy yondashuv	Terminologik ishning o‘rni	Kasbiy muloqotning tashkil etilishi	Kuchli tomonlar	O‘zbekiston uchun olinadigan element
Buyuk Britaniya va AQSH: ESP an’anasi (M.H.Long [131], T.Hutchinson, A.Waters [116], H.Basturkmen [84])	Ehtiyojlar tahliliga asoslangan, vazifa va janrga yo‘naltirilgan kurs loyihalash	Leksika maqsadli vazifa va janr ichidan tanlanadi	Maqsadli vazifalar (target tasks) va kasbiy janrlar asosida	Mazmunning kasbiy faoliyatdan kelib chiqishi, ko‘p manbali ehtiyojlar tahlili	Terminologik minimumni ehtiyojlar tahlili va kasbiy janrlar asosida tanlash
Business English metodikasi (M.Ellis, C.Johnson [106], E.Frendo [110])	O‘quvchi tajribasini hisobga olgan, ko‘nikmaga yo‘naltirilgan o‘qitish	Biznes leksikasi umumiy, yarim texnik va texnik qatlamlarga ajratiladi, ko‘nikma ichida o‘rgatiladi	Yig‘ilish, taqdimot, muzokara, telefon orqali muloqot, yozishma ko‘nikmalari	Tajribasiz o‘quvchilar uchun simulyatsiya, til va biznes ko‘nikmalari birligi	Terminlarni biznes ko‘nikmasi ichida, qatlamlar bo‘yicha bosqichma-bosqich o‘rgatish
Yevropa: CEFR [11] va 2020-yilgi qo‘shimcha jild [12]	Harakatga yo‘naltirilgan yondashuv, “can-do” deskriptorlari	Leksik diapazon va leksik nazorat shkalalari orqali	Interaksiya, produksiya, mediatsiya, yozishma va hamkorlik shkalalari	Yagona darajaviy o‘lchov, mediatsiya deskriptorlari	B1–B2–C1 darajalarini iqtisodiy-kasbiy vaziyatlarga moslashtirib baholash mezonla

					riga asos qilish
Yevropa: CLIL (D.Coyle, P.Hood, D.Marsh [97])	Fan mazmuni va tilni integratsiya lab o‘qitish, “4C” konsepsiya si	Fanga xos terminlar “o‘rganish tili” sifatida ajratiladi	Fan mazmunini muhokama qilish, tushuntirish , taqdim etish	Til va mutaxassislik mazmuninin g ikki tomonlama bog‘lanishi	Ingliz tili mavzula rini mutaxas sislik fanlari mazmu ni bilan uyg‘unl ashtirish
Osiyo: Xitoy tajribasi (Z.Zhang [51])	Business Englishni ESP va biznes diskursi asosida yaxlit dastur sifatida loyihalash	Til, biznes diskursi va biznes amaliyoti bilimlari bir dasturda	Biznes ekspertizasi ni shakllantiru vchi kurslar tizimi	Dastur darajasidagi integratsiya, tadqiqotga asoslanganli k	Ingliz tili ta’limin i butun o‘quv rejasi bo‘ylab rejalasht irish
Xalqaro imtihonlar: BEC [231], Linguaskill Business [233], TOEIC [236]	Kasbiy vazifani bajarish natijasini baholash	Leksika vaziyat ichida, vazifa bajarilishi bilan birga tekshirilad i	Yozishma, hisobot, taqdimot, muhokama, ish joyidagi tinglash topshiriqlar i	Tashqi me’yor, CEFR bilan bog‘langan natija	Topshiri qlar tipologi yasi va komple ks baholas h mezonla ri
MDH: kontekstli ta’lim (A.A.Verbits kiy [188])	Kasbiy faoliyat kontekstini modellashti rish	Termin akademik, kvazikasbi y va o‘quv-kasbiy bosqichlar da o‘zlashtiri ladi	Ishbilarmon lik o‘yinlari, loyihalar	Bosqichlilik va tizimlilik	Terminl arni o‘rgatis hning uch bosqichl i protsess ual mantiqi

MDH: kognitiv-lingvomadaniy yondashuv (S.S.Kunanbayeva [206])	“Til – madaniyat – shaxs” uchligi, madaniyatlararo muloqot subyekti	Termin ortidagi tushuncha va uning madaniy talqini	Madaniyatlararo muloqot vaziyatlari	Kognitiv va madaniy jihatlarning uyg‘unligi	Madaniyatlararo-kasbiy komponentni termin ma’nosini anglash bilan bog‘lash
MDH dissertatsiyalari (Ye.V.Klimenko [58], L.V.Marennikova [60], N.Yu.Pavlova [214])	Kasbiy-kommunikativ kompetensiyani ko‘p komponentli tuzilma sifatida shakllantirish	Predmetli komponent tarkibida, alohida tizim sifatida ajratilmagan	Loyiha, rolli o‘yin, fanlararo aloqalar	Refleksiv va kasbga yo‘naltirilgan komponentlarning ajratilishi	Refleksiv komponentni saqlagan holda iqtisodiy-terminologik komponentni markazga qo‘yish

1.3-jadval ma’lumotlari xorijiy va MDH tajribasida uch umumiy tendensiya mavjudligini ko‘rsatadi. Birinchi tendensiya ta’lim mazmunini kasbiy faoliyat tahlilidan (ehtiyojlar, vazifalar, janrlar, kontekst) keltirib chiqarishdir. Ikkinchi tendensiya leksika va terminologiyani muloqot vaziyatidan ajratmasdan, kasbiy ko‘nikma yoki vazifa ichida o‘rgatishdir. Uchinchi tendensiya baholashni alohida til birliklarini emas, balki kasbiy vazifaning bajarilishini o‘lchashga yo‘naltirishdir. Shu bilan birga, tahlil qilingan tajribalarning birortasida iqtisodiy terminologiya muloqot kompetensiyasining tizim hosil qiluvchi asosi sifatida qaralmaydi: ESP va Business Englishda u leksik ta’minot vazifasini, CLILda fan mazmunining tashuvchisi vazifasini, MDH tadqiqotlarida esa predmetli komponentning bir qismi vazifasini bajaradi. Bu holat tadqiqotimizda taklif etilayotgan yondashuvning ilmiy jihatdan ochiq qolgan masalaga yo‘naltirilganini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda nofilologik ta’lim yo‘nalishlarida ingliz tilini o‘qitishning me’yoriy asosi so‘nggi yillarda qabul qilingan bir qator hujjatlar bilan belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni [2] oliy ta’limda o‘quv jarayonini

bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazishni, ta’lim dasturlarini ish beruvchilar ehtiyojlaridan kelib chiqib shakllantirishni, mutaxassislik fanlarini chet tillarda o‘qitish ulushini oshirishni, xorijiy darsliklardan qo‘shimcha va muqobil o‘quv adabiyoti sifatida foydalanishni nazarda tutadi. Konsepsiyada ta’lim dasturlari va talabalar bilimini baholash tizimining xalqaro standartlarga hali to‘liq moslashtirilmaganligi, ta’lim mazmunini shakllantirishda ish beruvchilar ishtirokining sustligi qayd etiladi [2]. Ushbu qoidalar ingliz tili fan dasturlari uchun uchta aniq talabni keltirib chiqaradi: dastur mazmuni iqtisodiy kasbiy faoliyat ehtiyojlariga asoslanishi, kredit-modul tizimida mustaqil ta’lim soatlari kasbiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi va baholash xalqaro me’yorlarga, avvalo CEFRga muvofiqlashtirilishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori [7] xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni davlat siyosati darajasiga ko‘taradi. Qarorda xalqaro sertifikatga ega o‘qituvchilarni rag‘batlantirish, mutaxassislik fanlarini B2 va undan yuqori darajada chet tilida o‘qitayotgan pedagoglarga ustama to‘lash, davlat oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining C1 darajasidagi sertifikat olish xarajatlarini qoplash, davlat xizmatiga qabul qilishda chet tilini bilishni malaka talabi sifatida belgilash kabi choralar nazarda tutiladi [7]. Nofilologik yo‘nalishlarda ingliz tilini o‘qitish uchun qarorning ahamiyati ikki jihatda namoyon bo‘ladi: til bilish darajasi xalqaro tan olingan, CEFR bilan bog‘langan ko‘rsatkichlar orqali o‘lchanadigan bo‘ladi va chet tilini bilish bitiruvchining mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi omiliga aylanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 34-son “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori [9] PQ-5117-son qarorda belgilangan vazifalarni amaliy mexanizmlar bilan ta’minlaydi. Qarorda uzluksiz ta’lim tizimida xorijiy tillar bo‘yicha o‘quv dasturlarini to‘liq qayta ko‘rib chiqish, oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy o‘qitish metodikalari, dasturlar va darsliklarni joriy etishni moliyalashtirish, xorijiy til o‘qituvchilari uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish, o‘qituvchilar attestatsiyasiga tinglab tushunish, o‘qish, yozish va gapirish ko‘nikmalarini baholovchi kasbiy sinovni kiritish hamda xorijiy til sertifikatlarining yagona elektron bazasini yaratish nazarda tutiladi [9]. Nofilologik yo‘nalishlarda ingliz tilini o‘qitish uchun qarorning ahamiyati shundaki, unda o‘quv dasturlarini yangilash davlat darajasidagi vazifa sifatida belgilanadi va baholash to‘rt nutq faoliyatini qamrab oluvchi, xalqaro tan olingan me’yorlarga muvofiq tizimga yo‘naltiriladi.

Uchala hujjatni qiyoslaganda me’yoriy talablarning izchil kuchayib borishi ko‘zga tashlanadi: PF-5847 ta’lim mazmuni va baholashni xalqaro standartlar va ish

beruvchilar talablariga moslashtirishni talab qiladi, PQ-5117 til bilish darajasini xalqaro me’yorlar bilan o‘lchashni va uni kasbiy faoliyat sharti sifatida rag‘batlantirishni belgilaydi, Vazirlar Mahkamasining 34-son qarori esa o‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqish va to‘rt nutq faoliyatini baholash mexanizmini mustahkamlaydi. Biroq hujjatlarning birortasida iqtisodiyot yoki boshqa yo‘nalishlar uchun kasbiy muloqot mazmuni aniqlashtirilmaydi; bu vazifa oliy ta’lim muassasalari darajasidagi fan dasturlariga yuklanadi.

Me’yoriy talablarni metodik darajaga olib chiquvchi asosiy hujjat 2020-yilda ishlab chiqilgan “ESP Curriculum for Higher Education in Uzbekistan” (O‘zbekiston oliy ta’limi uchun ESP namunaviy dasturi) dir [10]. Dastur milliy standartlar va CEFR bilan muvofiqlashtirilgan bo‘lib, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi va Britaniya Kengashi hamkorligidagi loyiha doirasida mamlakatning turli oliy ta’lim muassasalari mutaxassislari tomonidan tayyorlangan. Dasturning maqsadi talabalarning kelgusidagi akademik va kasbiy faoliyatiga mos kommunikativ til kompetensiyalari va nutqiy faoliyatni CEFR doirasida rivojlantirishdir; kommunikativ til kompetensiyalari tarkibida lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik (diskursiv, funksional va dizayn) hamda plyurilingval va plyurikultural kompetensiyalar ajratiladi [10]. Tuzilmasi jihatidan dastur maqsad va asoslash, talablar va dasturni qo‘llash bo‘limlaridan iborat bo‘lib, qo‘llash bo‘limi CEFRda belgilangan kurs loyihalashning yetti tarkibiy qismi (ehtiyojlarni aniqlash, maqsadlarni belgilash, mazmunni aniqlash, materiallarni tanlash yoki yaratish, ta’lim dasturini tuzish, o‘qitish metodlari, baholash) asosida quriladi.

ESP namunaviy dasturida CEFR darajalariga munosabat realistik tarzda belgilanadi. Namunaviy dastur ishlab chiqilgan davrda amalda bo‘lgan Vazirlar Mahkamasi qarori bilan nofilologik yo‘nalishlar talabalari uchun B2 darajasi belgilangan bo‘lsa-da, dasturda bu daraja uzoq muddatli maqsad sifatida e’tirof etiladi va hozirgi sharoitda B1 darajasi maqbul natija sifatida qabul qilinadi; barcha talabalar to‘rt yil ichida B1 ga, ularning ko‘pchiligi esa B2 ga erishishi kerakligi qayd etiladi [10]. Chet tilini barcha kurslarda o‘qitish, umumiy til bosqichini (LGP) asosan birinchi kursda, maxsus maqsadlar uchun til bosqichini (LSP) esa ikkinchi–to‘rtinchi kurslarda tashkil etish, haftasiga kamida to‘rt auditoriya soati ajratish tavsiya etiladi; kasbiy yo‘naltirilgan bosqichda nutq faoliyati turlariga taxminan gapirish uchun 40, tinglab tushunish uchun 30, o‘qish uchun 20, yozish uchun 10 foiz vaqt ajratish tavsiya qilinadi [10]. Kasbiy yo‘naltirilganlik tamoyillari T.Dudley-Evans va M.J.St John [104] tasnifiga tayangan holda mutlaq va o‘zgaruvchan xususiyatlar sifatida beriladi: maxsus maqsadlar uchun til o‘quvchining aniq ehtiyojlarini qondiradi, xizmat qiladigan fan metodologiyasidan foydalanadi va shu faoliyatga xos til, ko‘nikma, diskurs va janrlarga yo‘naltiriladi [10].

Terminologik ish va kasbiy muloqot vaziyatlariga munosabat ESP namunaviy dasturining eng muhim yangiliklaridan biridir. Dasturda ehtiyojlarga asoslangan

yondashuvning bevosita natijasi sifatida o‘qituvchi domenga xos leksikani aniqlashi, ixtisoslashtirilgan so‘z ro‘yxatlaridan yoki korpus lingvistikasi vositalaridan foydalanib soha matnlari to‘plamini yaratishi, chastota va kollokatsiyalar asosida domenga xos va yarim texnik so‘z ro‘yxatlarini tuzishi kerakligi ko‘rsatiladi; biznes leksikasi uchun maxsus manba sifatida M.Nelsonning ro‘yxati tavsiya etiladi [10]. Kasbiy muloqot vaziyatlari esa 2016–2017-yillarda o‘tkazilgan milliy tadqiqot [172] natijalari asosida tuzilgan va ahamiyatiga ko‘ra tartiblangan 50 ta akademik va kasbiy til faoliyati ro‘yxati shaklida beriladi [10]. Ushbu ro‘yxatda kasbiy ma’ruza va taqdimotlarni tinglash birinchi, kasbiy telefon suhbatlarini tinglash to‘rtinchi, kasbiy taqdimot qilish o‘n beshinchi, kasbiy elektron xat yozish yigirma to‘rtinchi, muzokaralarda ishtirok etish esa o‘ttiz birinchi o‘rinda turadi. Baholash CEFR darajalari va mezonlari (og‘zaki nutq uchun diapazon, aniqlik, ravonlik, interaksiya, bog‘liqlik) asosida, real hayotdagi kasbiy vaziyatlarni simulyatsiya qiluvchi autentik topshiriqlar orqali amalga oshirilishi tavsiya etiladi [10].

ESP namunaviy dasturining afzalligi shundaki, u ingliz tili ta’limini ehtiyojlar tahlili, CEFR, janr va diskurs, autentik baholash kabi xalqaro ESP tamoyillari bilan bog‘laydi va har bir oliy ta’lim muassasasiga o‘z sillabusini ishlab chiqish erkinligini beradi. Dastur ilovasida faqat turizm yo‘nalishi uchun namunaviy sillabus keltiriladi, iqtisodiyot, biznes yoki menejment yo‘nalishlari uchun namunaviy modul, terminologik minimum yoki kasbiy vaziyatlar ro‘yxati ishlab chiqilmagan [10]. Dasturdagi 50 ta til faoliyati barcha sohalar uchun umumiy bo‘lib, ularni iqtisodiy kasbiy faoliyatga moslashtirish, ya’ni hisobot, moliyaviy taqdimot, tijorat taklifi, to‘lov shartlari bo‘yicha muzokara kabi vaziyatlarga aylantirish mexanizmi berilmaydi. Terminologik ish so‘z ro‘yxatlarini tuzish darajasida tavsiya qilinadi, biroq terminni muloqot vaziyatida qo‘llash bosqichlari va uni baholash mezonlari ochib berilmaydi. Bizningcha, namunaviy dastur metodik mo‘ljal vazifasini bajaradi, uning iqtisodiyot yo‘nalishiga tatbiqi esa muassasalar darajasidagi dasturlarning sifatiga bog‘liq bo‘lib qoladi. Shu sababli amaldagi fan dasturlari va o‘quv rejalarini tahlil qilish zarurati tug‘iladi.

Amaldagi hujjatlarning birinchisi nofilologik ta’lim yo‘nalishlari uchun amaldagi “Xorijiy til” fanining ishchi dasturidir [177]. Dasturda fan majburiy fan sifatida birinchi va ikkinchi semestrlarda o‘qitiladi; unga 8 kredit, 120 soat auditoriya mashg‘uloti va 120 soat mustaqil ta’lim, jami 240 soat ajratilgan, haftalik dars soati 4 soat [177]. Fanning maqsadi kelgusi mutaxassislarni kundalik hayotda, ilmiy va kasbiy faoliyatda chet tilidan erkin foydalanuvchi mutaxassis sifatida tayyorlash, vazifalari esa talabalarning nutqiy, lingvistik (leksik, grammatik), ijtimoiy-madaniy va pragmatik kompetensiyalarini rivojlantirish, ilmiy va kasbiy faoliyatda qo‘llanadigan termin va atamalarni o‘rgatish, mustaqil ishlarni talabalarning ilmiy va sohaviy yo‘nalishidan kelib chiqib tashkil etish sifatida belgilangan [177]. Dastur B2 va undan yuqori

darajalarni egallashga qaratilgan. Mavzular umumiy, ijtimoiy, ijtimoiy-madaniy, ta’lim, internet va axborot texnologiyalari hamda mutaxassislik sohasiga oid mavzular guruhlariga ajratilgan; mutaxassislik mavzulari qatorida soha yo‘nalishlari, hujjatlar yuritish, kasbiy etika, muzokaralar olib borish ko‘rsatilgan. Dialogik nutqda rasmiy va norasmiy munozaralar, munozarani boshqarish, intervyu, muzokara va telefon orqali muloqot, yozma nutqda rasmiy va norasmiy xatlar, xulosa (summary) va 200–250 so‘zli esse, o‘qishda haftasiga 1200–1500 belgili sohaga oid matn ustida ishlash belgilangan. Metod va texnologiyalar sifatida dialog, monolog, debat, keys-stadi, aqliy hujum, guruhlarda ishlash, taqdimot va loyihalar ko‘rsatilgan [177].

Ushbu dasturning afzalliklari quyidagilarda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, dasturda pragmatik va ijtimoiy-madaniy kompetensiyalar til kompetensiyasi bilan bir qatorda maqsad sifatida belgilanadi, bu 1.1-§ dagi lingvopragmatik komponent va madaniyatlararo-kasbiy komponent mazmuniga mos keladi. Ikkinchidan, kasbiy muloqot vaziyatlaridan muzokara va telefon orqali muloqot dialogik nutq mazmuniga aniq kiritilgan. Uchinchidan, haftalik 4 soatlik yuklama ESP namunaviy dasturidagi tavsiyaga mos keladi. To‘rtinchidan, interfaol metodlar, keys-stadi va loyiha texnologiyalari ko‘rsatilgan. Shu bilan birga, dasturda jiddiy metodik kamchiliklar mavjud. Birinchidan, dastur barcha nofilologik yo‘nalishlar uchun umumiy bo‘lib, iqtisodiyot yo‘nalishiga xos kasbiy vaziyatlar va janrlar (moliyaviy hisobot, tijorat taklifi, bozor tahlili taqdimoti) ajratilmaydi; mutaxassislik mavzulari “soha yo‘nalishlari”, “dolzarb mavzulari” kabi umumiy ifodalar bilan cheklanadi. Ikkinchidan, termin va atamalarni o‘rgatish vazifa sifatida qo‘yilgan, biroq terminologik minimumning hajmi, tanlash mezonlari va o‘rgatish bosqichlari belgilanmaydi; terminlar asosan o‘qish faoliyati doirasida, “maxsus so‘z va terminlarga ega matnlarni o‘qish” shaklida tilga olinadi, ya’ni retseptiv faoliyat bilan bog‘lanadi. Uchinchidan, asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar ro‘yxatida umumiy ingliz tili darsliklari hamda biologiya, geografiya, fizika, geologiya sohalari uchun qo‘llanmalar keltirilgan, iqtisodiyot yoki biznes yo‘nalishi uchun birorta o‘quv qo‘llanma ko‘rsatilmagan [177]. To‘rtinchidan, B2 va undan yuqori maqsad darajasi belgilangan bo‘lsa-da, semestrlar bo‘yicha oraliq darajalar va ularga mos deskriptorlar berilmaydi. Beshinchidan, “Kreditlarni olish uchun talablar” bo‘limida faqat fanga oid tushunchalarni o‘zlashtirish va nazorat topshiriqlarini bajarish talab qilinadi, muloqot kompetensiyasini baholash mezonlari esa ishlab chiqilmagan [177]. Bizningcha, ushbu ishchi dastur kasbga yo‘naltirilganlikni maqsad darajasida e’lon qiladi, biroq uni mazmun, terminologik ish va baholash darajasida ta’minlamaydi.

Ikkinchi hujjatlar guruhi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining iqtisodiy ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha amaldagi o‘quv hujjatlaridan iborat. 60410100 – Iqtisodiyot ta’lim yo‘nalishi uchun 2025–2026-o‘quv yilida tasdiqlangan “The Business (pre-intermediate course)” fan dasturi (sillabus) birinchi semestrga

mo‘ljallangan bo‘lib, unga 6 ECTS kredit, 72 soat amaliy mashg‘ulot va 108 soat mustaqil ta’lim, jami 180 soat ajratilgan, ma’ruza mashg‘ulotlari rejalashtirilmagan [170]. Kursning maqsadi talabalarga global madaniyat sharoitida kasbiy va ilmiy faoliyatda samarali harakat qilish imkonini beruvchi chet tili kompetensiyasi va muloqot ko‘nikmalarini berish, rivojlantiriladigan kompetensiyalar sifatida esa kommunikativ, lingvistik, sotsiolingvistik, sotsiomadaniy, ijtimoiy interaksiya va pragmatik kompetensiyalar hamda diskurs tahlili ko‘nikmalari ko‘rsatilgan [170]. Dasturda bakalavriat yakunida nofilologik yo‘nalish talabalari B2 darajasini egallashi shart ekani qayd etiladi, biroq kursning o‘zi pre-intermediate darajasiga mo‘ljallangan va asosiy qo‘shimcha adabiyot sifatida B1 darajadagi “The Business 2.0” darsligi belgilangan [170].

Iqtisodiyot yo‘nalishi sillabusining mazmuni sakkizta bo‘limdan iborat: xorijda tajriba orttirish va amaliyot, mijozlar bilan ishlash va mijoz ehtiyojini qondirish, ta’minot zanjiri va mahsulot hayotiy sikli, ishga qabul qilish va martaba, O‘zbekiston bozorlari va marketing, tadbirkorlik, biznes xarajatlari, global savdo va franchayzing [170]. Har bir bo‘limda leksik mavzu (masalan, telefon orqali muloqot leksikasi, xodimlarni tanlash va yollash, rivojlanish jarayoni, biznes tashkiloti va xodimlar, franchayzing va loyiha boshqaruvi), kasbiy ko‘nikma (networking va tanishuv suhbati, telefon orqali muloqot, jarayonni taqdim etish, ishontirish, yig‘ilish turlari, kun tartibi va bayonnoma, muzokara va uning turlari, to‘lovni so‘rash, yangiliklarni taqdim etish va savollarga javob berish), grammatik mavzu va keys-stadi birlashtirilgan. Kurs yakunida talaba biznes leksikasidan o‘rinli foydalanishi, taqdimot, muzokara, telefon orqali muloqot va telekonferensiya kabi biznes ko‘nikmalarini qo‘llashi, xat va xabarlarni o‘qib, ularga mos javob qaytarishi kerakligi belgilangan [170]. Mustaqil ta’lim topshiriqlari foyda va zarar, daromadlar to‘g‘risidagi hisobot (income statement), mijozlarga xizmat ko‘rsatish, ta’minot zanjiri mavzularidagi autentik maqolalarni o‘qib topshiriq bajarish, infografika va taqdimot tayyorlash, rasmiy elektron xat almashish, motivatsion xat va rezyume yozishdan iborat. Baholash 100 ballik tizimda amalga oshiriladi: joriy nazorat 20 ball (amaliy mashg‘ulotlardagi faollik 10 ball, mustaqil ish 10 ball, shundan taqdimot 5 ball, 500–1000 so‘zli esse yoki xulosa 5 ball), oraliq nazorat 30 ball, yakuniy nazorat yozma va og‘zaki shaklda 50 ball [170].

Ushbu sillabusning afzalliklari aniq ko‘rinadi. Birinchidan, kurs mazmuni to‘liq biznes va iqtisodiy kontekstda qurilgan, mavzular “Perspectives of new Uzbekistan” va O‘zbekiston bozorlari kabi milliy iqtisodiy mazmun bilan boyitilgan. Ikkinchidan, ESP namunaviy dasturida qayd etilgan asosiy kasbiy muloqot vaziyatlari – taqdimot, muzokara, telefon orqali muloqot, yig‘ilish va rasmiy yozishma – sillabusda alohida ko‘nikma sifatida rejalashtirilgan. Uchinchidan, har bir bo‘lim keys-stadi bilan yakunlanadi, bu ish tajribasiga ega bo‘lmagan talabalar uchun kasbiy vaziyatni modellashtirish talabiga javob beradi. To‘rtinchidan, mustaqil ta’limda autentik biznes

matnlari, jumladan daromadlar to‘g‘risidagi hisobot va foyda-zarar tahliliga oid materiallardan foydalaniladi. Kamchiliklar esa quyidagilarda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, maqsad darajasi (B2) va kurs darajasi (pre-intermediate, B1) o‘rtasida muvofiqlik yo‘q, B1 dan B2 ga o‘tish bosqichlari dasturda ko‘rsatilmagan. Ikkinchidan, “biznes leksikasidan o‘rinli foydalanish” natija sifatida belgilangan, biroq iqtisodiy terminologik minimum, uning hajmi va tanlash mezonlari berilmaydi; leksika bo‘limlarning mavzusiga biriktirilgan bo‘lib, terminlarning tizimli aloqalari (masalan, foyda va zarar hisoboti tarkibidagi tushunchalar tizimi) asosida emas, balki darslik ketma-ketligi asosida taqsimlanadi. Uchinchidan, leksik mavzu, kasbiy ko‘nikma va keys-stadi alohida darslar sifatida rejalashtirilgan, ya’ni terminlarni o‘rganish va ularni muloqotda qo‘llash vaqt jihatidan ajratilgan. To‘rtinchidan, mustaqil ta’lim topshiriqlarining asosiy qismi yozma va retseptiv xarakterga ega (maqola o‘qish, infografika, esse), interaktiv og‘zaki muloqotni talab qiluvchi topshiriqlar kam. Beshinchidan, baholash tizimi ballarning nazorat turlari bo‘yicha taqsimotini belgilaydi, biroq taqdimot yoki muzokarani baholash mezonlari, terminni aniq qo‘llash, vaziyatga mos registr tanlash, muloqotni boshqarish kabi ko‘rsatkichlar ishlab chiqilmagan [170].

60410800 – Menejment ta’lim yo‘nalishining 2025/2026-o‘quv yilidan amal qiluvchi o‘quv rejasida “Xorijiy til 1,2” fani (ingliz, fransuz, nemis, koreys, yapon, xitoy tillari) birinchi bosqichning majburiy fanlari tarkibida berilgan; unga jami 300 soat, shundan 120 soat auditoriya mashg‘uloti va 180 soat mustaqil ta’lim ajratilgan, kreditlar birinchi semestrda 6, ikkinchi semestrda 4, jami 10 kreditni tashkil etadi; o‘quv rejasiga ko‘ra 1 kredit 30 akademik soatga teng [72]. O‘quv rejasining ikkinchi–to‘rtinchi bosqichlarida xorijiy til fani mavjud emas. Shu bilan birga, ikkinchi bosqichda statistika, mikroiqtisodiyot, marketing, menejmentga kirish, tashkiliy xulq, sifat menejmenti, operatsion menejment, uchinchi bosqichda moliya, strategik menejment, innovatsion menejment, tadqiqot usullari va ko‘nikmalari, tanlov fanlari katalogida esa xalqaro iqtisodiyot, xalqaro menejment, xalqaro marketing, xalqaro bank ishi, loyiha menejmenti kabi xalqaro kasbiy muloqotni bevosita talab qiluvchi fanlar o‘qitiladi [72]. Iqtisodiyot yo‘nalishi sillabusi bilan qiyoslaganda birinchi semestr uchun 6 kredit va 180 soat hajmi ikkala yo‘nalishda bir xil ekani ko‘rinadi; bu iqtisodiy ta’lim yo‘nalishlarida ingliz tili birinchi kursda umumiy iqtisodiy yo‘nalishdagi Business English kursi sifatida unifikatsiyalashganidan dalolat beradi.

Iqtisodiy ta’lim yo‘nalishlari hujjatlarini o‘zaro qiyoslash umumiy va farqli jihatlarni aniqlash imkonini beradi. Umumiy jihat shundaki, ikkala yo‘nalishda ingliz tili birinchi kursda o‘qitiladi, kurs biznes kontekstida quriladi va yakuniy maqsad sifatida B2 darajasi ko‘rsatiladi. Yo‘nalishga xos farq esa mazmunda emas, balki o‘quv rejasining keyingi bosqichlarida namoyon bo‘ladi: iqtisodiyot yo‘nalishida mutaxassislik fanlari makro va mikroiqtisodiy tahlil, moliya va statistikaga, menejment

yo‘nalishida esa tashkiliy xulq, strategik va operatsion boshqaruvga yo‘naltirilgan; tabiiyki, menejment talabasi uchun yig‘ilish o‘tkazish, jamoani boshqarish va qarorni asoslash vaziyatlari, iqtisodiyot talabasi uchun esa ma’lumotlarni tahlil qilish, tendensiyalarni tavsiflash va hisobotni taqdim etish vaziyatlari ustuvorroq. Biroq amaldagi ingliz tili kursi birinchi kursda umumiy “biznes ingliz tili” sifatida o‘qitilgani va keyingi kurslarda davom ettirilmagani sababli yo‘nalishga xos ehtiyojlar ingliz tili ta’limida aks etmaydi. ESP namunaviy dasturi maxsus maqsadlar uchun til bosqichini ikkinchi–to‘rtinchi kurslarda tashkil etishni tavsiya etgan bo‘lsa [10], o‘quv rejasida bu bosqich uchun soat ajratilmagan [72]. Natijada ingliz tilidagi iqtisodiy terminlar mutaxassislik fanlari o‘qitilishidan oldin, ya’ni talaba ularning tushunchaviy mazmunini hali o‘zlashtirmagan bosqichda o‘rgatiladi, mutaxassislik fanlari o‘rganiladigan bosqichda esa ingliz tilida kasbiy muloqot amaliyoti to‘xtaydi. Hajm jihatidan ham muammo mavjud: ESP namunaviy dasturida keltirilgan me’yorga ko‘ra B1 dan B2 ga o‘tish uchun taxminan 200 soat, A2 dan B2 ga o‘tish uchun 400 soat o‘quv vaqti talab qilinadi [10], o‘quv rejasida esa ikki semestr uchun 120 soat auditoriya mashg‘uloti ajratilgan [72].

Tahlil qilingan hujjatlarning asosiy ko‘rsatkichlarini va ularning afzalliklari hamda kamchiliklarini yagona tizimda ko‘rsatish maqsadida ma’lumotlar 1.4-jadvalda umumlashtiriladi.

1.4-jadval

Amaldagi ingliz tili fan dasturlari va o‘quv rejalarining tanqidiy tahlili

Hujjat / ta’lim yo‘nalishi	Kreditlar va soatlar	CEFR darajasi	Terminologik ish	Kasbiy muloqot vaziyatlari	Afzalliklari	Kamchiliklari
ESP Curriculum for Higher Education in Uzbekistan (namunaviy dastur, mo‘ljal hujjat) [10]	Haftasiga kamida 4 auditoriya soati; LGP – 1-kurs, LSP – 2–4-kurslar; B1→B2 uchun ~200 soat	B1 maqbul natija, B2 uzoq muddatli maqsad	Domenga xos va yarim texnik so‘z ro‘yxatlarini korpus vositalari bilan tuzish tavsiya etiladi	50 ta akademik va kasbiy til faoliyati ro‘yxati (taqdimot, telefon, xat, muzokara va boshq.)	Ehtiyojlar tahlili, CEFR, janr va diskurs, autentik baholash tamoyillari	Iqtisodiyot yo‘nalishi uchun namunaviy modul, terminologik minimum va vaziyatlar ro‘yxati yo‘q; namunaviy sillabus faqat turizm uchun
Nofilologik ta’lim yo‘nalishlari uchun “Xorijiy	8 kredit; 1–2-semestr; 120 soat auditoriy	B2 va undan yuqori	“Termin va atamalarni o‘rgatish” vazifa sifatida	Muzokara, telefon orqali muloqot, munozara,	Pragmatik va ijtimoiy-madaniy kompetensiya maqsad	Barcha yo‘nalishlar uchun umumiy; iqtisodiy

til” fanining ishchi dasturi [177]	a, 120 soat mustaqil ta’lim; haftasiga 4 soat		qo‘yilgan; minimum, mezon va bosqichlar belgilanmagan	intervyu, rasmiy xat	sifatida; interfaol metodlar	janrlar yo‘q; iqtisodiyot bo‘yicha adabiyot ko‘rsatilmagan; oraliq darajalar va baholash mezonlari yo‘q
60410100 – Iqtisodiyot, “The Business (pre-intermediate course)” sillabusi [170]	6 ECTS; 1-semestr; 72 soat amaliy, 108 soat mustaqil ta’lim	Bakalavriat yakunida B2; kurs darajasi pre-intermediate (B1 darslik)	“Biznes leksikasidan o‘rinli foydalanish” natija sifatida; leksika bo‘lim mavzularigа biriktirilgan, minimum yo‘q	Networking, telefon, taqdimot, muzokara, yig‘ilish (kun tartibi, bayonnoma), rasmiy yozishma, keys-stadi	To‘liq biznes konteksti; milliy iqtisodiy mazmun; har bo‘limda keys; autentik matnlar	B1 va B2 o‘rtasida nomuvofiqlik; terminlar va muloqot alohida darslarda; mustaqil ish asosan yozma-retseptiv; baholashda muloqot mezonlari yo‘q
60410800 – Menejment o‘quv rejasi [72]	“Xorijiy til 1,2”: 10 kredit (6+4); 300 soat, shundan 120 soat auditoriya, 180 soat mustaqil ta’lim; faqat 1-kurs	Belgilanmagan (rejada daraja ko‘rsatilmaydi)	O‘quv rejasi darajasida ko‘zda tutilmagan	O‘quv rejasi darajasida ko‘zda tutilmagan	Kredit-modul tizimiga muvofiq hajm; mustaqil ta’lim ulushi yuqori	2–4-kurslarda xorijiy til yo‘q; mutaxassislik fanlari bilan integratsiya imkoniyati yo‘q; B2 uchun hajm yetarli emas

1.4-jadval ma’lumotlari amaldagi hujjatlarda kasbga yo‘naltirilganlik turli darajada aks etishini ko‘rsatadi. Iqtisodiyot yo‘nalishi sillabusi mazmun va kasbiy vaziyatlar jihatidan ESP namunaviy dasturi talablariga eng yaqin hujjat bo‘lsa-da, unda ham terminologik ish va baholash tizimi kasbiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirish talablariga javob bermaydi. Umumiy ishchi dastur esa kasbga yo‘naltirilganlikni deklarativ darajada qayd etadi, o‘quv rejasi esa ingliz tilini mutaxassislik fanlaridan vaqt jihatidan ajratib qo‘yadi.

Ingliz tilini kasbga yo‘naltirib o‘qitish masalasi milliy dissertatsiyalarda ham muloqot va kommunikativ kompetensiya nuqtayi nazaridan tadqiq etiladi.

B.B.Tangatov kasbga yo‘naltirilgan yondashuvda chet tilini o‘rganishning asosiy vazifasini kasbiy kompetensiyani egallash deb biladi va chet tilidagi kommunikativ kompetensiyani uning tarkibiy qismi sifatida ko‘radi; olim kasbga yo‘naltirilgan chet tili ta’limida ikki asosiy tarkibiy qismni – chet tilini kasbiy bilim egallash vositasi sifatida o‘rganishni va uni kasbiy muloqot vositasi sifatida qo‘llashni ajratadi, odatiy til va nutq kompetensiyalari bilan bir qatorda diskursiv va leksik kompetensiyalarni rivojlantirishni alohida muhim deb hisoblaydi [168]. Uning fikricha, mazmunga asoslangan o‘qitishda kasbiy terminologiya va grammatik tuzilmalar sun’iy mashqlar orqali emas, balki real kasbiy mazmun orqali, kontekstda o‘zlashtiriladi [168]. U.A.Murodova menejment yo‘nalishi talabalarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish uchun ta’lim mazmunini autentik matnlar, pragmatik topshiriqlar va madaniy kontekstli vaziyatlar orqali boyitish zarurligini asoslaydi [140]; olimaning fikricha, lingvistik komponent talabaning kasbiy muloqotda aniq terminologiyadan foydalanib fikr bildirishi, jarayonlarni tavsiflashi va muammolarga yechim taklif qilishi uchun zarur bo‘lsa, pragmatik komponent uning boshqaruv muammolarini og‘zaki bayon eta olishi va kasbiy muloqotda mustaqil, ishonchli qatnashishini ta’minlaydi [140]. Ikki tadqiqotchining qarashlarini qiyoslaganda umumiy jihat shundaki, ularning ikkalasi ham kasbiy terminologiyani muloqot kompetensiyasining zaruriy sharti deb biladi va uni mazmun yoki vaziyat ichida o‘rgatishni talab qiladi. Farqi shundaki, B.B.Tangatov terminologiyani asosan leksik va diskursiv kompetensiyalar doirasida ko‘rsa, U.A.Murodova uni lingvistik va pragmatik komponentlar o‘rtasidagi bog‘liqlik sifatida talqin etadi. Tadqiqotimiz uchun bu qarashlar iqtisodiy-terminologik komponent faqat leksik bilim bilan cheklanmasligini, u lingvopragmatik komponent va diskursiv-strategik komponent bilan uzviy bog‘liqligini tasdiqlaydi.

F.Sh.Negova pragmatik kompetensiyani kontekst, auditoriya va maqsad kabi omillarni hisobga olgan holda turli ijtimoiy kontekstlarda tildan to‘g‘ri foydalanish qobiliyati sifatida ta’riflaydi va uning tarkibiga kontekstni hisobga olish, so‘zlovchi nutqini pragmatik idrok etish, muloqot uslubini vaziyatga moslashtirish, tushunmovchilik yuzaga kelganda aniqlik kiritish hamda sohaga oid termin va atamalarni diqqat bilan tinglash va ishonch bilan qo‘llash qobiliyatlarini kiritadi; olimaning fikricha, pragmatik kompetensiyani takomillashtirish uchun kasbga yo‘naltirilgan muloqot vaziyatlari majmuasini maxsus yaratish zarur [144]. N.M.Ashurova kredit-modul tizimida ingliz tilini o‘qitishda kommunikativ kompetensiyani kasbiy kompetensiya bilan integratsiyalashgan holda rivojlantirishni, buning uchun interfaol metodlar, motivatsion treninglar, sohaviy ingliz tili (ESP) va autentik materiallarni qo‘llashni hamda talabaning mustaqil ishini tashkil etish, o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘z o‘quv faoliyatini tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishni asoslaydi [77]. D.X.Saydazimova kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda ingliz tili

ta’limi faqat til bilimlarini o‘zlashtirish bilan cheklanmasligini, u kasbiy muloqot vaziyatlarini modellashtirish va rolga asoslangan topshiriqlar orqali kommunikativ malakalarni rivojlantirishni, til va kasbiy tayyorgarlikni kasbiy kommunikatsion kontekstlar yaratish orqali integratsiyalashni talab etishini ta’kidlaydi [160]. Ushbu uch qarashni qiyoslaganda F.Sh.Negova muloqotning pragmatik mexanizmiga, N.M.Ashurova kredit-modul tizimidagi mustaqil va refleksiv faoliyatga, D.X.Saydazimova esa kasbiy vaziyatni modellashtirishga urg‘u beradi. Iqtisodiyot yo‘nalishi uchun bu qarashlarning tatbiqi aniq: kredit-modul tizimida mustaqil ta’lim soatlari ulushi auditoriya soatlaridan yuqori bo‘lgani sababli, iqtisodiy terminlarni mustaqil o‘zlashtirish va o‘z nutqini baholash (motivatsion-refleksiv komponent) metodik jihatdan boshqariladigan faoliyatga aylanishi, terminni aniqlashtirish va vaziyatga moslashtirish ko‘nikmalari esa maxsus yaratilgan kasbiy muloqot vaziyatlarida rivojlantirilishi lozim.

1.1-§ da tahlil qilingan U.G.Porsayev [149], M.U.Mavlanova [136], D.A.Usarova [171] va M.B.Shodiyev [164] qarashlari bilan birgalikda ko‘rib chiqilganda, milliy tadqiqotlarda kasbga yo‘naltirilgan ingliz tili ta’limiga oid umumiy ilmiy pozitsiya shakllanganini qayd etish mumkin. U kommunikativ kompetensiyani ko‘p komponentli hodisa sifatida ko‘rish, kasbiy terminologiyani muloqotning zaruriy sharti deb bilish, kasbiy vaziyatni modellashtirish va kredit-modul tizimida mustaqil ta’limni faollashtirish g‘oyalarini o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, mazkur tadqiqotlarda iqtisodiy terminologiya asosida muloqot kompetensiyasini rivojlantirish masalasi maxsus tadqiq etilmagan: iqtisodiyot yo‘nalishiga xos terminologik minimum, uni kasbiy muloqot vaziyatlari bilan bog‘lab o‘rgatish metodikasi va muloqot kompetensiyasini iqtisodiy-terminologik komponentni markazga qo‘ygan holda baholash mezonlari ishlab chiqilmagan. Bu xulosa milliy tadqiqotlar va amaldagi hujjatlar tahlili natijalari o‘zaro mos kelishini ko‘rsatadi.

Xorijiy, MDH va milliy tajriba hamda amaldagi hujjatlar tahlili natijalarini muloqot kompetensiyasi komponentlari bilan bog‘lab tizimlashtirish uchun 1.3-rasmda tahlil mantig‘i sxematik tarzda ifodalanadi. Sxemaning yuqori qatorida oltita tahlil mezoni, ikkinchi qatorida tahlil manbalari (xorijiy, MDH va milliy tajriba hamda amaldagi hujjatlar), uchinchi qatorida aniqlangan muammolar, pastki qatorida esa ularni hal etish uchun II bobda ishlab chiqiladigan konsepsiya va model joylashadi; har bir muammo 1.1-§ da asoslangan komponentlardan biri bilan bog‘lanadi.

TAHLIL MEZONLARI
Maqsad va CEFR darajasi · Ta’lim mazmuni · Terminologik ishning o‘rni · Kasbiy muloqot vaziyatlari · Mutaxassislik fanlari bilan integratsiya · Baholash
TAHLIL MANBALARI
Xorijiy tajriba (ESP, Business English, CEFR, CLIL, Osiyo tajribasi, BEC, Linguaskill Business, TOEIC) MDH tajribasi (kontekstli ta’lim, kognitiv-lingvomadaniy yondashuv,

kasbiy-kommunikativ kompetensiya tadqiqotlari) Milliy tajriba (PF-5847, PQ-5117, VM 34-son qarori, ESP namunaviy dasturi, amaldagi fan dasturlari va o‘quv rejalari, milliy dissertatsiyalar)
ANIQLANGAN MUAMMOLAR VA ULARGA MOS KOMPONENTLAR
Terminlarning muloqotdan ajratib o‘rgatilishi - lingvopragmatik komponent · Terminologik minimumning yo‘qligi - iqtisodiy-terminologik komponent · Vaziyatli topshiriqlarning yetishmasligi - diskursiv-strategik komponent · Mutaxassislik fanlari bilan integratsiyaning sustligi - madaniyatlararo-kasbiy komponent · Darajalar nomuvofiqligi va baholash mezonlarining yo‘qligi - motivatsion-refleksiv komponent
II BOB: KONSEPSIYA, TAMOYILLAR, PEDAGOGIK SHART-SHAROITLAR VA MODEL BLOKLARI

1.3-rasm. Iqtisodiyot yo‘nalishi talabalariga ingliz tilini o‘qitish tajribasini tahlil qilish mantig‘i va aniqlangan muammolar

O‘tkazilgan tahlil asosida iqtisodiyot yo‘nalishi talabalariga ingliz tilini o‘qitishning amaldagi holatida oltita asosiy muammo aniqlanadi. Birinchi muammo iqtisodiy terminlarning muloqotdan ajratib o‘rgatilishidir. Iqtisodiyot yo‘nalishi sillabusida leksik mavzu, kasbiy ko‘nikma va keys-stadi alohida darslar sifatida rejalashtirilgan, mustaqil ta’limda esa terminlar asosan maqola o‘qish va yozma topshiriqlar orqali o‘zlashtiriladi [170]; umumiy ishchi dasturda terminlar “maxsus so‘z va terminlarga ega matnlarni o‘qish” shaklida, ya’ni retseptiv faoliyat bilan bog‘lanadi [177]. Xalqaro tajribada esa terminlar biznes ko‘nikmasi ichida o‘rgatiladi [110] va imtihon topshiriqlarida vaziyat ichida baholanadi [231]. Bu muammo terminlarni muloqot vaziyati ichida, lingvopragmatik komponent bilan birga rivojlantirishni ta’minlovchi yetakchi g‘oya va tamoyillarni ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqaradi.

Ikkinchi muammo iqtisodiyotga xos terminologik minimumning yo‘qligidir. Umumiy ishchi dasturda “termin va atamalarni o‘rgatish” vazifa sifatida qo‘yilgan, biroq ularning hajmi va tanlash mezonlari belgilanmagan [177]; iqtisodiyot yo‘nalishi sillabusida “biznes leksikasidan o‘rinli foydalanish” natija sifatida ko‘rsatilgan, ammo leksika darslik bo‘limlariga biriktirilgan [170]; ESP namunaviy dasturi domenga xos so‘z ro‘yxatlarini tuzishni tavsiya qilgan bo‘lsa-da, iqtisodiyot uchun bunday ro‘yxat ishlab chiqilmagan [10]. Natijada iqtisodiy-terminologik komponentning mazmuni iqtisodiy terminosistemaga emas, balki o‘qituvchining shaxsiy tanloviga bog‘liq bo‘lib qoladi. Bu muammo 1.2-§ da asoslangan chastotalilik va tarqalganlik, kommunikativ zaruriyat, tizimiy ahamiyat, birikuvchanlik va so‘z yasash faolligi, tillararo qiyinlik hamda darajaviy muvofiqlik mezonlarini ehtiyojlar tahlili bilan birlashtirgan holda III bobda terminologik minimumni tanlash metodikasini ishlab chiqishni talab qiladi.

Uchinchi muammo kasbiy muloqot vaziyatlariga asoslangan topshiriqlar tizimining yetishmasligidir. Umumiy ishchi dasturda muzokara va telefon orqali muloqot nutq turi sifatida sanab o‘tilgan, biroq ular uchun topshiriqlar va bosqichlar

berilmagan [177]; iqtisodiyot yo‘nalishi sillabusida vaziyatlar mavjud, ammo ular ish tajribasiga ega bo‘lmagan talabalar uchun zarur bo‘lgan bosqichma-bosqich murakkablashuv (akademik, kvazikasbiy va o‘quv-kasbiy bosqichlar) asosida tashkil etilmagan, mustaqil ta’limdagi topshiriqlar esa asosan yozma va retseptiv xarakterga ega [170]. Bu muammo diskursiv-strategik komponentni rivojlantiruvchi, kasbiy vaziyatlar tipologiyasiga tayangan mashqlar va topshiriqlar tizimini yaratish zarurligini ko‘rsatadi.

To‘rtinchi muammo mutaxassislik fanlari bilan integratsiyaning sustligidir. Menejment yo‘nalishi o‘quv rejasida xorijiy til faqat birinchi kursda o‘qitiladi, xalqaro kasbiy muloqotni talab qiluvchi mutaxassislik fanlari esa ikkinchi–to‘rtinchi kurslarda o‘qitiladi [72]; ESP namunaviy dasturi [10] va xorijiy tajriba, xususan CLIL [97] va Xitoy tajribasi [51] esa til ta’limini mutaxassislik mazmuni bilan uzluksiz bog‘lashni talab qiladi. Natijada iqtisodiy terminning tushunchaviy mazmuni va uning ingliz tilidagi kasbiy qo‘llanishi turli vaqtlarda, bir-biridan ajralgan holda o‘zlashtiriladi, xalqaro biznes muloqotining me’yorlari esa kasbiy mazmun bilan bog‘lanmaydi. Bu muammo madaniyatlararo-kasbiy komponentni kasbiy mazmun asosida rivojlantirishni ta’minlovchi pedagogik shart-sharoitlarni aniqlashni taqozo etadi.

Beshinchi muammo maqsad darajasi, kurs darajasi va o‘quv hajmi o‘rtasidagi nomuvofiqlikdir. Iqtisodiyot yo‘nalishi sillabusida bakalavriat yakunida B2 darajasi talab qilinadi, kurs esa pre-intermediate darajasiga mo‘ljallangan [170]; umumiy ishchi dasturda B2 va undan yuqori daraja belgilangan, oraliq darajalar esa ko‘rsatilmagan [177]; o‘quv rejasida ikki semestr uchun 120 soat auditoriya mashg‘uloti ajratilgan [72], ESP namunaviy dasturidagi me’yorga ko‘ra esa B1 dan B2 ga o‘tish uchun taxminan 200 soat talab etiladi [10]. Bu muammo muloqot kompetensiyasining B1–B2–C1 darajalari bo‘yicha bosqichma-bosqich rivojlanish mantig‘ini konsepsiyada aniq belgilash zaruratini keltirib chiqaradi.

Oltinchi muammo muloqot kompetensiyasini baholash mezonlarining ishlab chiqilmaganligidir. Umumiy ishchi dasturda kreditlarni olish talablari umumiy shaklda berilgan [177], iqtisodiyot yo‘nalishi sillabusida esa ballarning nazorat turlari bo‘yicha taqsimoti belgilangan, biroq taqdimot, muzokara yoki biznes yozishmani baholashda terminni aniq qo‘llash, vaziyatga mos registr tanlash, muloqotni boshqarish va madaniyatlararo me’yorlarga rioya qilish kabi ko‘rsatkichlar mavjud emas [170]. ESP namunaviy dasturi CEFR mezonlari va autentik baholashni tavsiya qilgan [10], xalqaro imtihonlar – BEC [231], Linguaskill Business [233] va TOEIC [236] esa kasbiy vazifa bajarilishini kompleks baholaydi. Mazkur muammo motivatsion-refleksiv komponentni ham qamrab oluvchi, o‘z-o‘zini baholash va portfolioga tayangan holda muloqot kompetensiyasining barcha komponentlarini o‘lchash imkonini beruvchi mezon va ko‘rsatkichlarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Aniqlangan oltita muammo o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ularning umumiy manbai bitta: amaldagi ta’lim amaliyotida iqtisodiy terminologiya muloqot kompetensiyasining tizim hosil qiluvchi asosi sifatida emas, balki kursning leksik ta’minoti sifatida qaraladi. Shu sababli muammolarni alohida-alohida, ya’ni faqat terminlar ro‘yxatini tuzish yoki faqat yangi interfaol metodlarni joriy etish orqali hal etish mumkin emas. Ularni bartaraf etish uchun iqtisodiy terminlar asosida muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishning yaxlit konsepsiyasi, uning yetakchi g‘oyasi va tamoyillari tizimi, pedagogik shart-sharoitlari hamda maqsad, mazmun, protsessual va natija bloklaridan iborat modeli ishlab chiqilishi zarur; bu vazifalar II bobda hal etiladi.

Paragraf yuzasidan quyidagi umumlashma chiqariladi. Xorijiy tajriba mazmunni kasbiy faoliyat tahlilidan keltirib chiqarish, terminlarni kasbiy ko‘nikma va vaziyat ichida o‘rgatish, til ta’limini mutaxassislik mazmuni bilan integratsiyalash va natijani kasbiy vazifa bajarilishi orqali baholash tendensiyalarini ko‘rsatadi. MDH tajribasi ularni kontekstli ta’limning bosqichliligi, kognitiv-lingvomadaniy yondashuvning madaniyatlararo jihati va refleksiv komponentning zarurligi bilan to‘ldiradi. Milliy me’yoriy hujjatlar va ESP namunaviy dasturi kasbga yo‘naltirilgan ta’limning huquqiy va metodik asosini yaratgan, milliy tadqiqotlar esa kasbiy terminologiyani muloqot kompetensiyasining zaruriy sharti sifatida e’tirof etadi.

Shu bilan birga, amaldagi fan dasturlari va o‘quv rejalarining tanqidiy tahlili oltita muammoni ko‘rsatadi. Tajribalarning birortasida iqtisodiy terminologiya muloqot kompetensiyasining tizim hosil qiluvchi asosi sifatida qaralmagani tadqiqotning ilmiy yangiligi yo‘nalishini belgilaydi va II bobdagi konsepsiya, tamoyillar, pedagogik shart-sharoitlar va model uchun asos bo‘ladi.

Birinchi bob bo‘yicha xulosalar

1. Kompetensiya tushunchalari tahlili ularning talqini til tizimini bilishdan vaziyatga mos qo‘llashga, so‘ngra madaniyatlararo va kasbiy muloqotga tomon kengayganini ko‘rsatadi. Talabaning ingliz tilidagi muloqot kompetensiyasi iqtisodiy terminlar tizimini egallaganlikka tayanib, kasbiy muloqot vaziyatlarida kasbiy vazifalarni CEFR ning B1–B2–C1 darajalariga muvofiq hal etish qobiliyati va tayyorligida namoyon bo‘ladigan integrativ shaxsiy-kasbiy sifat sifatida ta’riflanadi.

2. Muloqot kompetensiyasi motivatsion-refleksiv, iqtisodiy-terminologik, lingvopragmatik, diskursiv-strategik va madaniyatlararo-kasbiy komponentlardan iborat. Iqtisodiy-terminologik komponent tizim hosil qiluvchi o‘zak vazifasini bajaradi, chunki iqtisodiy termin bir vaqtda til birligi, kasbiy tushuncha va muloqot vositasidir.

3. Ingliz tilidagi iqtisodiy termin kasbiy muloqotda maxsus iqtisodiy tushunchani nomlash, aniqlashtirish va baholash vazifasini bajaruvchi, iqtisodiy terminosistemaga mansub til birligi sifatida talqin etiladi. Iqtisodiy terminlar tuzilishi,

semantikasi va tematik jihatdan tasniflanadi; tematik guruhlar ta’lim mazmunini modulli tashkil etishga asos bo‘ladi.

4. Ingliz va o‘zbek iqtisodiy terminlari o‘rtasida oltita ekvivalentlik turi (to‘liq, qisman, variantli, kalka asosidagi ekvivalentlik, muqobilsizlik va soxta ekvivalentlik) ajratiladi. Interferensiya fonetik, leksik-semantik, grammatik va pragmatik sathlarda namoyon bo‘ladi, uni bashorat qilish va oldini olish terminologik ishning mustaqil yo‘nalishi sifatida asoslanadi.

5. Iqtisodiy terminni o‘zlashtirish semantizatsiya, tizimlashtirish, kollokatsion-kontekstual o‘zlashtirish va kommunikativ faollashtirish bosqichlaridan o‘tadi. Terminologik minimum oltita mezon asosida tanlanadi va CEFR darajalari bo‘yicha tabaqalashtiriladi.

6. Xorijiy va MDH tajribasi tahlili uch umumiy tendensiyani aniqlaydi: ta’lim mazmunini kasbiy faoliyat tahlilidan keltirib chiqarish, terminlarni kasbiy ko‘nikma va vaziyat ichida o‘rgatish hamda natijani kasbiy vazifaning bajarilishi orqali baholash. Biroq birorta tajribada iqtisodiy terminologiya muloqot kompetensiyasining tizim hosil qiluvchi asosi sifatida qaralmaydi.

7. Amaldagi hujjatlar tahlili oltita muammoni aniqlaydi (terminlarning muloqotdan ajratilishi, terminologik minimumning yo‘qligi, topshiriqlar tizimining yetishmasligi, integratsiyaning sustligi, darajalar va hajm nomuvofiqligi, baholash mezonlarining yo‘qligi). Ularning umumiy manbai terminologiyaning leksik ta’minot sifatida qaralishi bo‘lib, bu yaxlit konsepsiya va model ishlab chiqishni taqozo etadi.

II BOB. INGLIZ TILIDAGI IQTISODIY TERMINLAR ASOSIDA MULOQOT KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH KONSEPSIYASI

2.1-§. Muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish konsepsiyasining metodologik asoslari, yetakchi g‘oyasi va tamoyillari tizimi

Metodikani takomillashtirishga qaratilgan har qanday tadqiqot alohida usul va vositalar yig‘indisidan emas, balki ularni yagona maqsad atrofida birlashtiruvchi yaxlit nazariy pozitsiyadan boshlanadi. Iqtisodiyot yo‘nalishi talabalariga ingliz tilini o‘qitish amaliyotida iqtisodiy terminlar va muloqot ko‘nikmalari turli vaqtda, bir-biridan ajralgan holda o‘zlashtirilayotgani bunday pozitsiyaning yo‘qligi bilan izohlanadi. Shu sababli ingliz tilidagi iqtisodiy terminlar asosida muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish, avvalo, uning konsepsiyasini ishlab chiqishni talab etadi. Mazkur paragrafda “konsepsiya” tushunchasining ilmiy mazmuni tahlil qilinadi, konsepsiyaning metodologik asoslari to‘rt darajada aniqlanadi, uning yetakchi g‘oyasi tekshirilishi mumkin bo‘lgan shaklda ifodalanadi, tamoyillar tizimi asoslanadi va konsepsiyaning blokli tuzilmasi tavsiflanadi.

“Konsepsiya” atamasi lotincha conceptio (tushunish, idrok etish) so‘zidan kelib chiqib, ilmiy muomalada muayyan hodisani tushunish va tushuntirishning yetakchi g‘oyasi, uni o‘rganish va o‘zgartirishga oid qarashlar tizimi ma’nosida qo‘llanadi. Pedagogik tadqiqotlar uchun atamaning umumiy ma’nosi yetarli emas, chunki konsepsiya nazariy xulosalarni amaliy metodikaga aylantiruvchi bo‘g‘in vazifasini bajaradi va uning mazmuni, tuzilmasi va chegaralari aniq belgilanishi lozim.

Xorijiy metodologik adabiyotda konsepsiya ko‘pincha conceptual framework, ya’ni konseptual asos tushunchasi orqali talqin etiladi. Y.Jabarin konseptual asosni muayyan hodisani yaxlit tushunish imkonini beruvchi o‘zaro bog‘langan tushunchalar tarmog‘i yoki “tekisligi” sifatida ta’riflaydi [33; 51-b.]; olimning fikricha, bunday asos ontologik, epistemologik va metodologik farazlarga ega bo‘lib, uning tarkibidagi har bir tushuncha muayyan vazifani bajaradi va asos prognoz emas, balki tushunishga xizmat qiladi [33]. M.Maylz va A.Xuberman konseptual asosni tadqiq etilayotgan hodisaning asosiy omillari, konstruktlari va ular o‘rtasidagi taxmin qilingan munosabatlarni matn yoki chizma shaklida ifodalovchi tuzilma sifatida ko‘radi [139]. J.Maksvell esa konseptual asosni tadqiqotni yo‘naltiruvchi va asoslovchi tushunchalar, farazlar, kutilmalar, qarashlar va nazariyalar tizimi deb hisoblaydi va uni tadqiqotchi tomonidan ongli quriladigan konstruksiya sifatida tavsiflaydi [137]. Uchala qarashni qiyoslaganda umumiy jihat shundaki, konseptual asos alohida tushunchalar ro‘yxati emas, balki ular o‘rtasidagi munosabatlar tizimidir. Farqli jihat shundaki, Y.Jabarin asosning falsafiy-metodologik tabiatini, M.Maylz va A.Xuberman uning tuzilmaviy-

vizual ifodasini, J.Maksvell esa tadqiqotni yo‘naltiruvchi funksiyasini birinchi o‘ringa qo‘yadi.

Chet tili o‘qitish metodikasida konsepsiya darajasini aniqlashda E.Entoni taklif etgan iyerarxiya alohida ahamiyatga ega: olim yondashuvni til va uni o‘rganish tabiati haqidagi aksiomatik qarashlar darajasi, metodni shu qarashlarga asoslangan o‘qitish rejasi, usulni esa sinfda amalga oshiriladigan aniq harakat sifatida farqlaydi [15]. J.Richards va T.Rodjers bu iyerarxiyani rivojlantirib, yondashuv (approach), loyiha (design) va jarayon (procedure) darajalarini ajratadi: yondashuv til va o‘rganish nazariyasini, loyiha maqsadlar, mazmun, topshiriqlar, o‘qituvchi va o‘quvchi rollarini, jarayon esa sinfdagi aniq usullarni qamrab oladi [154]. Ushbu tasnifga ko‘ra konsepsiya yondashuv va loyiha darajalarini bog‘lovchi hodisadir: u til va o‘rganish haqidagi nazariy qarashlardan metodikaning tamoyillari, mazmuni va jarayoniga o‘tish mantig‘ini belgilaydi. Tadqiqotimiz uchun bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, iqtisodiy terminlar asosida muloqot kompetensiyasini rivojlantirish konsepsiyasi aniq mashqlar va usullarni emas, balki ularni tanlash va birlashtirishning ilmiy mezonlarini belgilashi lozim; aniq mashqlar va usullar III bobda ishlab chiqiladi.

MDH pedagogikasida pedagogik konsepsiyaning nazariyasi Ye.V.Yakovlev va N.O.Yakovleva tomonidan tizimli ishlab chiqilgan. Olimlar pedagogik konsepsiyani pedagogik hodisaning mohiyati, mazmuni va xususiyatlarini hamda u bilan amaliy ishlash texnologiyasini ochib beruvchi nazariy bilimlar tizimi sifatida ko‘radi; konsepsiyaning yadrosini esa ilmiy nazariyani qurish xususiyatlarini belgilovchi va uning o‘ziga xosligini tavsiflovchi boshlang‘ich qoidalar tizimi tashkil etadi, bu yadroga qonuniyatlar va tamoyillar kiradi [230]. Olimlar qonuniyatlarni shartlanganlik, atributiv va samaradorlik qonuniyatlari kabi guruhlarga ajratadi va tamoyillarni shu qonuniyatlardan keltirib chiqaradi [230]. N.V.Uvarina ushbu yondashuvga tayanib, konsepsiya tamoyillarini umumiy va xususiy guruhlarga ajratadi: umumiy tamoyillar barcha qonuniyatlar bilan bog‘lanib, konsepsiya yadrosining yaxlitligini ta’minlaydi va uni boshqa darajadagi obyektlar bilan bog‘laydi, xususiy tamoyillar esa aniq qonuniyatlardan kelib chiqadi [68]. V.I.Andreyev pedagogik tamoyilni aniqlangan pedagogik qonuniyatga tayanuvchi va muayyan sinfdagi pedagogik vazifalarni hal etishning eng umumiy strategiyasini tavsiflovchi asosiy me’yoriy qoida sifatida ta’riflaydi [179; 176-b.]. Uchala qarash bir-birini to‘ldiradi: Ye.V.Yakovlev va N.O.Yakovleva konsepsiyaning tuzilmasini, N.V.Uvarina tamoyillarning ichki iyerarxiyasini, V.I.Andreyev esa tamoyilning qonuniyatdan kelib chiquvchi me’yoriy tabiatini ochib beradi. Bu qarashlardan tadqiqotimiz uchun muhim talab kelib chiqadi: konsepsiya tamoyillari ixtiyoriy ro‘yxat emas, ular aniqlangan qonuniyatlar va metodologik asoslardan mantiqan keltirib chiqarilishi, guruhlarga ajratilishi va har biri metodikaga aniq talab sifatida ifodalanishi kerak.

Chet tili ta’limi metodologiyasini mustaqil ilmiy soha sifatida asoslagan S.S.Kunanbayeva chet tili ta’limi uchun o‘ziga xos metodologiya zarurligini ko‘rsatadi va uning asosiga kognitiv-lingvomadaniy yondashuvni, markaziga esa “chet tili – chet madaniyat – shaxs” uchligini qo‘yadi [207]. E.G.Yudin ilmiy bilish metodologiyasini falsafiy, umumilmiy, aniq ilmiy va texnologik darajalarga ajratadi [227], V.V.Krayevskiy esa bu tasnifni pedagogik tadqiqotga tatbiq etib, har bir daraja tadqiqotchiga o‘ziga xos vazifa yuklashini va yuqori daraja quyi darajaning mazmunini belgilashini asoslaydi [205]. S.S.Kunanbayeva va E.G.Yudin qarashlarini qiyoslaganda, birinchisi metodologiyaning mazmuniy o‘zagiga, ikkinchisi esa uning darajaviy tuzilishiga e’tibor qaratadi. Tadqiqotimizda bu ikki yondashuv birlashtiriladi: konsepsiyaning metodologik asoslari E.G.Yudin va V.V.Krayevskiy tasnifi bo‘yicha to‘rt darajada quriladi, har bir darajaning mazmuni esa iqtisodiy terminni kasbiy muloqot vositasi sifatida o‘zlashtirish vazifasidan kelib chiqib tanlanadi.

Milliy tadqiqotlarda konsepsiya va konseptual asos tushunchalari ko‘proq model va metodika bilan bog‘liq holda ishlatiladi. F.M.Rashidova uzluksiz ta’lim tizimida CEFRni tatbiq etishning konseptual-metodik asoslarini ishlab chiqib, xalqaro til me’yorlarini milliy ta’lim tizimiga moslashtirish uchun avvalo uning konseptual asosini belgilash zarurligini ko‘rsatadi [151]. U.G.Porsayev modelning konseptual blokini butun tizimning asosiy g‘oyaviy-mazmuniy yo‘nalishini belgilovchi va uning mantiqiy-pedagogik asosini tashkil etuvchi blok sifatida tavsiflaydi, modelning asosiy g‘oyasi sifatida esa interaksionizmni tanlaydi [149]. M.B.Shodiyev konseptual blokni modelning nazariy tayanch poydevori deb biladi va u boshqa bloklarning mazmuniy va texnologik yo‘nalishini belgilashini ta’kidlaydi; olimning fikricha, metodik tamoyillar ta’lim mazmuni, metod, shakl va vositalarini tanlashni belgilovchi konseptual asos vazifasini bajaradi [164]. U.A.Murodova kommunikativ yondashuvni faqat metod emas, balki konsepsiya va muloqot falsafasi sifatida qarash zarurligini asoslaydi [140]. B.B.Tangatov esa integratsiya tamoyili asosida birlashtiriladigan yondashuvlar soni o‘quv jarayonining maqsad va vazifalariga hamda birlashtiruvchi asos sifatida tanlangan obyektning sifat xususiyatlariga bog‘liq ekanini ta’kidlaydi [168]. Milliy tadqiqotchilar qarashlaridagi umumiylik shundaki, ular konseptual asosni metodikadagi barcha qarorlarni belgilovchi boshlang‘ich nuqta sifatida tan oladi. Farq esa shundan iboratki, U.G.Porsayev va M.B.Shodiyev konseptual asosni model bloki darajasida ko‘radi, U.A.Murodova uni yondashuvning falsafiy maqomi bilan bog‘laydi, B.B.Tangatov esa yondashuvlarni tanlash mezonini obyekt xususiyatidan keltirib chiqaradi.

B.B.Tangatov ko‘rsatgan mezon tadqiqotimiz uchun metodologik ahamiyatga ega: birlashtiruvchi obyekt sifatida ingliz tilidagi iqtisodiy termin tanlanar ekan, yondashuvlar uning uch xususiyatini – til birligi, kasbiy tushuncha va muloqot vositasi bo‘lishini – bir vaqtda qamrab olishi shart. Shu bilan birga, konsepsiya va model

tushunchalarini farqlash zarur. U.G.Porsayev va M.B.Shodiyev tadqiqotlarida konseptual asos model tarkibidagi bloklardan biri sifatida beriladi. Tadqiqotimizda esa konsepsiya modeldan yuqori turuvchi strategik daraja sifatida qaraladi: u metodikaning nima uchun va qanday mantiqda qurilishini belgilaydi, 2.3-§ da ishlab chiqiladigan model esa konsepsiyani operatsional darajada, ya’ni maqsad, mazmun, jarayon va natija bo‘yicha amalga oshiradi. 2.2-§ da aniqlanadigan pedagogik shart-sharoitlar esa konsepsiya tamoyillarining amalga oshish muhitini ifodalaydi.

Tahlil asosida tadqiqotimiz uchun quyidagi ishchi ta’rif qabul qilinadi: ingliz tilidagi iqtisodiy terminlar asosida muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish konsepsiyasi – iqtisodiyot yo‘nalishi talabalariga ingliz tilini o‘qitish jarayonini loyihalash va amalga oshirishning metodologik asoslari, yetakchi g‘oyasi va tamoyillar tizimini o‘z ichiga olgan, me’yoriy-maqsadli, nazariy-metodologik, tamoyillar, mazmuniy, jarayoniy-texnologik va natijaviy-baholash bloklarida ifodalangan o‘zaro bog‘liq nazariy qoidalar tizimi bo‘lib, u iqtisodiy terminni kasbiy muloqot vositasi sifatida o‘zlashtirish orqali muloqot kompetensiyasining motivatsion-refleksiv, iqtisodiy-terminologik, lingvopragmatik, diskursiv-strategik va madaniyatlararo-kasbiy komponentlarini uyg‘un rivojlantirish strategiyasini belgilaydi. Ta’rifning umumiy belgisi – “nazariy qoidalar tizimi” – uni Y.Jabarin va Ye.V.Yakovlev qarashlari bilan bog‘laydi; xos belgilari esa metodologik asoslar, yetakchi g‘oya va tamoyillarning mavjudligi, blokli tuzilma va 1.1-§ da asoslangan besh komponentga yo‘naltirilganlikdan iborat.

Konsepsiyaning metodologik asoslari E.G.Yudin va V.V.Krayevskiy tasnifiga muvofiq falsafiy, umumilmiy, aniq ilmiy va texnologik darajalarda aniqlanadi. Har bir daraja muloqot kompetensiyasini iqtisodiy terminlar asosida rivojlantirishga o‘z talabini qo‘yadi va bu talablar keyinchalik tamoyillarga aylantiriladi.

Falsafiy darajani konstruktivizm, faoliyat falsafasi va muloqot falsafasi tashkil etadi. L.S.Vigotskiy bilimning ijtimoiy o‘zaro ta’sir va til vositasida shakllanishini asoslab, tushunchalarning rivojlanishi ularni muloqotda qo‘llash orqali sodir bo‘lishini va o‘qitish yaqin rivojlanish zonasiga yo‘naltirilganda samarali bo‘lishini ko‘rsatadi [189]. M.Uilyams va R.Byorden bu qarashni chet tili ta’limiga tatbiq etib, ijtimoiy konstruktivizm nuqtayi nazaridan o‘quvchi ma’noni faol quruvchi subyekt, o‘qituvchi esa uning faoliyatini yo‘naltiruvchi vositachi ekanini asoslaydi [174]. K.T.Fosnot konstruktivizmni bilish nazariyasi sifatida talqin etib, undan o‘qitishning aniq metodik yechimlari to‘g‘ridan to‘g‘ri kelib chiqmasligini, biroq ta’lim muhiti o‘quvchining o‘z tajribasini qayta tashkil etishiga imkon berishi shartligini ta’kidlaydi [109]. Uchala qarashni umumlashtirganda iqtisodiy terminlar uchun muhim xulosa kelib chiqadi: “cash flow” (pul oqimi) yoki “working capital” (aylanma mablag‘) terminining ma’nosi talabaga tayyor ta’rif shaklida yetkazilgani bilan o‘zlashtirilmaydi; u

korxonaning moliyaviy holatini muhokama qilish, hisobotni sharhlash yoki hamkorga tushuntirish jarayonida talabaning o‘zi tomonidan “quriladi”.

A.N.Leontev faoliyat nazariyasida faoliyatni motiv, maqsad va sharoitga muvofiq harakat va operatsiyalar tizimi sifatida tahlil qiladi va ong hamda shaxsning faoliyatda shakllanishini asoslaydi [211]. Bu qarash muloqot kompetensiyasi faqat muloqot faoliyatida rivojlanishi va iqtisodiy terminni o‘zlashtirish ham kasbiy maqsadga ega bo‘lgan harakat tarkibida kechishi kerakligini anglatadi. Muloqot falsafasi esa bu tasavvurni subyektlararo o‘zaro ta’sir bilan to‘ldiradi. M.M.Baxtin har qanday nutq birligini javobga yo‘naltirilgan, adresatga ega bo‘lgan dialogik birlik sifatida talqin etadi [183]. M.Buber insoniy mavjudlikni “Men – Sen” munosabatida yuzaga keluvchi dialog sifatida ko‘radi va uni obyektga yo‘naltirilgan “Men – U” munosabatidan farqlaydi [91]. M.S.Kagan muloqotni subyektlar o‘rtasidagi teng huquqli o‘zaro ta’sir sifatida tavsiflab, uni obyektga yo‘naltirilgan kommunikatsiyadan ajratadi [201]. A.A.Leontev esa muloqotni boshqa faoliyat turlariga xizmat qiluvchi va o‘z maqsad va vositalariga ega faoliyat sifatida tahlil qiladi [210]. Bu qarashlarning umumiy jihati shundaki, barcha olimlar muloqotni axborot uzatishdan kengroq, sheriklar o‘rtasida ma’no va munosabat yaratiluvchi jarayon deb biladi. 1.1-§ da “muloqot kompetensiyasi” atamasining tanlanishi aynan shu falsafiy asosga tayanadi.

Falsafiy daraja metodikaga uchta talab qo‘yadi. Birinchidan, iqtisodiy termin ma’nosi talabaning kasbiy vazifani bajarish jarayonida faol qurilishi lozim (konstruktivizm). Ikkinchidan, terminni o‘zlashtirish kasbiy maqsadga ega harakat tarkibida kechishi kerak (faoliyat falsafasi). Uchinchidan, termin adresatga yo‘naltirilgan dialogik vaziyatda qo‘llanishi, ya’ni talaba hamkor, mijoz yoki hamkasbga nisbatan terminni tanlashi va uning ma’nosini kelishishi lozim (muloqot falsafasi). Masalan, muzokarada “net 30 payment terms” (hisob-faktura sanasidan boshlab o‘ttiz kun ichida to‘lov sharti) iborasining ma’nosi ikki tomon o‘rtasida aniqlashtirilganda terminning ma’nosi dialogda kelishiladi va mustahkamlanadi.

Umumilmiy darajani tizimli, faoliyatli, kompetensiyaviy va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar tashkil etadi. L.fon Bertalanfi umumiy tizimlar nazariyasida tizimni o‘zaro ta’sirdagi elementlar majmui sifatida ta’riflab, tizimning xususiyatlari uning elementlari xususiyatlari yig‘indisiga teng emasligini asoslaydi [86]. I.V.Blauberg va E.G.Yudin tizimli yondashuvni obyektni yaxlitlik sifatida, uning tizim hosil qiluvchi aloqalarini aniqlash orqali o‘rganish tamoyili sifatida talqin etadi [187]. N.M.Ashurova kredit-modul tizimida o‘quv faoliyatini takomillashtirishda modulli, tizimli, kompetensiyaviy, kommunikativ-faoliyatli va integrativ yondashuvlarni asos qilib olib, ularning har biri o‘ziga xos o‘ringa ega va bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq ekanini ta’kidlaydi [77]. Tizimli yondashuvning tadqiqotimizdagi tadbiqi ikkita: muloqot kompetensiyasi besh komponentning oddiy yig‘indisi emas, balki iqtisodiy-terminologik komponent atrofida tuzilgan yaxlitlik sifatida

rivojlantiriladi; iqtisodiy terminlar esa alohida lug‘at birliklari sifatida emas, terminosistema elementlari sifatida o‘rgatiladi. Masalan, “balance sheet” (buxgalteriya balansi) termini “assets” (aktivlar), “liabilities” (majburiyatlar) va “equity” (xususiy kapital) terminlari bilan birga, “Assets equal liabilities plus equity” tengligi mantig‘ida o‘zlashtiriladi.

Faoliyatli yondashuv A.N.Leontev nazariyasiga tayanadi va o‘quv jarayonini talabaning faol harakatlari tizimi sifatida tashkil etishni talab qiladi. B.B.Tangatov faoliyatli yondashuvda talabalar tilni passiv ravishda emas, balki o‘zaro muloqotda va turli vazifalarni bajarish orqali o‘zlashtirishini ta’kidlaydi [168]. Kompetensiyaviy yondashuvni asoslashda A.V.Xutorskoy kompetensiyani oldindan belgilangan ijtimoiy talab, kompetentlikni esa shaxsda shakllangan sifat sifatida farqlaydi [222]. I.A.Zimnyaya muloqotdagi kompetentlikni turli shakldagi kommunikativ vazifalarni hal etish va kommunikativ jarayonni boshqarish mahorati sifatida ajratadi [198]. D.A.Usarova kompetensiyaviy yondashuvni oliy ta’lim va kasbiy hayot o‘rtasidagi ijtimoiy muloqotni kuchaytiruvchi va mehnat bozori ehtiyojlariga aniq yo‘naltirilgan yondashuv sifatida tavsiflaydi [171]. M.B.Shodiyev esa kompetensiyaviy yondashuvni ta’lim maqsadlarini belgilash, mazmunni tanlash, o‘quv jarayonini tashkil etish va natijalarni baholashning umumiy tamoyillari majmui sifatida ko‘radi [164]. To‘rt qarashni qiyoslaganda A.V.Xutorskoy va I.A.Zimnyaya kompetensiyaning psixologik-pedagogik tabiatini, D.A.Usarova uning mehnat bozori bilan bog‘liqligini, M.B.Shodiyev esa yondashuvning ta’limni loyihalash funksiyasini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Iqtisodiyot yo‘nalishi uchun kompetensiyaviy yondashuv natijani kasbiy vazifaning bajarilishi orqali belgilashni talab qiladi: talaba “operating profit” (operatsion foyda) terminini bilishi emas, balki “Operating profit rose by eight percent, mainly due to lower distribution costs” kabi jumla orqali chorak natijalarini taqdimotda izohlay olishi natija hisoblanadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni asoslashda I.S.Yakimanskaya ta’lim oluvchini o‘quv jarayoniga subyektiv tajriba bilan kiruvchi shaxs sifatida ko‘radi va o‘qitishda bu tajribani aniqlash, boyitish va o‘zgartirishni asosiy vazifa deb hisoblaydi [229]. V.V.Serikov shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda shaxsiy sifatlar rivojlanishi uchun o‘quv vaziyatlari shaxsiy ma’no kasb etishi zarurligini asoslaydi [66]. F.Sh.Negova shaxsiy-faoliyatli yondashuvni ikki komponentga ajratib, shaxsga yo‘naltirilgan komponent talabaning individual xususiyatlari va ehtiyojlarini, faoliyatga asoslangan komponent esa uning faoliyat orqali rivojlanishini ta’minlashini ko‘rsatadi [144]. Iqtisodiyot talabasi uchun shaxsiy ma’no bevosita kasbiy istiqbol bilan bog‘lanadi: bankda, auditorlik yoki konsalting kompaniyasida ishlash, xalqaro magistraturada o‘qish, Business English sertifikatini olish rejalari terminologik minimum mazmunini individuallashtirish va o‘z-o‘zini baholash uchun asos bo‘ladi. Shaxsga yo‘naltirilgan

yondashuv shu tariqa motivatsion-refleksiv komponentning metodologik tayanchi vazifasini bajaradi.

Aniq ilmiy darajani kommunikativ, ESP, kontekstli, leksik, topshiriqqa asoslangan yondashuvlar va CLIL tashkil etadi. Aniq ilmiy darajadagi yondashuvlarni tanlashda L.I.Gritsenko taklif etgan mezon muhim: olimning fikricha, metodologik yondashuvlarni ajratish ularning murakkab muammolarni hal etishda qo‘llanish imkoniyatiga, shaxsning bilish va muloqot ehtiyojlariga hamda oliy ta’lim tizimining zamonaviy talablariga yo‘naltirilganligiga asoslanishi kerak [194]. Bu mezon tadqiqotimizda har bir yondashuvning iqtisodiy terminni kasbiy muloqot vositasiga aylantirishga qo‘shadigan hissasi orqali aniqlashtiriladi.

Kommunikativ yondashuvni asoslashda Ye.I.Passov muloqotni o‘qitishning ham maqsadi, ham vositasi deb hisoblaydi va o‘qitishni nutqiy vaziyat asosida tashkil etishni talab qiladi [215]. N.D.Galskova va N.I.Gez chet tili o‘qitish tamoyillari qatorida kommunikativ yo‘naltirilganlik, shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik muloqot, nutq faoliyati turlari va til aspektlarini o‘zaro bog‘liq o‘rgatish, faoliyatli yondashuv, nutqiy va fikrlovchi faoliyatni rag‘batlantirish hamda muammoli topshiriqlarning ustunligini ajratadi [191]. U.A.Murodova kommunikativ vaziyatga mos materialni tanlash va har qanday nutqiy faoliyatning ijtimoiy rol, muloqot konteksti va ishtirokchilar munosabatlariga qarab shakllanuvchi maqsadga xizmat qilishini ta’kidlaydi [140]. ESP yondashuvida T.Xatchinson va A.Uoters o‘qitish mazmuni va metodlariga oid barcha qarorlar o‘quvchining tilni o‘rganish sabablaridan kelib chiqishini asoslaydi [116]; O‘zbekiston oliy ta’limi uchun ESP namunaviy dasturi ham kurs loyihasini ehtiyojlar tahlilidan boshlab, kasbiy janr, diskurs va autentik baholash bilan bog‘lashni talab qiladi [10]. Iqtisodiyot yo‘nalishiga tatbiq etilganda kommunikativ va ESP yondashuvlari terminni nutqiy vaziyatdan tashqarida o‘rgatishni istisno etadi: har bir terminologik birlik taqdimot, muzokara, yig‘ilish, biznes yozishma yoki telefon orqali muloqot vaziyatiga biriktirilishi lozim. J.Harmer kommunikativ faoliyatda talabaning diqqati til shakliga emas, balki mazmun va muloqot maqsadiga qaratilishini ta’kidlaydi [112].

Kontekstli yondashuvda A.A.Verbitskiy o‘quv faoliyati mazmuni talabaning kelgusidagi kasbiy faoliyatining predmet va ijtimoiy kontekstini modellashtirishi kerakligini va akademik faoliyatdan kvazikasbiy hamda o‘quv-kasbiy faoliyatga izchil o‘tish zarurligini asoslaydi [188]. Leksik yondashuvda M.Lyuis tilning asosini grammatiklashgan leksika, ya’ni kollokatsiyalar, barqaror ibora va nutqiy formulalar tashkil etishini ko‘rsatadi [129]. Topshiriqqa asoslangan yondashuvda R.Ellis topshiriqni ma’no ustuvorligiga ega, nolingvistik natijaga yo‘naltirilgan va real hayotdagi faoliyatga o‘xshash ish rejasi sifatida ta’riflaydi [107], D.Nunan esa pedagogik topshiriqlarni maqsadli kasbiy vazifalardan keltirib chiqarishni taklif qiladi [146]. CLIL yondashuvida D.Koyl, P.Xud va D.Marsh fan mazmuni va tilni bir vaqtda

o‘rgatishni mazmun, muloqot, bilish va madaniyat birligida asoslaydi [97]. Milliy tadqiqotlardan M.X.Gulyamova ingliz tilini o‘qitishda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishni integrativ yondashuv asosida tashkil etishni asoslaydi; olimaning fikricha, integrativ yondashuv nafaqat fanlararo integratsiyani, balki talabaning kasbiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishini ham qamrab oladi [111]. D.Kolb tajribaga asoslangan ta’lim nazariyasida aniq tajriba, refleksiv kuzatish, mavhum konseptuallashtirish va faol tajriba siklini ajratadi; bu sikl kasbiy vaziyatni modellashtirishga asoslangan mashg‘ulotlarning psixologik asosidir [124].

Aniq ilmiy darajadagi yondashuvlarni qiyoslaganda ularning har biri iqtisodiy terminni o‘zlashtirishning muayyan qirrasi uchun javob berishi aniqlanadi. Kommunikativ va ESP yondashuvlari terminning qaysi vaziyatda va qanday maqsadda qo‘llanishini, kontekstli yondashuv terminni o‘zlashtirishning bosqichli mantig‘ini, leksik yondashuv terminning kollokatsion muhitini, topshiriqqa asoslangan yondashuv o‘quv faoliyatining birligini, CLIL esa terminning tushunchaviy mazmunini mutaxassislik fanlari bilan bog‘lashni ta’minlaydi. Masalan, “break-even point” (zararsizlik nuqtasi) termini leksik yondashuv bo‘yicha “to reach / to calculate / to be above the break-even point” kollokatsiyalari bilan, CLIL bo‘yicha mikroiqtisodiyot fanidagi xarajatlar tahlili mazmuni bilan, topshiriqqa asoslangan yondashuv bo‘yicha esa “yangi mahsulotni ishlab chiqarish maqsadga muvofiqligini rahbariyatga asoslab berish” topshirig‘i orqali o‘zlashtiriladi. Yondashuvlardan birortasining o‘zi iqtisodiy terminni kasbiy muloqot vositasiga aylantirish uchun yetarli emas, shu sababli konsepsiyada ular o‘zaro to‘ldiruvchi tizim sifatida qo‘llanadi. D.Larsen-Freeman va M.Anderson kommunikativ, topshiriqqa asoslangan va mazmunga asoslangan o‘qitish texnikalarini ularning tayanch tamoyillari bilan bog‘lab tavsiflaydi [127].

Texnologik darajani interfaol va raqamli texnologiyalar tashkil etadi. D.Jonson va R.Jonson hamkorlikda o‘qitishda ijobiy o‘zaro bog‘liqlik, shaxsiy mas’uliyat, bevosita o‘zaro ta’sir, shaxslararo ko‘nikmalar va guruh ishini tahlil qilishni uning samaradorlik shartlari sifatida ajratadi [121]. N.N.Azizxo‘jayeva pedagogik texnologiyani ta’lim vositalari yordamida muayyan sharoitda ta’lim oluvchiga ta’sir ko‘rsatish va oldindan belgilangan shaxs sifatlarini jadal shakllantirish jarayoni sifatida talqin etadi [80]. Raqamli texnologiyalar bo‘yicha P.Mishra va M.Kyoler o‘qituvchi bilimining texnologik, pedagogik va mazmuniy tarkibiy qismlari o‘zaro bog‘langan TPACK modelini taklif etadi va texnologiyaning samarasi uni fan mazmuni va pedagogik maqsad bilan uyg‘unlashtirishga bog‘liq ekanini asoslaydi [40]. G.Dyudeni, N.Xokli va M.Pegram raqamli savodxonlikni til, axborot, aloqalar va qayta loyihalash bilan bog‘liq ko‘nikmalar majmui sifatida tasniflaydi va uni zamonaviy til ta’limining maqsadiga aylantirishni taklif qiladi [103]. U.Sh.Begimqulov pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqadi [85]. Bu qarashlarda texnologiya o‘zaro ta’sirni tashkil etish

(D.Jonson va R.Jonson, N.N.Azizxo‘jayeva), mazmun va savodxonlik bilan uyg‘unlashuv (P.Mishra va M.Kyoler, G.Dyudeni va hammualliflari) hamda boshqarish tizimi (U.Sh.Begimqulov) nuqtayi nazaridan talqin etiladi.

Iqtisodiyot mutaxassisining kasbiy muloqoti bugungi kunda videokonferensiya, elektron pochta, elektron jadval va onlayn taqdimot vositalarida kechadi, Business English bo‘yicha xalqaro imtihonlarning bir qismi esa kompyuter shaklida topshiriladi: Linguaskill Business testi moslashuvchan kompyuter testi sifatida tashkil etiladi [233], BEC va TOEIC imtihonlari esa ish joyidagi yozishma, hisobot va suhbatlarga asoslangan topshiriqlar orqali kasbiy muloqotni baholaydi [231], [236]. Shu sababli texnologik daraja metodikaga ikkita talab qo‘yadi: interfaol texnologiyalar iqtisodiy terminni hamkorlikdagi kasbiy vazifa ichida faollashtirishi, raqamli vositalar esa shunchaki axborot manbai emas, balki kasbiy muloqotning o‘zi kechadigan muhit sifatida qo‘llanishi lozim. Masalan, talabalar guruhi elektron jadvaldagi chorak ko‘rsatkichlari asosida “revenue” (tushum), “gross margin” (yalpi marja) va “net profit” (sof foyda) terminlarini qo‘llab videokonferensiyada qisqa hisobot taqdim etadi, korpus va elektron lug‘at vositalari yordamida esa terminning kollokatsiyalarini mustaqil tekshiradi.

Konsepsiyaning yetakchi g‘oyasi I bobda aniqlangan asosiy ziddiyatdan kelib chiqadi. Bir tomondan, iqtisodiyot mutaxassisining kasbiy faoliyati terminlarni ingliz tilidagi kasbiy muloqotda aniq va vaziyatga mos qo‘llashni talab qiladi; ikkinchi tomondan, amaldagi o‘qitish amaliyotida iqtisodiy terminlar asosan ro‘yxat va tarjima shaklida, o‘qish va yozma topshiriqlar doirasida o‘zlashtiriladi va muloqot ko‘nikmalaridan ajratib o‘rgatiladi. Bu ziddiyatni hal etish terminning o‘quv jarayonidagi maqomini o‘zgartirishni talab qiladi.

Shu asosda konsepsiyaning yetakchi g‘oyasi quyidagicha ifodalanadi: ingliz tilidagi iqtisodiy termin yodlash obyekti sifatida emas, balki kasbiy muloqot vaziyatlarida kasbiy vazifani hal etishning faol vositasi sifatida o‘zlashtirilganda, ya’ni u semantizatsiyadan kommunikativ faollashtirishgacha bo‘lgan yo‘lni taqdimot, muzokara, yig‘ilish, biznes yozishma va telefon orqali muloqot vaziyatlarida bosib o‘tganda, muloqot kompetensiyasi barcha besh komponentning uyg‘unligida samarali rivojlanadi.

Yetakchi g‘oya U.G.Porsayev tadqiqotidagi interaksionizm g‘oyasidan [149] farqli ravishda muloqotning umumiy tamoyilini emas, balki muloqot kompetensiyasining aniq tizim hosil qiluvchi omilini – iqtisodiy terminni markazga qo‘yadi. G‘oya tekshirilishi mumkin bo‘lgan shaklda ifodalangan bo‘lib, undan uchta empirik natija kelib chiqadi va ular tajriba-sinov ishlarida tekshiriladi. Birinchisi, terminlar kasbiy vaziyatda faollashtirilgan guruhda talabalar terminni nafaqat tanib oladi, balki uni vaziyatga mos, aniq va kollokatsion to‘g‘ri qo‘llaydi; bu iqtisodiy-terminologik komponent va lingvopragmatik komponent ko‘rsatkichlarida namoyon

bo‘ladi. Ikkinchisi, terminologik bo‘shliq yuzaga kelganda talabalar muloqotni uzmasdan, parafraza, ta’rif va aniqlashtiruvchi savol orqali davom ettiradi; bu diskursiv-strategik komponent ko‘rsatkichlarida aks etadi. Uchinchisi, talabalar o‘z terminologik lug‘atidagi yetishmovchilikni mustaqil aniqlaydi va uni to‘ldirish yo‘lini belgilaydi; bu motivatsion-refleksiv komponent ko‘rsatkichlarida namoyon bo‘ladi.

Yetakchi g‘oyaning amaliy mazmunini “liquidity” (likvidlik) termini misolida ko‘rsatish mumkin. An’anaviy amaliyotda talaba terminni tarjimasi bilan yodlaydi va matnda tanib oladi. Konsepsiyada esa termin to‘rt bosqichdan o‘tadi: ta’rif va kontekst orqali semantizatsiya; “current assets” (aylanma aktivlar), “current liabilities” (qisqa muddatli majburiyatlar), “current ratio” (joriy likvidlik koeffitsiyenti) terminlari bilan tizimlashtirish; “to improve / to maintain liquidity”, “liquidity risk” kollokatsiyalarini o‘zlashtirish; nihoyat, bank xodimi rolida mijozning kredit arizasini muhokama qilish, “The company’s current ratio has fallen below one, which raises concerns about its short-term liquidity” kabi jumlalar orqali fikrni asoslash va mijoz ahvolini o‘zbek tilida hamkasbga tushuntirish. So‘nggi bosqichda termin kasbiy vazifani hal etish vositasiga aylanadi va muloqot kompetensiyasining barcha komponentlari bir vaqtda faollashadi.

Yetakchi g‘oya tamoyillar tizimi orqali metodikaga aylantiriladi. F.Sh.Negova tamoyillarni didaktik va uslubiy guruhlarga ajratib, didaktik guruhga faoliyat, qulaylik va amalga oshirish imkoniyati, onglilik, ta’lim avtonomligi, fanlararo va axborotlashtirish tamoyillarini, uslubiy guruhga esa kommunikativ yo‘nalganlik, tabaqalashtirilgan yondashuv, aniqlik, yangilik, moslashish jarayonlarini hisobga olish va tizimlilik tamoyillarini kiritadi [144]. G.B.Prenova differensial yondashuv, tizimlilik, ijodiy munosabat va refleksiv tamoyillarni ajratib, refleksiya orqali til o‘rganish chuqur va ongli tus olishini ta’kidlaydi [150]. U.G.Porsayev hamkorlikda o‘rganish, subyektlilik, individuallik va dialogli muloqot tamoyillarini asoslaydi [149]. U.A.Murodova faoliyatga asoslangan, vaziyatga asoslangan o‘qitish, integrativlik va madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish tamoyillarini taklif etadi [140]. J.J.Jalolov chet tili o‘qitish mazmunida mazmun birlamchi, mashq esa uning hosilasi ekanini asoslaydi [119]; bu qoida tamoyillarni avvalo o‘qitish mazmuniga nisbatan belgilashni taqozo etadi. O‘.Hoshimov va I.Yoqubov ingliz tilini o‘qitish tamoyillari qatorida kommunikativlik va onglilik tamoyillarini yoritadi [114]. J.J.Jalolov, G.T.Maxkamova va Sh.S.Ashurovning qo‘llanmasida ingliz tilini o‘qitishning zamonaviy yondashuvlari kommunikativ til o‘qitish va o‘quvchiga yo‘naltirilganlik nuqtayi nazaridan tizimlashtiriladi [120].

Keltirilgan tizimlarni qiyoslaganda uch xususiyat ko‘zga tashlanadi. Birinchidan, kommunikativ yo‘nalganlik, faoliyatlilik va refleksivlik barcha tizimlarda uchraydi, demak, ular chet tili ta’limining umume’tirof etilgan tamoyillaridir. Ikkinchidan, tamoyillar ko‘pincha bir tekislikda sanab o‘tiladi, ularning metodologik asos bilan bog‘liqligi va ichki iyerarxiyasi ochib berilmaydi; F.Sh.Negova tizimidagi

didaktik va uslubiy guruhlarga ajratish bundan istisno. Uchinchidan, tahlil qilingan tizimlarning birortasida kasbiy termin bilan ishlashni tartibga soluvchi maxsus tamoyil mavjud emas. Shu sababli tadqiqotimizda tamoyillar N.V.Uvarina yondashuviga muvofiq iyerarxik tuziladi: yetakchi g‘oyani bevosita ifodalovchi tizim hosil qiluvchi tamoyillar, o‘qitish mazmunini belgilovchi mazmuniy tamoyillar hamda jarayon va natijani tartibga soluvchi jarayoniy-baholash tamoyillari.

Tizim hosil qiluvchi tamoyillar guruhiga uchta tamoyil kiradi. Terminning kommunikativ faollashtirilishi tamoyili iqtisodiy terminni o‘zlashtirish jarayoni har doim uni kasbiy muloqot vaziyatida faol qo‘llash bilan yakunlanishini talab qiladi. Tamoyil konstruktivizm, faoliyat nazariyasi va kommunikativ yondashuvdan kelib chiqadi va 1.2-§ da asoslangan terminni o‘zlashtirishning to‘rt bosqichini majburiy qiladi: semantizatsiya va tizimlashtirish bosqichlari kollokatsion-kontekstual o‘zlashtirish orqali kommunikativ faollashtirishga olib borishi, har bir modul esa terminlar keng qo‘llanadigan kasbiy topshiriq bilan yakunlanishi lozim. Kasbiy-vaziyatli kontekstuallik tamoyili har bir terminologik birlikni aniq kasbiy muloqot vaziyatiga va unga mos janrga biriktirishni talab qiladi. Tamoyil kontekstli va ESP yondashuvlariga tayanadi: masalan, “payment terms”, “letter of credit” (akkreditiv), “discount” terminlari muzokara vaziyatiga, “Please find attached our quotation” kabi formulalar esa biznes yozishmaga bog‘lanadi. Komponentlararo integrativlik tamoyili muloqot kompetensiyasining besh komponentini alohida emas, har bir kasbiy topshiriq ichida birgalikda rivojlantirishni talab qiladi. Tamoyil tizimli yondashuv va integrativ yondashuvdan kelib chiqadi: har bir topshiriqda iqtisodiy-terminologik komponent lingvopragmatik komponent, diskursiv-strategik komponent va madaniyatlararo-kasbiy komponent bilan birga faollashishi, motivatsion-refleksiv komponent esa topshiriqdan keyingi o‘z-o‘zini baholash orqali ta’minlanishi kerak.

Mazmuniy tamoyillar guruhiga ham uchta tamoyil kiradi. Terminologik tizimlilik va kollokatsion yaxlitlik tamoyili iqtisodiy terminlarni terminosistemadagi o‘rni va barqaror birikmalari bilan birga o‘rgatishni talab qiladi. Tamoyil tizimli va leksik yondashuvlardan kelib chiqadi: terminologik minimumning birligi alohida so‘z emas, balki “termin – tushuncha – kollokatsiya – o‘zbekcha muqobil” birligi bo‘lishi, masalan, “inflation” termini “inflation rate”, “to curb inflation” (inflyatsiyani jilovlamoq), “consumer price index” bilan birga berilishi lozim. Til va mutaxassislik mazmuni integratsiyasi tamoyili ingliz tili mavzularini makroiqtisodiyot, moliya, marketing, menejment, buxgalteriya hisobi va xalqaro savdo fanlari mazmuni bilan uyg‘unlashtirishni talab qiladi. Tamoyil CLIL va ESP yondashuvlariga tayanadi va 1.3-§ da aniqlangan mutaxassislik fanlari bilan integratsiyaning sustligi muammosiga javob beradi. Madaniyatlararo-kasbiy me’yoriylik tamoyili iqtisodiy terminlar va nutqiy formulalarni xalqaro biznes muloqotining me’yorlari bilan birga o‘rgatishni talab qiladi. Tamoyil muloqot falsafasi va kommunikativ yondashuvga asoslanadi:

talaba “That might be difficult for us at this stage” kabi yumshatilgan rad javobini tanib olishi, yozishmada rasmiylik darajasini tanlashi, muzokara oldidagi qisqa suhbatning munosabat o‘rnatishdagi rolini anglashi kerak.

Jarayoniy-baholash tamoyillari guruhiga ham uchta tamoyil kiradi. Darajaviy izchillik tamoyili terminologik minimum, kasbiy vaziyatlar va topshiriqlarni CEFR ning B1, B2 va C1 darajalari bo‘yicha bosqichma-bosqich murakkablashtirishni talab qiladi. Tamoyil kompetensiyaviy yondashuv va CEFR ning qo‘shimcha jildidagi deskriptorlardan kelib chiqadi [12]: B1 darajasida talaba telefon orqali oddiy kasbiy so‘rovni bajaradi va standart biznes xat yozadi, B2 darajasida yig‘ilishda faol ishtirok etadi va “Sales levelled off in the third quarter” kabi tendensiyalarni izohlab taqdimot qiladi, C1 darajasida esa murakkab muzokarani olib boradi va moliyaviy tahliliy matnni erkin talqin etadi. Topshiriqqa asoslangan faollik va hamkorlik tamoyili o‘quv faoliyatining birligi sifatida natijaga ega bo‘lgan kasbiy topshiriqni, tashkiliy shakl sifatida esa juftlik va guruhdagi hamkorlikni belgilaydi. Tamoyil topshiriqqa asoslangan yondashuv, faoliyatli yondashuv va interfaol texnologiyalardan kelib chiqadi: taqdimot, rolli muzokara, keys va simulyatsiya topshiriqlari BEC imtihonining yozishma, hisobot va hamkorlikdagi muhokama topshiriqlari turiga moslashtiriladi [231]. Refleksiv-baholovchi avtonomlik tamoyili talabaning o‘z terminologik lug‘ati va muloqot faoliyatini mustaqil nazorat qilish va baholashini ta’minlashni talab qiladi. Tamoyil shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv va raqamli texnologiyalardan kelib chiqadi va kredit-modul tizimida mustaqil ta’lim soatlarining yuqori ulushi bilan asoslanadi; uning vositalari terminologik portfolio, nutq yozuvini tahlil qilish va o‘z-o‘zini baholash varaqalaridir.

Tamoyillar, ular kelib chiqadigan metodologik asoslar, metodikaga qo‘yiladigan talablar va ularning muloqot kompetensiyasi komponentlari bilan bog‘liqligi 2.1-jadvalda umumlashtiriladi.

2.1-jadval

Muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish konsepsiyasining tamoyillar tizimi, metodologik asoslari va metodikaga qo‘yiladigan talablar

№	Tamoyil	Mazmuni	Metodologik asosi	Metodikaga qo‘yiladigan talab	Rivojlanuvchi komponentlar
Tizim hosil qiluvchi tamoyillar					
1	Terminning kommunikativ faollashtirilishi tamoyili	Terminni o‘zlashtirish jarayoni har doim uni kasbiy muloqot vaziyatida faol qo‘llash bilan yakunlanadi	Konstruktivizm; faoliyat falsafasi; kommunikativ yondashuv [215]	Semantizatsiya → tizimlashtirish → kollokatsion-kontekstual o‘zlashtirish → kommunikativ faollashtirish bosqichlari majburiy;	Iqtisodiy-terminologik, lingvopragmatik

				har bir modul kasbiy topshiriq bilan yakunlanadi (masalan, “cash flow statement”ni hamkasblarga tushuntirish)	
2	Kasbiy-vaziyatli kontekstuallik tamoyili	Har bir terminologik birlik aniq kasbiy muloqot vaziyati va janrga biriktiriladi	Kontekstli yondashuv [188]; ESP [116]	Terminlar taqdimot, muzokara, yig‘ilish, biznes yozishma va telefon orqali muloqot vaziyatlari bo‘yicha guruhlanadi (“payment terms”, “letter of credit” – muzokara; “Please find attached our quotation” – yozishma)	Diskursiv-strategik, lingvopragmatik
3	Komponentlararo integrativlik tamoyili	Muloqot kompetensiyasining besh komponenti har bir topshiriq ichida birgalikda rivojlantiriladi	Tizimli yondashuv [187]; integrativ yondashuv [111]	Har bir topshiriq iqtisodiy-terminologik, lingvopragmatik, diskursiv-strategik va madaniyatlararo-kasbiy vazifalarni birlashtiradi; topshiriqdan so‘ng o‘z-o‘zini baholash o‘tkaziladi	Barcha besh komponent
Mazmuniy tamoyillar					
4	Terminologik tizimlilik va kollokatsion yaxlitlik tamoyili	Termin terminosistemadagi o‘rni va barqaror birikmalari bilan birga o‘rgatiladi	Tizimli yondashuv [86]; leksik yondashuv [129]	Terminologik minimum birligi – “termin – tushuncha – kollokatsiya – o‘zbekcha muqobil”: “inflation” – “inflation rate”, “to curb inflation” (inflyatsiyani jilovlamoq), “consumer price index” (iste’mol narxlari indeksi)	Iqtisodiy-terminologik
5	Til va mutaxassislik mazmuni integratsiyasi tamoyili	Ingliz tili mavzulari mutaxassislik fanlari mazmuni bilan uyg‘unlashtiriladi	CLIL [97]; ESP [10]	Modullar makroiqtisodiyot, moliya, marketing, menejment, buxgalteriya hisobi va xalqaro savdo fanlariga moslashtiriladi; “break-even point” mikroiqtisodiyotdagi	Iqtisodiy-terminologik, madaniyatlararo-kasbiy

				xarajatlar tahlili bilan bog‘lab o‘rgatiladi	
6	Madaniyatlararo-kasbiy me’yoriylik tamoyili	Terminlar va nutqiy formulalar xalqaro biznes muloqoti me’yorlari bilan birga o‘rgatiladi	Muloqot falsafasi [183]; kommunikativ yondashuv [191]	Yumshatilgan rad javobi (“That might be difficult for us at this stage”), rasmiylik darajasi, muzokara oldidagi qisqa suhbat me’yorlari maxsus topshiriqlarda tahlil qilinadi	Madaniyatlararo-kasbiy, lingvopragmatik
Jarayoniy-baholash tamoyillari					
7	Darajaviy izchillik tamoyili	Terminologik minimum, vaziyatlar va topshiriqlar B1–B2–C1 darajalari bo‘yicha bosqichma-bosqich murakkablashadi	Kompetensiyaviy yondashuv [222]; CEFR [12]	B1 – telefon orqali oddiy so‘rov, standart xat; B2 – yig‘ilish, tendensiyalarni izohlovchi taqdimot (“Sales levelled off in the third quarter”); C1 – murakkab muzokara, tahliliy matn talqini	Barcha komponentlar, ayniqsa motivatsion-refleksiv
8	Topshiriqqa asoslangan faollik va hamkorlik tamoyili	O‘quv faoliyatining birligi – natijaga ega kasbiy topshiriq, shakli – juftlik va guruhdagi hamkorlik	Topshiriqqa asoslangan yondashuv [107]; interfaol texnologiyalar [121]	Taqdimot, rolli muzokara, keys va simulyatsiya topshiriqlari BEC va Linguaskill Business topshiriqlari turiga moslashtiriladi; guruh ishida rollar va mas’uliyat taqsimlanadi	Diskursiv-strategik, lingvopragmatik
9	Refleksiv-baholovchi avtonomlik tamoyili	Talaba o‘z terminologik lug‘ati va muloqot faoliyatini mustaqil nazorat qiladi va baholaydi	Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv [229]; raqamli texnologiyalar [103]	Terminologik portfolio, nutq yozuvini tahlil qilish, o‘z-o‘zini baholash varaqalari, korpus va elektron lug‘at orqali mustaqil tekshirish; kredit-modul tizimidagi mustaqil ta’lim soatlari shu maqsadga yo‘naltiriladi	Motivatsion-refleksiv, iqtisodiy-terminologik


2.1-jadval ma’lumotlari tamoyillar tizimining uchta xususiyatini ko‘rsatadi. Birinchidan, har bir tamoyil kamida ikki metodologik asosdan kelib chiqadi, bu ularning tasodifiy emas, balki nazariy jihatdan asoslanganini bildiradi. Ikkinchidan, tizim hosil qiluvchi tamoyillar boshqa guruhlardagi tamoyillarning yo‘nalishini belgilaydi: terminning kommunikativ faollashtirilishi tamoyili bo‘lmasa, terminologik

tizimlilik va kollokatsion yaxlitlik tamoyili faqat lug‘aviy boylikka, darajaviy izchillik tamoyili esa faqat til darajasiga xizmat qilib qoladi. Uchinchidan, har bir komponent kamida ikkita tamoyil bilan ta’minlanadi, motivatsion-refleksiv komponent esa birinchi navbatda refleksiv-baholovchi avtonomlik tamoyili va darajaviy izchillik tamoyili orqali rivojlantiriladi.

Yetakchi g‘oya va tamoyillar tizimi konsepsiyaning blokli tuzilmasida yaxlit ko‘rinishga keladi. Konsepsiya oltita blokdan iborat: me’yoriy-maqsadli blok, nazariy-metodologik blok, tamoyillar bloki, mazmuniy blok, jarayoniy-texnologik blok va natijaviy-baholash bloki. Bloklar va ular o‘rtasidagi bog‘lanishlar 2.1-rasmda sxematik tarzda ifodalanadi.

Me’yoriy-maqsadli blok konsepsiyaning ijtimoiy buyurtmasini va maqsadini belgilaydi. Uning me’yoriy asosini 1.3-§ da tahlil qilingan PF-5847-son Farmon, PQ-5117-son qaror, Vazirlar Mahkamasining 34-son qarori va ESP namunaviy dasturi talablari tashkil etadi. Blokning maqsadi – ingliz tilidagi iqtisodiy-kasbiy muloqotga tayyor mutaxassisni tayyorlash bo‘lib, u CEFR ning B1–B2–C1 darajalarida va BEC, Linguaskill Business hamda TOEIC talablarida aniqlashtiriladi [233], [236]. Me’yoriy-maqsadli blok boshqa barcha bloklarning yo‘nalishini belgilaydi va natijaviy-baholash bloki ma’lumotlari asosida aniqlashtirib boriladi.

Nazariy-metodologik blok to‘rt darajadagi metodologik asoslarni, 1.1-§ da asoslangan ishchi ta’rif va komponentlar tuzilmasini o‘z ichiga oladi va sxemada to‘rtta ichki bo‘lim ko‘rinishida beriladi. Yetakchi g‘oya sxemaning markaziy o‘qida, nazariy-metodologik blok va tamoyillar bloki oralig‘ida joylashadi, chunki u metodologik asoslardan kelib chiqadi va tamoyillar orqali metodikaga o‘tkaziladi.



2.1-rasm. Ingliz tilidagi iqtisodiy terminlar asosida muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish konsepsiyasining blokli tuzilmasi

Tamoyillar bloki uch guruhga ajratilgan to‘qqiz tamoyilni o‘z ichiga oladi; undan chiquvchi ikki strelka mazmuniy tamoyillarning asosan mazmuniy blokka, jarayoniy-baholash tamoyillarining esa jarayoniy-texnologik blokka yo‘naltirilishini, tizim hosil qiluvchi tamoyillar esa ikkala blokni ham tartibga solishini ko‘rsatadi.

Mazmuniy blok iqtisodiy terminologik minimumni, uni makroiqtisodiyot, moliya, marketing, menejment, buxgalteriya hisobi va audit hamda xalqaro savdo modullari bo‘yicha taqsimlashni, har bir modulga mos kasbiy janr va muloqot vaziyatlarini qamrab oladi; uning mazmuni 3.1-§ da ishlab chiqiladi. Jarayoniy-texnologik blok terminni o‘zlashtirishning semantizatsiya, tizimlashtirish,

kollokatsion-kontekstual o‘zlashtirish va kommunikativ faollashtirish bosqichlarini, ularga mos mashq va topshiriqlar tizimini hamda keys, rolli muzokara, simulyatsiya, loyiha, korpus va raqamli vositalarni o‘z ichiga oladi; uning mazmuni 3.2-§ va 3.3-§ da ochib beriladi. Ikki blokni bog‘lovchi ikki tomonlama strelka har bir modulning terminologik mazmuni o‘ziga mos topshiriqlar orqali amalga oshirilishini anglatadi.

Natijaviy-baholash bloki muloqot kompetensiyasining besh komponenti bo‘yicha mezonlar va ko‘rsatkichlarni, B1–B2–C1 darajalarini, shuningdek portfolio va o‘z-o‘zini baholash vositalarini qamrab oladi; uning mazmuni tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda aniqlashtiriladi. Sxemaning o‘ng tomonida natijaviy-baholash blokidan me’yoriy-maqsadli blokka yo‘nalgan teskari aloqa strelkasi joylashgan. U baholash natijalariga ko‘ra maqsadlar, terminologik minimum va topshiriqlar korreksiya qilinishini ifodalaydi va konsepsiyani yopiq emas, o‘z-o‘zini takomillashtiruvchi tizim sifatida tavsiflaydi.

Bloklar o‘rtasidagi bog‘lanishlar uch turdagi munosabatni ifodalaydi. Vertikal bog‘lanishlar (me’yoriy-maqsadli blokdan natijaviy-baholash blokigacha) belgilash munosabatidir: yuqoridagi blok quyidagi blokning mazmunini belgilaydi. Gorizontal bog‘lanish (mazmuniy blok va jarayoniy-texnologik blok o‘rtasida) o‘zaro taqozo etish munosabatidir. Teskari aloqa esa korreksiya munosabatidir. Bu munosabatlar Ye.V.Yakovlev va N.O.Yakovleva konsepsiya tuzilmasida ko‘rsatgan yadro va amaliy daraja o‘rtasidagi bog‘lanishni [230] aniq metodik mazmun bilan to‘ldiradi: konsepsiya yadrosini yetakchi g‘oya va tamoyillar bloki, amaliy darajasini esa mazmuniy blok, jarayoniy-texnologik blok va natijaviy-baholash bloki tashkil etadi.

Paragraf yuzasidan quyidagi umumlashma chiqariladi. Konsepsiya o‘zaro bog‘langan tushunchalar tizimi, yadrosi qonuniyatlar va tamoyillardan iborat nazariy bilimlar tizimi hamda yondashuv va metodika o‘rtasidagi bog‘lovchi daraja sifatida talqin etiladi; uning mualliflik ta’rifi ishlab chiqiladi va u model hamda pedagogik shart-sharoitlardan farqlanadi.

Konsepsiyaning metodologik asoslari to‘rt darajada aniqlanadi: falsafiy (konstruktivizm, faoliyat va muloqot falsafasi), umumilmiy (tizimli, faoliyatli, kompetensiyaviy va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar), aniq ilmiy (kommunikativ, ESP, kontekstli, leksik, topshiriqqa asoslangan yondashuvlar va CLIL) va texnologik (interfaol va raqamli texnologiyalar).

Konsepsiyaning yetakchi g‘oyasi iqtisodiy terminni yodlash obyektidan kasbiy muloqotning faol vositasiga aylantirish orqali muloqot kompetensiyasini rivojlantirish haqidagi qoida sifatida ifodalanadi va undan tekshiriladigan uchta empirik natija keltirib chiqariladi. Yetakchi g‘oya uch guruhga ajratilgan to‘qqiz tamoyil orqali metodikaga aylantiriladi: tizim hosil qiluvchi (terminning kommunikativ faollashtirilishi, kasbiy-vaziyatli kontekstuallik, komponentlararo integrativlik), mazmuniy (terminologik tizimlilik va kollokatsion yaxlitlik, til va mutaxassislik

mazmuni integratsiyasi, madaniyatlararo-kasbiy me’yoriylik) va jarayoniy-baholash (darajaviy izchillik, topshiriqqa asoslangan faollik va hamkorlik, refleksiv-baholovchi avtonomlik) tamoyillari. Olti blokdan iborat o‘z-o‘zini takomillashtiruvchi tizim sifatida qurilgan konsepsiya pedagogik shart-sharoitlar va model ishlab chiqish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

2.2-§. Iqtisodiy terminlar asosida muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va ularni aniqlash mezonlari

Metodik konsepsiyaning g‘oyalari va tamoyillari o‘quv jarayonida o‘z-o‘zidan amalga oshmaydi: ular muayyan mazmuniy, tashkiliy, psixologik va kadrlar bilan bog‘liq sharoit maqsadli yaratilgandagina kutilgan natijaga olib keladi. Iqtisodiyot yo‘nalishi talabalariga ingliz tilini o‘qitish amaliyotida iqtisodiy terminlar va muloqot ko‘nikmalarining bir-biridan ajralgan holda o‘zlashtirilishi ko‘p jihatdan ana shunday sharoitning yetishmasligi bilan izohlanadi. O‘quv rejasida “Xorijiy til” fani faqat birinchi bosqichda, 300 soat hajmida o‘qitilib, mutaxassislik fanlarining asosiy qismi ikkinchi–to‘rtinchi bosqichlarga to‘g‘ri keladi [72]; amaldagi fan dasturida esa iqtisodiy terminologik minimum, uning hajmi va tanlash mezonlari, taqdimot yoki muzokarani baholash ko‘rsatkichlari belgilanmagan [170]. Shu sababli konsepsiyani metodikaga aylantirishning navbatdagi bo‘g‘ini pedagogik shart-sharoitlarni ilmiy asosda aniqlashdan iborat. Mazkur paragrafda “pedagogik shart-sharoit” tushunchasining mazmuni va turlari tahlil qilinadi, shart-sharoitlarni tanlash mezonlari belgilanadi, to‘rtta pedagogik shart-sharoit asoslanadi va ularning o‘zaro bog‘liqligi ochib beriladi.

“Shart” tushunchasi falsafa, psixologiya va pedagogikada turlicha talqin etiladi. Ch.I.Nizamova va S.G.Dobrotvorskaya bu talqinlarni umumlashtirib, falsafada shart obyekt bilan uni o‘rab turgan muhit o‘rtasidagi o‘zaro determinatsiyalangan munosabat, psixologiyada shaxs rivojlanishining sur’ati va sifatini belgilovchi ichki va tashqi sabablar majmui, pedagogikada esa shaxsning rivojlanishi, o‘qishi va tarbiyalanishiga ta’sir etuvchi omil sifatida qaralishini ko‘rsatadi [63]. Olimalar pedagogik shart-sharoitni ta’lim oluvchi u bilan determinatsiyalangan aloqada har tomonlama rivojlanadigan muhit sifatida ta’riflaydi [63]. Bu ta’rifning qimmati shundaki, u shart-sharoitni tashqi fon emas, balki rivojlanishni belgilovchi muhit deb biladi. Biroq pedagogik tadqiqot uchun muhitning o‘zi emas, uning tadqiqotchi tomonidan maqsadli yaratiladigan va tekshiriladigan jihatlari muhimdir; shu nuqtayi nazardan ta’rifni aniqlashtirish zarurati saqlanib qoladi.

Xorijiy lingvodidaktikada “pedagogik shart-sharoit” atamasi kam qo‘llanadi, uning o‘rniga til o‘rganish shartlari (conditions for language learning) va muvaffaqiyatli o‘qitish tamoyillari tushunchalari ishlatiladi. B.Spolski ikkinchi tilni

o‘rganishning umumiy nazariyasini shartlar tizimi sifatida quradi va ularni zaruriy shartlar (ularsiz o‘rganish sodir bo‘lmaydi), darajali shartlar (ular kuchaygan sari natija yaxshilanadi) hamda tipiklik shartlari (odatda o‘rganishga yordam beruvchi, biroq majburiy bo‘lmagan holatlar) guruhlariga ajratadi [166]. R.Ellis yo‘naltirilgan o‘qitishning tamoyillarini asoslab, ma’noga e’tibor, til shakliga e’tibor, keng hajmdagi kiritma, nutqiy mahsulot yaratish va o‘zaro ta’sir uchun imkoniyatlar, shuningdek erkin nutqni ham nazoratli nutq qatori baholashni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishning shartlari sifatida ko‘rsatadi [28]. Z.Dornyei motivatsiya strategiyalari tizimida birinchi bosqichni “asosiy motivatsion sharoitlarni yaratish” deb nomlaydi va unga o‘qituvchining maqsadga muvofiq xulqi, qo‘llab-quvvatlovchi auditoriya muhiti hamda aniq me’yorlarga ega birdam guruhni kiritadi [105].

Uchala qarashni qiyoslaganda ularning umumiy jihati shundaki, olimlar natijani bitta metod yoki vosita emas, balki o‘zaro bog‘liq sharoitlar majmui belgilashini tan oladi. Farqli jihatlar ham aniq: B.Spolski shartlarni ularning natijaga ta’sir darajasiga ko‘ra tabaqalashtiradi, R.Ellis o‘quv jarayonining didaktik tashkil etilishiga, Z.Dornyei esa ta’lim oluvchining psixologik holatiga e’tibor qaratadi. Bizningcha, B.Spolski taklif etgan zaruriy va darajali shartlarni farqlash tadqiqotimiz uchun metodologik ahamiyatga ega: pedagogik shart-sharoitlar ro‘yxatiga natija bevosita bog‘liq bo‘lgan omillar kiritilishi, qolgan qulay holatlar esa ularning amalga oshirish vositalari sifatida qaralishi lozim. R.Ellis ajratgan nutqiy mahsulot va o‘zaro ta’sir imkoniyatlari iqtisodiy terminlar uchun hal qiluvchi shartdir, chunki termin matnda tanib olingani bilan emas, balki kasbiy muloqotda qo‘llanganda muloqot vositasiga aylanadi.

MDH pedagogikasida tushunchaning eng keng tarqalgan tahlili N.V.Ippolitova va N.S.Sterxova tadqiqotida berilgan. Olimalar pedagogik shart-sharoitni pedagogik tizimning tarkibiy qismi sifatida ko‘rib, uni ta’lim va moddiy-makoniy muhit imkoniyatlari majmuini aks ettiruvchi, tizimning shaxsiy va jarayoniy jihatlariga ta’sir etib, uning samarali amal qilishi va rivojlanishini ta’minlovchi komponent deb ta’riflaydi [57; 11-b.]. Shu asosda ular tashkiliy-pedagogik, psixologik-pedagogik va didaktik shart-sharoitlarni ajratadi: psixologik-pedagogik shart-sharoitlar pedagogik tizimning shaxsiy jihatini, ya’ni ta’lim oluvchi shaxsining muayyan xususiyatlarini o‘zgartirishga, didaktik shart-sharoitlar esa mavjud o‘qitish sharoitlarini hisobga olgan holda ta’lim mazmuni, metod va tashkiliy shakllarni maqsadga muvofiq tanlash va tuzishga yo‘naltiriladi [57].

O.G.Sharabayko pedagogik shart-sharoit tushunchasining talqinlarini uch yo‘nalishga ajratadi: birinchi yo‘nalishda u pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan choralar majmui, ikkinchisida pedagogik tizimning tarkibiy qismi, uchinchisida esa tizim elementlarini maqsadli tanlash, tuzish va qo‘llash jarayoni sifatida talqin etiladi [70]. Olima bu yo‘nalishlarni birlashtirib, pedagogik shart-sharoitni pedagogik tizim komponentini takomillashtirishga qaratilgan va

maqsadga muvofiq tashkil etilgan jarayon orqali amalga oshiriladigan harakatlar majmui sifatida tavsiflaydi hamda tadqiqotlarda shart-sharoitlar soni ko‘pincha uchtadan sakkiztagacha bo‘lishini qayd etadi [70]. V.I.Andreyev didaktik shart-sharoitni didaktik maqsadlarga erishish uchun mazmun elementlari, metodlar va tashkiliy shakllarni maqsadli tanlash, tuzish va qo‘llash natijasi deb biladi [179]. Yu.K.Babanskiy sharoitlarni tashqi va ichki guruhlarga ajratib, tashqi sharoitlar qatoriga hudud, ijtimoiy va madaniy muhitni, ichki sharoitlar qatoriga esa ta’lim muassasasining me’yoriy-huquqiy asosi, o‘quv-metodik ta’minoti va psixologik muhitini kiritadi [181]. V.A.Belikov tashkiliy-pedagogik shart-sharoitni ta’lim faoliyatini amalga oshirish uchun zarur imkoniyatlar sifatida, psixologik-pedagogik shart-sharoitni esa shaxsni rivojlantirishga qaratilgan o‘zaro ta’sirni ta’minlovchi omil sifatida tavsiflaydi [184]. Ch.I.Nizamova va S.G.Dobrotvorskaya Yu.K.Babanskiy tasnifini rivojlantirib, tashqi sharoitlarni o‘zgartirib bo‘lmaydigan statik, ichki sharoitlarni esa ta’lim maqsadlariga muvofiq modellashtiriladigan dinamik sharoitlar deb nomlaydi va dinamik guruhga tashkiliy-pedagogik (jarayoniy jihat), psixologik-pedagogik (shaxsiy jihat) va didaktik (mazmuniy jihat) shart-sharoitlarni kiritadi [63].

MDH olimlari qarashlaridagi umumiylik shundaki, barchasi pedagogik shart-sharoitni tasodifiy holat emas, balki pedagogik tizimning samaradorligini ta’minlash uchun ongli ravishda yaratiladigan omil deb biladi va tashkiliy-pedagogik, psixologik-pedagogik hamda didaktik turlarni ajratishda deyarli yakdil. Farqlar talqin birligida namoyon bo‘ladi: N.V.Ippolitova va N.S.Sterxova shart-sharoitni tizim komponenti, V.I.Andreyev tanlash va tuzish natijasi, O.G.Sharabayko esa harakatlar majmui sifatida ko‘radi. Tadqiqotimiz uchun Ch.I.Nizamova va S.G.Dobrotvorskaya taklif etgan statik va dinamik sharoitlarni farqlash alohida ahamiyatga ega. O‘quv rejasidagi soat hajmi yoki chet tili fanining birinchi bosqichga joylashgani kabi holatlar [72] metodika doirasida o‘zgartirilmaydigan statik sharoitdir; ular hisobga olinadi, biroq pedagogik shart-sharoitlar qatoriga kiritilmaydi. Pedagogik shart-sharoit sifatida faqat kafedra va o‘qituvchi tomonidan modellashtirilishi, yaratilishi va tekshirilishi mumkin bo‘lgan dinamik sharoitlar belgilanadi.

Uchta turning iqtisodiy terminlar asosida muloqot kompetensiyasini rivojlantirishdagi mazmuni quyidagicha aniqlashtiriladi. Tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar ingliz tili kafedrasi va mutaxassislik kafedralari hamkorligini, o‘quv vaqti va mustaqil ta’limning taqsimlanishini, professor-o‘qituvchilar tayyorgarligini hamda baholash tartibini qamrab oladi. Psixologik-pedagogik shart-sharoitlar talabaning kasbiy muloqotga motivatsiyasini, xato qilishdan qo‘rqmasdan gapirish imkonini beruvchi muhitni, guruhdagi hamkorlik va refleksiyani ta’minlaydi. Didaktik shart-sharoitlar esa terminologik minimumni tanlash, uni kasbiy vaziyatlar va janrlar bo‘yicha tuzish, topshiriqlar tizimini loyihalashga tegishli. Tadqiqotimizda har bir shart-sharoit bitta turga qat’iy biriktirilmaydi: ular yetakchi va yordamchi tur birikmasi

sifatida tavsiflanadi, chunki iqtisodiy terminni muloqot vositasiga aylantirish vazifasi bir vaqtda mazmunni, tashkiliy shaklni va talabaning psixologik holatini o‘zgartirishni talab qiladi.

Milliy tadqiqotlarda pedagogik shart-sharoitlar ko‘pincha muloqot yoki kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish modelining tarkibiy qismi sifatida ishlab chiqiladi. G.B.Prenova pedagogik shart-sharoitlar tizimi til o‘rgatish jarayonining ichki va tashqi jihatlarini uyg‘unlashtirishi hamda talabalarning motivatsiyasi, faolligi va psixologik tayyorgarligini oshirishga xizmat qilishini ta’kidlaydi va besh shart-sharoitni ajratadi: kommunikativ muhit yaratish, faol va interfaol metodlardan foydalanish, moslashuvchan o‘quv materiallari va resurslar, psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlovchi muhit hamda baholashning moslashuvchan va rag‘batlantiruvchi shakllari [150]. M.B.Shodiyev kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish maqsadga yo‘naltirilgan, kommunikativlikni ta’minlovchi, interfaol va shaxsga yo‘naltirilgan shart-sharoitlarni talab qilishini asoslab, kontekstual va kommunikativ o‘quv muhiti, interfaol metodlar va raqamli texnologiyalar (CLIL, topshiriqqa asoslangan ta’lim), madaniyatlararo integratsiya, individual va tabaqalashtirilgan yondashuv hamda portfolio va refleksiv yozuvlar orqali o‘z-o‘zini baholash imkoniyatlarini ajratadi [164]. U.G.Porsayev kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning muhim pedagogik shartlaridan biri sifatida o‘quv va kasbiy muammoga mos kommunikativ vaziyatni yaratishni ko‘rsatadi va bunda o‘qituvchi joy, vaqt, ishtirokchilar, maqsad, muloqot mavzusi va material mazmunini hisobga olib, tipik vaziyatlarni ishlab chiqishi kerakligini ta’kidlaydi [149].

U.A.Murodova kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari qatoriga kommunikativ faoliyatga yo‘naltirilgan o‘quv muhitini, iqtisodiyot fanlari va ingliz tili o‘rtasidagi fanlararo integratsiyani, multimedia resurslari va raqamli texnologiyalarni hamda muammoli, loyihaviy ta’lim, rolli o‘yin, munozara va “teskari sinf” kabi innovatsion yondashuvlarni kiritadi [140]. M.U.Mavlanova tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni ta’lim jarayonining samaradorligiga ta’sir etuvchi holatlar majmui sifatida ta’riflab, ular qatoriga mazmunan kasbga yo‘naltirilgan ta’lim muhiti, muammoli va interfaol metodlar, maqsadli topshiriqlar tizimi, pedagogik texnologiyalar va multimodal vositalar, o‘qituvchi kompetensiyasi va shaxsiy pozitsiyasi hamda baholash tizimini qayta ko‘rib chiqishni kiritadi [136]. B.B.Tangatov didaktik shart-sharoitlarni ikki guruhga ajratadi: pedagogik-psixologik ta’minot kasbiy tayyorgarlikning motivatsion, maqsadli, mazmuniy-instrumental va refleksiv komponentlarini qamrab olsa, tashkiliy-texnologik ta’minot kasbiy-kommunikativ kompetentlikni bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi [168].

Sh.O.Mamayoqubova raqamli ta’lim muhitida pedagogik shart-sharoitlarni puxta tizimlashtirib, har bir shart-sharoit uchun amalga oshirilgan pedagogik

faoliyatni, shakllantiriladigan kompetensiyani va natijani alohida ko‘rsatadi; uning tizimida pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish, refleksiv faoliyatni tashkil etish, raqamli pedagogik muhit yaratish, mualliflik raqamli kontenti va mustaqil ta’limni qo‘llab-quvvatlash shart-sharoit sifatida belgilanadi [38]. N.F.Yigitaliyeva kasbga yo‘naltirilgan ingliz tilini o‘qitishda simulyatsion muhitni til o‘rganish va mutaxassislik amaliyoti o‘rtasidagi “didaktik ko‘prik” sifatida ta’riflaydi, xavfsiz simulyatsion muhit chet tili xavotirini pasaytirib, nutqiy faollikni oshirishini asoslaydi va chet tili hamda mutaxassislik kafedralari o‘rtasida ssenariylarni birgalikda ishlab chiqishni, baholashda esa maxsus chek-list va o‘z-o‘zini baholash varaqalaridan foydalanishni tavsiya etadi [50]. N.M.Ashurova kredit-modul tizimida o‘quv-uslubiy ta’minotni loyihalashda ta’lim natijalariga erishish uchun talabadan talab qilinadigan ish hajmini, ya’ni auditoriya mashg‘ulotlari bilan birga mustaqil ta’lim va baholash topshiriqlarini ham hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi [77].

Milliy tadqiqotchilar qarashlarini qiyoslaganda uchta holat aniqlanadi. Birinchidan, interfaol va kommunikativ muhit (G.B.Prenova, M.B.Shodiyev, U.A.Murodova, M.U.Mavlanova), baholash tizimi (G.B.Prenova, M.U.Mavlanova, N.F.Yigitaliyeva) va fanlararo integratsiya (U.A.Murodova, N.F.Yigitaliyeva) deyarli barcha tizimlarda uchraydi; demak, ular chet tilida kasbiy muloqotni rivojlantirishning barqaror shart-sharoitlaridir. Ikkinchidan, o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi faqat M.U.Mavlanova tizimida alohida shart-sharoit sifatida ajratilgan, boshqa tadqiqotlarda esa o‘qituvchi shart-sharoitni yaratuvchi subyekt sifatida ko‘zda tutiladi, uning maxsus tayyorgarligi esa masala sifatida qo‘yilmaydi. Uchinchidan, tahlil qilingan tizimlarning birortasida kasbiy terminologiya ta’lim mazmunini tuzishning asosi sifatida shart-sharoit darajasiga ko‘tarilmagan, shart-sharoitlarni tanlash mezonlari va ularning yaratilganligini ko‘rsatuvchi ko‘rsatkichlar esa, Sh.O.Mamayoqubova tizimini istisno qilganda, asosan belgilanmaydi. Bizningcha, bu holat tadqiqotimizda shart-sharoitlar ro‘yxatini emas, balki tanlash mezonlari asosida aniqlangan, har biri konsepsiya blokidan kelib chiqadigan va yaratilganlik ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan shart-sharoitlar tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Tahlil asosida tadqiqotimiz uchun quyidagi mualliflik ta’rifi qabul qilinadi: iqtisodiy terminlar asosida muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari – konsepsiyaning bloklari va tamoyillaridan kelib chiqadigan, iqtisodiyot yo‘nalishi talabalariga ingliz tilini o‘qitish jarayonining mazmuni, tashkil etilishi, o‘quv muhiti va subyektlari tayyorgarligiga qo‘yiladigan, maqsadli yaratiladigan va yaratilganlik darajasi ko‘rsatkichlar orqali tekshiriladigan o‘zaro bog‘liq tashkiliy-pedagogik, psixologik-pedagogik va didaktik talablar majmui bo‘lib, ular iqtisodiy terminni kasbiy muloqot vositasi sifatida o‘zlashtirish orqali muloqot kompetensiyasining besh komponenti uyg‘un rivojlanishini ta’minlaydi. Ta’rifning umumiy belgisi – “talablar majmui” – uni N.V.Ippolitova va N.S.Sterxova,

O.G.Sharabayko qarashlari bilan bog‘laydi; xos belgilari esa konsepsiya bloklaridan kelib chiqish, dinamik tabiat, yaratilganlikning tekshiriluvchanligi va iqtisodiy terminni kasbiy muloqot vositasiga aylantirishga yo‘naltirilganlikdan iborat.

Pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash ixtiyoriy tanlov emas; O.G.Sharabayko ko‘rsatganidek, tadqiqotlarda uchtadan sakkiztagacha shart-sharoit taklif etiladi [70], bu esa ularni tanlashning aniq mezonlari zarurligini ko‘rsatadi. Ye.V.Yakovlev va N.O.Yakovleva pedagogik konsepsiyaning yadrosini qonuniyatlar va tamoyillardan iborat boshlang‘ich qoidalar tizimi sifatida ko‘radi [230]; bundan amaliy darajaga tegishli har bir element, shu jumladan pedagogik shart-sharoit, yadrodagi qoidalardan mantiqan kelib chiqishi lozim, degan talab kelib chiqadi. Shu talab va B.Spolski taklif etgan zaruriy shartlar g‘oyasiga [166] tayanib, tadqiqotimizda pedagogik shart-sharoitlarni tanlashning beshta mezoni belgilanadi.

Konseptual muvofiqlik mezoni har bir pedagogik shart-sharoit 2.1-§ da asoslangan konsepsiyaning muayyan blokidan va kamida ikkita tamoyilidan kelib chiqishini talab qiladi. Mezon shart-sharoitlar ro‘yxatiga konsepsiya bilan bog‘lanmagan, umumdidaktik tavsiyalar kiritilishining oldini oladi. Masalan, “zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish” umumiy sharti bu mezondan o‘tmaydi, biroq “kasbiy muloqot vaziyatlarini modellashtiruvchi raqamli muhit” jarayoniy-texnologik blok va topshiriqqa asoslangan faollik va hamkorlik tamoyilidan bevosita kelib chiqadi.

Zaruriylik va yetarlilik mezoni ikkita talabni birlashtiradi. Zaruriylik shuni anglatadiki, shart-sharoit yo‘q bo‘lganda yetakchi g‘oya amalga oshmaydi: masalan, terminologik minimum kasbiy vaziyatlar bo‘yicha tuzilmasa, terminning kommunikativ faollashtirilishi tamoyili bajarilmay qoladi. Yetarlilik esa shart-sharoitlar birgalikda muloqot kompetensiyasining barcha besh komponentini va konsepsiyaning barcha amaliy bloklarini qamrab olishini talab qiladi. Shu mezon shart-sharoitlar sonini chegaralaydi: bir-birini takrorlovchi yoki bitta komponentga xizmat qiluvchi shart-sharoitlar birlashtiriladi.

Boshqariluvchanlik mezoni shart-sharoitning ingliz tili kafedrasi va o‘qituvchi vakolati doirasida yaratilishi va o‘zgartirilishi mumkinligini talab qiladi. Ch.I.Nizamova va S.G.Dobrotvorskaya dinamik sharoitlar haqidagi qarashiga [63] muvofiq o‘quv rejasidagi soatlar hajmi yoki talabalarning kirish darajasi boshqarilmaydigan omil hisoblanadi va shart-sharoit sifatida belgilanmaydi; ularga nisbatan faqat moslashuv choralari ko‘riladi. Iqtisodiy terminologik minimumni tuzish, mutaxassislik kafedrasi bilan mavzularni muvofiqlashtirish yoki baholash rubrikasini ishlab chiqish esa kafedra vakolatidagi harakatlardir.

Tekshiriluvchanlik mezoni har bir shart-sharoit uchun uning yaratilganligini ko‘rsatuvchi kuzatiladigan ko‘rsatkichlar belgilanishini talab qiladi. Bu mezon tajriba-sinov ishlari mantig‘idan kelib chiqadi: tajriba guruhida shart-sharoitlar yaratilganligi

koʻrsatkichlar orqali qayd etilgandagina muloqot kompetensiyasidagi oʻzgarishni shu shart-sharoitlar bilan bogʻlash mumkin. Koʻrsatkichlar hujjatlarda (fan dasturi, terminologik minimum, mavzular xaritasi), oʻquv jarayonida (mashgʻulot kuzatuvi, topshiriqlar) va subyektlar faoliyatida (oʻqituvchi tayyorgarligi, talaba portfoliosi) qayd etiladi.

Amalga oshirilish imkoniyati mezoni shart-sharoit oliy ta’lim muassasasining mavjud kadrlar, vaqt va texnik resurslari doirasida, qoʻshimcha moliyaviy xarajatlarsiz yaratilishini talab qiladi. Kredit-modul tizimida mustaqil ta’limning yuqori ulushi [77], ochiq raqamli vositalar va mutaxassislik kafedralari salohiyatidan foydalanish bu mezonni ta’minlaydi. Mezon taklif etilayotgan metodikaning boshqa iqtisodiy oliy ta’lim muassasalariga koʻchirilishi uchun ham asos boʻladi.

Besh mezon bir-birini toʻldiradi: konseptual muvofiqlik mezoni va zaruriylik va yetarlilik mezoni shart-sharoitlarning nazariy asoslanganligini, boshqariluvchanlik mezoni va amalga oshirilish imkoniyati mezoni ularning amaliy realligini, tekshiriluvchanlik mezoni esa ularning tajribada tasdiqlanish imkoniyatini kafolatlaydi. Besh mezon asosida konsepsiya bloklaridan kelib chiqadigan va bir-birini takrorlamaydigan toʻrtta pedagogik shart-sharoit aniqlanadi.

Mezonlar milliy va xorijiy tadqiqotlarda taklif etilgan shart-sharoitlarga nisbatan qoʻllanganda ularning bir qismi qayta guruhlanadi. “Moslashuvchan oʻquv materiallari va resurslar” hamda “mualliflik raqamli kontenti” kabi shart-sharoitlar konseptual muvofiqlik mezoni boʻyicha mazmuniy blokka tegishli boʻlib, iqtisodiy terminologik minimum asosida tuzilganda birinchi shart-sharoit tarkibiga kiradi. “Psixologik jihatdan qoʻllab-quvvatlovchi muhit”, “kommunikativ muhit” va “interfaol metodlar” zaruriylik va yetarlilik mezoniga koʻra alohida shart-sharoit boʻlmay, kasbiy muloqot vaziyatlarini modellashtiruvchi interfaol va raqamli ta’lim muhitining tarkibiy jihatlari sifatida birlashtiriladi. “Individual va tabaqalashtirilgan yondashuv” darajaviy izchillik tamoyili orqali birinchi va toʻrtinchi shart-sharoitda amalga oshiriladi. Oʻquv rejasidagi soatlar hajmi va chet tili fanining joylashuvi esa boshqariluvchanlik mezonidan oʻtmaydi va statik sharoit sifatida hisobga olinadi. Shu tariqa mezonlar shart-sharoitlar sonini emas, balki ularning tarkibini asoslaydi: har bir shart-sharoit konsepsiyaning bir bloki va kamida ikki tamoyiliga tayanadi, tekshiriluvchanlik mezoni va amalga oshirilish imkoniyati mezoni talablariga javob beradi.

Birinchi shart-sharoit – iqtisodiy terminologik minimum va ta’lim mazmunini kasbiy muloqot vaziyatlari asosida loyihalash. Bu shart-sharoitning yetakchi turi didaktik, yordamchi turi tashkiliy-pedagogikdir. U mazmuniy blokdan va terminologik tizimlilik va kollokatsion yaxlitlik tamoyili hamda kasbiy-vaziyatli kontekstuallik tamoyilidan kelib chiqadi. Shart-sharoitning mazmuni shundan iboratki, ta’lim mazmunini tuzishning boshlangʻich birligi darslikdagi mavzu yoki grammatik hodisa emas, balki iqtisodiy terminologik minimumning kasbiy muloqot vaziyatiga

biriktirilgan birligi hisoblanadi. T.Xatchinson va A.Uoters ESP kursida mazmunga oid barcha qarorlar o‘quvchining tilni o‘rganish ehtiyojlaridan kelib chiqishini asoslaydi [116], O‘zbekiston oliy ta’limi uchun ESP namunaviy dasturi ham kursni ehtiyojlar tahlilidan boshlab, kasbiy janrlar va diskurs bilan bog‘lashni talab qiladi [10]. I.S.P.Neyshn so‘zni o‘zlashtirishni uchta jarayon – payqash, xotiradan qayta chaqirish va yangi kontekstda ijodiy qo‘llash – orqali tushuntiradi va lug‘at o‘rgatishni ma’noga yo‘naltirilgan kiritma, ma’noga yo‘naltirilgan nutqiy mahsulot, tilga yo‘naltirilgan o‘rganish va ravonlikni rivojlantirish kabi to‘rt yo‘nalishda muvozanatli tashkil etishni taklif qiladi [142]. A.A.Verbitskiy esa o‘quv faoliyati mazmuni kelgusidagi kasbiy faoliyatning predmet va ijtimoiy kontekstini modellashtirishi kerakligini asoslaydi [188].

Bu qarashlar birinchi shart-sharoitning uch tarkibiy jihatini belgilaydi. Terminologik minimum tanlanganda uning har bir birligi “termin – tushuncha – kollokatsiya – o‘zbekcha muqobil – kasbiy vaziyat” zanjirida tavsiflanadi. Masalan, makroiqtisodiyot modulida “inflation rate” (inflyatsiya darajasi) termini “to curb inflation” (inflyatsiyani jilovlamoq), “interest rate” (foiz stavkasi) va “central bank” (markaziy bank) birliklari bilan birga iqtisodiy holat haqidagi taqdimot vaziyatiga biriktiriladi; moliya modulida “cash flow” (pul oqimi), “working capital” (aylanma mablag‘) va “balance sheet” (buxgalteriya balansi) terminlari bank bilan kredit bo‘yicha muzokara va hisobot muhokamasiga; buxgalteriya hisobi modulida “accounts receivable” (debitorlik qarzi) va “outstanding invoice” (to‘lanmagan hisob-faktura) birliklari mijoz bilan telefon orqali muloqot vaziyatiga; xalqaro savdo modulida “letter of credit” (akkreditiv), “payment terms” (to‘lov shartlari) va “quotation” (narx taklifi) terminlari biznes yozishmaga biriktiriladi.

Ta’lim mazmuni “modul – kasbiy vaziyat – janr – terminlar guruhi – nutqiy formulalar – CEFR darajasi” matritsasi shaklida tuziladi. Masalan, B1 darajasida mijoz bilan telefon orqali muloqot vaziyatida “I’m calling about the outstanding invoice” kabi formula, B2 darajasida yig‘ilish vaziyatida “Let’s move on to the next item on the agenda”, C1 darajasida esa muzokara vaziyatida “We could offer more flexible payment terms if you commit to a larger volume” kabi murakkab shartli taklif o‘zlashtiriladi. Darajalar CEFR ning qo‘shimcha jildidagi kasbiy muloqotga oid deskriptorlar [12] va BEC imtihonining B1, B2 va C1 darajalaridagi topshiriqlar turi [231] bilan muvofiqlashtiriladi. Har bir modul I.S.P.Neyshn taklif etgan jarayonlar izchilligida – terminni payqash, tizimlashtirish, qayta chaqirish va kasbiy topshiriqda ijodiy qo‘llash – tuziladi va kasbiy muloqot topshirig‘i bilan yakunlanadi.

Birinchi shart-sharoitni amalga oshirish yo‘llari quyidagilardan iborat: mutaxassislik fanlari dasturlari, autentik biznes matnlari va xalqaro imtihon materiallari asosida terminologik minimumni tanlash; terminologik minimumni modullar va kasbiy vaziyatlar bo‘yicha taqsimlash; fan dasturiga terminologik

minimum va vaziyatlar matritsasini kiritish; terminologik kartochkalar va elektron glossariyni yaratish. Uning yaratilganlik koʻrsatkichlari: terminologik minimum tanlash mezonlari bilan birga hujjatlashtirilgan; har bir modul uchun vaziyat, janr va CEFR darajasi belgilangan; har bir terminologik birlik kollokatsiyalari va oʻzbekcha muqobili bilan berilgan; modullarning har biri kasbiy muloqot topshirigʻi bilan yakunlanadi.

Ikkinchi shart-sharoit – mutaxassislik fanlari bilan CLIL elementlari asosida fanlararo integratsiyani ta’minlash. Uning yetakchi turi tashkiliy-pedagogik, yordamchi turi didaktikdir. Shart-sharoit mazmuniy blokdan va til va mutaxassislik mazmuni integratsiyasi tamoyili hamda komponentlararo integrativlik tamoyilidan kelib chiqadi. D.Koyl, P.Xud va D.Marsh CLIL ni mazmun, muloqot, bilish va madaniyat birligida tashkil etiluvchi, fan mazmuni va tilni bir vaqtda oʻrgatishga qaratilgan yondashuv sifatida asoslaydi [97]. T.Dadli-Evans va M.Sent-Jon ESP oʻqituvchisi va mutaxassislik fani oʻqituvchisi oʻrtasidagi hamkorlikning uch darajasini ajratadi: ma’lumot almashishga asoslangan kooperatsiya, mazmun va topshiriqlarni birgalikda tayyorlashni nazarda tutuvchi kollaboratsiya hamda mashgʻulotni birgalikda oʻtkazish [104]. Bu tasnifga koʻra CLIL elementlari har doim ham mashgʻulotni ikki oʻqituvchi tomonidan oʻtkazishni talab qilmaydi; iqtisodiyot yoʻnalishi sharoitida kooperatsiya va kollaboratsiya darajalari boshqariluvchanlik mezoni va amalga oshirilish imkoniyati mezoniga koʻproq mos keladi. P.Mehisto, D.Marsh va M.J.Frigols CLIL da fan mazmuni, til, kognitiv faoliyat va madaniyatning birgalikda rejalashtirilishini asosiy talab sifatida belgilaydi [138].

Ikkinchi shart-sharoit zaruriyligi oʻquv rejasining tuzilishidan kelib chiqadi. Chet tili fani birinchi bosqichda oʻqitiladi va shu bosqichda “Iqtisodiyot nazariyasi”, “Biznesga kirish”, “Amaliy matematika” va “Iqtisodiyotda axborot-kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar” fanlari oʻtiladi; mikroiqtisodiyot, marketing, statistika, moliya, strategik menejment, shuningdek xalqaro iqtisodiyot, xalqaro marketing va xalqaro bank ishi kabi fanlar esa keyingi bosqichlarga toʻgʻri keladi [72]. Demak, fanlararo integratsiya ikki yoʻnalishda tashkil etiladi: sinxron yoʻnalishda ingliz tili mavzulari birinchi bosqichdagi iqtisodiyot nazariyasi va biznesga kirish fanlari mavzulari bilan vaqt boʻyicha muvofiqlashtiriladi, istiqbol yoʻnalishida esa keyingi bosqich fanlarining asosiy tushunchalari terminologik minimumga oldindan kiritiladi va mustaqil ta’limdagi loyihalar orqali oʻzlashtiriladi. Masalan, iqtisodiyot nazariyasi fanida talab va taklif mavzusi oʻrganilayotgan haftada ingliz tili mashgʻulotida “supply and demand” (talab va taklif), “equilibrium price” (muvozanat narx) va “price elasticity” (narx elastikligi) terminlari asosida bozordagi narx oʻzgarishini izohlovchi qisqa taqdimot tayyorlanadi; biznesga kirish fanidagi korxona shakllari mavzusi bilan parallel ravishda “merger and acquisition” (qoʻshib olish va sotib olish), “joint venture”

(qo‘shma korxona) va “shareholder” (aksiyador) terminlari yig‘ilishda hamkorlik shaklini tanlash muhokamasida qo‘llanadi.

CLIL elementlari iqtisodiy terminologik minimumni til birliklari ro‘yxatidan tushunchalar tizimiga aylantiradi, bu esa til va mutaxassislik mazmuni integratsiyasi tamoyilining asosiy talabidir. N.F.Yigitaliyeva mutaxassislik va chet tili kafedralari o‘rtasida ssenariylarni birgalikda ishlab chiqishni [50], U.A.Murodova esa iqtisodiyot fanlari va ingliz tili integratsiyasini pedagogik shart-sharoit sifatida ko‘rsatadi [140]. Bizningcha, bu qarashlar integratsiyaning tashkiliy mexanizmi aniqlashtirilgandagina shart-sharoit darajasiga ko‘tariladi. Shu sababli ikkinchi shart-sharoitni amalga oshirish yo‘llari quyidagicha belgilanadi: ingliz tili va mutaxassislik kafedralari o‘rtasida mavzular xaritasini kelishish; terminologik minimum va glossariyni mutaxassislik o‘qituvchisi ekspertizasidan o‘tkazish; iqtisodiy keyslarni (zararsizlik nuqtasini hisoblash, marketing kompleksini tahlil qilish, SWOT-tahlil) mutaxassislik fani mazmuni asosida birgalikda tayyorlash; mustaqil ta’limda ingliz tilidagi autentik iqtisodiy manbalar asosida mini-loyihalar bajarish. Yaratilganlik ko‘rsatkichlari: ikki kafedra tomonidan kelishilgan mavzular xaritasi mavjud; terminologik minimum mutaxassislik o‘qituvchisi ekspertizasidan o‘tgan; keys va loyihalar mutaxassislik fani mazmuniga asoslangan; talabalar terminni mutaxassislik tushunchasi sifatida izohlay oladi.

Uchinchi shart-sharoit – kasbiy muloqot vaziyatlarini modellashtiruvchi interfaol va raqamli ta’lim muhitini yaratish. Uning yetakchi turi psixologik-pedagogik, yordamchi turi tashkiliy-pedagogikdir. Shart-sharoit jarayoniy-texnologik blokdan va terminning kommunikativ faollashtirilishi tamoyili hamda topshiriqqa asoslangan faollik va hamkorlik tamoyilidan kelib chiqadi. Bu shart-sharoit konsepsiyaning yetakchi g‘oyasini bevosita amalga oshiradi, chunki iqtisodiy termin aynan modellashtirilgan kasbiy vaziyatda yodlash obyektidan kasbiy vazifani hal etish vositasiga aylanadi.

Uchinchi shart-sharoitni asoslashda U.G.Porsayevning kasbiy muammoga mos kommunikativ vaziyat yaratish haqidagi qarashi [149], G.B.Prenova ajratgan psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlovchi muhit [150], Z.Dornyei ta’riflagan asosiy motivatsion sharoitlar [105] va R.Ellis ta’kidlagan o‘zaro ta’sir hamda nutqiy mahsulot imkoniyatlari [28] bir nuqtada tutashadi: ta’lim oluvchi xato qilishdan qo‘rqmasdan, aniq kasbiy maqsad yo‘lida hamkorlari bilan muloqotga kirishadigan muhit. Ye.I.Passov o‘qitishni nutqiy vaziyat asosida tashkil etishni talab qilar ekan, vaziyatni muloqot subyektlari o‘rtasidagi munosabatlar tizimi sifatida ko‘radi [215]; bu qarashga ko‘ra kasbiy vaziyat faqat mavzu emas, balki rollarning, maqsadlarning va munosabatlarning aniq taqsimotidir. Raqamli jihatdan Sh.O.Mamayoqubova raqamli pedagogik muhitni LMS platformalari, multimedia vositalari va interfaol texnologiyalar birligi sifatida shart-sharoit darajasiga ko‘taradi [38], P.Mishra va

M.Kyoler esa texnologiyaning samarasi uni fan mazmuni va pedagogik maqsad bilan uyg‘unlashtirishga bog‘liq ekanini asoslaydi [40].

Iqtisodiyot mutaxassisining kasbiy muloqoti bugungi kunda videokonferensiya, elektron pochta, elektron jadval va onlayn taqdimot vositalarida kechadi; Linguaskill Business testi ham kompyuter shaklida, moslashuvchan test sifatida tashkil etiladi [233], TOEIC dasturi esa ish joyidagi muloqotga oid tinglash, o‘qish, gapirish va yozish ko‘nikmalarini baholaydi [236]. Demak, raqamli muhit kasbiy muloqotning o‘zi kechadigan makonni modellashtirishi lozim. Shu asosda uchinchi shart-sharoit quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi: har bir modulda rollar, maqsadlar va natija aniq belgilangan vaziyat ssenariylari (chorak natijalari taqdimoti, yetkazib beruvchi bilan narx va to‘lov shartlari bo‘yicha muzokara, bo‘lim yig‘ilishi, mijozning shikoyatiga yozma javob, qarzni undirish yuzasidan telefon suhbati) asosida rolli o‘yin, keys va simulyatsiyani o‘tkazish; LMS platformasida biznes yozishmalarni almashish va videokonferensiyada taqdimot qilish; elektron jadval ma’lumotlari asosida “revenue” (tushum), “gross margin” (yalpi marja), “net profit” (sof foyda) terminlari bilan natijalarni izohlash; nutq yozuvlari va korpus vositalari orqali terminning qo‘llanishini mustaqil tekshirish; guruh ishida rollar va mas’uliyatni taqsimlash hamda xatoni o‘rganish manbai sifatida baholovchi qo‘llab-quvvatlovchi munosabatni shakllantirish.

Masalan, yetkazib beruvchi bilan muzokara vaziyatida bir talaba xaridor, ikkinchisi yetkazib beruvchi rolini bajaradi, uchinchisi esa kuzatuvchi sifatida terminlar va muzokara strategiyalarining qo‘llanishini qayd etadi. Xaridor “Could you offer a volume discount?” so‘rovi bilan murojaat qiladi, yetkazib beruvchi “We can offer a five percent discount on orders above one thousand units, provided payment is made within thirty days” shaklida shartli taklif bildiradi, tomonlar “net 30 payment terms” iborasining ma’nosini aniqlashtiradi. Bu topshiriqda iqtisodiy-terminologik komponent, lingvopragmatik komponent va diskursiv-strategik komponent bir vaqtda faollashadi, kuzatuvchining qaydlari va nutq yozuvi esa motivatsion-refleksiv komponentni rivojlantirishga xizmat qiladi. Uchinchi shart-sharoitning yaratilganlik ko‘rsatkichlari: har bir modul vaziyat ssenariysi bilan ta’minlangan; mashg‘ulot vaqtining asosiy qismi talabalarning juftlik va guruhdagi muloqot faoliyatiga ajratilgan; biznes yozishmalar va taqdimotlar raqamli platformada amalga oshiriladi; talabaning nutq yozuvlari refleksiya uchun saqlanadi; mashg‘ulotda xatoga nisbatan qo‘llab-quvvatlovchi munosabat kuzatiladi.

To‘rtinchi shart-sharoit – professor-o‘qituvchilarning ESP va Business English bo‘yicha tayyorgarligi va mezonli baholash tizimini ta’minlash. Uning yetakchi turi tashkiliy-pedagogikdir. Shart-sharoit me’yoriy-maqsadli blok va natijaviy-baholash blokidan hamda darajaviy izchillik tamoyili va refleksiv-baholovchi avtonomlik tamoyilidan kelib chiqadi. Shart-sharoitning ikki tarkibiy jihati – o‘qituvchi

tayyorgarligi va baholash tizimi – bitta shart-sharoitga birlashtiriladi, chunki zaruriylik va yetarlilik mezoniga ko‘ra ular ajralgan holda natija bermaydi: mezonli baholash tizimi o‘qituvchi uni qo‘llashga tayyor bo‘lgandagina ishlaydi, o‘qituvchining ESP tayyorgarligi esa baholash amaliyotida namoyon bo‘ladi.

T.Dadli-Evans va M.Sent-Jon ESP o‘qituvchisining besh rolini ajratadi: o‘qituvchi, kurs loyihachisi va material tayyorlovchi, hamkor, tadqiqotchi hamda baholovchi [104]. X.Basturkmen ESP kursini loyihalash o‘qituvchidan maqsadli kasbiy diskursni o‘rganish va o‘zi mutaxassis bo‘lmagan sohaning tushunchalarini ma’lum darajada egallashni talab qilishini ta’kidlaydi [84]. M.U.Mavlanova o‘qituvchi kompetensiyasi va shaxsiy pozitsiyasini alohida pedagogik shart-sharoit sifatida ko‘radi [136]. Olimlar qarashlari o‘qituvchidan til o‘rgatish bilan birga iqtisodiy tushunchalarni tushuntira olish, kasbiy janrlarni tahlil qila olish va mutaxassislik o‘qituvchisi bilan hamkorlik qilishni talab etishini ko‘rsatadi. Iqtisodiy terminlar asosida muloqot kompetensiyasini rivojlantirish uchun o‘qituvchi “depreciation” (amortizatsiya) va “amortization” (nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi) yoki “profit” va “revenue” kabi terminlar o‘rtasidagi tushunchaviy farqni izohlay olishi, muzokara va yig‘ilish diskursining tuzilishini bilishi hamda BEC va Linguaskill Business topshiriqlari formatini amaliyotda qo‘llay olishi zarur.

Baholash tizimi bo‘yicha D.Duglas maxsus maqsadlardagi til qobiliyatini til bilimi va kasbiy soha bilimi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir sifatida talqin etadi va maxsus maqsadlardagi testlar vaziyatiy hamda interaktiv autentiklikka ega bo‘lishi kerakligini asoslaydi [102]. N.F.Yigitaliyeva kasbiy-kommunikativ ko‘nikmalarni baholashda maxsus chek-list va o‘z-o‘zini baholash varaqlarini [50], G.B.Prenova jarayonni baholash, o‘z-o‘zini va o‘zaro baholashni [150], M.B.Shodiyev esa portfolio va refleksiv yozuvlarni [164] tavsiya etadi. 1.3-§ da aniqlanganidek, amaldagi fan dasturida ballar nazorat turlari bo‘yicha taqsimlanadi, biroq taqdimot yoki muzokarani baholash mezonlari, terminni aniq qo‘llash, vaziyatga mos registrni tanlash va muloqotni boshqarish kabi ko‘rsatkichlar ishlab chiqilmagan [170]. Bu holat mezonli baholash tizimini alohida shart-sharoit sifatida yaratish zaruratini tasdiqlaydi.

To‘rtinchi shart-sharoitni amalga oshirish yo‘llari quyidagilardan iborat: kafedrada ESP va Business English bo‘yicha metodik seminarlar va o‘zaro dars kuzatuvlarini tashkil etish; mutaxassislik kafedrasi o‘qituvchilarining iqtisodiy tushunchalar bo‘yicha maslahatlarini yo‘lga qo‘yish; muloqot kompetensiyasining besh komponenti bo‘yicha ko‘rsatkichlarga ega baholash rubrikasini ishlab chiqish va kafedrada tasdiqlash; oraliq va yakuniy nazorat topshiriqlarini BEC va Linguaskill Business topshiriqlari turiga va CEFR ning B1–B2–C1 deskriptorlariga moslashtirish; terminologik portfolio va o‘z-o‘zini baholash varaqalarini joriy etish. Yaratilganlik ko‘rsatkichlari: o‘qituvchilar ESP bo‘yicha metodik tayyorgarlikdan o‘tgan; baholash rubrikasi besh komponent bo‘yicha ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi va kafedrada

tasdiqlangan; nazorat topshiriqlari kasbiy vaziyatga asoslangan; har bir talaba terminologik portfolio yuritadi va o‘z natijalarini rubrika asosida baholaydi. Rubrikaning mezon va ko‘rsatkichlari tajriba-sinov ishlarining baholash vositasi sifatida batafsil ishlab chiqiladi.

Pedagogik shart-sharoitlar muloqot kompetensiyasining komponentlariga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Iqtisodiy terminologik minimum va ta’lim mazmunini kasbiy muloqot vaziyatlari asosida loyihalash birinchi navbatda iqtisodiy-terminologik komponentni va lingvopragmatik komponentni, mutaxassislik fanlari bilan CLIL elementlari asosida fanlararo integratsiyani ta’minlash iqtisodiy-terminologik komponent va madaniyatlararo-kasbiy komponentni rivojlantiradi, chunki xalqaro iqtisodiyot va xalqaro marketing mavzulari kasbiy me’yorlar va ishbilarmonlik madaniyatidagi farqlarni o‘z ichiga oladi. Kasbiy muloqot vaziyatlarini modellashtiruvchi interfaol va raqamli ta’lim muhitini yaratish diskursiv-strategik komponent va lingvopragmatik komponentni faollashtiradi, professor-o‘qituvchilarning ESP va Business English bo‘yicha tayyorgarligi va mezonli baholash tizimini ta’minlash esa portfolio va o‘z-o‘zini baholash orqali motivatsion-refleksiv komponentni shakllantiradi. Besh komponentning har biri kamida ikkita shart-sharoit bilan ta’minlanadi, bu komponentlararo integrativlik tamoyilining shart-sharoitlar darajasidagi ifodasidir.

To‘rtta pedagogik shart-sharoitning asosiy mazmuni, amalga oshirish yo‘llari va yaratilganlik ko‘rsatkichlari 2.2-jadvalda umumlashtiriladi.

2.2-jadval

Iqtisodiy terminlar asosida muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, ularni amalga oshirish yo‘llari va yaratilganlik ko‘rsatkichlari

Shart-sharoit (turi, konsepsiya bloki va tamoyillari)	**Asosiy mazmuni**	**Amalga oshirish yo‘llari**	**Yaratilganlik ko‘rsatkichlari**
1. Iqtisodiy terminologik minimum va ta’lim mazmunini kasbiy muloqot vaziyatlari asosida loyihalash Turi: didaktik (yetakchi), tashkiliy-pedagogik Blok: mazmuniy blok Tamoyillar: terminologik tizimlilik va	Ta’lim mazmunining birligi – “termin – tushuncha – kollokatsiya – o‘zbekcha muqobil – kasbiy vaziyat” zanjiri; mazmun “modul – vaziyat – janr – terminlar – nutqiy formulalar – CEFR darajasi” matritsasida tuziladi (masalan, “cash flow”, “working	Mutaxassislik fanlari, autentik biznes matnlari va BEC materiallari asosida terminologik minimumni tanlash; uni modullar va vaziyatlar bo‘yicha taqsimlash; fan dasturiga matritsani kiritish; elektron glossariy va terminologik kartochkalar yaratish	Terminologik minimum tanlash mezonlari bilan hujjatlashtirilgan; har bir modul uchun vaziyat, janr va B1–B2–C1 darajasi belgilangan; terminlar kollokatsiya va o‘zbekcha muqobil bilan berilgan; har bir modul kasbiy

kollokatsion yaxlitlik; kasbiy-vaziyatli kontekstuallik	capital” – bank bilan muzokara; “accounts receivable”, “outstanding invoice” – telefon orqali muloqot)		muloqot topshirig‘i bilan yakunlanadi
2. Mutaxassislik fanlari bilan CLIL elementlari asosida fanlararo integratsiyani ta’minlash Turi: tashkiliy-pedagogik (yetakchi), didaktik Blok: mazmuniy blok Tamoyillar: til va mutaxassislik mazmuni integratsiyasi; komponentlararo integrativlik	Ingliz tili mavzulari iqtisodiyot nazariyasi va biznesga kirish fanlari bilan sinxron, keyingi bosqich fanlari (mikroiqtisodiyot, marketing, moliya, xalqaro iqtisodiyot) bilan istiqbol yo‘nalishida muvofiqlashtiriladi; hamkorlik kooperatsiya va kollaboratsiya darajasida tashkil etiladi (masalan, “supply and demand”, “equilibrium price”, “price elasticity”)	Ikki kafedra o‘rtasida mavzular xaritasini kelishish; glossariyni mutaxassislik o‘qituvchisi ekspertizasidan o‘tkazish; zararsizlik nuqtasi, marketing kompleksi, SWOT-tahlil bo‘yicha keyslarni birgalikda tayyorlash; mustaqil ta’limda autentik iqtisodiy manbalar asosida mini-loyihalar	Kelishilgan mavzular xaritasi mavjud; terminologik minimum mutaxassis ekspertizasidan o‘tgan; keys va loyihalar mutaxassislik fani mazmuniga asoslangan; talaba terminni mutaxassislik tushunchasi sifatida izohlay oladi
3. Kasbiy muloqot vaziyatlarini modellashtiruvchi interfaol va raqamli ta’lim muhitini yaratish Turi: psixologik-pedagogik (yetakchi), tashkiliy-pedagogik Blok: jarayoniy-texnologik blok Tamoyillar: terminning kommunikativ faollashtirilishi; topshiriqqa asoslangan faollik va hamkorlik; madaniyatlararo-kasbiy me’yoriylik	Rollar, maqsadlar va natija aniq belgilangan vaziyatlarda (taqdimot, muzokara, yig‘ilish, biznes yozishma, telefon orqali muloqot) termin kasbiy vazifani hal etish vositasiga aylanadi; xatoga qo‘llab-quvvatlovchi munosabat, hamkorlik va raqamli kasbiy vosita birligi ta’minlanadi	Vaziyat ssenariylari asosida rolli o‘yin, keys, simulyatsiya; LMS da biznes yozishmalar; videokonferensiyada taqdimot; elektron jadval ma’lumotlarini “revenue”, “gross margin”, “net profit” terminlari bilan izohlash; kuzatuvchi roli, nutq yozuvi va korpus vositalari orqali refleksiya	Har bir modul vaziyat ssenariysi bilan ta’minlangan; mashg‘ulot vaqtining asosiy qismi juftlik va guruhdagi muloqotga ajratilgan; yozishma va taqdimotlar raqamli platformada bajariladi; nutq yozuvlari refleksiya uchun saqlanadi
4. Professor-o‘qituvchilarning ESP va Business	O‘qituvchi ESP o‘qituvchisi, kurs loyihachisi, hamkor	ESP va Business English bo‘yicha metodik seminarlar va	O‘qituvchilar ESP bo‘yicha metodik tayyorgarlikdan

English bo‘yicha tayyorgarligi va mezonli baholash tizimini ta’minlash Turi: tashkiliy-pedagogik Blok: me’yoriy-maqsadli blok, natijaviy-baholash bloki Tamoyillar: darajaviy izchillik; refleksiv-baholovchi avtonomlik	va baholovchi rollarini bajaradi; baholash til bilimi va kasbiy soha bilimi o‘zaro ta’sirini vaziyatiy va interaktiv autentik topshiriqlarda, muloqot kompetensiyasining besh komponenti bo‘yicha ko‘rsatkichlar asosida aniqlaydi	o‘zaro dars kuzatuvi; mutaxassislik o‘qituvchilari maslahatlari; besh komponent bo‘yicha baholash rubrikasini ishlab chiqish; nazorat topshiriqlarini BEC, Linguaskill Business va CEFR B1–B2–C1 deskriptorlariga moslashtirish; terminologik portfolio va o‘z-o‘zini baholash	o‘tgan; rubrika kafedrada tasdiqlangan va besh komponent ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oladi; nazorat topshiriqlari kasbiy vaziyatga asoslangan; talabalar portfolio yuritadi va rubrika asosida o‘zini baholaydi


2.2-jadval ma’lumotlari shart-sharoitlar tizimining uchta xususiyatini ko‘rsatadi. Birinchidan, to‘rtta shart-sharoit konsepsiyaning barcha amaliy bloklarini qamrab oladi: birinchi va ikkinchi shart-sharoit mazmuniy blokni, uchinchisi jarayoniy-texnologik blokni, to‘rtinchisi me’yoriy-maqsadli blok va natijaviy-baholash blokini ta’minlaydi; bu zaruriylik va yetarlilik mezonining bajarilishini anglatadi. Ikkinchidan, to‘qqiz tamoyilning har biri kamida bitta shart-sharoit orqali amalga oshiriladi: madaniyatlararo-kasbiy me’yoriylik tamoyili uchinchi shart-sharoitdagi muzokara va yozishma vaziyatlarida, komponentlararo integrativlik tamoyili ikkinchi va uchinchi shart-sharoitda, refleksiv-baholovchi avtonomlik tamoyili esa to‘rtinchi shart-sharoitda ro‘yobga chiqadi. Uchinchidan, har bir shart-sharoitning yaratilganlik ko‘rsatkichlari hujjatlar, o‘quv jarayoni va subyektlar faoliyatida kuzatiladigan holatlar orqali ifodalangan, bu tekshiriluvchanlik mezoniga javob beradi.

Pedagogik shart-sharoitlar o‘zaro ajralgan holda emas, balki tizim sifatida amal qiladi. Ular o‘rtasida uch turdagi bog‘lanish mavjud. Mazmuniy bog‘lanish birinchi va ikkinchi shart-sharoit o‘rtasida kechadi va ikki tomonlama xususiyatga ega: iqtisodiy terminologik minimum fanlararo integratsiyaning til birliklarini belgilaydi, mutaxassislik fanlari esa terminologik minimumga tushunchaviy mazmun beradi. Masalan, “price elasticity” termini terminologik minimumda kollokatsiyalari bilan qayd etiladi, uning iqtisodiy ma’nosi esa iqtisodiyot nazariyasi fani mazmuni orqali aniqlashtiriladi. Jarayoniy bog‘lanish birinchi va ikkinchi shart-sharoitdan uchinchisiga yo‘nalgan: tuzilgan mazmun va integratsiyalangan tushunchalar faqat interfaol va raqamli muhitda modellashtirilgan kasbiy vaziyatda kommunikativ faollashtiriladi. Ta’minlovchi bog‘lanish to‘rtinchi shart-sharoitdan qolganlariga yo‘nalgan: tayyor o‘qituvchi terminologik minimumni tuzadi, mutaxassislik kafedrasi bilan hamkorlikni tashkil etadi va vaziyatlarni modellashtiradi, mezonli baholash tizimi esa natijalarni qayd etib, teskari aloqa orqali barcha shart-sharoitlarni korreksiya qilish imkonini beradi.

Pedagogik shart-sharoitlarning konsepsiya bloklari bilan va o‘zaro bog‘liqligi 2.2-rasmda sxematik tarzda ifodalanadi. Sxemaning yuqori qatorida 2.1-§ da asoslangan konsepsiyaning oltita bloki joylashgan; ulardan shart-sharoitlarga yo‘nalgan strelkalar belgilash munosabatini ifodalaydi: me’yoriy-maqsadli blok, tamoyillar bloki va mazmuniy blok birinchi shart-sharoitni, mazmuniy blok ikkinchi shart-sharoitni, jarayoniy-texnologik blok va natijaviy-baholash bloki esa to‘rtinchi shart-sharoitni belgilaydi.

Sxemaning o‘rta qatorida birinchi va ikkinchi shart-sharoit ikki tomonlama strelka bilan bog‘langan bo‘lib, u mazmuniy bog‘lanishni ko‘rsatadi; ulardan uchinchi shart-sharoitga yo‘nalgan strelkalar jarayoniy bog‘lanishni ifodalaydi. To‘rtinchi shart-sharoit sxemaning o‘ng tomonida joylashgan va undan ikkinchi hamda uchinchi shart-sharoitga yo‘nalgan strelkalar ta’minlovchi bog‘lanishni anglatadi. Uchinchi shart-sharoitdan pastga yo‘nalgan strelka natijaga – iqtisodiy terminning kasbiy muloqot vositasiga aylanishi va muloqot kompetensiyasining besh komponenti uyg‘un rivojlanishiga olib boradi. Natijadan to‘rtinchi shart-sharoitga qaytuvchi uzuq chiziqli strelka diagnostika va korreksiya aloqasini ifodalaydi: baholash ma’lumotlari asosida terminologik minimum, vaziyat ssenariylari va o‘qituvchilar tayyorgarligi aniqlashtiriladi.

Shart-sharoitlar o‘rtasidagi bog‘lanishlar ularni amalga oshirish izchilligini ham belgilaydi. Tayyorgarlik bosqichida to‘rtinchi shart-sharoitning o‘qituvchi tayyorgarligi jihati va birinchi hamda ikkinchi shart-sharoit, ya’ni terminologik minimum, vaziyatlar matritsasi va mavzular xaritasi yaratiladi. Asosiy bosqichda uchinchi shart-sharoit amalga oshiriladi va mazmun modellashtirilgan kasbiy vaziyatlarda faollashtiriladi. Baholash bosqichida to‘rtinchi shart-sharoitning mezonli baholash tizimi qo‘llanadi va uning natijalari keyingi modulga korreksiya sifatida qaytariladi. Shu tariqa pedagogik shart-sharoitlar 2.1-§ da ko‘rsatilgan konsepsiyaning o‘z-o‘zini takomillashtiruvchi tabiatini o‘quv jarayoni darajasida ro‘yobga chiqaradi va 2.3-§ da ishlab chiqiladigan modelning tashkiliy-pedagogik asosini tashkil etadi.



2.2-rasm. Iqtisodiy terminlar asosida muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va ularning o‘zaro bog‘liqligi

Paragraf yuzasidan quyidagi umumlashma chiqariladi. Xorijiy, MDH va milliy olimlar qarashlari tahlili pedagogik shart-sharoitni maqsadli yaratiladigan, tashkiliy-pedagogik, psixologik-pedagogik va didaktik turlarga ajraladigan dinamik omillar majmui sifatida talqin etish imkonini beradi. Milliy tadqiqotlarda kasbiy terminologiya shart-sharoit darajasiga ko‘tarilmagan, tanlash mezonlari va yaratilganlik ko‘rsatkichlari belgilanmagan; shu asosda mualliflik ta’rifi ishlab chiqiladi.

Konseptual muvofiqlik, zaruriylik va yetarlilik, boshqariluvchanlik, tekshiriluvchanlik va amalga oshirilish imkoniyati mezonlari asosida to‘rtta pedagogik shart-sharoit aniqlanadi: iqtisodiy terminologik minimum va ta’lim mazmunini kasbiy muloqot vaziyatlari asosida loyihalash; mutaxassislik fanlari bilan CLIL elementlari asosida fanlararo integratsiyani ta’minlash; kasbiy muloqot vaziyatlarini modellashtiruvchi interfaol va raqamli ta’lim muhitini yaratish; professor-o‘qituvchilarning ESP va Business English bo‘yicha tayyorgarligi va mezonli baholash tizimini ta’minlash.

Shart-sharoitlar mazmuniy, jarayoniy va ta’minlovchi bog‘lanishlar orqali yaxlit tizim hosil qiladi va 2.3-§ da ishlab chiqiladigan hamda tajriba-sinovdan o‘tkaziladigan modelning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

2.3-§. Ingliz tilidagi iqtisodiy terminlar asosida muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish modeli va uning tarkibiy bloklari

Metodikaning nazariy asoslari va uni amalga oshirish sharoitlari aniqlangach, ular o‘quv jarayonida qanday ketma-ketlikda, qaysi vosita va shakllar orqali, qanday natijaga olib borishini yaxlit ko‘rsatib beruvchi konstruksiya zarur bo‘ladi. Pedagogik tadqiqotda bunday konstruksiya model shaklida ifodalanadi. Iqtisodiyot yo‘nalishi talabalariga ingliz tilini o‘qitishda terminologik ish va muloqot ko‘nikmalarining bir-biridan ajralgan holda tashkil etilishi ko‘p jihatdan maqsad, mazmun, jarayon va baholash o‘rtasidagi bog‘lanishlar aniq loyihalanmaganligi bilan izohlanadi. Shu sababli mazkur paragrafda pedagogik modellashtirish nazariyasining asosiy tushunchalari tahlil qilinadi, modelning konsepsiya va metodik tizim o‘rtasidagi o‘rni belgilanadi, modelning besh bloki, muloqot kompetensiyasini rivojlantirishning to‘rt bosqichi, baholash mezonlari, ko‘rsatkichlari va darajalari asoslanadi hamda bloklar o‘rtasidagi to‘g‘ri va teskari aloqalar ochib beriladi.

“Model” atamasi lotincha modulus (o‘lchov, me’yor, namuna) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, ilmiy bilishda o‘rganilayotgan obyektning muhim xususiyatlarini soddalashtirilgan shaklda aks ettiruvchi va u haqda yangi bilim olish imkonini beruvchi tizimni anglatadi. Modellashtirish nazariyasining falsafiy-metodologik asoslarini ishlab chiqqan V.A.Shtoff modelni aqlan tasavvur qilinadigan yoki moddiy shaklda amalga oshiriladigan, tadqiq obyektini aks ettirib, uni shunday almashtira oladigan tizim sifatida ta’riflaydiki, modelni o‘rganish obyekt haqida yangi axborot beradi [224]. Bu ta’rifda modelning uchta belgisi ajralib turadi: u obyekt bilan o‘xshashlik munosabatida bo‘ladi, obyektning o‘rnini ma’lum jihatdan bosadi va yangi bilim manbai vazifasini bajaradi. Pedagogik modellashtirish uchun uchinchi belgi hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki model mavjud amaliyotni qayd etish bilangina cheklanmay, hali amalda bo‘lmagan o‘quv jarayonini oldindan loyihalash imkonini berishi lozim.

A.N.Daxin pedagogik modelni tadqiq etilayotgan obyektga o‘xshash holda sun’iy yaratilgan, sxema, belgilar yoki formulalar ko‘rinishidagi, obyektning tuzilmasi, xossalari, elementlari o‘rtasidagi aloqa va munosabatlarini soddaroq shaklda qayta ifodalovchi obyekt sifatida tavsiflaydi va pedagogik modellashtirishning samaradorligi bilan birga uning noaniqlik manbalarini ham tahlil qiladi [55]. E.N.Gusinskiy va Yu.I.Turchaninova modelni ongda yoki amaliyotda asl obyektning o‘rnini bosuvchi, uning “vakili” sifatida ko‘radi [195; 124-b.]. V.Ya.Nechayev modellashtirish pedagogik obyektning statikasini ham, dinamikasini ham qamrab olishini va model obyekt xususiyatlarining rivojlanishini aks ettiruvchi o‘zgarishlar asosida prognozlash vositasi bo‘lib xizmat qilishini ta’kidlaydi [62]. MDH olimlari qarashlarini qiyoslaganda umumiy jihat shundaki, ularning barchasi modelni asl obyektning o‘rnini ma’lum jihatdan bosuvchi soddalashtirilgan o‘xshashlik deb biladi. Farq esa ta’kid

nuqtasida: V.A.Shtoff modelning bilish funksiyasini, A.N.Daxin uning tuzilmaviy-belgili tabiatini, E.N.Gusinskiy va Yu.I.Turchaninova o‘rinbosarlik xususiyatini, V.Ya.Nechayev esa prognostik va dinamik imkoniyatini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Tadqiqotimiz uchun bu qarashlarning eng muhim xulosasi shuki, iqtisodiy terminlar asosida muloqot kompetensiyasini rivojlantirish modeli jarayonning tuzilmasini (bloklar), dinamikasini (bosqichlar) va prognoz qilinadigan natijasini (mezon va darajalar) bir vaqtda ifodalashi kerak.

Xorijiy pedagogikada modellashtirish ko‘proq o‘qitishni loyihalash nazariyasi doirasida rivojlangan. B.Joys, M.Ueyl va E.Kalxun o‘qitish modelini o‘quv muhitining tavsifi sifatida ta’riflaydi va modellarni axborotni qayta ishlash, ijtimoiy, shaxsiy hamda xulq-atvor tizimlari oilalariga ajratadi; olimlar har bir modelni beshta jihat orqali tavsiflaydi: bosqichlar ketma-ketligi (sintaksis), ijtimoiy tizim, o‘qituvchining javob reaksiyasi tamoyillari, qo‘llab-quvvatlovchi tizim hamda o‘qituvchi va tarbiyalovchi samaralar [123]. V.Dik, L.Keri va J.Keri o‘qitishni loyihalashni tizimli yondashuv asosida qurib, o‘quv maqsadlarini belgilash, o‘quv vazifasini tahlil qilish, ta’lim oluvchilar va kontekstni o‘rganish, natijaga yo‘naltirilgan maqsadlarni yozish, baholash vositalarini ishlab chiqish, o‘qitish strategiyasi va materiallarini tanlash, shakllovchi va yakuniy baholash hamda tuzatish bo‘g‘inlarini yagona zanjirga birlashtiradi; bu zanjirda shakllovchi baholash natijalari oldingi barcha bo‘g‘inlarga qaytariladi [100]. J.Biggs va K.Tang konstruktiv muvofiqlashtirish g‘oyasini asoslab, kutilayotgan o‘quv natijalari, o‘quv faoliyati va baholash topshiriqlari bir xil faoliyat fe’llari asosida o‘zaro muvofiqlashtirilgandagina o‘qitish samarali bo‘lishini ko‘rsatadi [88]. Ch.Reygelut o‘qitishni loyihalash nazariyalarini tavsiflovchi emas, balki loyihalovchi nazariyalar deb biladi: ular muayyan natijaga erishish metodlarini va bu metodlar qaysi vaziyatda qo‘llanishini belgilaydi [152]. G.Viggins va J.Maktay o‘quv jarayonini kutilgan natija va uning dalillaridan boshlab loyihalash (“teskari loyihalash”) g‘oyasini ilgari suradi [173].

Xorijiy olimlar qarashlaridan tadqiqotimiz uchun uchta talab kelib chiqadi: modelda bosqichlar (B.Joys va hammualliflaridagi “sintaksis”) va vositalar (“qo‘llab-quvvatlovchi tizim”) alohida ko‘rsatilishi, baholashdan maqsad va mazmunga qaytuvchi teskari aloqa kiritilishi hamda maqsad, jarayon va baholash bir xil kasbiy-kommunikativ harakatlar orqali ifodalanishi lozim. Masalan, maqsadda talaba “chorak natijalarini taqdimotda izohlay oladi” deb belgilansa, jarayonda taqdimot topshirig‘i, baholashda esa taqdimotdagi terminni aniq qo‘llash ko‘rsatkichi bo‘lishi kerak.

Milliy tadqiqotlarda pedagogik modellashtirish muloqot va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish metodikalarining markaziy bo‘g‘ini sifatida qaraladi. U.G.Porsayev pedagogik modellashtirishni tadqiqotdagi nazariy va empirik ma’lumotlarni birlashtiruvchi, tajriba ishlarini ilmiy abstraksiya va mantiqiy konstruksiyalar bilan bog‘lovchi vosita sifatida tavsiflaydi; olimning fikricha, model

o‘rganilayotgan jarayonning tuzilmaviy va dinamik xususiyatlarini aks ettiradi, ta’lim hodisalarini chuqurroq bilish, prognoz qilish va o‘zgartirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi, natijada maqsad, metodologik yondashuvlar, yetakchi tamoyillar, tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar, baholash mezonlari va yakuniy natijani o‘z ichiga olgan tuzilmaviy-funksional model yaratiladi [149]. G.B.Prenova modelni murakkab real obyekt, jarayon yoki hodisaning muhim tomonlarini soddalashtirilgan holda aks ettiruvchi tizim deb ta’riflaydi va ta’limda modelni o‘qitish jarayonining maqsadli, mazmuniy, texnologik va natijaviy tarkibiy qismlarini uyg‘unlashtiruvchi ilmiy-metodik asos sifatida ko‘radi [150]. M.B.Shodiyev modelni maqsadli, konseptual, mazmuniy-jarayoniy, texnologik va natijaviy-baholovchi bloklardan tuzadi va model samaradorligini aniqlash hamda shakllangan kompetensiyalar darajasini baholashni diagnostik blokning asosiy vazifasi deb belgilaydi [164].

M.U.Mavlanova maqsad blokini ijtimoiy buyurtmadan boshlaydi, konseptual blokka pedagogik shart-sharoitlar, yondashuvlar va tamoyillarni, texnologik blokka mazmun, metod, shakl va vositalarni, faoliyat blokiga tayyorgarlik, asosiy va yakuniy bosqichlarni, baholash blokiga esa mezonlar va darajalarni kiritadi [136]. U.A.Murodova modelini maqsadli, konseptual, metodologik va natija bloklaridan iborat tuzilma sifatida qurib, o‘quv jarayonining motivatsion, kontekstual, operatsion va refleksiv tarkibiy qismlarini ajratadi [140]. F.Sh.Negova metodik modelni yaratishning zaruriy shartlari qatorida ijtimoiy talab, davlat ta’lim standartlariga rioya qilish va fanlararo aloqalar salohiyatidan samarali foydalanishni ko‘rsatadi [144]. Milliy tadqiqotlarni qiyoslaganda modellar tuzilmasidagi barqaror yadro aniqlanadi: maqsadli blok, nazariy yoki konseptual blok, mazmun va jarayonni ifodalovchi blok hamda baholash bloki deyarli barcha modellarda mavjud. Farqlar uch jihatda kuzatiladi. Birinchidan, pedagogik shart-sharoitlar ba’zi modellarda konseptual blok ichida (M.U.Mavlanova), ba’zilarida alohida tavsiflanadi. Ikkinchidan, bosqichlar ayrim modellarda alohida faoliyat bloki sifatida, boshqalarida texnologik blok tarkibida beriladi. Uchinchidan, tahlil qilingan modellarning birortasida mazmuniy blok kasbiy terminologiyaning tizimli minimumi asosida qurilmagan, baholash mezonlarida esa terminni kasbiy vaziyatda qo‘llash alohida ko‘rsatkich sifatida ajratilmagan.

Tahlil modelning vazifalari va unga qo‘yiladigan talablarni umumlashtirish imkonini beradi. Tadqiqotimizda model beshta vazifani bajaradi: tavsiflovchi (jarayonning tarkibi va tuzilmasini ko‘rsatadi), tushuntiruvchi (bloklar o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘lanishlarini izohlaydi), loyihalovchi (fan dasturi, modullar, mashqlar va baholash vositalarini ishlab chiqishga asos bo‘ladi), prognostik (V.Ya.Nechayev qayd etganidek [62], natijani mezon va darajalar orqali oldindan belgilaydi) hamda diagnostik-korreksion (V.Dik va hammualliflari yondashuvidagi shakllovchi baholash mantig‘ida [100] jarayonni tuzatadi). Bu vazifalardan beshta talab kelib chiqadi:

konseptual muvofiqlik (har bir blok 2.1-§ dagi konsepsiya bloklari, yetakchi g‘oya va tamoyillardan kelib chiqadi), yaxlitlik, muvofiqlashtirilganlik (J.Biggs va K.Tang g‘oyasiga muvofiq [88] maqsad, mazmun, jarayon va baholash yagona kasbiy-kommunikativ harakatlar orqali ifodalanadi), diagnostiklanuvchanlik va amalga oshiriluvchanlik. Bu talablar 2.2-§ da pedagogik shart-sharoitlarni tanlash uchun belgilangan mezonlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, konsepsiya, shart-sharoitlar va modelni yagona mantiqqa bo‘ysundiradi.

Modelning konsepsiya va metodik tizim o‘rtasidagi o‘rnini aniqlashda Ye.V.Yakovlev va N.O.Yakovleva nazariyasi muhim tayanch bo‘ladi: olimlar pedagogik konsepsiya yadrosini qonuniyatlar va tamoyillardan iborat boshlang‘ich qoidalar tizimi sifatida, uning davomini esa shu yadrodan kelib chiqadigan amaliy tuzilmalar sifatida ko‘radi [230]. Shu asosda tadqiqotimizda uchta daraja farqlanadi. Konsepsiya – strategik daraja bo‘lib, u metodikaning nima uchun va qanday mantiqda qurilishini belgilaydi. Model – taktik daraja bo‘lib, konsepsiya qoidalarini maqsad, mazmun, jarayon va natija bo‘yicha operatsional shaklga keltiradi. Metodik tizim – amaliy daraja bo‘lib, modelda ko‘rsatilgan bloklarni aniq terminologik minimum, mashq va topshiriqlar, metod va vositalar ko‘rinishida ro‘yobga chiqaradi; u III bobda ishlab chiqiladi. Model shu tariqa konsepsiya va metodik tizim o‘rtasidagi oraliq bo‘g‘in vazifasini bajaradi: undan yuqoriga qaralganda konsepsiyaning qoidalari tekshiriladi, pastga qaralganda esa metodik tizimning har bir elementi uchun asos topiladi.

Tadqiqotimizdagi model konseptual blokni alohida ajratmaydi, chunki konsepsiya modeldan yuqori turuvchi mustaqil daraja sifatida 2.1-§ da ishlab chiqilgan. Konsepsiyaning asoslari va tamoyillari modelda nazariy-metodologik blokka birlashtiriladi, pedagogik shart-sharoitlar esa 2.2-§ dagi munosabatlarga muvofiq barcha bloklarni qamrab oluvchi tashkiliy-pedagogik ta’minot sifatida ko‘rsatiladi.

Tahlil asosida tadqiqotimiz uchun quyidagi mualliflik ta’rifi qabul qilinadi: ingliz tilidagi iqtisodiy terminlar asosida muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish modeli – konsepsiyaning yetakchi g‘oyasi va tamoyillarini iqtisodiyot yo‘nalishi talabalariga ingliz tilini o‘qitish jarayonida operatsional darajada amalga oshiruvchi, me’yoriy-maqsadli blok, nazariy-metodologik blok, mazmuniy blok, jarayoniy-texnologik blok va natijaviy-baholash blokidan iborat, pedagogik shart-sharoitlar bilan ta’minlangan va teskari aloqa orqali o‘z-o‘zini tuzatuvchi tuzilmaviy-funksional tizim bo‘lib, u iqtisodiy terminni tanishtirish va anglashdan mustaqil kasbiy-kommunikativ faoliyatgacha bo‘lgan to‘rt bosqich orqali muloqot kompetensiyasining besh komponentini uyg‘un rivojlantirishni ta’minlaydi.

Me’yoriy-maqsadli blok modelning boshlang‘ich bo‘g‘ini bo‘lib, u ijtimoiy buyurtma, me’yoriy talablar, CEFR darajalari, maqsad va vazifalarni birlashtiradi.

Ijtimoiy buyurtma iqtisodiyot tarmoqlarining xalqaro moliya institutlari, xorijiy investorlar, eksport-import hamkorlari bilan ingliz tilida kasbiy muloqot qila oladigan mutaxassislarga ehtiyojida namoyon bo‘ladi. Bu ehtiyoj me’yoriy hujjatlarda aniq ifodalangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni [2] o‘quv jarayonini kredit-modul tizimiga o‘tkazish hamda nazariy bilimga yo‘naltirilgan ta’limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’limga bosqichma-bosqich o‘tishni belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-son qarori [7] va uni ijro etish maqsadida qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 312-son qarori [8] xorijiy tillarni o‘qitishda xalqaro tan olingan dastur va darajalar tizimini joriy etishni talab qiladi. Oliy ta’lim uchun ESP namunaviy dasturi esa kursni ehtiyojlar tahlili, kasbiy janrlar va autentik baholash asosida qurishni nazarda tutadi [10].

Me’yoriy talablarni o‘quv jarayoniga ko‘chirishda xalqaro darajalar tizimi tayanch vazifasini bajaradi. CEFR ning qo‘shimcha jildi muloqot faoliyatini retsepsiya, produksiya, interaksiya va mediatsiya turlariga ajratadi va har bir daraja uchun harakatga yo‘naltirilgan deskriptorlar taklif etadi [12]. F.M.Rashidova xalqaro til me’yorlarini milliy ta’lim tizimiga moslashtirishda ularning konseptual-metodik asosini oldindan belgilash zarurligini asoslaydi [151]. Bizningcha, iqtisodiyot yo‘nalishi uchun bu moslashtirish darajalarni kasbiy muloqot vaziyatlari va Business English bo‘yicha xalqaro imtihonlar talablari bilan bog‘lash orqali amalga oshiriladi. BEC sertifikatlari B1, B2 va C1 darajalarida ish joyidagi yozishma, hisobot, taqdimot va hamkorlikdagi muhokama topshiriqlari orqali kasbiy muloqotni baholaydi [231]; Linguaskill Business moslashuvchan kompyuter testi sifatida natijani CEFR darajalari bo‘yicha qayd etadi [233]; TOEIC dasturi ish joyidagi muloqotga oid tinglash, o‘qish, gapirish va yozish ko‘nikmalarini baholaydi [236]. Shu asosda modelda mo‘ljal darajalari quyidagicha belgilanadi: B1 – standart kasbiy vaziyatda (telefon orqali so‘rov, oddiy xat) terminni namuna asosida qo‘llash; B2 – taqdimot, yig‘ilish va muzokarada terminni mustaqil va vaziyatga mos qo‘llash; C1 – murakkab muzokara va tahliliy hisobotda terminni aniq, moslashuvchan va strategik qo‘llash.

Blokning maqsadi – iqtisodiyot yo‘nalishi talabalarida ingliz tilidagi iqtisodiy terminlarni taqdimot, muzokara, yig‘ilish, biznes yozishma va telefon orqali muloqot vaziyatlarida kasbiy vazifani hal etish vositasi sifatida qo‘llash qobiliyatini, ya’ni muloqot kompetensiyasini B1 darajasidan B2 darajasiga, imkoniyati yuqori talabalarda C1 darajasiga qadar rivojlantirish. Maqsad to‘rtta vazifa orqali aniqlashtiriladi:

iqtisodiy terminologik minimumni kasbiy muloqot vaziyatlari bilan bog‘liq holda o‘zlashtirish; terminni kollokatsiyalari va nutqiy formulalari bilan vaziyatga mos qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish; muloqotni boshqarish, terminologik bo‘shliqni kompensatsiya qilish va madaniyatlararo-kasbiy me’yorlarga rioya qilish strategiyalarini rivojlantirish; o‘z terminologik lug‘ati va muloqot faoliyatini mustaqil baholash va to‘ldirish ko‘nikmasini shakllantirish. Vazifalarning har biri J.Biggs va K.Tang tavsiya etganidek [88] kuzatiladigan harakat fe’li orqali ifodalangan bo‘lib, ular keyinchalik natijaviy-baholash blokidagi mezonlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri aylantiriladi.

Nazariy-metodologik blok modelning maqsadini amalga oshirishda tayanch bo‘ladigan yondashuvlar va tamoyillarni birlashtiradi. Blok 2.1-§ da asoslangan metodologik asoslarning to‘rt darajasini operatsional shaklda ifodalaydi: umumilmiy darajada tizimli, faoliyatli, kompetensiyaviy va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar; aniq ilmiy darajada kommunikativ, ESP, kontekstli, leksik, topshiriqqa asoslangan yondashuvlar va CLIL; texnologik darajada interfaol va raqamli texnologiyalar. Blokning markazida yetakchi g‘oya turadi: iqtisodiy termin yodlash obyekti sifatida emas, balki kasbiy muloqot vaziyatlarida kasbiy vazifani hal etishning faol vositasi sifatida o‘zlashtiriladi. Yetakchi g‘oya modelning barcha bloklari uchun tizim hosil qiluvchi omil hisoblanadi: me’yoriy-maqsadli blokda u maqsadning ifodalanishini, mazmuniy blokda terminologik minimum birligini, jarayoniy-texnologik blokda bosqichlar mantig‘ini, natijaviy-baholash blokida esa mezonlarning tarkibini belgilaydi.

Tamoyillar nazariy-metodologik blokda uch guruhda beriladi. Tizim hosil qiluvchi tamoyillar – terminning kommunikativ faollashtirilishi tamoyili, kasbiy-vaziyatli kontekstuallik tamoyili va komponentlararo integrativlik tamoyili – modelning barcha bloklarini tartibga soladi. Mazmuniy tamoyillar – terminologik tizimlilik va kollokatsion yaxlitlik tamoyili, til va mutaxassislik mazmuni integratsiyasi tamoyili hamda madaniyatlararo-kasbiy me’yoriylik tamoyili – asosan mazmuniy blokni belgilaydi. Jarayoniy-baholash tamoyillari – darajaviy izchillik tamoyili, topshiriqqa asoslangan faollik va hamkorlik tamoyili hamda refleksiv-baholovchi avtonomlik tamoyili – jarayoniy-texnologik blok va natijaviy-baholash bloki orqali amalga oshadi. Tamoyillarning bloklarga bunday taqsimlanishi modelning muvofiqlashtirilganlik talabini ta’minlaydi: har bir blokning tarkibiy elementini unga mos tamoyildan keltirib chiqarish mumkin.

Mazmuniy blok o‘qitish mazmunini belgilaydi va uch tarkibiy elementdan iborat: iqtisodiy terminologik minimum, tematik modullar va kasbiy muloqot vaziyatlari. J.J.Jalolov chet tili o‘qitish metodikasida mazmun birlamchi, mashq esa uning hosilasi ekanini asoslaydi [119]; bu qoida modelda mazmuniy blokning jarayoniy-texnologik blokdan oldin joylashishini va mashqlar mazmundan keltirib

chiqarilishini belgilaydi. T.Xatchinson va A.Uoters ESP kursida mazmunni tanlash ta’lim oluvchining tilni o‘rganish sabablari va ehtiyojlaridan kelib chiqishini ko‘rsatadi [116]. I.S.P.Neyshn esa so‘zni o‘zlashtirishni payqash, xotiradan qayta chaqirish va yangi kontekstda ijodiy qo‘llash jarayonlari orqali tushuntiradi [142]. Bu qarashlar mazmuniy blokdagi terminologik minimum birligini “termin – tushuncha – kollokatsiya – o‘zbekcha muqobil – kasbiy vaziyat” zanjiri sifatida belgilash uchun asos bo‘ladi.

Iqtisodiy terminologik minimum mutaxassislik fanlari mazmuni, autentik biznes matnlari va xalqaro imtihon materiallari asosida tanlanadi va oltita tematik modulga taqsimlanadi. “Makroiqtisodiyot” moduli “inflation rate” (inflyatsiya darajasi), “interest rate” (foiz stavkasi), “gross domestic product” (yalpi ichki mahsulot), “supply and demand” (talab va taklif) kabi terminlarni; “Moliya va bank ishi” moduli “cash flow” (pul oqimi), “working capital” (aylanma mablag‘), “liquidity” (likvidlik), “loan” (kredit) terminlarini; “Marketing” moduli “market share” (bozor ulushi), “target market” (maqsadli bozor), “price elasticity” (narx elastikligi) terminlarini; “Menejment” moduli “merger and acquisition” (qo‘shib olish va sotib olish), “joint venture” (qo‘shma korxona), “stakeholder” (manfaatdor tomon) terminlarini; “Buxgalteriya hisobi va audit” moduli “balance sheet” (buxgalteriya balansi), “accounts receivable” (debitorlik qarzi), “depreciation” (amortizatsiya) terminlarini; “Xalqaro savdo” moduli esa “letter of credit” (akkreditiv), “payment terms” (to‘lov shartlari), “quotation” (narx taklifi), “customs duty” (bojxona boji) terminlarini qamrab oladi. Modullar 2.2-§ da asoslangan fanlararo integratsiya mantig‘iga muvofiq mutaxassislik fanlari mavzulari bilan muvofiqlashtiriladi.

Har bir modul kasbiy muloqot vaziyatlari va janrlarga biriktiriladi. Taqdimot vaziyati chorak natijalari, bozor tahlili va loyiha himoyasini; muzokara vaziyati narx, to‘lov shartlari va hamkorlik shaklini kelishishni; biznes yozishma so‘rov, narx taklifi, shikoyat va unga javob xatlarini; yig‘ilish vaziyati kun tartibi bo‘yicha muhokama va qaror qabul qilishni; telefon orqali muloqot esa ma’lumot so‘rash, to‘lovni eslatish va uchrashuvni kelishishni qamrab oladi. Masalan, “Buxgalteriya hisobi va audit” modulida “accounts receivable” va “outstanding invoice” (to‘lanmagan hisob-faktura) terminlari telefon orqali muloqot vaziyatida “I’m calling about the outstanding invoice from last month” formulasi bilan, “Xalqaro savdo” modulida esa “quotation” va “payment terms” terminlari biznes yozishmada “Please find attached our quotation, valid for thirty days” formulasi bilan o‘zlashtiriladi. Mazmuniy blokning yakuniy ifodasi “modul – vaziyat – janr – terminlar guruhi – nutqiy formulalar – CEFR darajasi” matritsasi bo‘lib, uning to‘liq mazmuni 3.1-§ da ishlab chiqiladi.

Jarayoniy-texnologik blok mazmunni o‘zlashtirish jarayonini, ya’ni bosqichlar, metodlar, shakl va vositalarni belgilaydi. Blokning asosiy tuzilmaviy elementi muloqot kompetensiyasini rivojlantirish bosqichlaridir. Bosqichlarni belgilashda uchta nazariy

tayanch hisobga olinadi. V.P.Bespalko o‘zlashtirishning tanib olish, reproduktiv, produktiv va ijodiy darajalarini ajratib, har bir keyingi daraja oldingisiga tayanishini va uni o‘z ichiga olishini ko‘rsatadi [185]. A.A.Verbitskiy kontekstli o‘qitishda akademik faoliyatdan kvazikasbiy va o‘quv-kasbiy faoliyatga izchil o‘tishni asoslaydi [188]. L.Anderson va D.Kratvol qayta ko‘rib chiqilgan taksonomiyada bilish jarayonlarini eslash, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, baholash va yaratish darajalari bo‘yicha tartiblaydi [75]. Uchala tasnif bir yo‘nalishni ko‘rsatadi: o‘zlashtirish bilimni qabul qilishdan uni namuna asosida qo‘llashga, keyin mustaqil va ijodiy faoliyatga qarab harakatlanadi. Farq shundaki, V.P.Bespalko o‘zlashtirish sifatini, A.A.Verbitskiy faoliyat kontekstini, L.Anderson va D.Kratvol esa bilish operatsiyalarini mezon qilib oladi.

Milliy tadqiqotlarda ham bosqichli yondashuv ustuvor. G.B.Prenova modelida tayyorlov, reproduktiv, qisman mustaqil va ijodiy (mustaqil) bosqichlar ajratiladi [150]. M.U.Mavlanova tayyorgarlik, asosiy va yakuniy bosqichlarni belgilaydi [136]. M.B.Shodiyev esa har bir modulni kommunikativ vaziyatni belgilash, lingvistik-semantik tahlil, interfaol mashg‘ulot va refleksiv tahlil bosqichlari orqali tashkil etadi [164]. B.B.Tangatov didaktik ta’minotni ikki guruhga ajratib, pedagogik-psixologik ta’minot motivatsion, maqsadli, mazmuniy-instrumental va refleksiv komponentlarni qamrab olishini, tashkiliy-texnologik ta’minot esa kasbiy-kommunikativ kompetentlikni bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qilishini ta’kidlaydi [168]. Bu qarashlarda bosqichlar asosan nutq faoliyatining umumiy rivojlanish mantig‘i bo‘yicha tuziladi; tadqiqotimizda esa bosqichlar iqtisodiy terminning 1.2-§ da asoslangan o‘zlashtirish yo‘li – semantizatsiya, tizimlashtirish, kollokatsion-kontekstual o‘zlashtirish va kommunikativ faollashtirish – bilan muvofiqlashtiriladi. Shu tariqa muloqot kompetensiyasini rivojlantirish bosqichlari terminni o‘zlashtirish bosqichlari bilan parallel kechadi va terminning kommunikativ faollashtirilishi tamoyili o‘quv jarayonining har bir bosqichida ro‘yobga chiqadi.

Muloqot kompetensiyasini rivojlantirishning birinchi bosqichi – terminni tanishtirish va anglash bosqichi. Uning maqsadi terminning tushunchaviy mazmunini anglash, uni terminosistemadagi o‘rni va o‘zbekcha muqobili bilan bog‘lash hamda talabaning kasbiy-kommunikativ ehtiyojlarini aniqlashdan iborat. Bosqich semantizatsiya va tizimlashtirish jarayonlariga mos keladi; ustuvor komponent iqtisodiy-terminologik komponent bo‘lib, motivatsion-refleksiv komponent ehtiyojlar tahlili va shaxsiy maqsad qo‘yish orqali rivojlantiriladi. Masalan, “balance sheet” termini “assets” (aktivlar), “liabilities” (majburiyatlar) va “equity” (xususiy kapital) terminlari bilan yagona terminologik xaritaga joylashtiriladi.

Ikkinchi bosqich – termin asosida reproduktiv muloqot bosqichi. Uning maqsadi terminni kollokatsiyalari va nutqiy formulalari tarkibida namuna asosida standart kasbiy vaziyatda qo‘llashdir. Bosqich kollokatsion-kontekstual o‘zlashtirishga mos

keladi, ustuvor komponent lingvopragmatik komponent hisoblanadi. Nutqiy namuna, rolli kartochka va formulalar ro‘yxati tayanch sifatida beriladi, bu esa xato qilishdan qo‘rqmasdan gapirish uchun psixologik xavfsiz muhit yaratadi.

Uchinchi bosqich – kasbiy vaziyatda produktiv muloqot bosqichi. Uning maqsadi terminni o‘z nutqiy mahsuloti tarkibida kasbiy vazifani hal etish uchun mustaqil tanlash, muloqotni boshqarish va terminologik bo‘shliqni kompensatsiya qilishdir. Bosqich kommunikativ faollashtirishga mos keladi, ustuvor komponentlar diskursiv-strategik komponent va madaniyatlararo-kasbiy komponentdir. Terminologik bo‘shliq yuzaga kelganda parafraza va aniqlashtiruvchi savol strategiyalari mashq qilinadi (“What exactly do you mean by working capital in this context?”), tayanchlar esa asta-sekin olib tashlanadi.

To‘rtinchi bosqich – mustaqil kasbiy-kommunikativ faoliyat bosqichi. Uning maqsadi iqtisodiy terminlardan notanish va murakkab kasbiy vaziyatlarda mustaqil, tanqidiy va ijodiy foydalanish hamda o‘z muloqot faoliyatini baholashdir. Bosqichda barcha besh komponent integratsiyalanadi, motivatsion-refleksiv komponent esa yetakchi ahamiyat kasb etadi. Bu bosqich A.A.Verbitskiy ajratgan o‘quv-kasbiy faoliyatga [188], V.P.Bespalko tavsiflagan ijodiy o‘zlashtirish darajasiga [185] mos keladi.

To‘rt bosqichning maqsadi, ustuvor komponenti, topshiriq turlari, kasbiy vaziyat va CEFR mo‘ljali hamda natijasi 2.3-jadvalda umumlashtiriladi.

2.3-jadval

Iqtisodiy terminlar asosida muloqot kompetensiyasini rivojlantirish bosqichlari, ularning maqsadi, ustuvor komponenti, topshiriq turlari va natijasi

Bosqich	Maqsad	Ustuvor komponent	Topshiriq turlari	Kasbiy vaziyat va CEFR mo‘ljali	Natija
1. Terminni tanishtirish va anglash bosqichi (semantizatsiya va tizimlashtirish)	Terminning tushunchaviy mazmunini anglash, uni terminosistemadagi o‘rni va o‘zbekcha muqobili bilan bog‘lash; kasbiy-kommunikativ ehtiyojlarni aniqlash	Iqtisodiy-terminologik komponent; motivatsion-refleksiv komponent (ehtiyojlar tahlili, shaxsiy maqsad)	Ehtiyojlar tahlili anketasi; ta’rif va terminni moslashtirish; terminologik xarita (“balance sheet” – “assets”, “liabilities”, “equity”); autentik matnda terminni topish; o‘zbekcha muqobilni farqlash (“revenue” – tushum, “profit” – foyda)	Autentik hisobot, iqtisodiy yangilik va kompaniya saytini o‘qish; B1	Terminni tanib oladi, ma’nosini izohlaydi, terminosistemaga joylashtiradi; shaxsiy glossariy va terminologik kartochkalar tuziladi
2. Termin asosida reproduktiv	Terminni kollokatsiyalari va nutqiy	Lingvopragmatik komponent	Kollokatsiya tuzish (“to issue an invoice”, “to raise prices”, “to	Telefon orqali muloqot,	Terminni to‘g‘ri kollokatsiya

muloqot bosqichi (kollokatsion-kontekstual o‘zlashtirish)	formulalari tarkibida namuna asosida standart kasbiy vaziyatda qo‘llash	; iqtisodiy-terminologik komponent	meet a deadline”); namunaviy dialog asosida telefon suhbati (“I’m calling about the outstanding invoice”); axborot bo‘shlig‘i topshirig‘i (“Sales rose steadily in the first half of the year”); standart so‘rov xati; rolli kartochkalar	standart biznes yozishma; B1 → B1+	da, registrga mos va tayanch asosida qo‘llaydi; standart kasbiy vaziyatda muloqotni yakunlaydi
3. Kasbiy vaziyatda produktiv muloqot bosqichi (kommunikativ faollashtirish)	Terminni o‘z nutqiy mahsuloti tarkibida kasbiy vazifani hal etish uchun mustaqil tanlash va qo‘llash; muloqotni boshqarish; terminologik bo‘shliqni kompensatsiya qilish	Diskursiv-strategik komponent; madaniyatlararo-kasbiy komponent	Chorak natijalari taqdimoti (“Our gross margin improved mainly because of lower distribution costs”); yig‘ilishda kun tartibini boshqarish (“Let’s move on to the next item on the agenda”); narx va to‘lov shartlari bo‘yicha muzokara (“payment terms”, “volume discount”); shikoyatga yozma javob; parafraza va aniqlashtiruvchi savollar	Taqdimot, yig‘ilish, muzokara, biznes yozishma; B2	Vaziyatga mos izchil nutqiy mahsulot yaratadi, muloqotni boshlaydi, rivojlantiradi va yakunlaydi, kompensatsiya strategiyalaridan foydalanadi
4. Mustaqil kasbiy-kommunikativ faoliyat bosqichi (terminni yangi vaziyatga ko‘chirish)	Iqtisodiy terminlardan notanish va murakkab kasbiy vaziyatlarda mustaqil, tanqidiy va ijodiy foydalanish; o‘z muloqot faoliyatini baholash va to‘ldirish	Motivatsion-refleksiv komponent; barcha besh komponent integratsiyasi	Keys (“merger and acquisition” bo‘yicha qarorni asoslash); direktorlar kengashi yoki investor bilan muzokara simulyatsiyasi; biznes-reja loyihasi (“return on investment”, “break-even point”); BEC va Linguaskill Business formatidagi hisobot; terminologik portfolio, nutq yozuvini tahlil qilish	Murakkab muzokara, tahliliy hisobot, xalqaro videokonferensiya; B2+ → C1	Mustaqil kasbiy-kommunikativ faoliyat olib boradi, o‘z faoliyatini rubrika asosida baholaydi, terminologik lug‘atini mustaqil to‘ldiradi

2.3-jadval ma’lumotlari bosqichlar tizimining uchta xususiyatini ko‘rsatadi. Birinchidan, har bir bosqichning natijasi keyingi bosqich uchun boshlang‘ich shart bo‘lib xizmat qiladi. Ikkinchidan, ustuvor komponent bosqichdan bosqichga o‘zgaradi, biroq birorta komponent jarayondan chiqib ketmaydi; bu komponentlararo integrativlik tamoyilining jarayon darajasidagi ifodasidir. Uchinchidan, bosqichlar CEFR ning B1, B2 va C1 mo‘ljallari bilan muvofiqlashtirilgan, bu esa darajaviy

izchillik tamoyilini bajaradi. Bosqichlar har bir tematik modul doirasida to‘liq sikl sifatida takrorlanadi, semestr davomida esa ustuvor mo‘ljal B1 dan B2 va C1 tomon siljiydi.

Jarayoniy-texnologik blokda bosqichlar metodlar, shakl va vositalar bilan ta’minlanadi. Metodlar guruhiga keys-stadi, rolli muzokara, simulyatsiya, loyiha, taqdimot, topshiriqqa asoslangan o‘qitish va “teskari sinf” kiradi. Shakllar juftlikdagi, kichik guruhdagi, yakka tartibdagi va frontal ishni, shuningdek, kredit-modul tizimidagi mustaqil ta’limni qamrab oladi. N.M.Ashurova o‘quv jarayonini boshqarishda rejalashtirish, uslubiy ta’minlash, amalga oshirish, baholash va nazorat qilish hamda hisobot berish jarayonlarini ustuvor deb hisoblaydi [77]; bu ketma-ketlik modelda har bir modulni loyihalash mantig‘iga asos bo‘ladi. Vositalar esa elektron glossariy va terminologik kartochkalar, vaziyat ssenariylari va rolli kartochkalar, LMS platformasi, videokonferensiya va elektron jadval, korpus va elektron lug‘atlar hamda terminologik portfoliodan iborat. B.Joys va hammualliflari ta’kidlagan qo‘llab-quvvatlovchi tizim [123] modelda aynan shu vositalar orqali ifodalanadi. Jarayoniy-texnologik blokning mazmuni 3.2-§ va 3.3-§ da batafsil ishlab chiqiladi.

Natijaviy-baholash bloki modelning yakuniy bo‘g‘ini bo‘lib, u mezonlar, ko‘rsatkichlar, darajalar va diagnostika vositalarini birlashtiradi. Mezonlarni belgilashda xorijiy testologiya olimlarining qarashlari tayanch bo‘ladi. L.Baxman va A.Palmer baholash topshiriqlari maqsadli til qo‘llanish sohasidagi vazifalarga mos kelishi va baholash natijasidan foydalanish asosli dalillanishi kerakligini asoslaydi [82]. D.Duglas maxsus maqsadlardagi til qobiliyatini til bilimi va kasbiy soha bilimining o‘zaro ta’siri sifatida talqin etadi va bunday testlar vaziyatiy hamda interaktiv autentiklikka ega bo‘lishi kerakligini ko‘rsatadi [102]. Ikkala qarash bir xulosaga olib keladi: iqtisodiy terminlar asosidagi muloqot kompetensiyasi terminni alohida bilish orqali emas, balki kasbiy vaziyatdagi topshiriqni bajarish orqali baholanishi lozim.

Milliy tadqiqotlarda muloqot va kommunikativ kompetensiyani baholash mezonlari turlicha tuzilgan. U.G.Porsayev motivatsion, kognitiv, kommunikativ-faollik va perseptiv-refleksiv mezonlarni ajratadi va yuqori, o‘rta, past hamda juda past darajalarni motivatsiya, til bilimi, muloqot taktikalarini egallash va o‘z-o‘zini baholash qobiliyati orqali tavsiflaydi [149]. M.U.Mavlanova motivatsion, kognitiv, muloqot-faollik va perseptiv-refleksiv mezonlar hamda past, o‘rta, yuqori darajalarni belgilaydi [136]. M.B.Shodiyev lingvistik aniqlik, muloqotga kirishish qobiliyati, nutq mazmunining aniqligi va izchilligi hamda ijtimoiy-madaniy moslik mezonlarini taklif etadi [164]. G.B.Prenova tilga xos aniqlik, mazmuniy va nutqiy bog‘liqlik, pragmatik moslik va nutq ravonligi mezonlari asosida to‘rt darajani ajratadi [150]. D.A.Usarova madaniy, lingvistik, kasbiy nutq va ijtimoiy faollik mezonlarini hamda yuqori, o‘rta va quyi darajalarni belgilaydi [171]. U.A.Murodova kognitiv, motivatsion va kreativlik

mezonlarini ajratadi [140]. F.Sh.Negova esa baholashning yuqori, o‘rta va past darajalarini CEFR shkalasi bilan muvofiqlashtiradi [144].

Mezon tizimlarini qiyoslaganda ikkita yondashuv ajralib turadi. Birinchi yondashuvda (U.G.Porsayev, M.U.Mavlanova, U.A.Murodova) mezonlar shaxsning tarkibiy tuzilmasi – motivatsiya, bilim, faoliyat va refleksiya – bo‘yicha belgilanadi. Ikkinchi yondashuvda (M.B.Shodiyev, G.B.Prenova, D.A.Usarova) mezonlar nutqiy mahsulotning sifat ko‘rsatkichlari – aniqlik, izchillik, moslik va ravonlik – bo‘yicha tuziladi. Bizningcha, iqtisodiy terminlar asosidagi muloqot kompetensiyasi uchun ikkala yondashuvni birlashtirish zarur: mezonlar shaxsning tuzilmaviy jihatlarini, ko‘rsatkichlar esa nutqiy mahsulotning kuzatiladigan sifatlarini ifodalashi kerak. Shu bilan birga, tahlil qilingan tizimlarning birortasida kasbiy terminni vaziyatda aniq va kollokatsion to‘g‘ri qo‘llash alohida mezon yoki ko‘rsatkich sifatida ajratilmagan; modelimizda bu bo‘shliq lingvistik-terminologik mezon orqali to‘ldiriladi.

Tadqiqotimizda muloqot kompetensiyasining 1.1-§ da asoslangan besh komponenti uchta integral mezon orqali baholanadi; har bir mezon Yevropa Kengashining til kompetensiyalarini baholash bo‘yicha umumevropa tizimi (CEFR) va uning qo‘shimcha jildi shkalalari bilan bog‘lanadi. Lingvistik-terminologik mezon iqtisodiy-terminologik komponentni baholaydi; uning ko‘rsatkichlari terminning tushunchaviy mazmunini izohlash va o‘zbekcha muqobilini to‘g‘ri tanlash, terminni kollokatsion to‘g‘ri qo‘llash, terminologik klaster ichidagi yaqin tushunchalarni farqlash hamda nutqda terminni aniq qo‘llash va soxta ekvivalentlardan xoli bo‘lishdir; mezon CEFR dagi lug‘at hajmi (Vocabulary Range) va lug‘atni nazorat qilish (Vocabulary Control) shkalalariga tayanadi. Kommunikativ-faoliyat mezoni lingvopragmatik komponent va diskursiv-strategik komponentni qamrab oladi; ko‘rsatkichlari taqdimotda iqtisodiy ma’lumotni izchil bayon qilish, muzokara va yig‘ilishda taklif kiritish, uni asoslash va kelishuvga erishish, biznes xat va hisobotni janr tuzilmasi va vazifasiga mos yozish hamda nutqning ravonligi va grammatik aniqligidir; mezon og‘zaki produksiya, og‘zaki interaksiya hamda yozma produksiya va interaksiya shkalalariga mos keladi.

Pragmatik-strategik mezon madaniyatlararo-kasbiy komponentni, diskursiv-strategik komponentning strategik jihatini hamda motivatsion-refleksiv komponentning kuzatiladigan ifodasini birlashtiradi; uning ko‘rsatkichlari registr va xushmuomalalik strategiyalarini (rasmiylik darajasi, yumshatilgan rad javobi, muzokara oldidagi qisqa suhbat) vaziyat va suhbatdosh maqomiga mos tanlash, terminologik bo‘shliqni parafraza va aniqlashtiruvchi savol orqali kompensatsiya qilish hamda muloqotni boshqarish, jadval yoki grafikdagi ma’lumotni yoki o‘zbek tilidagi manba mazmunini ingliz tilida yetkazish (mediatsiya) hamda o‘z muloqot faoliyatini kuzatish, xatoni mustaqil tuzatish va o‘zini xolis baholashdir; mezon CEFR dagi pragmatik kompetensiya, sotsiolingvistik moslik, muloqot strategiyalari va

mediatsiya shkalalariga tayanadi. Uchta mezon bir-birini to‘ldiradi: lingvistik-terminologik mezon faoliyatning til asosini, kommunikativ-faoliyat mezoni kasbiy vazifaning bajarilishini, pragmatik-strategik mezon esa muloqotni vaziyatga moslash, boshqarish va o‘z faoliyatini nazorat qilish sifatini baholaydi.

Muloqot kompetensiyasining rivojlanganlik darajalari uchta: yuqori (ijodiy), o‘rta (produktiv) va past (reproduktiv). Darajalarni bu tarzda nomlash V.P.Bespalko o‘zlashtirish darajalariga [185] va modeldagi rivojlantirish bosqichlariga tayanadi. Yuqori (ijodiy) darajadagi talaba iqtisodiy terminlardan notanish va murakkab kasbiy vaziyatlarda mustaqil va aniq foydalanadi, muloqotni strategik boshqaradi, madaniyatlararo-kasbiy me’yorlarga barqaror rioya qiladi va o‘z faoliyatini xolis baholab, lug‘atini mustaqil to‘ldiradi; bu daraja B2 deskriptorlariga to‘liq mos keladi, C1 darajasining elementlarini o‘z ichiga oladi, BEC Higher talablariga yaqinlashadi va mezon bo‘yicha 80–100 % natijaga to‘g‘ri keladi. O‘rta (produktiv) darajadagi talaba taqdimot, yig‘ilish, muzokara va yozishmada terminni vaziyatga mos va asosan to‘g‘ri qo‘llaydi, terminologik bo‘shliqni kompensatsiya qiladi, biroq murakkab vaziyatlarda tayanchga ehtiyoj sezadi; bu daraja B1+ va B2 deskriptorlariga qisman mos keladi va 55–79 % natijaga to‘g‘ri keladi. Past (reproduktiv) darajadagi talaba terminni tanib oladi va namuna asosida standart vaziyatda qo‘llaydi, mustaqil nutqda terminologik va pragmatik xatolarga yo‘l qo‘yadi, o‘z faoliyatini baholashda o‘qituvchi yordamiga tayanadi; bu daraja B1 va undan quyi deskriptorlarga mos keladi va 54 % va undan past natijaga to‘g‘ri keladi.

Natijaviy-baholash blokidagi diagnostika vositalari mezonlarga mos tanlanadi. Lingvistik-terminologik mezon uchun iqtisodiy terminlar bo‘yicha test va og‘zaki hamda yozma topshiriq rubrikasining terminologik ko‘rsatkichlari, kommunikativ-faoliyat mezoni uchun rolli muzokara va taqdimotdan iborat og‘zaki topshiriq hamda biznes xat va hisobotdan iborat yozma topshiriq, pragmatik-strategik mezon uchun esa og‘zaki va yozma topshiriqlar rubrikasi, so‘rovnoma, nutq yozuvini tahlil qilish varaqasi va terminologik portfolio qo‘llanadi. Og‘zaki va yozma topshiriqlar BEC va Linguaskill Business topshiriqlari turiga moslashtiriladi, bu esa L.Baxman va A.Palmer talab qilgan maqsadli til qo‘llanish sohasi bilan muvofiqlikni ta’minlaydi [82]. Mezonlar, ko‘rsatkichlar va diagnostika vositalarining to‘liq tizimi tajriba-sinov ishlarining baholash vositasi sifatida ishlab chiqiladi.

Modelning bloklari o‘zaro to‘rt turdagi aloqa orqali bog‘lanadi. Belgilovchi aloqa me’yoriy-maqsadli blokdan nazariy-metodologik blok orqali mazmuniy blok va jarayoniy-texnologik blokka yo‘nalgan bo‘lib, yuqoridagi blok quyidagi blokning mazmunini belgilaydi. O‘zaro taqozo etuvchi aloqa mazmuniy blok va jarayoniy-texnologik blok o‘rtasida kechadi: har bir modulning terminologik mazmuni o‘ziga mos bosqich va topshiriqlar orqali amalga oshiriladi, bosqichlar esa mazmunning murakkablik darajasiga qarab tuziladi. Natijaviy aloqa jarayoniy-texnologik blokdan

natijaviy-baholash blokiga yo‘naladi va har bir bosqich natijasini mezonlar bo‘yicha qayd etadi. Teskari aloqa esa natijaviy-baholash blokidan me’yoriy-maqsadli blokka hamda mazmuniy blok va jarayoniy-texnologik blokka qaytadi: diagnostika natijalariga ko‘ra mo‘ljal darajalari, terminologik minimum va topshiriqlar korreksiya qilinadi. Teskari aloqa ikki darajada amalga oshadi: operativ darajada har bir moduldan so‘ng topshiriqlar va tayanchlar hajmi tuzatiladi, strategik darajada esa semestr yakunida terminologik minimum va maqsadlar qayta ko‘rib chiqiladi. Pedagogik shart-sharoitlar barcha bloklarni qamrab oluvchi ta’minot vazifasini bajaradi.

Modelning to‘liq tuzilmasi 2.3-rasmda ifodalanadi. Sxemaning yuqorisida ijtimoiy buyurtma joylashgan bo‘lib, undan pastga me’yoriy-maqsadli blok o‘rin oladi; blok ichida me’yoriy asos (PF-5847, PQ-5117, VM 312-son qarori, ESP namunaviy dasturi), maqsad, to‘rt vazifa va CEFR mo‘ljali (B1 → B2 → C1, BEC, Linguaskill Business, TOEIC) ko‘rsatilgan. Undan keyin nazariy-metodologik blok joylashadi: uning chap ustunida yondashuvlar, markazida yetakchi g‘oya, o‘ng ustunida uch guruhdagi to‘qqiz tamoyil berilgan.


Sxemaning o‘rta qatorida mazmuniy blok va jarayoniy-texnologik blok yonma-yon joylashgan va ikki tomonlama strelka bilan bog‘langan; ular ostida to‘rt pedagogik shart-sharoitni sanab o‘tuvchi tasma berilgan. Undan pastda uchta mezon, uchta daraja va diagnostika vositalarini o‘z ichiga olgan natijaviy-baholash bloki, eng pastda esa natija joylashgan. Sxemaning o‘ng chetidagi uzuq chiziqli strelka natijaviy-baholash blokidan me’yoriy-maqsadli blok va jarayoniy-texnologik blokka qaytuvchi teskari aloqa va korreksiyani ifodalaydi.

Model milliy tadqiqotlardagi modellardan uchta jihat bilan farq qiladi. Birinchidan, mazmuniy blok iqtisodiy terminologik minimum va kasbiy muloqot vaziyatlari matritsasi asosida quriladi, ya’ni mazmunning birligi umumiy nutqiy mavzu emas, balki vaziyatga biriktirilgan terminologik birlikdir. Ikkinchidan, muloqot kompetensiyasini rivojlantirish bosqichlari terminni o‘zlashtirish bosqichlari bilan parallel tuzilgan bo‘lib, har bir bosqich CEFR mo‘ljali va Business English bo‘yicha xalqaro imtihonlar topshiriqlari turi bilan muvofiqlashtirilgan. Uchinchidan, natijaviy-baholash blokida lingvistik-terminologik mezon alohida ajratilgan va barcha mezonlar muloqot kompetensiyasining besh komponentiga bevosita biriktirilgan; bu esa me’yoriy-maqsadli blokdagi vazifalar, jarayoniy-texnologik blokdagi topshiriqlar va baholash ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi to‘liq muvofiqlikni ta’minlaydi.

Paragraf yuzasidan quyidagi umumlashma chiqariladi. Model obyektning tuzilmasi, dinamikasi va natijasini aks ettiruvchi hamda o‘quv jarayonini loyihalash imkonini beruvchi tizim bo‘lib, konsepsiya va metodik tizim o‘rtasidagi oraliq bo‘g‘in hisoblanadi.

Model besh blokdan iborat tuzilmaviy-funksional tizim sifatida ishlab chiqiladi; muloqot kompetensiyasi to‘rt bosqichda rivojlantiriladi, natija uchta mezon bo‘yicha baholanib, uch darajada ifodalanadi.

Bloklar to‘rt turdagi aloqa orqali o‘z-o‘zini tuzatuvchi tizimni hosil qiladi. Model III bobdagi metodik tizim uchun tuzilmaviy asos, tajriba-sinov ishlari uchun baholash asosi bo‘ladi.



2.3-rasm. Ingliz tilidagi iqtisodiy terminlar asosida muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish modeli

Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar

1. Olimlar qarashlari tahlili asosida konsepsiyaning mualliflik ta’rifi ishlab chiqiladi: u iqtisodiyot yo‘nalishi talabalariga ingliz tilini o‘qitish jarayonini loyihalash va amalga oshirishning metodologik asoslari, yetakchi g‘oyasi va tamoyillar tizimini o‘z ichiga olgan, bloklarda ifodalangan nazariy qoidalar tizimidir. Konsepsiya strategik, model taktik, metodik tizim esa amaliy daraja sifatida farqlanadi.

2. Konsepsiyaning metodologik asoslari to‘rt darajada aniqlanadi: falsafiy (konstruktivizm, faoliyat va muloqot falsafasi), umumilmiy (tizimli, faoliyatli, kompetensiyaviy va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar), aniq ilmiy (kommunikativ, ESP, kontekstli, leksik, topshiriqqa asoslangan yondashuvlar va CLIL) va texnologik (interfaol va raqamli texnologiyalar).

3. Konsepsiyaning yetakchi g‘oyasi: ingliz tilidagi iqtisodiy termin yodlash obyekti sifatida emas, balki kasbiy muloqot vaziyatlarida kasbiy vazifani hal etishning faol vositasi sifatida o‘zlashtirilganda muloqot kompetensiyasi besh komponent uyg‘unligida samarali rivojlanadi. Undan tajriba-sinov ishlarida tekshiriladigan uchta empirik natija kelib chiqadi.

4. Yetakchi g‘oya uch guruhga ajratilgan to‘qqiz tamoyil – tizim hosil qiluvchi, mazmuniy va jarayoniy-baholash tamoyillari orqali metodikaga aylantiriladi. Konsepsiya bloklari belgilash, o‘zaro taqozo etish va korreksiya munosabatlari orqali o‘z-o‘zini takomillashtiruvchi tizimni hosil qiladi.

5. Pedagogik shart-sharoitlar konsepsiyadan kelib chiqadigan tashkiliy-pedagogik, psixologik-pedagogik va didaktik talablar majmui sifatida ta’riflanadi. Beshta mezon asosida to‘rtta shart-sharoit aniqlanadi: mazmunni kasbiy muloqot vaziyatlari asosida loyihalash; CLIL asosida fanlararo integratsiya; interfaol va raqamli ta’lim muhiti; o‘qituvchilarning ESP bo‘yicha tayyorgarligi va mezonli baholash.

6. Model besh blokdan iborat, pedagogik shart-sharoitlar bilan ta’minlangan va teskari aloqa orqali o‘z-o‘zini tuzatuvchi tuzilmaviy-funksional tizim sifatida ishlab chiqiladi. Muloqot kompetensiyasi terminni o‘zlashtirish bosqichlari bilan parallel kechadigan va B1, B2, C1 mo‘ljallariga muvofiqlashtirilgan to‘rt bosqichda rivojlantiriladi.

7. Natijaviy-baholash blokida lingvistik-terminologik, kommunikativ-faoliyat va pragmatik-strategik mezonlar hamda yuqori (ijodiy), o‘rta (produktiv) va past (reproduktiv) darajalar belgilanadi. Model milliy tadqiqotlardagi modellardan mazmunning vaziyatga biriktirilgan terminologik birlik asosida qurilishi va lingvistik-terminologik mezonning alohida ajratilishi bilan farqlanadi.

III BOB. INGLIZ TILIDAGI IQTISODIY TERMINLAR ASOSIDA MULOQOT KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK TIZIMI

3.1-§. Ingliz tilidagi iqtisodiy terminologik minimumni tanlash va ta’lim mazmunini modulli asosda tashkil etish metodikasi

Iqtisodiyot yo‘nalishi talabalarining ingliz tilidagi muloqot kompetensiyasi qanday terminlar, qanday nutqiy birliklar va qanday kasbiy vaziyatlar materialida rivojlanishini ta’lim mazmuni belgilaydi. Mashqlar, interfaol metodlar va baholash vositalari qaysi mazmun asosida qurilsa, natija ham shu mazmun doirasida shakllanadi; shu sababli mazmunni tanlash va tuzish metodik tizimning boshlang‘ich bo‘g‘ini hisoblanadi. Mazkur paragrafda modelning mazmuniy bloki amaliy metodikaga aylantiriladi va ikkita pedagogik shart-sharoit – iqtisodiy terminologik minimum va ta’lim mazmunini kasbiy muloqot vaziyatlari asosida loyihalash (birinchi shart-sharoit) hamda mutaxassislik fanlari bilan CLIL elementlari asosida fanlararo integratsiyani ta’minlash (ikkinchi shart-sharoit) – ro‘yobga chiqariladi. Paragrafda mazmunni tanlash tamoyillari va talablari aniqlashtiriladi, terminologik minimumni tanlashning bosqichma-bosqich metodikasi va uni produktiv hamda retseptiv qatlamlarga ajratish tartibi, oltita tematik modulning mazmuni, fanlararo integratsiya mexanizmi va terminni nutqiy birliklar bilan birga o‘rgatish usullari ishlab chiqiladi.

Maxsus maqsadlar uchun ingliz tili nazariyasida mazmunni tanlash kurs loyihalashning markaziy bosqichi sifatida qaraladi. T.Xatchinson va A.Uoters mazmunni tanlashni ta’lim oluvchining maqsadli vaziyatdagi va o‘quv jarayonidagi ehtiyojlari tahlilidan boshlashni talab qiladi [116]. I.S.P.Neyshn va J.Makalister kurs loyihalashni muhit tahlili, ehtiyojlar tahlili, tamoyillarni qo‘llash, maqsadlarni belgilash, mazmun va uning izchilligini tanlash, materialni taqdim etish shakli, monitoring va baholashdan iborat o‘zaro bog‘liq jarayon sifatida tavsiflaydi va lug‘at tarkibini chastotalilik hamda ta’lim oluvchi uchun foydalilik asosida tanlashni tavsiya etadi [143]. X.Basturkmen esa ESP kursida mazmun birligi sifatida kasbiy diskurs va janrni olishni, kursning keng yoki tor fokusini oldindan aniqlashni birinchi navbatdagi vazifa deb biladi [84]. Uchala qarashda mazmun darslik mavzularidan emas, ta’lim oluvchining kelgusidagi kasbiy faoliyatidan keltirib chiqariladi. Farq mazmun birligini tanlashda ko‘rinadi: T.Xatchinson va A.Uoters vaziyatni, I.S.P.Neyshn va J.Makalister lug‘at birligining chastotaliligi va foydaliligini, X.Basturkmen esa janrni asos qilib oladi. Iqtisodiy terminlar asosidagi metodikada bu uchta birlik ajralmas: termin, u qo‘llanadigan janr va vaziyat mazmunning yagona yacheykasini tashkil etadi.

Ishbilarmonlik lug‘atini tanlashda korpus ma’lumotlari obyektiv asos vazifasini bajaradi. M.Nelson Business English korpusini tahlil qilib, ishbilarmonlik ingliz tilining leksik o‘zagi umumiy tildan farq qilishini va bu o‘zak o‘quv materiallarida

to‘liq aks etmasligini ko‘rsatadi [145]. N.Konstantakis biznes ingliz tili matnlari korpusi asosida ishbilarmonlik so‘zlari ro‘yxatini tuzib, umumiy va akademik so‘zlar ro‘yxatlaridan tashqarida qoladigan, biroq biznes matnlarida yuqori chastota va tarqalganlikka ega bo‘lgan maxsus leksik qatlam mavjudligini asoslaydi [36]. Korpus ko‘rsatkichlari terminologik minimumning chastotaviy asosini ta’minlaydi, ammo terminning muayyan kasbiy vaziyatdagi kommunikativ zaruriyatini o‘z-o‘zidan ko‘rsatmaydi. Shu bois metodikamizda korpus ma’lumotlari ehtiyojlar tahlili va mutaxassis ekspert bahosi bilan birga qo‘llanadi.

MDH lingvodidaktikasida mazmunni tanlash tematik-vaziyatli asosda ko‘rib chiqiladi. N.D.Galskova mazmunni tanlashda predmet jihatini asosiy deb biladi va muloqot sohalari hamda vaziyatlari doirasida til materialining xususiyatini, matnlarning janr va uslubiy belgilarini aniqlash imkonini beruvchi tematik yo‘nalishga alohida ahamiyat beradi [190]. N.D.Galskova va N.I.Gez o‘qitish tamoyillari qatorida kommunikativ yo‘nalganlikni, nutq faoliyati turlari va til aspektlarini o‘zaro bog‘liq holda o‘rgatishni, faoliyatli yondashuvni va muammoli topshiriqlarning ustuvorligini ajratadi [191]. Modulli o‘qitish nazariyasida P.A.Yutsyavichene modulni o‘quv materialining mantiqan tugallangan birligi, maqsadli harakatlar dasturi va belgilangan maqsadga erishishni ta’minlovchi metodik rahbarlikni birlashtiruvchi axborot bloki sifatida ta’riflaydi [228]. Ye.N.Solovova modulni boshqa modullar bilan bevosita bog‘lana oladigan, zarurat tug‘ilganda mazmuni, shakli va hajmi bo‘yicha ichki tuzilmasini o‘zgartira oladigan, turli ta’lim trayektoriyalarini qurish uchun yetarli dasturiy va o‘quv-metodik ta’minotga ega kurs yoki uning avtonom qismi deb biladi [218]. Bu qarashlardan metodikamiz uchun ikkita talab kelib chiqadi: mazmun kasbiy muloqot vaziyatlari bo‘yicha tuziladi, modul esa maqsad, mazmun, topshiriq va nazoratni birlashtiruvchi, nisbatan mustaqil, biroq boshqa modullar bilan izchil bog‘langan birlik sifatida loyihalanadi.

Milliy tadqiqotlarda mazmunni tanlash kasbiy ehtiyoj, autentiklik va vaziyatlilik nuqtayi nazaridan asoslanadi. J.J.Jalolov chet tili o‘qitishda mazmun birlamchi, mashq esa uning hosilasi ekanini ko‘rsatadi [119]; bu qoida metodik tizimni terminologik minimumdan boshlashni taqozo etadi. N.M.Ashurova kredit-modul tizimida modulni loyihalashni maqsad va vazifalarni belgilash, natijalarni aniqlash, mazmunni – leksik mavzular, matn turlari va kommunikativ vaziyatlarni – belgilash, ta’lim texnologiyalarini tanlash, auditoriya va mustaqil soatlarni taqsimlash, modulga kirish talablarini ishlab chiqish, nazorat tizimini tayyorlash, baholash mezonlarini aniqlash va nazorat mazmunini belgilashdan iborat izchil jarayon sifatida tavsiflaydi [77]. B.B.Tangatov mazmun sohadagi so‘nggi yutuqlarni aks ettirishi, talabaning kasbiy manfaatlariga bevosita tegishli bo‘lishi va kasbiy o‘sish imkoniyatini berishi kerakligini ta’kidlaydi [168]. U.A.Murodova ta’lim mazmunini autentik matnlar, pragmatik topshiriqlar va madaniy kontekstli vaziyatlar bilan boyitishni [140],

F.Sh.Negova kasbga yo‘naltirilgan muloqot vaziyatlari majmuasini maxsus yaratishni [144], D.A.Usarova esa terminologiyani uning amaliy qo‘llanishi, sohaga xos til konstruksiyalari va kontekstli tushunish bilan birga o‘rganishni [171] zarur deb biladi. Milliy tadqiqotchilar mazmunni kasbiy ehtiyoj va vaziyat asosida tanlash g‘oyasida yakdil, biroq ularda iqtisodiy terminologik minimumni tanlash tartibi, uni qatlamlarga ajratish va modullar bo‘yicha taqsimlash mexanizmi ishlab chiqilmagan. Quyida bayon etiladigan mualliflik metodikasi aynan shu bo‘shliqni to‘ldiradi.

Tahlil va 2.1-§ da asoslangan tamoyillar tizimi ta’lim mazmunini tanlashning beshta operatsional talabini belgilash imkonini beradi. Birinchi talab terminologik tizimlilik va kollokatsion yaxlitlik tamoyilidan kelib chiqadi: tanlash birligi alohida so‘z emas, balki terminosistemadagi o‘rni aniqlangan va kollokatsiyalari bilan birga olingan termin hisoblanadi. Ikkinchi talab kasbiy-vaziyatli kontekstuallik tamoyiliga tayanadi: har bir birlik kamida bitta kasbiy muloqot vaziyatiga biriktiriladi, birorta vaziyatga biriktirilmagan termin minimumga kiritilmaydi. Uchinchi talab til va mutaxassislik mazmuni integratsiyasi tamoyilini ifodalaydi: modullar mavzulari mutaxassislik fanlari mazmuni va o‘quv rejasidagi joylashuvi bilan muvofiqlashtiriladi. To‘rtinchi talab darajaviy izchillik tamoyilidan kelib chiqadi: mazmun CEFR ning B1, B2 va C1 mo‘ljallari bo‘yicha tabaqalashtiriladi. Beshinchi talab madaniyatlararo-kasbiy me’yoriylik tamoyilini amalga oshiradi: nutqiy formulalar va janr namunalari xalqaro ishbilarmonlik muloqoti me’yorlariga muvofiq tanlanadi.

Bu talablar asosida ta’lim mazmunining eng kichik birligi sifatida iqtisodiy terminologik klaster tushunchasi kiritiladi. Iqtisodiy terminologik klaster – muayyan iqtisodiy termin, uning tushunchaviy ta’rifi va o‘zbekcha muqobili, barqaror kollokatsiyalari, termin ishtirok etadigan nutqiy qoliplar hamda ma’lum kasbiy muloqot vaziyatida qo‘llanadigan muloqot formulalaridan iborat, CEFR darajasi va qatlamiga (produktiv yoki retseptiv) ko‘ra belgilangan ta’lim mazmuni birligi. Klaster 2.3-§ da modelning mazmuniy bloki uchun belgilangan “termin – tushuncha – kollokatsiya – o‘zbekcha muqobil – kasbiy vaziyat” zanjirining didaktik shaklidir: zanjir mazmunning mantiqiy tuzilmasini, klaster esa uni mashg‘ulotda taqdim etish va o‘zlashtirish shaklini belgilaydi.

Terminologik klaster tushunchasi 1.3-§ da aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishning tayanch vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Amaldagi “Xorijiy til” fani ishchi dasturida terminlar asosan o‘qish faoliyati doirasida tilga olinadi, iqtisodiyot yo‘nalishi sillabusida esa leksik mavzu, kasbiy ko‘nikma va keys-stadi alohida mashg‘ulotlar sifatida rejalashtirilgan. Klaster shaklida berilgan termin dastlabki mashg‘ulotdanoq nutqiy qolip va vaziyat bilan birga o‘zlashtiriladi, natijada terminni o‘rganish va uni muloqotda qo‘llash vaqt jihatidan ajralmaydi. Iqtisodiyotga xos terminologik minimumning yo‘qligi tanlashning bosqichma-bosqich metodikasi orqali,

mutaxassislik fanlari bilan integratsiyaning sustligi modullarni o‘quv rejasi bilan muvofiqlashtirish orqali, maqsad darajasi va kurs darajasi o‘rtasidagi nomuvofiqlik esa har bir modul uchun B1 va B2 deskriptorlarini belgilash orqali bartaraf etiladi. Vaziyatli topshiriqlar tizimi 3.2-§ da, baholash mezonlari esa 2.3-§ dagi natijaviy-baholash blokida belgilangan.

Iqtisodiy terminologik minimumni tanlash beshta izchil bosqichda amalga oshiriladi. Har bir bosqich o‘ziga xos manba, metod va natijaga ega bo‘lib, keyingi bosqich oldingisining natijasiga tayanadi. Bosqichlarning bunday izchilligi 1.2-§ da asoslangan tanlash mezonlarini amaliy protseduraga aylantiradi va minimumni o‘qituvchining shaxsiy tanloviga bog‘liq bo‘lmagan, takrorlanuvchan va tekshiriladigan jarayon natijasiga aylantiradi.

Birinchi bosqich – ehtiyojlar tahlili va kasbiy muloqot vaziyatlari reyestrini tuzish. Bu bosqichda talabalar anketasi, mutaxassislik kafedrasi o‘qituvchilari va iqtisodiyot sohasi vakillari bilan suhbat asosida iqtisodiyot mutaxassisi ingliz tilida qaysi vaziyatlarda, qanday maqsadda va qaysi janrlarda muloqot qilishi aniqlanadi. Tayanch sifatida ESP namunaviy dasturidagi ahamiyatiga ko‘ra tartiblangan akademik va kasbiy til faoliyatlari ro‘yxati olinadi va iqtisodiy faoliyatga moslashtiriladi: “kasbiy taqdimot qilish” faoliyati chorak natijalari, bozor tahlili va investitsiya loyihasi taqdimotiga; “muzokaralarda ishtirok etish” narx, to‘lov shartlari va kredit shartlari bo‘yicha muzokaraga; “kasbiy elektron xat yozish” so‘rov, narx taklifi, buyurtma, shikoyat va unga javob xatlariga ajratiladi. Bosqich natijasi – taqdimot, muzokara, biznes yozishma, yig‘ilish va telefon orqali muloqotni qamrab oluvchi, har bir vaziyat uchun janr, ishtirokchilar va kasbiy maqsad ko‘rsatilgan kasbiy muloqot vaziyatlari reyestri.

Ikkinchi bosqich – manbalar korpusini shakllantirish. Korpus to‘rt guruh manbadan tuziladi. Birinchi guruhni iqtisodiy darsliklar tashkil etadi: N.G.Menkyu darsligi kabi iqtisodiyot nazariyasining asosiy manbalari [133] tushunchalarning ta’rifi va terminosistemadagi o‘rnini aniqlashga xizmat qiladi. Ikkinchi guruh – Business English qo‘llanmalari: “Market Leader” [96], iqtisodiyot yo‘nalishi sillabusida asosiy adabiyot sifatida belgilangan “The Business 2.0” [74] va “Business Vocabulary in Use” [135] terminlarning kollokatsiyalari, nutqiy formulalari va kasbiy ko‘nikmalar ichidagi qo‘llanishini beradi. Uchinchi guruh – autentik matnlar: kompaniyalarning yillik hisobotlari, markaziy banklarning pul-kredit siyosati bo‘yicha bayonotlari, iqtisodiy yangiliklar, tijorat xatlari va shartnomalar namunalari. To‘rtinchi guruh – korpus ma’lumotlari va xalqaro imtihon materiallari: M.Nelson [145] va N.Konstantakis [36] tuzgan ishbilarmonlik leksikasi ro‘yxatlari hamda BEC [231], Linguaskill Business [233] va TOEIC [236] topshiriqlarining namunalari. O‘qituvchi autentik matnlardan konkordans dasturi yordamida kichik ixtisoslashgan korpus tuzadi va undan terminlarning chastotasi va kollokatsiyalarini aniqlaydi.

Uchinchi bosqich – dastlabki ro‘yxatni tanlash mezonlari bo‘yicha baholash. Korpusdan ajratib olingan har bir termin 1.2-§ da asoslangan oltita mezon bo‘yicha uch darajali shkalada (0 – mezonga javob bermaydi, 1 – qisman javob beradi, 2 – to‘liq javob beradi) baholanadi. Chastotalilik va tarqalganlik mezoni terminning korpusdagi uchrash darajasi va kamida ikkita tematik guruh matnlarida qo‘llanishini, kommunikativ zaruriyat mezoni terminning reyestrdagi kasbiy muloqot vaziyatlarida qo‘llanish ehtimolini, tizimiy ahamiyat mezoni terminning tayanch yoki hosila tushuncha ekanini, birikuvchanlik va so‘z yasash faolligi mezoni terminning barqaror kollokatsiyalar va hosila terminlar hosil qila olishini, tillararo qiyinlik mezoni ekvivalentlik turini va interferensiya xavfini, darajaviy muvofiqlik mezoni esa terminning CEFR darajasiga mosligini baholaydi. Masalan, “cash flow” (pul oqimi) termini chastotalilik va tarqalganlik mezoni bo‘yicha yuqori baho oladi, chunki u moliya, buxgalteriya hisobi va menejment matnlarida barobar uchraydi; kommunikativ zaruriyat mezoni bo‘yicha ham yuqori baholanadi, chunki bank bilan muzokara va hisobot taqdimotida faol qo‘llanadi; birikuvchanlik mezoni bo‘yicha “positive cash flow”, “to improve cash flow”, “cash flow forecast” kabi birikmalari hisobiga to‘liq baho oladi.

Tillararo qiyinlik mezoni terminni minimumdan chiqarish uchun emas, balki unga maxsus belgi qo‘yish uchun qo‘llanadi. Soxta yoki variantli ekvivalentga ega birliklar, masalan, “concern” (faqat “konsern” emas, balki “firma, ishtirok, tashvish”), “share” (kontekstga ko‘ra “aksiya” yoki “ulush”), “interest” (“foiz” yoki “manfaat”), minimumda ogohlantiruvchi belgi bilan beriladi va ularga qiyoslovchi topshiriqlar biriktiriladi. Shu tariqa 1.2-jadvalda ko‘rsatilgan ekvivalentlik turlari terminologik minimumda amaliy didaktik belgiga aylanadi.

To‘rtinchi bosqich – ekspert baholash va tushunchaviy tekshiruv. Dastlabki minimum ikkinchi shart-sharoit talabiga muvofiq mutaxassislik kafedrasi o‘qituvchisi ekspertizasidan o‘tkaziladi. Ekspert terminning tushunchaviy ta’rifi iqtisodiy fan mazmuniga mosligini, o‘zbekcha muqobilning milliy iqtisodiy terminologiyada qabul qilingan shaklini va termin mutaxassislik fanlarida qaysi kursda o‘rganilishini aniqlaydi. Masalan, “accounts receivable” uchun “debitorlik qarzi”, “depreciation” uchun asosiy vositalar bo‘yicha “amortizatsiya”, “working capital” uchun “aylanma mablag‘” muqobillari mutaxassis bilan kelishiladi. T.Dadli-Evans va M.Sent-Jon ajratgan hamkorlik darajalariga ko‘ra [104] bu bosqich o‘zaro ma’lumot almashishga asoslangan kooperatsiya darajasida amalga oshadi va qo‘shimcha auditoriya soatini talab qilmaydi.

Beshinchi bosqich – qatlamlarga ajratish va modullarga taqsimlash. Mezonlar bo‘yicha baholangan va ekspertizadan o‘tgan terminlar produktiv va retseptiv qatlamlarga ajratiladi. Produktiv qatlamga kommunikativ zaruriyat mezoni bo‘yicha to‘liq baho olgan, tizimiy ahamiyatiga ko‘ra tayanch tushunchani ifodalaydigan va B1

yoki B2 darajasiga mos terminlar kiritiladi; talaba bu terminlarni o‘z og‘zaki va yozma nutqida kasbiy vazifani hal etish uchun mustaqil qo‘llashi lozim. Retseptiv qatlamga chastotalilik mezoni bo‘yicha yuqori, biroq kommunikativ zaruriyati nisbatan past bo‘lgan, hosila tushunchani ifodalaydigan yoki C1 darajasiga tegishli terminlar kiritiladi; talaba ularni autentik matn, taqdimot yoki suhbatda tushunishi va zarur bo‘lganda izohlab berishi yetarli. Shundan so‘ng terminlar 1.2-§ da ajratilgan tematik guruhlar bo‘yicha oltita modulga taqsimlanadi va har bir modul uchun terminologik kartochkalar va elektron glossariy tayyorlanadi.

Oltita mezon tanlash jarayonida turlicha vazifa bajaradi. Chastotalilik va tarqalganlik mezoni hamda tizimiy ahamiyat mezoni terminning minimumga kirish-kirmasligini, kommunikativ zaruriyat mezoni va darajaviy muvofiqlik mezoni uning produktiv yoki retseptiv qatlamga tegishliligini, birikuvchanlik va so‘z yasash faolligi mezoni terminologik klaster tarkibidagi kollokatsiyalar hajmini, tillararo qiyinlik mezoni esa terminga biriktiriladigan ogohlantiruvchi va qiyoslovchi topshiriqlarni belgilaydi. Masalan, “stagflation” (stagflyatsiya) chastotalilik va tarqalganlik mezoni bo‘yicha qisman, kommunikativ zaruriyat mezoni bo‘yicha past baholanib, “Makroiqtisodiyot” modulining retseptiv qatlamiga kiritiladi; “inflation rate” esa barcha mezonlar bo‘yicha yuqori baho olib, shu modulning produktiv qatlamidagi tayanch termin bo‘ladi. Tizimiy ahamiyat mezoni bo‘yicha “balance sheet” tayanch tushuncha sifatida birinchi navbatda, u bilan bog‘liq “contingent liabilities” (shartli majburiyatlar) esa hosila tushuncha sifatida retseptiv tarzda o‘zlashtiriladi. Mezonlarning bunday taqsimlangan vazifasi terminologik minimumni nafaqat tarkib, balki o‘zlashtirish darajasi jihatidan ham loyihalash imkonini beradi va muloqot kompetensiyasining iqtisodiy-terminologik komponenti uchun aniq mazmuniy asos yaratadi.

Produktiv va retseptiv qatlamlar o‘rtasidagi chegara qat’iy emas. Bir modulda retseptiv qatlamga kiritilgan termin keyingi modulda produktiv qatlamga o‘tishi mumkin: masalan, “liquidity” (likvidlik) “Makroiqtisodiyot” modulida markaziy bank bayonotini tushunish doirasida retseptiv tarzda, “Moliya va bank ishi” modulida esa bank bilan kredit bo‘yicha muzokarada produktiv tarzda o‘zlashtiriladi. Qatlamlararo bunday harakatlanish darajaviy izchillik tamoyilini mazmun darajasida amalga oshiradi va terminning bir moduldan keyingisiga takrorlanib, mustahkamlanib borishini ta’minlaydi.

Tanlash metodikasining natijasi sifatida iqtisodiy terminologik minimum oltita tematik modul bo‘yicha taqsimlanadi. Modullar, ulardagi tematik guruhlar, produktiv va retseptiv terminlar namunalari hamda har bir modulga biriktirilgan kasbiy muloqot vaziyatlari 3.1-jadvalda keltiriladi.

3.1-jadval

Iqtisodiy terminologik minimumning tematik modullar bo‘yicha taqsimoti

Modul	Tematik guruhlar	Produktiv terminlar namunasi	Retseptiv terminlar namunasi	Kasbiy muloqot vaziyatlari
1. Makroiqtisodiyot (Economic Systems and Markets); 1-semestr; B1 → B2	Bozor mexanizmi; makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar; pul-kredit va fiskal siyosat	supply and demand – talab va taklif; equilibrium price – muvozanat narx; gross domestic product (GDP) – yalpi ichki mahsulot; inflation rate – inflyatsiya darajasi; interest rate – foiz stavkasi; unemployment rate – ishsizlik darajasi	price elasticity of demand – talabning narx bo‘yicha elastikligi; fiscal policy – fiskal siyosat; monetary tightening – pul-kredit siyosatini qat’iylashtirish; stagflation – stagflyatsiya; liquidity – likvidlik	Iqtisodiy holat haqida grafik asosida taqdimot; ko‘rsatkichlar dinamikasini muhokama qilish yig‘ilishi
2. Moliya va bank ishi (Money, Banking and Finance); 1-semestr; B1 → B2	Bank xizmatlari va kredit; korxona moliyasi; investitsiya	loan – kredit; collateral – garov; repayment schedule – to‘lov jadvali; cash flow – pul oqimi; working capital – aylanma mablag‘; return on investment (ROI) – investitsiya rentabelligi; share – aksiya; liquidity – likvidlik	liquidity ratio – likvidlik koeffitsiyenti; bond yield – obligatsiya daromadliligi; credit rating – kredit reytingi; hedging – xedjlash; venture capital – venchur kapitali	Bank bilan kredit shartlari bo‘yicha muzokara; investitsiya loyihasi taqdimoti; bankka telefon orqali murojaat
3. Marketing (Marketing and Sales); 1-semestr; B1 → B2	Bozorni tadqiq etish; marketing kompleksi; sotuv	market research – marketing tadqiqoti; target market – maqsadli bozor; market share – bozor ulushi; pricing strategy – narx strategiyasi; brand awareness – brendni tanish darajasi; sales forecast – sotuv prognozi	market segmentation – bozorni segmentlash; customer retention – mijozni saqlab qolish; penetration pricing – bozorga kirish narxi; conversion rate – konversiya darajasi	Mahsulotni bozorga chiqarish rejasi taqdimoti; marketing budjeti bo‘yicha yig‘ilish; mijoz so‘roviga xat
4. Menejment (Business Organisation and Management); 2-semestr; B1 → B2	Korxona shakllari; boshqaruv va qaror qabul qilish; korporativ o‘sish	shareholder – aksiyador; stakeholder – manfaatdor tomon; joint venture – qo‘shma korxona; merger and acquisition – qo‘shib olish va sotib olish; SWOT analysis – SWOT-tahlil; agenda –	corporate governance – korporativ boshqaruv; economies of scale – masshtab samarasi; outsourcing – autsorsing; due	Bo‘lim yig‘ilishi va qaror qabul qilish; hamkorlik shaklini tanlash bo‘yicha muhokama;

		kun tartibi; deadline – muddat	diligence – har tomonlama tekshiruv; hostile takeover – dushmanona yutib olish	qaror yuzasidan ichki xabarnoma
5. Buxgalteriya hisobi va audit (Accounting and Financial Reporting); 2-semestr; B1 → B2	Moliyaviy hisobot shakllari; aktivlar va majburiyatlar; daromad va xarajatlar	balance sheet – buxgalteriya balansi; income statement – moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot; assets – aktivlar; liabilities – majburiyatlar; accounts receivable – debitorlik qarzi; revenue – tushum; net profit – sof foyda; invoice – hisob-faktura	depreciation – amortizatsiya; accrual basis – hisoblash usuli; audit opinion – auditorlik xulosasi; contingent liabilities – shartli majburiyatlar; break-even point – zararsizlik nuqtasi	Chorak natijalari taqdimoti; to‘lanmagan hisob-faktura bo‘yicha telefon suhbati; hisobot bo‘yicha yig‘ilish
6. Xalqaro savdo (International Trade and Business Communication); 2-semestr; B1 → B2 (C1)	Eksport-import operatsiyalari; to‘lov va yetkazib berish shartlari; ishbilarmonlik yozishmalari	enquiry – so‘rov; quotation – narx taklifi; order – buyurtma; payment terms – to‘lov shartlari; letter of credit – akkreditiv; delivery date – yetkazib berish sanasi; customs duty – bojxona boji; complaint – shikoyat	Incoterms – Inkoterms qoidalari; bill of lading – konosament; tariff barrier – tarif to‘sig‘i; trade deficit – savdo defitsiti; force majeure – fors-major	Narx va to‘lov shartlari bo‘yicha muzokara; so‘rov, taklif, buyurtma va shikoyat xatlari; yetkazib berishni telefon orqali aniqlashtirish

3.1-jadval ma’lumotlari terminologik minimumning uchta xususiyatini ko‘rsatadi. Birinchidan, har bir modulda produktiv qatlam tayanch tushunchalar va vaziyatda faol qo‘llanadigan terminlardan, retseptiv qatlam esa hosila, ixtisoslashgan va C1 darajasiga tegishli terminlardan iborat. Ikkinchidan, har bir modul kamida ikkita kasbiy muloqot vaziyatiga biriktirilgan va beshta vaziyatning har biri kamida ikkita modulda takrorlanadi; bu kasbiy-vaziyatli kontekstuallik tamoyilining mazmun darajasidagi ifodasidir. Uchinchidan, modullar “iqtisodiyot – pul – bozor – korxona – hisobot – xalqaro faoliyat” mantig‘ida joylashgan bo‘lib, bir modulning retseptiv terminlari keyingi modulda produktiv qatlamga o‘tish uchun zamin yaratadi.

Ta’lim mazmuni oltita tematik modul asosida tashkil etiladi. Modullarni taqsimlashda o‘quv rejasidagi statik sharoit hisobga olinadi: 60410800 – Menejment ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasida “Xorijiy til 1,2” faniga birinchi bosqichda 120 soat auditoriya mashg‘uloti va 180 soat mustaqil ta’lim ajratilgan. Bu hajm oltita modulga teng taqsimlanganda har bir modulga 20 soat auditoriya mashg‘uloti va 30 soat mustaqil ta’lim to‘g‘ri keladi; birinchi semestrda 1–3-modullar, ikkinchi semestrda 4–6-modullar o‘rganiladi. Har bir modul 2.3-§ da asoslangan to‘rt bosqichli sikl bo‘yicha

quriladi: terminni tanishtirish va anglash bosqichi, termin asosida reproduktiv muloqot bosqichi, kasbiy vaziyatda produktiv muloqot bosqichi va mustaqil kasbiy-kommunikativ faoliyat bosqichi. Modulning 20 soatlik auditoriya vaqti bu bosqichlar o‘rtasida 4, 6, 6 va 4 soat nisbatida taqsimlanadi, mustaqil ta’lim esa terminologik kartochkalar bilan ishlash, autentik matn va korpus tahlili hamda kasbiy muloqot topshirig‘ini tayyorlashga ajratiladi. Har bir modul kasbiy muloqot topshirig‘i bilan yakunlanadi va uning mahsuli terminologik portfolioga kiritiladi.

Birinchi modul – “Makroiqtisodiyot” (Economic Systems and Markets). Modulning maqsadi – talabada bozor mexanizmi va asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha terminlar asosida iqtisodiy vaziyatni tavsiflash va uning dinamikasini izohlash ko‘nikmasini rivojlantirish. Terminologik mazmun bozor mexanizmi (“supply and demand” – talab va taklif, “equilibrium price” – muvozanat narx), makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar (“gross domestic product” – yalpi ichki mahsulot, “inflation rate” – inflyatsiya darajasi, “unemployment rate” – ishsizlik darajasi) hamda pul-kredit va fiskal siyosat (“interest rate” – foiz stavkasi, “central bank” – markaziy bank) guruhlarini qamrab oladi. Modulda dinamikani ifodalash tili alohida o‘zlashtiriladi: “to rise / to fall sharply”, “to remain stable”, “to reach a peak”. Kasbiy muloqot vaziyatlari – mamlakat iqtisodiy holati haqida grafik asosidagi qisqa taqdimot va ko‘rsatkichlar dinamikasini muhokama qilish yig‘ilishi. Kutilgan natija B1 darajasida talaba tayyorlangan qisqa taqdimotda asosiy ko‘rsatkichlarni yetarli aniqlik bilan nomlaydi va ularning o‘zgarishini tushunarli izohlaydi; B2 darajasida grafik ma’lumotlarini izchil tahlil qiladi, sabab va oqibatni asoslaydi hamda tinglovchilar savollariga javob beradi.

Ikkinchi modul – “Moliya va bank ishi” (Money, Banking and Finance). Modulning maqsadi – bank xizmatlari, kredit va investitsiya terminlari asosida moliyaviy masalalar bo‘yicha muzokara va taqdimot o‘tkazish ko‘nikmasini rivojlantirish. Terminologik mazmun bank xizmatlari va kredit (“loan” – kredit, “collateral” – garov, “repayment schedule” – to‘lov jadvali), korxona moliyasi (“cash flow” – pul oqimi, “working capital” – aylanma mablag‘) va investitsiya (“return on investment” – investitsiya rentabelligi, “share” – aksiya) guruhlaridan iborat. Kasbiy muloqot vaziyatlari – bank vakili bilan kredit shartlari bo‘yicha muzokara, investitsiya loyihasining taqdimoti va bankka telefon orqali murojaat. Kutilgan natija B1 darajasida talaba standart vaziyatda kredit shartlari haqida ma’lumot so‘raydi va beradi; B2 darajasida muzokarada o‘z pozitsiyasini dalillar bilan asoslaydi, shartli taklif kiritadi va kelishuvni yakunlaydi.

Uchinchi modul – “Marketing” (Marketing and Sales). Modulning maqsadi – bozorni tadqiq etish va marketing kompleksi terminlari asosida mahsulotni bozorga chiqarish rejasini taqdim etish va muhokama qilish ko‘nikmasini rivojlantirish. Terminologik mazmun bozorni tadqiq etish (“market research” – marketing tadqiqoti,

“target market” – maqsadli bozor, “market share” – bozor ulushi), marketing kompleksi (“pricing strategy” – narx strategiyasi, “brand awareness” – brendni tanish darajasi) va sotuv (“sales forecast” – sotuv prognozi) guruhlarini o‘z ichiga oladi. Kasbiy muloqot vaziyatlari – mahsulotni bozorga chiqarish rejasi taqdimoti, marketing budjeti bo‘yicha yig‘ilish va mijoz so‘roviga xat. Kutilgan natija B1 darajasida talaba mahsulot va maqsadli bozorni namuna asosida tavsiflaydi; B2 darajasida marketing strategiyasining muqobil variantlarini qiyoslaydi va tanlovni asoslaydi.

To‘rtinchi modul – “Menejment” (Business Organisation and Management). Modulning maqsadi – korxona shakllari, boshqaruv va korporativ o‘sish terminlari asosida yig‘ilishda muhokama olib borish va qaror qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantirish. Terminologik mazmun korxona shakllari (“shareholder” – aksiyador, “joint venture” – qo‘shma korxona), boshqaruv va qaror qabul qilish (“stakeholder” – manfaatdor tomon, “SWOT analysis” – SWOT-tahlil, “agenda” – kun tartibi, “deadline” – muddat) hamda korporativ o‘sish (“merger and acquisition” – qo‘shib olish va sotib olish) guruhlarini qamrab oladi. Kasbiy muloqot vaziyatlari – bo‘lim yig‘ilishi, hamkorlik shaklini tanlash bo‘yicha muhokama va qaror yuzasidan ichki xabarnoma. Kutilgan natija B1 darajasida talaba yig‘ilishda o‘z fikrini bildiradi va hamkasbidan aniqlik so‘raydi; B2 darajasida kun tartibi bo‘yicha muhokamani boshqaradi, turli pozitsiyalarni umumlashtiradi va kelishilgan qarorni shakllantiradi.

Beshinchi modul – “Buxgalteriya hisobi va audit” (Accounting and Financial Reporting). Modulning maqsadi – moliyaviy hisobot terminlari asosida korxona faoliyati natijalarini taqdim etish va hisob-kitoblar bo‘yicha muloqot qilish ko‘nikmasini rivojlantirish. Terminologik mazmun moliyaviy hisobot shakllari (“balance sheet” – buxgalteriya balansi, “income statement” – moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot), aktivlar va majburiyatlar (“assets” – aktivlar, “liabilities” – majburiyatlar, “accounts receivable” – debitorlik qarzi) hamda daromad va xarajatlar (“revenue” – tushum, “net profit” – sof foyda, “invoice” – hisob-faktura) guruhlaridan iborat. Kasbiy muloqot vaziyatlari – chorak natijalari taqdimoti, to‘lanmagan hisob-faktura bo‘yicha mijoz bilan telefon suhbati va hisobot bo‘yicha yig‘ilish. Kutilgan natija B1 darajasida talaba hisobot ko‘rsatkichlarini nomlaydi va to‘lov muddati haqida standart telefon suhbatini olib boradi; B2 darajasida ko‘rsatkichlar o‘zgarishining sabablarini izohlaydi va “revenue” hamda “profit” kabi tushunchalarni aniq farqlaydi.

Oltinchi modul – “Xalqaro savdo” (International Trade and Business Communication). Modulning maqsadi – eksport-import operatsiyalari, to‘lov va yetkazib berish shartlari terminlari asosida xalqaro hamkor bilan yozma va og‘zaki muloqot qilish ko‘nikmasini rivojlantirish. Terminologik mazmun eksport-import operatsiyalari (“quotation” – narx taklifi, “order” – buyurtma, “customs duty” – bojxona boji), to‘lov va yetkazib berish shartlari (“payment terms” – to‘lov shartlari, “letter of credit” – akkreditiv, “delivery date” – yetkazib berish sanasi) hamda

ishbilarmonlik yozishmalari (“enquiry” – so‘rov, “complaint” – shikoyat) guruhlarini qamrab oladi. Kasbiy muloqot vaziyatlari – narx va to‘lov shartlari bo‘yicha muzokara, so‘rov, narx taklifi, buyurtma va shikoyat xatlari hamda yetkazib berishni telefon orqali aniqlashtirish. Kutilgan natija B1 darajasida talaba namuna asosida standart so‘rov va buyurtma xatini yozadi; B2 darajasida shikoyatga janr me’yorlariga mos, rasmiy va muloyim javob yozadi hamda muzokarada to‘lov shartlari bo‘yicha muqobil taklif kiritadi. Imkoniyati yuqori talabalar uchun har bir modulda C1 darajasiga mo‘ljallangan qo‘shimcha topshiriq – tahliliy hisobot yoki murakkab muzokara – beriladi.

Oltita modulning tuzilishida konsepsiya tamoyillari izchil amalga oshiriladi. Terminologik tizimlilik va kollokatsion yaxlitlik tamoyili har bir modul mazmunini tematik guruhlar va terminologik klasterlar tizimi sifatida tuzishda, kasbiy-vaziyatli kontekstuallik tamoyili har bir modulni kamida ikkita kasbiy muloqot vaziyatiga biriktirishda, til va mutaxassislik mazmuni integratsiyasi tamoyili modullar mavzularini mutaxassislik fanlari bilan muvofiqlashtirishda namoyon bo‘ladi. Darajaviy izchillik tamoyili har bir modulda B1 dan B2 ga o‘tuvchi ikki pog‘onali natija va qatlamlararo harakatlanish orqali, madaniyatlararo-kasbiy me’yoriylik tamoyili esa muzokara, yozishma va telefon orqali muloqot vaziyatlaridagi nutqiy formulalarni xalqaro ishbilarmonlik muloqoti me’yorlariga mos tanlash orqali ro‘yobga chiqadi. Shu tariqa mazmuniy blokning har bir elementi konsepsiyaning muayyan tamoyilidan kelib chiqadi, bu esa 2.3-§ da modelga qo‘yilgan konseptual muvofiqlik talabini mazmun darajasida ta’minlaydi.

Modullarda kutilgan natijalarning B1 va B2 darajalari bo‘yicha ifodalanishi CEFR qo‘shimcha jildidagi taqdimot, axborot almashish, maqsadga yo‘naltirilgan hamkorlik va yozishma shkalalariga tayanadi, topshiriqlar turi esa BEC va Linguaskill Business formatlariga moslashtiriladi. Bu yondashuv 1.3-§ da qayd etilgan maqsad darajasi (B2) va kurs darajasi (B1) o‘rtasidagi nomuvofiqlikni har bir modulda ikki pog‘onali natija orqali bartaraf etadi: talaba B1 darajasidagi natijadan boshlab, modul yakunidagi kasbiy muloqot topshirig‘ida B2 darajasidagi natijaga yaqinlashadi.

Fanlararo integratsiya modulli mazmunning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, ikkinchi shart-sharoit orqali ta’minlanadi. D.Koyl, P.Xud va D.Marsh CLIL doirasida tilning uch jihatini farqlaydi: o‘rganish tili (fanga xos terminlar va tuzilmalar), o‘rganish uchun til (topshiriqni bajarish uchun zarur funksional vositalar) va o‘rganish jarayonida yuzaga keladigan til [97]. Metodikamizda bu farqlash terminologik klaster tuzilmasiga ko‘chiriladi: terminlar va ularning ta’riflari o‘rganish tilini, nutqiy qoliplar va muloqot formulalari o‘rganish uchun tilni, mustaqil loyiha va kasbiy muloqot topshirig‘ida talaba o‘zi izlab topadigan birliklar esa o‘rganish jarayonida yuzaga keladigan tilni tashkil etadi.


Modullar mutaxassislik fanlari bilan ikki yo‘nalishda muvofiqlashtiriladi. Sinxron yo‘nalishda modul mavzulari shu bosqichda o‘qitiladigan “Iqtisodiyot nazariyasi” va “Biznesga kirish” fanlari mavzulari bilan vaqt bo‘yicha uyg‘unlashtiriladi: “Makroiqtisodiyot” moduli iqtisodiyot nazariyasidagi talab va taklif, bozor muvozanati va makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar mavzulari bilan, “Moliya va bank ishi” moduli pul va bank tizimi mavzusi bilan, “Marketing” va “Menejment” modullari esa biznesga kirish fanidagi bozor, korxona shakllari va boshqaruv mavzulari bilan parallel o‘tiladi. Istiqbol yo‘nalishida keyingi bosqichlarda o‘qitiladigan mikroiqtisodiyot, statistika, marketing, moliya, strategik menejment, xalqaro iqtisodiyot, xalqaro marketing va xalqaro bank ishi fanlarining tayanch tushunchalari terminologik minimumning retseptiv qatlamiga oldindan kiritiladi va mustaqil ta’limdagi mini-loyihalar orqali o‘zlashtiriladi. Shu tariqa “Buxgalteriya hisobi va audit” va “Xalqaro savdo” modullari talabani yuqori kurslardagi mutaxassislik fanlarini ingliz tilidagi manbalar asosida o‘rganishga tayyorlaydi.

Integratsiyaning tashkiliy mexanizmi to‘rt harakatdan iborat: semestr boshida ingliz tili va mutaxassislik kafedralari mavzular xaritasini kelishadi; terminologik minimum mutaxassis ekspertizasidan o‘tkaziladi; har bir modulning kasbiy muloqot topshirig‘i uchun keys mutaxassislik fani mazmuni asosida birgalikda tayyorlanadi (masalan, “Makroiqtisodiyot” modulida narx o‘zgarishini talab va taklif grafigi asosida izohlash, “Menejment” modulida korxonaning SWOT-tahlili, “Buxgalteriya hisobi va audit” modulida zararsizlik nuqtasini hisoblab, natijani taqdim etish); mustaqil ta’limda autentik ingliz tilidagi iqtisodiy manbalar asosida mini-loyiha bajariladi. Bu mexanizm T.Dadli-Evans va M.Sent-Jon ajratgan kooperatsiya va kollaboratsiya darajalarida [104] amalga oshadi va ikkita fan o‘qituvchisining mashg‘ulotni birgalikda o‘tkazishini talab qilmaydi.

Modulli mazmunning yaxlit tuzilmasi 3.1-rasmda ifodalanadi. Sxemaning yuqori qatorida terminologik minimumni tanlashning uchta manbasi – ehtiyojlar tahlili asosida tuzilgan kasbiy vaziyatlar reyestri, manbalar korpusi hamda CEFR va Business English bo‘yicha xalqaro imtihonlar talablari joylashgan. Ulardan chiquvchi strelkalar oltita tanlash mezoni va mutaxassis ekspert bahosiga yo‘naladi, bu blokdan esa produktiv va retseptiv qatlamlardan iborat iqtisodiy terminologik minimum kelib chiqadi. Minimum oltita tematik modulga taqsimlanadi: birinchi qatorda birinchi semestr modullari, ikkinchi qatorda ikkinchi semestr modullari berilgan; modullarni bog‘lovchi strelkalar ularning izchilligini, uzuq chiziqli strelka esa semestrlar orasidagi o‘tishni ko‘rsatadi. Sxemaning o‘ng tomonida mutaxassislik fanlari bloki joylashgan bo‘lib, ikki tomonlama strelkalar terminologik minimum va modullarning sinxron va istiqbol yo‘nalishidagi integratsiyasini ifodalaydi. Modullar ostida modul ichidagi sikl, o‘ngda CEFR mo‘ljali, eng pastda esa mazmuniy blokdan jarayoniy-texnologik blokka o‘tish ko‘rsatilgan.

Terminni nutqiy birliklar bilan birga o‘rgatish modul ichidagi siklning asosiy metodik shartidir. M.Lyuis tilning asosini grammatiklashgan leksika, ya’ni kollokatsiyalar, barqaror ifodalar, jumla boshlamalari va nutqiy formulalar tashkil etishini ko‘rsatadi [129]. D.M.Abdullayeva kontekstli leksika o‘rgatish, tematik so‘zlar asosida muloqot vazifalarini tuzish va kollokatsiyalar orqali tabiiy nutqni rivojlantirishni tavsiya etadi [73], G.B.Prenova esa terminologik lug‘atlarni talabaning gapirish jarayonida soha leksikasini to‘g‘ri qo‘llashini ta’minlovchi o‘quv vositasi sifatida ko‘radi [150]. Metodikamizda bu qarashlar terminologik klasterning uch qatlamli nutqiy tarkibiga aylantiriladi: kollokatsiyalar qatlami, nutqiy qoliplar qatlami va muloqot formulalari qatlami.

Kollokatsiyalar qatlami terminning fe’l, sifat va predloglar bilan barqaror birikmalarini qamrab oladi. Masalan, “inflation rate” klasterida “to curb inflation” (inflyatsiyani jilovlamoq), “high / low inflation rate” (yuqori / past inflyatsiya darajasi), “inflation rate rose to …” (inflyatsiya darajasi … gacha ko‘tarildi) birikmalari; “market share” klasterida “to gain / lose market share” (bozor ulushini egallamoq / yo‘qotmoq), “to increase market share by …” (bozor ulushini … ga oshirmoq); “letter of credit” klasterida “to open / issue a letter of credit” (akkreditiv ochmoq) birikmalari beriladi. Kollokatsiya har doim terminning o‘zi bilan birga kiritiladi va terminologik kartochkaning majburiy qismi hisoblanadi, chunki 1.2-§ da ko‘rsatilganidek, birikuvchanlikni bilmasdan termin passiv bilim bo‘lib qoladi.



3.1-rasm. Iqtisodiy terminologik minimum asosida ta’lim mazmunining modulli tuzilmasi

Nutqiy qoliplar qatlami terminni gap ichida qo‘llashning takrorlanuvchi sintaktik modellarini o‘z ichiga oladi. Taqdimot vaziyati uchun tendensiyalarni tavsiflovchi qoliplar: “Revenue rose steadily in the first half of the year” (yilning birinchi yarmida tushum barqaror o‘sdi), “Net profit fell slightly compared with the previous quarter” (sof foyda oldingi chorakka nisbatan biroz kamaydi), “The inflation rate is expected to level off by the end of the year” (inflyatsiya darajasi yil oxiriga borib barqarorlashishi kutilmoqda). Sabab-oqibatni ifodalovchi qoliplar: “The increase in market share was mainly due to the new pricing strategy” (bozor ulushining ortishi asosan yangi narx strategiyasi tufayli bo‘ldi), “As a result of higher interest rates, demand for loans decreased” (foiz stavkalari oshishi natijasida kreditga talab pasaydi). Qoliplar terminni o‘zgartirilayotgan o‘rin sifatida berib, talabaga bir model asosida turli terminlarni qo‘llash imkonini beradi.

Muloqot formulalari qatlami muayyan kasbiy muloqot vaziyatining tuzilmasini belgilovchi tayyor ifodalardan iborat. Taqdimotda: “As you can see from this chart, …” (ushbu grafikdan ko‘rinib turibdiki, …), “Let me now turn to our cash flow position” (endi pul oqimi holatiga o‘tsam). Muzokarada: “Could you offer a volume discount?” (hajm bo‘yicha chegirma bera olasizmi?), “We could offer more flexible payment terms if you commit to a larger volume” (agar kattaroq hajmga kelishsangiz, to‘lov shartlarini yumshatishimiz mumkin). Biznes yozishmada: “Further to our telephone conversation, please find attached our quotation” (telefondagi suhbatimizga qo‘shimcha ravishda narx taklifimizni ilova qilamiz), “We look forward to receiving your order” (buyurtmangizni kutib qolamiz). Yig‘ilishda: “Let’s move on to the next item on the agenda” (kun tartibidagi keyingi masalaga o‘taylik), “I’d like to hear your views on the proposed merger” (taklif etilayotgan qo‘shilish bo‘yicha fikringizni eshitmoqchiman). Telefon orqali muloqotda: “I’m calling about the outstanding invoice from last month” (o‘tgan oydagi to‘lanmagan hisob-faktura yuzasidan qo‘ng‘iroq qilyapman), “Could you spell the name of the company, please?” (kompaniya nomini harfma-harf aytib bera olasizmi?).

Uch qatlam terminologik kartochkada yagona tuzilmada beriladi. Kartochkaning old tomonida termin, uning transkripsiyasi va urg‘usi, o‘zbekcha muqobili hamda qatlam (produktiv yoki retseptiv) va CEFR darajasi belgisi joylashadi. Orqa tomonida terminning ingliz tilidagi qisqa ta’rifi, ekvivalentlik turi va zarur bo‘lsa interferensiya haqida ogohlantiruvchi belgi, uchtagacha kollokatsiya, bitta nutqiy qolip, bitta muloqot formulasi va termin biriktirilgan kasbiy muloqot vaziyati ko‘rsatiladi. Masalan, “cash flow” kartochkasida “pul oqimi” muqobili, kalka asosidagi ekvivalentlik belgisi, “positive / negative cash flow”, “to improve cash flow”, “cash flow forecast” kollokatsiyalari, “We are experiencing cash flow problems due to late payments from customers” qolipi, “Would you be able to extend the repayment period to sixty days?” formulasi va “bank bilan kredit shartlari bo‘yicha muzokara” vaziyati beriladi.

Kartochkalar elektron glossariyda saqlanadi, talaba esa ularni mustaqil ta’limda korpusdan topilgan misollar bilan to‘ldirib boradi va terminologik portfoliosiga kiritadi.

Terminologik klasterlarni modul ichidagi to‘rt bosqichga taqsimlashning o‘ziga xos tartibi mavjud. Terminni tanishtirish va anglash bosqichida klasterning tushunchaviy va tarjima qatlami – ta’rif, o‘zbekcha muqobil, terminosistemadagi o‘rni – o‘zlashtiriladi. Termin asosida reproduktiv muloqot bosqichida kollokatsiyalar va nutqiy qoliplar namuna asosida qo‘llanadi. Kasbiy vaziyatda produktiv muloqot bosqichida muloqot formulalari vaziyat tuzilmasi ichida faollashtiriladi. Mustaqil kasbiy-kommunikativ faoliyat bosqichida esa talaba klasterni yangi vaziyatga ko‘chiradi va retseptiv qatlamdagi terminlarni ham zarur bo‘lganda izohlab beradi. Bu tartib mazmuniy blok bilan jarayoniy-texnologik blok o‘rtasidagi o‘zaro taqozo etuvchi aloqani amalga oshiradi: modulning terminologik mazmuni qaysi bosqichda, qaysi nutqiy shaklda o‘zlashtirilishi oldindan belgilanadi va 3.2-§ da ishlab chiqiladigan mashqlar va topshiriqlar tizimi uchun mazmuniy asos bo‘ladi.

Ishlab chiqilgan metodika pedagogik shart-sharoitlarning yaratilganlik ko‘rsatkichlarini mazmun darajasida ta’minlaydi. Terminologik minimum tanlash mezonlari va bosqichlari bilan birga hujjatlashtirilgan; har bir modul uchun vaziyat, janr va B1–B2 natijalari belgilangan; har bir terminologik klaster kollokatsiyalari va o‘zbekcha muqobili bilan berilgan; har bir modul kasbiy muloqot topshirig‘i bilan yakunlanadi – bu ko‘rsatkichlar birinchi shart-sharoitning, kelishilgan mavzular xaritasi va mutaxassis ekspertizasidan o‘tgan glossariy esa ikkinchi shart-sharoitning amalga oshganligini ko‘rsatadi. Mazmuniy blok shu tariqa o‘z ichki elementlari – terminologik minimum, tematik modullar va kasbiy muloqot vaziyatlari – orqali to‘liq hujjatlashtirilgan metodik mahsulotga aylanadi, jarayoniy-texnologik blok esa ushbu mahsulotni mashqlar, topshiriqlar va vaziyatlarni modellashtirish vositasida muloqot kompetensiyasining besh komponentini rivojlantirishga yo‘naltiradi. Shu bilan birga modulli mazmun kredit-modul tizimida mustaqil ta’limning yuqori ulushini kasbiy muloqotga tayyorgarlik vositasiga aylantiradi, chunki mustaqil ta’lim soatlari klasterlar bilan ishlash, korpus tahlili va kasbiy topshiriqni tayyorlashga aniq yo‘naltiriladi.

Paragraf yuzasidan quyidagi umumlashma chiqariladi. Olimlar qarashlari tahlili mazmunni ta’lim oluvchining kasbiy ehtiyojlari, korpus ma’lumotlari va kasbiy muloqot vaziyatlaridan keltirib chiqarish, modulni esa maqsad, mazmun, topshiriq va nazoratni birlashtiruvchi nisbatan mustaqil birlik sifatida loyihalash zarurligini ko‘rsatadi. Konsepsiya tamoyillari mazmunni tanlashning beshta operatsional talabiga aylantiriladi, ta’lim mazmunining eng kichik birligi sifatida iqtisodiy terminologik klaster kiritiladi.

Iqtisodiy terminologik minimum beshta bosqichda – ehtiyojlar tahlili va vaziyatlar reyestrini tuzish, manbalar korpusini shakllantirish, oltita mezon bo‘yicha

baholash, ekspert baholash hamda qatlamlarga ajratish va modullarga taqsimlash orqali tanlanadi. Terminlar produktiv va retseptiv qatlamlarga ajratiladi, qatlamlararo harakatlanish darajaviy izchillik tamoyilini mazmun darajasida amalga oshiradi.

Ta’lim mazmuni “Makroiqtisodiyot”, “Moliya va bank ishi”, “Marketing”, “Menejment”, “Buxgalteriya hisobi va audit” va “Xalqaro savdo” modullari asosida tashkil etiladi. Modullar mutaxassislik fanlari bilan sinxron va istiqbol yo‘nalishida integratsiyalanadi, terminlar esa kollokatsiyalar, nutqiy qoliplar va muloqot formulalaridan iborat klaster shaklida o‘rgatiladi. Metodika 3.2-§ dagi mashqlar va topshiriqlar tizimi uchun mazmuniy asos bo‘ladi.

3.2-§. Iqtisodiy terminlar asosida ingliz tilida muloqot kompetensiyalarini rivojlantiruvchi mashqlar va topshiriqlar tizimi

Iqtisodiy termin talabaning nutqiy tajribasiga faqat mashq va topshiriq orqali kiradi: u terminologik kartochkada qayd etilgani yoki glossariyga kiritilgani bilan emas, balki talaba uni taqdimotda, muzokarada, xatda yoki yig‘ilishda kasbiy vazifani hal etish uchun o‘zi tanlab, vaziyatga mos qo‘llaganda muloqot vositasiga aylanadi. Shu sababli mashqlar va topshiriqlar tizimi jarayoniy-texnologik blokning markaziy bo‘g‘ini bo‘lib, u mazmuniy blokda belgilangan terminologik minimumni muloqot kompetensiyasining besh komponentini rivojlantiruvchi o‘quv harakatlariga aylantiradi. Mazkur paragrafda mashq va topshiriq tushunchalari hamda ularning tasnif asoslari xorijiy, MDH va milliy olimlar qarashlari asosida aniqlashtiriladi, tizimga qo‘yiladigan talablar va mualliflik tasnifi ishlab chiqiladi, mashqlar muloqot kompetensiyasini rivojlantirishning to‘rt bosqichi bo‘yicha tuziladi, ingliz tilidagi topshiriq namunalari keltiriladi, mashqlarning komponentlar va CEFR deskriptorlari bilan bog‘liqligi hamda mustaqil ta’lim topshiriqlarining auditoriya mashg‘ulotlari bilan uzviyligi asoslanadi.

Topshiriqqa asoslangan o‘qitish nazariyasida mashq va topshiriq tushunchalari aniq farqlanadi. R.Ellis topshiriqni ta’lim oluvchidan tilni asosan ma’no ifodalash uchun qo‘llashni talab etadigan ish rejasi sifatida ta’riflaydi va uning to‘rt belgisini ajratadi: e’tiborning ma’noga qaratilgani, axborot yoki fikrdagi bo‘shliqning mavjudligi, ta’lim oluvchining o‘z til resurslariga tayanishi hamda tildan tashqari aniq kommunikativ natija; mashqda esa e’tibor birinchi navbatda til shakliga qaratiladi [107]. D.Nunan maqsadli, ya’ni real hayotdagi topshiriqlarni pedagogik topshiriqlardan farqlaydi, pedagogik topshiriq tarkibida maqsad, kirish materiali, faoliyat tartibi, o‘qituvchi va ta’lim oluvchi roli hamda sharoitni ajratadi, topshiriqni bajarishga tayyorlovchi ko‘nikmalar qatoriga til mashqlari va kommunikativ faoliyat turlarini kiritib, ularni topshiriqlar zanjirida izchil joylashtirishni tavsiya etadi [146]. J.Uillis topshiriq oldi bosqichi, topshiriq sikli (topshiriqni bajarish, hisobotni rejalashtirish va hisobot) hamda til shakliga e’tibor bosqichidan iborat tuzilmani taklif

etadi [175]. U.Litlvud kommunikativ o‘qitishda tuzilmaviy va kvazikommunikativ harakatlardan iborat kommunikativ oldi faoliyatni hamda funksional muloqot va ijtimoiy o‘zaro ta’sirdan iborat kommunikativ faoliyatni ajratadi [130].

To‘rt olim qarashidagi umumiy jihat shundaki, ular til shakliga yo‘nalgan harakatni muloqotga tayyorlovchi, ma’noga yo‘nalgan harakatni esa muloqotning o‘zi sifatida ko‘radi. Farq tayyorlovchi harakatning o‘rnida namoyon bo‘ladi: R.Ellis mashq va topshiriqni sifat jihatidan farqli hodisalar sifatida qarama-qarshi qo‘yadi, D.Nunan va U.Litlvud ularni yagona ketma-ketlikning bo‘g‘inlari deb biladi, J.Uillis esa til shakliga e’tiborni topshiriqdan keyingi bosqichga ko‘chiradi. Iqtisodiy terminlar uchun ikkinchi qarash maqbul. “Accounts receivable” (debitorlik qarzi) yoki “letter of credit” (akkreditiv) terminining tushunchaviy mazmuni va kollokatsiyalari tayyorlovchi mashqlarda o‘zlashtirilmasa, muzokara yoki yozishma topshirig‘ida talaba termindan qochadi va uni umumiy leksika bilan almashtiradi: “the money customers owe us” yoki “a bank paper for payment” kabi tasviriy ifodalar paydo bo‘ladi. Shu sababli tizimimizda mashq topshiriqqa qarama-qarshi qo‘yilmaydi, balki topshiriqning til tayanchini yaratuvchi bo‘g‘in sifatida uning oldida joylashadi, J.Uillis g‘oyasiga muvofiq til shakliga e’tibor esa topshiriqdan keyin ham takrorlanadi.

Leksik birliklarni mashq orqali o‘zlashtirish masalasida I.S.P.Neyshn va M.Lyuis qarashlari tayanch ahamiyatga ega. I.S.P.Neyshn samarali kurs to‘rt yo‘nalish – ma’noga yo‘nalgan kirish materiali, ma’noga yo‘nalgan nutqiy mahsulot, tilga yo‘nalgan o‘rganish va ravonlikni rivojlantirish – o‘rtasida o‘quv vaqtini muvozanatli taqsimlash orqali qurilishini asoslaydi [41], so‘zni o‘zlashtirishni esa payqash, xotiradan qayta chaqirish va uni yangi kontekstda ijodiy qo‘llash jarayonlari bilan izohlaydi [142]. M.Lyuis leksik yondashuvni amaliyotga tatbiq etishda ta’lim oluvchini matndagi barqaror birikmalarni payqashga, kollokatsiyalarni guruhlash, moslashtirish va tiklash mashqlarini bajarishga hamda ularni leksik daftarda tizimli qayd etishga o‘rgatishni talab qiladi [128]. Ikkala olim leksik birlikni matndan ajratib yodlashni samarasiz deb biladi; farq shundaki, I.S.P.Neyshn muvozanatni kurs darajasida, M.Lyuis esa birlik darajasida – so‘z emas, birikma darajasida – ko‘radi. Tadqiqotimizda bu ikki g‘oya birlashtiriladi: iqtisodiy terminologik klaster mashqning birligini belgilasa, to‘rt yo‘nalish muvozanati har bir moduldagi mashqlar tizimining umumiy tuzilmasini belgilaydi. Klasterning “to curb inflation”, “to gain market share”, “to open a letter of credit” kabi kollokatsion qatlami mashqlarda alohida faollashtiriladi, chunki 1.2-§ da ko‘rsatilganidek, birikuvchanligi o‘zlashtirilmagan termin passiv bilim bo‘lib qoladi.

MDH metodikasida mashqlar nazariyasi kommunikativ metod doirasida chuqur ishlangan. Ye.I.Passov nutq ko‘nikmasi shartli nutqiy mashqlarda, nutq malakasi esa nutqiy mashqlarda shakllanishini asoslab, vaziyatlilik, nutqiy yo‘nalganlik, funksionallik va yangilikni mashqqa qo‘yiladigan asosiy talablar sifatida belgilaydi

[215]. S.F.Shatilov mashqlarni kommunikativlik darajasiga ko‘ra nokommunikativ (til), shartli kommunikativ va kommunikativ mashqlarga, nutq faoliyatiga munosabatiga ko‘ra retseptiv, reproduktiv va produktiv mashqlarga ajratadi [223]. N.D.Galskova mashqlarni fonetik-orfografik, grammatik, lug‘at bilan ishlash hamda bilim, ko‘nikma va malakalarni takomillashtirishga qaratilgan guruhlarga bo‘ladi [190]; N.D.Galskova va N.I.Gez esa mashqni ko‘nikma va malakalarni shakllantirishning asosiy vositasi sifatida ko‘rib, mashqlar maqsadga muvofiq va oddiydan murakkabga qarab izchil tuzilishini talab qiladi [191]. I.A.Zimnyaya xorijiy tilga o‘qitish birligi sifatida kommunikativ vazifani oladi va o‘quv jarayonini ta’lim oluvchi izchil hal etadigan kommunikativ-nutqiy vazifalar tizimi sifatida talqin etadi [199]. A.A.Verbitskiy kontekstli o‘qitishda o‘quv vazifalarining mazmuni akademik faoliyatdan kvazikasbiy va o‘quv-kasbiy faoliyatga izchil o‘tishi kerakligini ko‘rsatadi [188].

MDH olimlari qarashlarining umumiy jihati mashqlar tizimini kommunikativlik darajasi ortib boradigan ketma-ketlik sifatida ko‘rishda namoyon bo‘ladi. Ye.I.Passov va S.F.Shatilov bu ketma-ketlikni mashqning nutqiy tabiatiga, N.D.Galskova til aspektiga, I.A.Zimnyaya va A.A.Verbitskiy esa vazifa mazmunining kasbiy faoliyatga yaqinlashuviga ko‘ra belgilaydi. Bizningcha, iqtisodiyot yo‘nalishi talabalari uchun mashqlar tizimi ikkala o‘q bo‘yicha bir vaqtda harakatlanishi lozim: shartli nutqiy mashqdan nutqiy mashqqa o‘tish bilan birga vaziyat akademik matndan o‘quv-kasbiy vaziyatga – bank vakili bilan muzokaraga, investor oldidagi taqdimotga, xalqaro hamkorning shikoyatiga yozma javobga – yaqinlashib boradi. Shunda Ye.I.Passov talab qilgan vaziyatlilik iqtisodiy terminlar uchun kasbiy vaziyatlilik mazmunini oladi, S.F.Shatilov ajratgan retseptiv, reproduktiv va produktiv mashqlar esa modelning dastlabki uch bosqichiga muvofiq taqsimlanadi.

Milliy metodistlar mashqlar tizimini didaktik vazifa va o‘zlashtirish izchilligi nuqtayi nazaridan tasniflaydi. J.J.Jalolov [119] va T.K.Sattorov [157] mashqlarning shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi va takomillashtiruvchi turlarini ajratadi. U.A.Murodova mashqlarni til hodisasini mustahkamlash va tuzilmani aniqlashga xizmat qiladigan tayyorlov mashqlari hamda real yoki unga yaqinlashtirilgan kommunikativ vaziyatda bajariladigan nutqqa asoslangan mashqlarga bo‘ladi [140]. M.B.Shodiyev kommunikativ vazifani ta’lim oluvchidan autentik tilni tushunish, yaratish va o‘zaro ta’sirda qo‘llashni talab qiladigan, e’tibor asosan ma’noga qaratilgan faoliyat sifatida tavsiflaydi, o‘quv topshirig‘i tarkibida maqsad, kirish ma’lumoti va faoliyat turini ajratadi hamda muammoli topshiriqlarni til aspektlariga, retseptiv va produktiv nutq faoliyatiga yo‘nalgan va kompleks topshiriqlarga bo‘ladi [164]. G.B.Prenova har bir mashq yoki topshiriq gapirishning muayyan jihati – ravonlik, grammatik to‘g‘rilik, talaffuz aniqligi yoki kommunikativ moslashuvchanlikni rivojlantirishga xizmat qilishi lozimligini ta’kidlaydi va fikrni pozitsiya, mulohaza,

dalil va xulosa izchilligida bayon etishga o‘rgatuvchi POPS-formula asosidagi mashqlarni qo‘llaydi [150]. B.B.Tangatov intervyu, fikr bildirish va munozara, kontekstli bo‘sh joyni to‘ldirish hamda yozma qiyoslash mashqlari orqali til ko‘nikmasi, kasbiy mazmuniy tafakkur va ijtimoiy-interaktiv muloqotni bir vaqtda rivojlantirishni asoslaydi [168]. F.Sh.Negova bir mashg‘ulot doirasida mashq va topshiriqlar tizimini tuzib, faol leksikani o‘rgatishda semantik va yozma nutqiy mashqlardan foydalanadi [144]. D.A.Usarova o‘quv vazifalarini boshqa shaxsning kommunikativ xulqini kuzatish va tushunishga qaratilgan retseptiv, o‘zgartirishsiz qayta hosil qilishga qaratilgan reproduktiv va muammoli vaziyatda o‘z kommunikativ faoliyatini amalga oshirishga qaratilgan produktiv turlarga ajratadi [171].

Milliy tadqiqotlarda ikkita barqaror tendensiya kuzatiladi. Birinchisi – mashqlarni tayyorlovdan nutqqa, reproduksiyadan produksiyaga qarab izchil joylashtirish (J.J.Jalolov, T.K.Sattorov, U.A.Murodova, D.A.Usarova). Ikkinchisi – topshiriqni mazmun, til va o‘zaro ta’sirni birlashtiruvchi integrativ birlik sifatida ko‘rish (M.B.Shodiyev, B.B.Tangatov, G.B.Prenova). Biroq tahlil qilingan tizimlarda mashqning birligi sifatida kasbiy termin va uning kollokatsion muhiti olinmagan, mashq turlarining muloqot kompetensiyasi komponentlari bilan munosabati ochiq belgilanmagan, mustaqil ta’lim topshiriqlari esa auditoriya mashqlari bilan yagona zanjirga birlashtirilmagan. Ushbu uch jihat mualliflik tizimining o‘ziga xosligini belgilaydi.

Tahlil asosida tadqiqotimizda uchta ishchi ta’rif qabul qilinadi. Terminologik-kommunikativ mashq – iqtisodiy terminologik klaster elementlari (termin, tushuncha, o‘zbekcha muqobil, kollokatsiya, nutqiy qolip, muloqot formulasi)ni tayanch yordamida ko‘p marta qo‘llashga yo‘naltirilgan, natijasi til shakli va ma’no to‘g‘riligi bilan o‘lchanadigan o‘quv harakati. Kasbiy-kommunikativ topshiriq – iqtisodiyot mutaxassisining kasbiy muloqot vaziyatini modellashtiruvchi, ishtirokchilari, rollari, maqsadi va tildan tashqari natijasi (kelishuv, qaror, xat, taqdimot, hisobot) aniq belgilangan, bajarilishida talaba terminni o‘zi tanlab qo‘llaydigan o‘quv-kasbiy vazifa. Mashqlar va topshiriqlar tizimi – muloqot kompetensiyasini rivojlantirishning to‘rt bosqichi, besh komponenti va oltita tematik modul bo‘yicha tartiblangan, terminologik-kommunikativ mashqdan mustaqil kasbiy-kommunikativ faoliyatgacha izchil harakatlanuvchi hamda auditoriya mashg‘uloti va mustaqil ta’limni yagona zanjirga birlashtiruvchi o‘quv harakatlari majmui.

Tizimga konsepsiya tamoyillaridan kelib chiqadigan oltita talab qo‘yiladi. Birinchi talab – terminologik asoslanganlik: har bir mashq va topshiriq 3.1-jadvaldagi muayyan modulning produktiv yoki retseptiv qatlamiga tayanadi va terminologik klasterning kamida bitta elementini faollashtiradi; bu terminologik tizimlilik va kollokatsion yaxlitlik tamoyilini mashq darajasida amalga oshiradi. Ikkinchi talab – vaziyatlilik: taqdimot, muzokara, biznes yozishma, yig‘ilish va telefon orqali muloqot

vaziyatlari termin asosida reproduktiv muloqot bosqichidan boshlab barcha mashqlarning kontekstini tashkil etadi, bu kasbiy-vaziyatli kontekstuallik tamoyiliga mos keladi. Uchinchi talab – bosqichlilik va tayanchning asta-sekin kamayishi: tayanch hajmi birinchi bosqichdagi to‘liq tayanchdan to‘rtinchi bosqichdagi tayanchsiz ishlashgacha qisqaradi, topshiriqlarning CEFR mo‘ljali esa B1 dan B2 va C1 ga tomon siljiydi; bu darajaviy izchillik tamoyilining talabidir. To‘rtinchi talab – komponent bo‘yicha yo‘nalganlik: har bir mashq turining ustuvor komponenti oldindan belgilanadi, biroq birorta bosqichda birorta komponent e’tibordan chetda qolmaydi (komponentlararo integrativlik tamoyili). Beshinchi talab – faollik va hamkorlik: produktiv bosqichlarda topshiriqlar juftlik va kichik guruhda axborot, fikr yoki manfaat bo‘shlig‘i asosida tuziladi (topshiriqqa asoslangan faollik va hamkorlik tamoyili). Oltinchi talab – refleksiv yakunlanganlik: har bir topshiriq o‘z-o‘zini baholash va terminologik portfolioga yozuv bilan tugaydi (refleksiv-baholovchi avtonomlik tamoyili).

Mashqlar va topshiriqlarning mualliflik tasnifi beshta asosga tayanadi. Birinchi asos – rivojlantirish bosqichi: tanishtiruvchi-anglovchi mashqlar, reproduktiv-muloqot mashqlari, produktiv-vaziyatli topshiriqlar va mustaqil kasbiy-kommunikativ topshiriqlar. Ikkinchi asos – ustuvor komponent: iqtisodiy-terminologik, lingvopragmatik, diskursiv-strategik, madaniyatlararo-kasbiy va motivatsion-refleksiv yo‘nalishdagi mashqlar. Uchinchi asos – tayanch darajasi: to‘liq tayanchli (namuna, rolli kartochka va formulalar ro‘yxati beriladi), qisman tayanchli (kalit terminlar va vaziyat sharti beriladi) va tayanchsiz (faqat kasbiy muammo beriladi) topshiriqlar. To‘rtinchi asos – muloqot shakli: og‘zaki monologik, og‘zaki dialogik va polilogik, yozma hamda og‘zaki va yozma shakllar birlashgan aralash topshiriqlar. Beshinchi asos – tashkiliy shakl: auditoriyada bajariladigan, mustaqil ta’limda bajariladigan va ikkalasini birlashtiruvchi zanjirli topshiriqlar. Tasnif asoslari bir-birini istisno etmaydi: masalan, to‘lov shartlari bo‘yicha muzokara bir vaqtning o‘zida produktiv-vaziyatli, diskursiv-strategik va madaniyatlararo-kasbiy yo‘nalishdagi, qisman tayanchli, dialogik va auditoriyada bajariladigan topshiriq hisoblanadi.

Mashqlar tizimi modelning to‘rt bosqichi bo‘yicha tuziladi va har bir tematik modulda to‘liq sikl sifatida takrorlanadi. 3.1-§ da belgilanganidek, modulning 20 soatlik auditoriya vaqti bosqichlar o‘rtasida 4, 6, 6 va 4 soat nisbatida taqsimlanadi; bu nisbat mashqlar hajmini ham belgilaydi: reproduktiv va produktiv bosqichlar mashq va topshiriqlarning asosiy ulushini tashkil etadi.

Terminni tanishtirish va anglash bosqichining maqsadi – terminning tushunchaviy mazmunini anglash, uni terminosistemadagi o‘rni, o‘zbekcha muqobili va kollokatsiyalari bilan bog‘lash. Ustuvor komponent iqtisodiy-terminologik komponent bo‘lib, motivatsion-refleksiv komponent shaxsiy glossariy va o‘z ehtiyojlarini aniqlash orqali rivojlantiriladi. Bosqichda olti turdagi terminologik-

kommunikativ mashq qo‘llanadi. Terminni kontekstdan aniqlash mashqida talaba autentik matndagi termin ma’nosini kontekst belgilari – ta’rif, qarama-qarshilik, sabab-oqibat bog‘lovchilari – asosida taxmin qiladi. Ta’rif bilan moslashtirish mashqida terminlar ingliz tilidagi qisqa ta’riflarga biriktiriladi; bu mashq I.S.P.Neyshn tavsiflagan payqash jarayonini ta’minlaydi [142]. O‘zbekcha muqobilini topish va farqlash mashqida talaba ekvivalentlik turini aniqlaydi va variantli hamda soxta ekvivalentli birliklarni qiyoslaydi: “interest” (foiz yoki manfaat), “share” (aksiya yoki ulush), “concern” (konsern, firma yoki tashvish), “revenue” (tushum) va “profit” (foyda). So‘z yasalishi bilan ishlash mashqida terminlar uyasini tiklash o‘rgatiladi: “to invest – investment – investor – reinvestment”, “inflation – inflationary – disinflation – deflation”, “to compete – competition – competitive – competitor”. Kollokatsiyalar bilan ishlash mashqida M.Lyuis tavsiya etgan moslashtirish, guruhlash va tiklash amallari [128] fe’l, sifat va predlogli birikmalarga qo‘llanadi: “to curb / to fuel inflation”, “to gain / to lose market share”, “to issue an invoice”, “to open a letter of credit”. Terminologik xarita tuzish mashqida tayanch va hosila tushunchalar yagona tuzilmaga joylashtiriladi: “balance sheet” markazi atrofida “assets”, “liabilities”, “equity”, ular ostida esa “current assets”, “accounts receivable”, “long-term liabilities” joylashadi.

Bosqichning topshiriq namunalari quyida keltiriladi.

1-topshiriq. “Buxgalteriya hisobi va audit” moduli, terminni tanishtirish va anglash bosqichi, B1.

Topshiriq sharti:

> Read the extract from a company’s annual report. Find seven financial terms, work out their meaning from the context and match them with definitions A–G. Then write the Uzbek equivalent of each term and complete a terminological card for two of them.
>
> “Last year the company’s revenue rose significantly, while net profit remained flat because of higher depreciation charges on new equipment. Strong cash flow from operations allowed the company to reduce its liabilities and increase working capital. Accounts receivable fell as customers paid their invoices faster.”

Iqtisodiy terminlar: revenue (tushum), net profit (sof foyda), depreciation (amortizatsiya), cash flow (pul oqimi), liabilities (majburiyatlar), working capital (aylanma mablag‘), accounts receivable (debitorlik qarzi).

Kutilgan natija: talaba terminni kontekstdan aniqlaydi, “revenue” va “net profit” farqini izohlaydi, ikkita terminologik kartochkani o‘zbekcha muqobili, kollokatsiyasi va nutqiy qolipi bilan to‘ldiradi.

2-topshiriq. “Makroiqtisodiyot” va “Marketing” modullari, terminni tanishtirish va anglash bosqichi, B1.

Topshiriq sharti:

Part A. Complete the word families: inflation – _____ (adj.) – disinflation; to invest – _____ (n., process) – _____ (n., person); to compete – competition – _____ (adj.) – _____ (n., person).

Part B. Choose the verb that collocates with each term: _____ inflation (curb / make); _____ market share (gain / win); _____ a letter of credit (open / do); _____ an invoice (issue / give).

Part C. Use three of the collocations in sentences about the economy of Uzbekistan or a company you know.

Iqtisodiy terminlar: inflation (inflyatsiya), investment (investitsiya), competitive (raqobatbardosh), market share (bozor ulushi), letter of credit (akkreditiv), invoice (hisob-faktura).

Kutilgan natija: talaba terminlar uyasini tiklaydi, barqaror kollokatsiyani tasodifiy birikmadan farqlaydi va kollokatsiyani o‘z gapida to‘g‘ri qo‘llaydi.

Termin asosida reproduktiv muloqot bosqichining maqsadi – terminni kollokatsiyasi va nutqiy formulasi tarkibida namuna asosida standart kasbiy vaziyatda qo‘llash. Ustuvor komponent lingvopragmatik komponent bo‘lib, u iqtisodiy-terminologik komponent bilan birga rivojlantiriladi. Bosqichda to‘rt turdagi mashq qo‘llanadi. Namuna asosida dialog tuzish mashqida talaba tayyor dialog modelini rolli kartochkadagi yangi ma’lumot bilan to‘ldiradi; bu Ye.I.Passov tavsiflagan shartli nutqiy mashqning iqtisodiy variantidir [215]. Savol-javob va axborot bo‘shlig‘i mashqida juftlikdagi har bir talaba hisobotning bir qismiga ega bo‘ladi va yetishmagan ko‘rsatkichlarni savol berish orqali to‘ldiradi. Iqtisodiy grafik va jadvalni tavsiflash mashqida tendensiyalarni ifodalovchi qoliplar (“to rise steadily”, “to fall sharply”, “to level off”, “to reach a peak”) va sabab-oqibat qoliplari (“due to”, “as a result of”) mashq qilinadi. Qisqa axborot berish mashqida talaba bir-bir yarim daqiqalik “briefing” formatida hamkasblariga vaziyatni bayon etadi. Ushbu bosqichda registr alohida nazorat qilinadi: telefon yoki xatda “I want money” emas, “I’m calling to enquire about a business loan” shakli talab etiladi.

3-topshiriq. “Moliya va bank ishi” moduli, termin asosida reproduktiv muloqot bosqichi, B1.

Topshiriq sharti:

Work in pairs. Student A is the owner of a small textile company who calls a bank to ask about a business loan. Student B is a loan officer. Read the model dialogue first, then use the information on your role cards to make your own telephone conversation. Use at least five phrases from the box.

Phrases: I’m calling to enquire about…; Could you tell me what the interest rate is?; What kind of collateral do you require?; Could you send me the repayment schedule?; Let me just check that…; Thank you for calling.

Iqtisodiy terminlar: loan (kredit), interest rate (foiz stavkasi), collateral (garov), repayment schedule (to‘lov jadvali), term of the loan (kredit muddati).
Kutilgan natija: talaba telefon suhbatini boshlaydi, kredit shartlari bo‘yicha ma’lumot so‘raydi va aniqlashtiradi, suhbatni rasmiy registrda yakunlaydi; har bir terminni to‘g‘ri kollokatsiyada qo‘llaydi.

4-topshiriq. “Makroiqtisodiyot” moduli, termin asosida reproduktiv muloqot bosqichi, B1+.
Topshiriq sharti:

> Look at the line graph showing the inflation rate and the central bank’s interest rate over the last twelve months. Prepare a one-minute briefing for your manager. Describe the main trends, compare the two indicators and suggest one reason for the changes. Use the language of trends and cause and effect.
> Useful language: rose steadily / fell sharply / remained stable / reached a peak / levelled off; This was mainly due to…; As a result of…

Iqtisodiy terminlar: inflation rate (inflyatsiya darajasi), interest rate (foiz stavkasi), central bank (markaziy bank), monetary policy (pul-kredit siyosati), consumer prices (iste’mol narxlari).
Kutilgan natija: talaba grafikdagi ikkita ko‘rsatkichni mantiqiy izchillikda tavsiflaydi, tendensiya fe’lini va sabab-oqibat qolipini to‘g‘ri tanlaydi; topshiriq Linguaskill Business og‘zaki qismidagi vizual ma’lumot asosida taqdimot topshirig‘iga mos keladi.

Kasbiy vaziyatda produktiv muloqot bosqichining maqsadi – terminni o‘z nutqiy mahsuloti tarkibida kasbiy vazifani hal etish uchun mustaqil tanlash, muloqotni boshqarish va terminologik bo‘shliqni kompensatsiya qilish. Ustuvor komponentlar diskursiv-strategik komponent va madaniyatlararo-kasbiy komponentdir. Bu bosqichda kasbiy-kommunikativ topshiriq asosiy birlikka aylanadi va beshta kasbiy muloqot vaziyatiga mos olti turda tuziladi: muzokara, taqdimot, biznes yozishma, yig‘ilish, telefon orqali muloqot va keys muhokamasi. Muzokarada tomonlarning manfaatlari to‘liq mos kelmaydi va natija kelishuv sifatida qayd etiladi; taqdimotda nutq tarkibiy belgilar (“Let me now turn to…”, “To sum up…”) bilan tuziladi; yozishmada so‘rov, narx taklifi, buyurtma va shikoyatga javob janr me’yori asosida yoziladi; yig‘ilishda rais kun tartibini boshqaradi va qaror bayonnomada qayd etiladi. Keys muhokamasida kichik guruh autentik vaziyatni tahlil qilib, asoslangan yechim taklif etadi; “Market Leader” qo‘llanmasidagi keys va kasbiy ko‘nikmalar bo‘limlari bunday topshiriqlar uchun tayanch material vazifasini bajaradi. Tayanch bu bosqichda qisman beriladi: talabaga vaziyat sharti va kalit terminlar ma’lum, biroq nutqiy namuna berilmaydi. Terminologik bo‘shliq yuzaga kelganda parafraza (“It’s the money that customers still owe us – I mean, accounts receivable”) va aniqlashtiruvchi savol

(“What exactly do you mean by working capital in this context?”) strategiyalari qo‘llanadi.

5-topshiriq. “Xalqaro savdo” moduli, kasbiy vaziyatda produktiv muloqot bosqichi, B2.

Topshiriq sharti:

> Negotiation. Student A is the export manager of an Uzbek fruit-processing company; Student B is the purchasing manager of a European retailer. Read your confidential role card. You must agree on the price, the volume discount, the payment terms and the delivery date. The buyer prefers payment 60 days after delivery; the supplier wants payment by letter of credit. Reach an agreement that both sides can accept and then confirm it in a short email.

Iqtisodiy terminlar: quotation (narx taklifi), volume discount (hajm bo‘yicha chegirma), payment terms (to‘lov shartlari), letter of credit (akkreditiv), delivery date (yetkazib berish sanasi), Incoterms (Inkoterms qoidalari, retseptiv qatlam).

Kutilgan natija: talaba o‘z pozitsiyasini dalillar bilan asoslaydi, shartli taklif kiritadi (“We could offer a volume discount if you agree to a letter of credit”), rad javobini yumshatadi, kelishuvni yakunlaydi va uni rasmiy xatda tasdiqlaydi.

6-topshiriq. “Buxgalteriya hisobi va audit” moduli, kasbiy vaziyatda produktiv muloqot bosqichi, B2.

Topshiriq sharti:

> Presentation. You are the finance manager. Prepare a three- to four-minute presentation of the quarterly results for the board of directors. Use two slides with a chart. Explain the changes in revenue, gross margin, net profit and cash flow, give reasons for the changes and make one recommendation. Be ready to answer two questions from the board.

Iqtisodiy terminlar: revenue (tushum), gross margin (yalpi marja), net profit (sof foyda), cash flow (pul oqimi), operating costs (operatsion xarajatlar), forecast (prognoz).

Kutilgan natija: talaba taqdimotni kirish, asosiy qism va xulosadan iborat izchil tuzilmada o‘tkazadi, ko‘rsatkichlar o‘zgarishining sababini asoslaydi, savolga aniq va muloyim javob beradi; topshiriq BEC va Linguaskill Business og‘zaki qismidagi taqdimot topshiriqlari turiga mos keladi.

7-topshiriq. “Xalqaro savdo” moduli, kasbiy vaziyatda produktiv muloqot bosqichi, B2.

Topshiriq sharti:

> Business correspondence. A customer has complained that the last shipment arrived two weeks late and that part of the goods was damaged. Write a reply of not less than 180 words. Apologise, explain the reasons for the delay, offer

compensation (a credit note or a discount on the next order) and describe the measures your company will take to avoid similar problems.

Iqtisodiy terminlar: shipment (yuk jo‘natmasi), delivery (yetkazib berish), credit note (kredit-nota), discount (chegirma), invoice (hisob-faktura), terms and conditions (shartnoma shartlari).

Kutilgan natija: talaba shikoyatga javob xatining janr tuzilmasini (murojaat, uzr, izoh, kompensatsiya, kelgusidagi choralar, yakuniy formula) saqlaydi, rasmiy registrda yozadi va terminni aniq qo‘llaydi; topshiriq Linguaskill Business yozma qismining ikkinchi topshirig‘i va TOEIC Writing qismidagi yozma so‘rovga javob topshirig‘iga mos keladi.

8-topshiriq. “Menejment” moduli, kasbiy vaziyatda produktiv muloqot bosqichi, B2.

Topshiriq sharti:

Meeting and case discussion. Your company plans to enter the Kazakh market. The board is considering two options: a joint venture with a local distributor or the acquisition of a small local competitor. In groups of four, hold a meeting. The chair opens the meeting, presents the agenda and manages the discussion; the other participants present the advantages and risks of each option. At the end, agree on a decision and write short minutes.

Iqtisodiy terminlar: joint venture (qo‘shma korxona), acquisition (sotib olish), merger and acquisition (qo‘shib olish va sotib olish), stakeholder (manfaatdor tomon), SWOT analysis (SWOT-tahlil), due diligence (har tomonlama tekshiruv, retseptiv qatlam), agenda (kun tartibi).

Kutilgan natija: rais kun tartibini izchil boshqaradi (“Let’s move on to the next item on the agenda”), ishtirokchilar pozitsiyani dalillar bilan bayon etadi va muqobil fikrga muloyim e’tiroz bildiradi, guruh asoslangan qaror qabul qiladi va bayonnoma tuzadi; topshiriq BEC og‘zaki qismidagi hamkorlikdagi muhokama topshirig‘iga yaqinlashadi.

Mustaqil kasbiy-kommunikativ faoliyat bosqichining maqsadi – iqtisodiy terminlardan notanish va murakkab kasbiy vaziyatlarda mustaqil, tanqidiy va ijodiy foydalanish, o‘z muloqot faoliyatini baholash va terminologik lug‘atni mustaqil to‘ldirish. Bu bosqichda barcha besh komponent integratsiyalanadi, motivatsion-refleksiv komponent esa yetakchi ahamiyat kasb etadi. A.A.Verbitskiy ajratgan o‘quv-kasbiy faoliyat [188] to‘rt turdagi topshiriq orqali amalga oshadi. Loyiha topshirig‘ida kichik guruh bir necha mashg‘ulot davomida autentik manbalar asosida kasbiy mahsulot – bozor tahlili, eksport rejasi yoki investitsiya taklifini yaratadi. Biznes-reja taqdimotida guruh investorlar hay’ati oldida loyihani himoya qiladi va moliyaviy ko‘rsatkichlar bo‘yicha savollarga javob beradi. Simulyatsiyada bir necha kasbiy vaziyat – yig‘ilish, muzokara, xat va telefon suhbati – yagona syujetda birlashadi va talaba rol ichida uzluksiz harakat qiladi. Debatda talabalar iqtisodiy siyosat masalasi

bo‘yicha qarama-qarshi pozitsiyalarni himoya qiladi. Tayanch bu bosqichda berilmaydi, biroq topshiriqdan so‘ng J.Uillis tavsiya etgan til shakliga e’tibor bosqichi [175] o‘tkaziladi: talabalar nutq yozuvidan eng ko‘p uchragan terminologik va pragmatik xatolarni ajratib, ularni tuzatadi.

9-topshiriq. “Moliya va bank ishi” moduli, mustaqil kasbiy-kommunikativ faoliyat bosqichi, B2+ – C1.

Topshiriq sharti:

> Project and business plan presentation. In groups of three, develop a business plan for a small agricultural start-up in your region. Research the market, prepare a cash flow forecast and calculate the break-even point and the expected return on investment. Present the plan to a panel of “investors” (five minutes) and answer their questions. Submit a one-page executive summary and add your presentation, the recording and a self-assessment to your terminological portfolio.

Iqtisodiy terminlar: business plan (biznes-reja), start-up (startap), cash flow forecast (pul oqimi prognozi), break-even point (zararsizlik nuqtasi), return on investment (investitsiya rentabelligi), venture capital (venchur kapitali), target market (maqsadli bozor).

Kutilgan natija: guruh kasbiy mahsulot yaratadi, hisob-kitoblarni aniq terminlar bilan izohlaydi, investorlar savoliga asoslangan javob beradi; har bir talaba rubrika asosida o‘z hissasini baholaydi va lug‘atiga kamida beshta yangi terminni kiritadi.

10-topshiriq. “Makroiqtisodiyot” moduli, mustaqil kasbiy-kommunikativ faoliyat bosqichi, C1.

Topshiriq sharti:

> Debate. Motion: “This house believes that the central bank should raise interest rates to curb inflation, even at the cost of slower economic growth.” Two teams of three students prepare arguments for and against the motion using recent statements of central banks and economic news. Each speaker has two minutes; then the teams ask each other questions. After the debate, write a 250-word analytical report summarising the strongest arguments of both sides.

Iqtisodiy terminlar: interest rate (foiz stavkasi), to curb inflation (inflyatsiyani jilovlamoq), economic growth (iqtisodiy o‘sish), monetary tightening (pul-kredit siyosatini qat’iylashtirish), unemployment rate (ishsizlik darajasi), stagflation (stagflyatsiya).

Kutilgan natija: talaba argumentni dalil va qarshi dalil bilan quradi, raqib pozitsiyasini aniq eshitib, raddiya beradi, murakkab iqtisodiy tushunchalarni aniq va moslashuvchan qo‘llaydi, tahliliy hisobotda ikkala tomon dalillarini xolis umumlashtiradi.

Ishlab chiqilgan mashqlar tizimi bosqichlar, mashq turlari, ular orqali rivojlantiriladigan muloqot komponenti, topshiriq namunasi va kutilgan natija kesimida 3.2-jadvalda umumlashtiriladi.

3.2-jadval

Iqtisodiy terminlar asosida muloqot kompetensiyalarini rivojlantiruvchi mashqlar va topshiriqlar tizimi

Bosqich	Mashq va topshiriq turi	Rivojlantiriladigan muloqot komponenti	Topshiriq namunasi	Natija
Terminni tanishtirish va anglash bosqichi	Terminni kontekstdan aniqlash; ta’rif bilan moslashtirish	Iqtisodiy-terminologik	1-topshiriq: yillik hisobot parchasidan “revenue”, “net profit”, “depreciation”, “accounts receivable” terminlarini aniqlash va ta’rifga moslashtirish	Terminni tanib oladi, ma’nosini kontekst asosida izohlaydi
	O‘zbekcha muqobilni topish va farqlash; terminologik xarita	Iqtisodiy-terminologik; motivatsion-refleksiv	“interest” (foiz / manfaat), “share” (aksiya / ulush); “balance sheet” – “assets” – “liabilities” – “equity” xaritasi	Ekvivalentlik turini aniqlaydi, terminni terminosistemaga joylashtiradi; shaxsiy glossariy tuziladi
	So‘z yasalishi va kollokatsiyalar bilan ishlash	Iqtisodiy-terminologik; lingvopragmatik	2-topshiriq: “inflation – inflationary – disinflation”; “to curb inflation”, “to gain market share”, “to issue an invoice”	Terminlar uyasini tiklaydi, barqaror kollokatsiyani o‘z gapida to‘g‘ri qo‘llaydi
Termin asosida reproduktiv muloqot bosqichi	Namuna asosida dialog; telefon suhbati	Lingvopragmatik; iqtisodiy-terminologik	3-topshiriq: bankka kredit bo‘yicha qo‘ng‘iroq (“loan”, “interest rate”, “collateral”, “repayment schedule”)	Standart vaziyatda suhbatni boshlaydi, ma’lumot so‘raydi va rasmiy registrda yakunlaydi (B1)
	Iqtisodiy grafik va jadvalni tavsiflash; qisqa axborot	Lingvopragmatik; diskursiv-strategik	4-topshiriq: “inflation rate” va “interest rate” dinamikasi bo‘yicha bir daqiqalik axborot	Tendensiya va sabab-oqibat qoliplarini to‘g‘ri tanlaydi, ko‘rsatkichlarni qiyoslaydi (B1+)
Kasbiy vaziyatda produktiv muloqot bosqichi	Muzokara; tasdiqlovchi xat	Diskursiv-strategik; madaniyatlararo-kasbiy	5-topshiriq: “payment terms”, “volume discount”, “letter of credit” bo‘yicha eksportchi	Pozitsiyani asoslaydi, shartli taklif kiritadi, rad javobini yumshatadi,

			va xaridor muzokarasi	kelishuvni xatda tasdiqlaydi (B2)
	Taqdimot; biznes yozishma	Diskursiv-strategik; lingvopragmatik; madaniyatlararo-kasbiy	6-topshiriq: chorak natijalari taqdimoti (“gross margin”, “cash flow”); 7-topshiriq: shikoyatga javob xati (“credit note”, “shipment”)	Nutqni izchil tuzadi, savolga javob beradi; janr me’yoriga mos rasmiy xat yozadi (B2)
	Yig‘ilish; keys muhokamasi; telefon orqali aniqlashtirish	Diskursiv-strategik; madaniyatlararo-kasbiy	8-topshiriq: “joint venture” yoki “acquisition” tanlovi bo‘yicha yig‘ilish, bayonnoma	Kun tartibini boshqaradi, e’tiroz bildiradi, asoslangan qaror qabul qiladi (B2)
Mustaqil kasbiy-kommunikativ faoliyat bosqichi	Loyiha; biznes-reja taqdimoti; simulyatsiya	Barcha besh komponent integratsiyasi; motivatsion-refleksiv	9-topshiriq: startap biznes-rejasi (“cash flow forecast”, “break-even point”, “return on investment”) va investorlar oldida himoya	Kasbiy mahsulot yaratadi, o‘z hissasini rubrika asosida baholaydi, portfolioni to‘ldiradi (B2+)
	Debat; tahliliy hisobot	Diskursiv-strategik; motivatsion-refleksiv	10-topshiriq: “to curb inflation” va “economic growth” bo‘yicha debat hamda tahliliy hisobot	Argument va raddiyani quradi, murakkab tushunchalarni aniq va moslashuvchan qo‘llaydi (C1)

3.2-jadval ma’lumotlari tizimning uchta xususiyatini ko‘rsatadi. Birinchidan, mashq turlari terminologik-kommunikativ mashqdan kasbiy-kommunikativ topshiriqqa qarab harakatlanadi va har bir keyingi bosqich oldingi bosqichda yaratilgan til tayanchidan foydalanadi: 1-topshiriqda to‘ldirilgan “cash flow” kartochkasi 6-topshiriqdagi taqdimotda va 9-topshiriqdagi biznes-rejada faol qo‘llanadi. Ikkinchidan, ustuvor komponent bosqichdan bosqichga o‘zgaradi, biroq birorta komponent jarayondan chiqib ketmaydi: madaniyatlararo-kasbiy komponent reproduktiv bosqichda registr tanlash orqali, motivatsion-refleksiv komponent esa birinchi bosqichdan boshlab shaxsiy glossariy orqali rivojlanadi. Uchinchidan, topshiriqlar natijasi tildan tashqari mahsulot – kartochka, axborot, kelishuv, xat, qaror, biznes-reja – sifatida ifodalangan; bu esa R.Ellis topshiriqqa qo‘ygan aniq natija talabini [107] iqtisodiy terminlar materialida bajaradi va natijaviy-baholash blokidagi ko‘rsatkichlar bilan bevosita solishtirish imkonini beradi.

Mashqlarning muloqot kompetensiyasi komponentlari bilan bog‘liqligi quyidagicha namoyon bo‘ladi. Iqtisodiy-terminologik komponent kontekstdan aniqlash, ta’rif bilan moslashtirish, o‘zbekcha muqobilni farqlash, so‘z yasalishi, kollokatsiya va terminologik xarita mashqlari orqali rivojlanadi va lingvistik-

terminologik mezon koʻrsatkichlari – terminologik minimumni bilish hajmi, tushunchani izohlash, muqobilni toʻgʻri tanlash va kollokatsion toʻgʻrilik – orqali baholanadi. Lingvopragmatik komponent namunaviy dialog, telefon suhbati, standart xat va registr tanlash mashqlarida shakllanadi. Diskursiv-strategik komponent taqdimot, yigʻilish, keys va debat topshiriqlarida, xususan nutqni tarkibiy belgilar bilan tuzish, muloqotni boshlash, rivojlantirish va yakunlash hamda parafraza va aniqlashtiruvchi savol orqali kompensatsiya qilish harakatlarida rivojlanadi. Madaniyatlararo-kasbiy komponent muzokara va yozishma topshiriqlarida yumshatilgan rad javobi, rasmiylik darajasi va janr me'yorlariga rioya qilish orqali shakllanadi. Motivatsion-refleksiv komponent shaxsiy glossariy, nutq yozuvini tahlil qilish, rubrika asosida oʻz-oʻzini baholash va terminologik portfolio orqali rivojlantiriladi. Shu tariqa kommunikativ-faoliyat mezoni va pragmatik-strategik mezon koʻrsatkichlari ham mashqlar tizimida oʻziga mos topshiriq turiga ega boʻladi.

Mashq va topshiriqlar CEFR qoʻshimcha jildidagi harakatga yoʻnalgan deskriptorlar bilan muvofiqlashtiriladi. Terminni tanishtirish va anglash bosqichidagi mashqlar lugʻat koʻlami va lugʻatni nazorat qilish shkalalari hamda axborot olish uchun oʻqish shkalasiga tayanadi; B1 darajasida talaba oʻz sohasidagi tanish mavzuda yetarli lugʻatga ega boʻlishi va tanish boʻlmagan soʻz ma'nosini kontekstdan aniqlay olishi moʻljallanadi. Termin asosida reproduktiv muloqot bosqichidagi mashqlar axborot almashish, uzluksiz monolog shaklida axborot berish, telekommunikatsiya vositalaridan foydalanish hamda mediatsiya shkalasidagi grafik va diagrammalardagi ma'lumotni ogʻzaki izohlash deskriptorlariga mos keladi. Kasbiy vaziyatda produktiv muloqot bosqichidagi topshiriqlar auditoriya oldida chiqish, maqsadga yoʻnaltirilgan hamkorlik, rasmiy muhokama va yigʻilishlar, yozishma, kompensatsiya va aniqlashtirish soʻrash shkalalarining B2 deskriptorlariga tayanadi: talaba tayyorlangan taqdimotni aniq tuzilmada oʻtkazadi, nuqtayi nazarni dalillar bilan asoslaydi va muzokarada oʻz manfaatini himoya qilgan holda kelishuvga erishadi. Mustaqil kasbiy-kommunikativ faoliyat bosqichidagi topshiriqlar hisobot va esselar, uzluksiz monolog shaklida dalil keltirish hamda hamkorlikdagi oʻzaro ta'sirni muvofiqlashtirish shkalalarining B2+ va C1 deskriptorlariga mos keladi. Shu tariqa CEFR deskriptorlari mashqlar tizimida faqat yakuniy moʻljal sifatida emas, balki har bir topshiriqning kutilgan natijasini ifodalash vositasi sifatida qoʻllanadi.

Topshiriq turlari Business English boʻyicha xalqaro imtihonlar formatlari bilan ham muvofiqlashtiriladi. BEC sertifikatlari ish joyidagi yozishma, hisobot, taqdimot va hamkorlikdagi muhokama topshiriqlari orqali kasbiy muloqotni baholaydi; 6-topshiriqdagi taqdimot va 8-topshiriqdagi yigʻilish bu formatlarga yaqinlashtirilgan. Linguaskill Business natijani CEFR darajalari boʻyicha qayd etadi, ogʻzaki qismida vizual ma'lumot asosidagi taqdimotni, yozma qismida elektron xat va kengroq yozma matnni oʻz ichiga oladi; 4-topshiriqdagi grafik tavsifi va 7-topshiriqdagi javob xati shu

topshiriqlar turiga mos tuzilgan. TOEIC dasturi ish joyidagi muloqotga oid tinglash, o‘qish, gapirish va yozish ko‘nikmalarini baholaydi; 3-topshiriqdagi telefon suhbati va 7-topshiriqdagi yozma javob uning kasbiy-maishiy vaziyatlariga yaqin. Bu muvofiqlik talaba tajribasini xalqaro sertifikatlash sharoitiga ko‘chirishni osonlashtiradi.

Mustaqil ta’lim topshiriqlari mashqlar tizimining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. N.M.Ashurova kredit-modul tizimida mustaqil ta’lim soatlari auditoriya soatlaridan ko‘p bo‘lishini, ta’limda tinglab tushunish, gapirish va kasbiy-sohaviy mashqlarga asosiy e’tibor qaratilishini, shu bilan birga mustaqil ish turlari amaliyotda hali yetarli darajada ommalashmaganini qayd etadi [77]. Nofilologik yo‘nalishlar uchun “Xorijiy til” fani dasturida mustaqil ishlar amaliy mashg‘ulotlarda olingan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlashga qaratilishi, topshiriqlar mashg‘ulot mavzusidan kelib chiqishi hamda loyiha, taqdimot, munozara, yozishma va autentik matnlarni o‘qishni qamrab olishi belgilangan. 60410800 – Menejment ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasida “Xorijiy til” faniga ajratilgan 180 soatlik mustaqil ta’lim oltita modulga taqsimlanganda har bir modulga 30 soat to‘g‘ri keladi. Bizningcha, bu hajm auditoriya mashg‘ulotlaridan ajralgan holda emas, balki har bir topshiriq atrofida qurilgan zanjir sifatida tashkil etilgandagina kasbiy muloqotga tayyorgarlik vositasiga aylanadi.

Tadqiqotimizda mustaqil ta’lim topshiriqlari uch turga ajratiladi. Oldindan tayyorlovchi topshiriqlar auditoriya mashg‘ulotidan oldin bajariladi: talaba modulning terminologik kartochkalarini elektron glossariyda o‘rganadi, autentik matn yoki video materialni o‘qiydi yoki ko‘radi, terminni kontekstdan aniqlash mashqini mustaqil bajaradi va rolli kartochkadagi ma’lumotni tayyorlaydi. Bu topshiriqlar auditoriyada terminni tanishtirishga sarflanadigan vaqtni qisqartirib, “teskari sinf” mantig‘ida auditoriya vaqtini muloqot topshiriqlariga bo‘shatadi. Mustahkamlovchi topshiriqlar auditoriyada bajarilgan topshiriqdan keyin keladi: muzokaradan so‘ng kelishuvni tasdiqlovchi xat yozish, taqdimotning audio yoki video yozuvini tinglab, terminologik va pragmatik xatolarni belgilash, axborot bo‘shlig‘i mashqida to‘ldirilgan jadval asosida yozma xulosa tayyorlash. Ijodiy-tadqiqot topshiriqlari modul davomida bajariladi: mini-loyiha, korpus yoki autentik matnlardan terminning kollokatsiyalarini topish va kartochkani to‘ldirish, mutaxassislik fanidagi mavzu bo‘yicha ingliz tilidagi manbalardan qisqa sharh tayyorlash. Uchala turning mahsuli terminologik portfolioga kiritiladi, portfolio esa pragmatik-strategik mezonning o‘z muloqot faoliyatini kuzatish va baholash ko‘rsatkichi bo‘yicha baholashning asosiy vositasiga aylanadi.


Auditoriya va mustaqil ta’lim o‘rtasidagi uzviylik “mustaqil tayyorlov – auditoriya topshirig‘i – mustaqil mustahkamlash – keyingi auditoriya topshirig‘i” zanjiri orqali ta’minlanadi. Masalan, “Xalqaro savdo” modulida talaba uyda narx taklifi xatining namunasini o‘qib, “quotation”, “payment terms”, “letter of credit” terminlari kartochkalarini to‘ldiradi; auditoriyada 5-topshiriqdagi muzokarani o‘tkazadi; uyda kelishuvni tasdiqlovchi xat yozadi va muzokara yozuvidan o‘zi qo‘llagan formulalarni

ajratadi; keyingi mashg‘ulotda esa 7-topshiriqdagi shikoyatga javob xatini yozishda bu formulalardan foydalanadi. Bunday zanjirda mustaqil ta’lim auditoriya mashg‘ulotining takrori emas, balki uning davomi bo‘ladi: har bir mustaqil topshiriq yo auditoriya topshirig‘ining til tayanchini yaratadi, yo uning mahsulini kasbiy shaklga keltiradi. Shu tariqa topshiriqqa asoslangan faollik va hamkorlik tamoyili auditoriyada, refleksiv-baholovchi avtonomlik tamoyili esa mustaqil ta’limda yetakchilik qiladi, ikkala tamoyil yagona jarayonni tashkil etadi.

Mashqlar tizimining yaxlit tuzilmasi 3.2-rasmda ifodalanadi. Sxemaning yuqorisida mazmuniy blok joylashgan bo‘lib, undan chiquvchi strelkalar chapdan o‘ngga ketma-ket joylashtirilgan to‘rt bosqichga yo‘naladi; har bir bosqich ostida unga xos mashq va topshiriq turlari berilgan. Kulrang tasmada tayanch hajmining kamayishi va CEFR mo‘ljalining B1 dan B2+ va C1 gacha siljishi, undan pastdagi tasmada esa bosqichlar bilan ikki tomonlama bog‘langan mustaqil ta’lim zanjiri ko‘rsatilgan.

Sxemaning pastki qismida muloqot kompetensiyasining besh komponenti – iqtisodiy-terminologik, lingvopragmatik, diskursiv-strategik, madaniyatlararo-kasbiy va motivatsion-refleksiv komponentlar – joylashgan bo‘lib, ular mashqlar tizimining natijasini ifodalaydi. Eng pastda natijaviy-baholash bloki va uning uchta mezoni berilgan; sxemaning o‘ng chetidagi uzuq chiziqli strelka natijaviy-baholash blokidan mazmuniy blokka qaytuvchi teskari aloqani ko‘rsatadi: diagnostika natijasiga ko‘ra keyingi moduldagi mashqlar hajmi, tayanch darajasi va terminologik klasterlar tarkibi korreksiya qilinadi.

Paragraf yuzasidan quyidagi umumlashma chiqariladi. Olimlar qarashlari tahlili mashq va topshiriqni farqlab, ularni kommunikativlik darajasi ortib boradigan yagona ketma-ketlikka joylashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Shu asosda uch tushunchaning ishchi ta’riflari kiritiladi, tizimga oltita talab belgilanadi va besh asosli mualliflik tasnifi ishlab chiqiladi.



3.2-rasm. Iqtisodiy terminlar asosida muloqot kompetensiyalarini rivojlantiruvchi mashqlar va topshiriqlar tizimi

Mashqlar tizimi to‘rt bosqich bo‘yicha terminologik-kommunikativ mashqlardan mustaqil kasbiy-kommunikativ topshiriqlargacha tuziladi va ingliz tilidagi topshiriq namunalari bilan ta’minlanadi.

Mashq turlari besh komponent, CEFR deskriptorlari va xalqaro imtihon formatlari bilan muvofiqlashtiriladi, mustaqil ta’lim topshiriqlari auditoriya topshiriqlari bilan yagona zanjirga birlashtiriladi. Tizim 3.3-§ dagi interfaol metodlar va raqamli texnologiyalar asosida kasbiy muloqot vaziyatlarini modellashtirish uchun asos bo‘ladi.

3.3-§. Interfaol va raqamli vositalar asosida ingliz tili mashg‘ulotlarida muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish

Iqtisodiy terminologik minimum va mashqlar tizimi muloqot kompetensiyasining mazmuniy va operatsional asosini yaratadi, biroq termin talabaning kasbiy nutqiga aylanishi uchun mashg‘ulotda taqdimot, muzokara, biznes yozishma, yig‘ilish va telefon orqali muloqot vaziyatlari qayta yaratilishi, talaba esa ularda haqiqiy kasbiy vazifani hal etishi lozim. Bu vazifani interfaol va raqamli vositalar bajaradi. Mazkur paragrafda 2.3-§ da asoslangan modelning jarayoniy-texnologik bloki va natijaviy-baholash bloki mashg‘ulot darajasida ro‘yobga chiqariladi, bu esa uchinchi shart-sharoit – kasbiy muloqot vaziyatlarini modellashtiruvchi interfaol va raqamli ta’lim muhitini yaratishning amaliy ifodasidir. Vositalar tasodifiy emas, balki to‘rtta mezon asosida tanlanadi. Birinchi mezon – komponentga xizmat qilish: vosita muloqot kompetensiyasining muayyan komponentini, masalan, iqtisodiy-terminologik komponentni yoki diskursiv-strategik komponentni rivojlantirishga aniq yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Ikkinchi mezon – kasbiy vaziyatga moslik: vosita iqtisodiyot mutaxassisining tipik muloqot vaziyatini va uning janrini qayta yaratishi lozim. Uchinchi mezon – bosqichga moslik: vosita muloqot kompetensiyasini rivojlantirishning to‘rt bosqichidan birida tayanch hajmi va CEFR mo‘ljaliga muvofiq qo‘llanadi. To‘rtinchi mezon – natija dalilini berish: vosita yozuv, xat, bayonnoma, hisobot yoki baholash varaqasi kabi natijaviy-baholash bloki uchun kuzatiladigan mahsulot qoldirishi kerak.

Interfaol vositalarning nazariy asosi sifatida to‘rtta yondashuv olinadi. Kontekstli o‘qitish nazariyasida A.A.Verbitskiy o‘quv faoliyati mazmuni kelgusidagi kasbiy faoliyatning predmet va ijtimoiy kontekstini aks ettirishi kerakligini asoslaydi va o‘qitish shakllarini akademik faoliyatdan kvazikasbiy faoliyatga, undan o‘quv-kasbiy faoliyatga izchil o‘tuvchi ketma-ketlik sifatida tuzadi [188]. Ye.I.Passov vaziyatni muloqot subyektlari o‘rtasidagi munosabatlar tizimi sifatida ko‘radi va o‘qitishni nutqiy vaziyat asosida tashkil etishni talab qiladi [215]. N.Ye.Veraksa kichik guruh va rolli o‘yin shakllarini ijodiy fikrlash, kommunikativ ko‘nikmalar va mustaqil qaror qabul qilishni shakllantirishning muhim vositasi, simulyatsiyani esa talabani real hayotiy vaziyatlarga tayyorlovchi samarali shakl deb biladi [53; 123-b.]. L.I.Agafonova “teskari sinf” texnologiyasi talabalar o‘rtasida dialog va muhokama faoliyatini kuchaytirishini [52; 338-b.], Ye.V.Kulikova esa loyiha metodi va portfolio texnologiyasini birga qo‘llash chet tilidagi kompetensiyani shakllantirishga xizmat qilishini va portfolio talabaning tilga nisbatan mustaqil yondashuvini kuchaytirishini ko‘rsatadi [59; 125-b.]. N.D.Galskova axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o‘quv jarayonini individuallashtirish va tabaqalashtirish imkonini berishini ta’kidlaydi [190].

Topshiriqqa asoslangan o‘qitish nazariyasida R.Ellis topshiriqning tildan tashqari aniq natijaga ega bo‘lishini va ta’lim oluvchidan ma’no ifodalash uchun o‘z

til resurslarini safarbar etishni talab qilishini asoslaydi [107]. D.Nunan maqsadli, ya'ni real hayotdagi topshiriqlarni pedagogik topshiriqlardan farqlaydi va pedagogik topshiriq tarkibida maqsad, kirish materiali, faoliyat tartibi, o‘qituvchi va ta'lim oluvchi roli hamda sharoitni ajratadi [146]. J.Uillis topshiriq oldi bosqichi, topshiriq sikli va til shakliga e'tibor bosqichidan iborat tuzilmani taklif etadi [175]. D.Koyl, P.Xud va D.Marsh CLIL ni mazmun, muloqot, bilish va madaniyat birligida quradi [97]. K.Jons simulyatsiyani o‘qitiladigan emas, balki ishtirokchilar shakllantiradigan voqea sifatida ta'riflaydi: simulyatsiyada vazifa real bo‘ladi, ishtirokchilar tuzilmalangan vaziyatda muammoni hal etadi va qaror qabul qiladi, o‘qituvchi esa uni boshlab beradi, biroq qarorga aralashmaydi [122]. A.Almagro Esteban va M.L.Peres Kanyado keys metodini Business English mashg‘ulotlarida samarali qo‘llash shartlarini tajriba asosida tadqiq etadi [14].

Xorijiy va MDH olimlari qarashlaridagi umumiylik shundaki, ular talaba faoliyatining natijasini tildan tashqari mahsulot deb biladi va o‘qituvchini nazoratchidan tashkilotchi va maslahatchiga aylantiradi. Farq e'tibor obyektida ko‘rinadi: A.A.Verbitskiy kasbiy faoliyat mazmunini, Ye.I.Passov muloqot subyektlari munosabatini, R.Ellis va D.Nunan topshiriq tuzilmasini, D.Koyl va hammualliflari fan mazmuni va til birligini, K.Jons esa vaziyatning ishtirokchilar harakati bilan rivojlanishini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Iqtisodiy terminlar uchun bu jihatlar ajralmas: bank bilan kredit bo‘yicha muzokarada kasbiy mazmun ("collateral", "repayment schedule"), rollar munosabati (mijoz va kredit mutaxassisi), topshiriq natijasi (kelishuv va tasdiqlovchi xat) va mutaxassislik fanidagi tushuncha (pul oqimi) bir vaqtda hisobga olingandagina vaziyat kasbiy tabiatini saqlaydi.

Milliy tadqiqotlarda interfaol vositalar muloqot va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning asosiy sharti sifatida qaraladi. D.A.Usarova keys muhokamasini nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzilishni bartaraf etuvchi, vaziyatni tahlil qilish va fikrni aniq ifodalash qobiliyatini rivojlantiruvchi texnologiya, rolli o‘yinlarni esa ijobiy hissiy muhit va muloqot amaliyotini yaratuvchi vosita deb biladi [171]. B.B.Tangatov rolli o‘yinni kasbiy muloqot kontekstida rolga kirishish va kommunikativ vaziyatlarni qayta yaratish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi mashq sifatida, axborot bo‘shlig‘i topshirig‘ini esa muloqotga zaruratni sun'iy ravishda yuzaga keltiruvchi faoliyat sifatida tavsiflaydi [168]. M.B.Shodiyev turli kasbiy vaziyatlarda muloqot qilish ko‘nikmasini rivojlantirishda muammoli vaziyat, topshiriqqa asoslangan o‘qitish, keys-stadi, hamkorlikda o‘qitish va rolli o‘yinlarni birga qo‘llaydi, raqamli vositalarni esa ko‘p kanalli axborot uzatish, avtomatik baholash va mustaqil o‘rganishni rag‘batlantirish vositasi sifatida ko‘radi [164]. G.B.Prenova o‘qitish vositalarini an'anaviy, texnik, axborot-kommunikatsiya va innovatsion guruhlarga ajratadi va "teskari sinf", til portfoliosi hamda hamkorlikda o‘rganishni gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishning asosiy texnologiyalari deb biladi

[150]. G.X.Eshchanova “teskari sinf” modelida talaba mustaqil o‘rganish jarayonida til materiali bilan chuqurroq tanishishi natijasida og‘zaki muloqotda ishonch va faollik ortishini ko‘rsatadi [108; 24-b.]. N.F.Yigitaliyeva simulyatsion muhitni til o‘rganish va mutaxassislik amaliyoti o‘rtasidagi “didaktik ko‘prik” sifatida ta’riflaydi [50]. U.A.Murodova axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosidagi ta’limning interfaollik, individuallashtirish, moslashuvchanlik, motivatsiya va monitoring kabi afzalliklarini ajratadi [140]. U.G.Porsayev CLIL, loyihaga asoslangan ta’lim va keys-stadi metodlarini integratsiyalagan holda o‘qitishni tavsiya etadi [149], N.M.Ashurova esa Wordwall va Kahoot platformalarini lug‘at boyligini mustahkamlash va ichki motivatsiyani oshirish vositasi sifatida tavsiflaydi [77].

Milliy olimlar interfaol va raqamli vositalarni muloqot kompetensiyasini rivojlantirishning zaruriy sharti deb bilishda yakdil. Biroq tahlil qilingan ishlarda vositalar ko‘proq ro‘yxat shaklida beriladi: ularning har biri qaysi kasbiy muloqot vaziyatini, qaysi terminologik mazmunni va muloqot kompetensiyasining qaysi komponentini rivojlantirishi, qaysi natija orqali baholanishi aniq belgilanmagan. Tadqiqotimizda har bir interfaol vosita kasbiy muloqot vaziyati, iqtisodiy terminologik klaster, ustuvor komponent va baholash shakli bilan birga loyihalanadi, raqamli vosita esa rivojlantirish bosqichidagi aniq didaktik funksiyasi bo‘yicha tanlanadi. Interfaol vosita vaziyatni yaratadi, raqamli vosita esa uning makonini, til tayanchini va natija izini ta’minlaydi.

Har bir interfaol vosita uchun vaziyat ssenariysi tuziladi. Ssenariy sakkiz elementni qamrab oladi: kasbiy kontekst (kompaniya, bozor, holat), ishtirokchilar va rollar, har bir ishtirokchining kasbiy maqsadi, manfaatlar yoki axborot bo‘shlig‘i, janr, muloqot kanali (yuzma-yuz, telefon, videokonferensiya, elektron pochta, LMS), terminologik klaster va kutilgan mahsulot. Ssenariy 3.1-jadvaldagi modul va unga biriktirilgan vaziyatdan kelib chiqadi, til tayanchi esa 3.2-§ dagi mashqlardan olinadi. Shu tariqa kasbiy-vaziyatli kontekstuallik tamoyili har bir mashg‘ulotda amalga oshadi, 2.2-§ da uchinchi shart-sharoit uchun belgilangan ko‘rsatkich – har bir modulning vaziyat ssenariysi bilan ta’minlanganligi – esa shu hujjat orqali tekshiriladi.

Keys-stadi kasbiy vaziyatda produktiv muloqot bosqichida yetakchi o‘rin tutadi. Uning maqsadi – autentik iqtisodiy muammoni tahlil qilish, muqobil yechimlarni iqtisodiy terminlar vositasida qiyoslash va guruh qarorini asoslash orqali diskursiv-strategik komponent va iqtisodiy-terminologik komponentni rivojlantirish. Keys kompaniyaning haqiqiy bozor holati asosida tuziladi: o‘qituvchi kompaniyaning ochiq yillik hisoboti, moliyaviy matbuotdagi maqolalar va soha sharhidan parchalar tanlab, ularni 600–800 so‘zlik matnga birlashtiradi; raqamlar va faktlar manbadan o‘zgarishsiz olinadi. “Market Leader” qo‘llanmasidagi bo‘lim yakunidagi keyslar bunday materialning janr namunasi vazifasini bajaradi. Keys besh bosqichda ishlanadi: oldindan tayyorgarlik (talaba mustaqil ta’limda keys matnini o‘qiydi va kalit terminlar

kartochkalarini takrorlaydi), muammoni aniqlash (juftlikda “What is the company’s main problem?” savoliga javob tuziladi), guruh tahlili (har bir guruh bitta muqobilni SWOT-tahlil asosida baholaydi), qarorni taqdim etish (guruh vakili ikki daqiqalik tavsiya bilan chiqadi) va refleksiya. O‘qituvchi keysni tayyorlaydi, vaqtni boshqaradi, guruhlar ishini kuzatib, terminologik xatolarni qayd etadi, biroq yechimni taklif qilmaydi; talaba esa ma’lumotni tahlil qiladi, pozitsiyani asoslaydi va guruh qarorini taqdim etadi. Masalan, “Marketing” modulidagi keysda maishiy texnika ishlab chiqaruvchisi qo‘shni mamlakat bozoriga kirish strategiyasini tanlaydi: guruhlar “penetration pricing” (bozorga kirish narxi) va “premium pricing” (yuqori narx strategiyasi), “direct export” (to‘g‘ridan to‘g‘ri eksport) va “joint venture” (qo‘shma korxona) muqobillarini “market share” (bozor ulushi), “target market” (maqsadli bozor) va “break-even point” (zararsizlik nuqtasi) terminlari asosida qiyoslaydi hamda tavsiyani “We recommend entering the market through a joint venture, mainly because it reduces the risk and gives us access to the partner’s distribution network” shaklida asoslaydi.

Rolli o‘yin termin asosida reproduktiv muloqot bosqichida va kasbiy vaziyatda produktiv muloqot bosqichining boshida qo‘llanadi. Uning maqsadi – terminni kollokatsiyasi va muloqot formulasi tarkibida standart vaziyatda qo‘llash va lingvopragmatik komponentni rivojlantirish. O‘yin to‘rt bosqichda o‘tkaziladi: rollar kartochkasini o‘qish va formulalar ro‘yxatini takrorlash; juftlikda o‘yinni o‘tkazish; rollar almashtirilib, o‘yinni takrorlash; kuzatuvchi qaydlari asosida muhokama. O‘qituvchi rollar kartochkasi va formulalar ro‘yxatini tayyorlaydi, talabalar esa rol ichida maqsadga erishadi va kuzatuvchi sifatida sherigining nutqini chek-list bo‘yicha qayd etadi. Masalan, “Buxgalteriya hisobi va audit” modulida telefon suhbatida buxgalter “I’m calling about the outstanding invoice from last month. According to our records, payment was due on the 15th” deb murojaat qiladi, mijoz esa “Could we agree on a new payment date?” shaklida muddatni kelishishni taklif etadi; suhbatda “accounts receivable” (debitorlik qarzi), “invoice” (hisob-faktura), “payment terms” (to‘lov shartlari) va “overdue” (muddati o‘tgan) birliklari faollashadi. N.Ye.Veraksa ta’kidlaganidek [53; 123-b.], rolli o‘yin muloqot ko‘nikmasi va mustaqil qaror qabul qilishni shakllantiradi, rol esa talabani xatodan qo‘rqish hissidan himoya qilib, uchinchi shart-sharoitning psixologik-pedagogik jihatini ta’minlaydi.

Ishbilarmonlik o‘yini bir necha ishtirokchi, bir necha raund va natijani baholash qoidalarini o‘z ichiga oladi. Uning maqsadi – manfaatlari mos kelmaydigan tomonlar o‘rtasida muzokara yoki yig‘ilishni olib borish, qarorni kelishish va diskursiv-strategik komponent hamda madaniyatlararo-kasbiy komponentni rivojlantirish. O‘yin besh bosqichdan iborat: kirish (vaziyat, rollar va baholash mezonlari e’lon qilinadi), tayyorgarlik (guruhlar maxfiy kartochkalar asosida pozitsiya va kelishuvning eng kam maqbul chegarasini belgilaydi), o‘yin raundlari, natijani rasmiylashtirish (bayonnoma

yoki tasdiqlovchi xat) va yakuniy tahlil. O‘qituvchi raundlar orasida “bozor holati” kartochkasi orqali vaziyatni o‘zgartiradi va hakam vazifasini bajaradi. Masalan, “Xalqaro savdo” modulidagi “Export deal” o‘yinida o‘zbekistonlik meva qayta ishlash korxonasi va yevropalik savdo tarmog‘i vakillari uch raundda “quotation” (narx taklifi) va “volume discount” (hajm bo‘yicha chegirma), “letter of credit” (akkreditiv) va “payment terms”, “Incoterms” (Inkoterms qoidalari) va “delivery date” (yetkazib berish sanasi) bo‘yicha kelishadi. Ikkinchi raunddan so‘ng raqobatchining arzonroq taklifi e’lon qilinadi, bu esa shartli taklif (“We could accept payment by letter of credit if you increase the order volume”) va yumshatilgan rad javobi (“I’m afraid that would be difficult for us at this stage”) strategiyalarini faollashtiradi. “Menejment” modulida xuddi shu tuzilma bo‘lim yig‘ilishi shaklida qo‘llanadi: rais kun tartibini boshqaradi (“Let’s move on to the next item on the agenda”), ishtirokchilar “outsourcing” (autsorsing) masalasida pozitsiyani himoya qiladi, kotib bayonnoma tuzadi.

Simulyatsiya mustaqil kasbiy-kommunikativ faoliyat bosqichining asosiy vositasi bo‘lib, bir necha kasbiy vaziyatni yagona syujetda birlashtiradi. Uning maqsadi – talabaning kasbiy rolda uzluksiz harakat qilishi, notanish vaziyatda terminlarni mustaqil tanlashi va qaror qabul qilish jarayonida barcha besh komponentni integratsiyalashi. Simulyatsiya to‘rt bosqichda o‘tkaziladi: brifing (kompaniya profili, rollar va vazifalar LMS da e’lon qilinadi), harakat bosqichi (ichki yig‘ilish, elektron yozishma, telefon suhbati), natijani taqdim etish va debrifing. K.Jons talabiga muvofiq [122] o‘qituvchi simulyatsiyani boshlab beradi va rollar taqsimotini boshqaradi, biroq ishtirokchilar qaroriga aralashmaydi; talaba esa o‘z bo‘limi nomidan ma’lumot tayyorlaydi, hamkasblari bilan kelishadi va natija uchun mas’ul bo‘ladi. Masalan, “Kompaniyada investitsiya qarorini qabul qilish” simulyatsiyasida oziq-ovqat korxonasi yangi qadoqlash liniyasini sotib olish yoki mavjud liniyani modernizatsiya qilish o‘rtasida tanlov qiladi. Moliya bo‘limi “return on investment” (investitsiya rentabelligi), “payback period” (o‘zini qoplash muddati) va “cash flow forecast” (pul oqimi prognozi) ko‘rsatkichlarini, marketing bo‘limi “sales forecast” (sotuv prognozi)ni, ishlab chiqarish bo‘limi esa “operating costs” (operatsion xarajatlar) va “capacity” (ishlab chiqarish quvvati)ni asoslaydi. Simulyatsiya direktorlar kengashi oldidagi investitsiya taqdimoti bilan yakunlanadi: guruh “Our analysis shows that modernisation offers a shorter payback period and lower risk” kabi asoslangan xulosani bayon etadi va savollarga javob beradi.

Loyiha ishi bir modul davomida auditoriya va mustaqil ta’limni birlashtirgan holda bajariladi. Uning maqsadi – autentik manbalar asosida kasbiy mahsulot (biznes-reja, bozor tadqiqoti hisoboti) yaratish va uni himoya qilish orqali motivatsion-refleksiv komponentni va komponentlar integratsiyasini ta’minlash. Ye.V.Kulikova tavsiyasiga muvofiq loyiha portfolio bilan birga yuritiladi [59] va olti bosqichda tashkil etiladi: mavzu va mahsulotni kelishish, til va ma’lumot talablarini aniqlash, ma’lumot

yig‘ish, tahlil va mahsulotni tayyorlash, taqdimot va himoya, refleksiya. O‘qituvchi maslahatchi sifatida oraliq natijalarni ko‘rib chiqadi va til bo‘yicha teskari aloqa beradi, talabalar esa vazifalarni taqsimlaydi va mahsulot uchun birgalikda javob beradi. Masalan, “Marketing” modulidagi “Market research report” loyihasida guruh o‘z shahridagi kofe do‘konlari bozorini o‘rganadi: ingliz tilida “questionnaire” (so‘rovnoma) tuzadi, “customer segment” (mijoz segmenti), “competitor analysis” (raqobatchilar tahlili) va “pricing strategy” (narx strategiyasi) bo‘yicha ma’lumot to‘playdi va hisobotni “Executive summary – Methodology – Findings – Recommendations” tuzilmasida yozadi. “Moliya va bank ishi” modulida 3.2-§ dagi 9-topshiriq asosida startap biznes-rejasi investorlar hay’ati oldida himoya qilinadi.

Debat va muhokama mustaqil kasbiy-kommunikativ faoliyat bosqichida argumentatsiya, pozitsiyani himoya qilish va raddiya berish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Debat rasmiy tuzilmada o‘tkaziladi: tezis e’lon qilinadi, ikki jamoa tayyorlanadi, har bir notiq belgilangan vaqtda chiqadi, jamoalar o‘zaro savol beradi, hakamlar rubrika asosida baholaydi. O‘qituvchi tezisni tanlaydi va vaqtni nazorat qiladi, talabalar esa autentik manbalardan dalil yig‘adi va raqib daliliga javob tuzadi. Masalan, “This house believes that Uzbekistan should reduce customs duties on imported equipment to support domestic producers” tezisi bo‘yicha jamoalar “customs duty” (bojxona boji), “tariff barrier” (tarif to‘sig‘i), “trade deficit” (savdo defitsiti) va “competitiveness” (raqobatbardoshlik) terminlari asosida dalil keltiradi. Muhokama esa “Makroiqtisodiyot” modulida markaziy bank bayonoti asosidagi davra suhbati shaklida o‘tadi: talabalar “monetary policy” (pul-kredit siyosati) va “policy rate” (asosiy stavka) bo‘yicha pozitsiyasini bildiradi. Debat murakkab tushunchalarni aniq va moslashuvchan qo‘llashni talab qilgani uchun C1 mo‘ljaliga va BEC Higher og‘zaki qismidagi hamkorlikdagi muhokama topshirig‘iga yaqinlashadi.

Interfaol vositalarning kasbiy muloqot vaziyatlari, iqtisodiy terminlar, muloqot kompetensiyasi komponentlari va baholash shakllari bilan bog‘liqligi 3.3-jadvalda umumlashtiriladi.

3.3-jadval

Interfaol vositalarning kasbiy muloqot vaziyatlari va muloqot kompetensiyasi komponentlari bilan bog‘liqligi

Interfaol vosita (modul, bosqich)	Kasbiy muloqot vaziyati	Qo‘llanadigan iqtisodiy terminlar	Rivojlantiriladigan komponent	Baholash shakli
Rolli o‘yin (“Buxgalteriya hisobi va audit”, “Moliya va bank ishi”; reproduktiv muloqot bosqichi, B1–B1+)	To‘lanmagan hisob-faktura bo‘yicha telefon suhbati; bankka kredit bo‘yicha murojaat; mijoz so‘roviga javob	accounts receivable – debitorlik qarzi; invoice – hisob-faktura; overdue – muddati o‘tgan; payment terms – to‘lov shartlari; loan – kredit;	Lingvopragmatik komponent (yetakchi); iqtisodiy-terminologik komponent	Kuzatuvchi chek-listi; nutq yozuvi bo‘yicha o‘z-o‘zini baholash

		interest rate – foiz stavkasi		
Keys-stadi (“Marketing”, “Menejment”; produktiv muloqot bosqichi, B2)	Yig‘ilishda muqobillarni muhokama qilish; guruh tavsiyasini taqdim etish	market share – bozor ulushi; target market – maqsadli bozor; penetration pricing – bozorga kirish narxi; joint venture – qo‘shma korxona; break-even point – zararsizlik nuqtasi; SWOT analysis – SWOT-tahlil	Diskursiv-strategik komponent (yetakchi); iqtisodiy-terminologik komponent	Analitik rubrika (taqdimot); guruh yozma tavsiyasi
Ishbilarmonlik o‘yini (“Xalqaro savdo”, “Menejment”; produktiv muloqot bosqichi, B2)	Eksport shartlari bo‘yicha ko‘p raundli muzokara; bo‘lim yig‘ilishi va bayonnoma	quotation – narx taklifi; volume discount – hajm bo‘yicha chegirma; letter of credit – akkreditiv; Incoterms – Inkoterms qoidalari; delivery date – yetkazib berish sanasi; agenda – kun tartibi; outsourcing – autsorsing	Diskursiv-strategik komponent; madaniyatlararo-kasbiy komponent	Kelishuv natijasi; rubrika (muzokara); tasdiqlovchi xatni tengdosh baholash
Simulyatsiya (“Moliya va bank ishi”, “Buxgalteriya hisobi va audit”; mustaqil faoliyat bosqichi, B2+)	Kompaniya ichida investitsiya qarorini qabul qilish: ichki yig‘ilish, yozishma, telefon suhbati, direktorlar kengashi oldida taqdimot	return on investment – investitsiya rentabelligi; payback period – o‘zini qoplash muddati; cash flow forecast – pul oqimi prognozi; operating costs – operatsion xarajatlar; sales forecast – sotuv prognozi	Barcha besh komponent integratsiyasi; motivatsion-refleksiv komponent	Rubrika (taqdimot va yozishma); debrifing; portfoliodagi refleksiv yozuv
Loyiha ishi (“Marketing”, “Moliya va bank ishi”; mustaqil faoliyat bosqichi, B2+ – C1)	Bozor tadqiqoti hisoboti; biznes-reja taqdimoti va investorlar oldida himoya	market research – marketing tadqiqoti; customer segment – mijoz segmenti; competitor analysis – raqobatchilar tahlili; business plan – biznes-reja; venture capital – venchur kapitali	Motivatsion-refleksiv komponent; iqtisodiy-terminologik komponent; diskursiv-strategik komponent	Portfolio; mahsulot va himoya rubrikasi; guruh ichida o‘zaro baholash
Debat va muhokama (“Makroiqtisodiyot”, “Xalqaro savdo”; mustaqil faoliyat bosqichi, C1)	Iqtisodiy siyosat bo‘yicha rasmiy debat; markaziy bank bayonoti asosidagi davra suhbati	customs duty – bojxona boji; tariff barrier – tarif to‘sig‘i; trade deficit – savdo defitsiti; monetary policy – pul-kredit siyosati; policy rate – asosiy stavka; inflation	Diskursiv-strategik komponent (yetakchi); madaniyatlararo-kasbiy komponent	Hakamlar rubrikasi; tahliliy hisobot; o‘z-o‘zini baholash

		expectations – inflyatsion kutilmalar		

3.3-jadval ma’lumotlari ikki xususiyatni ko‘rsatadi. Birinchidan, vositalar vaziyatning ochiqlik darajasi bo‘yicha tartiblanadi: rolli o‘yinda rollar va formulalar beriladi, keys va ishbilarmonlik o‘yinida yechim ochiq qoladi, simulyatsiya, loyiha va debatda esa vaziyat va mahsulotni talabaning o‘zi shakllantiradi; bu darajaviy izchillik tamoyilining vosita darajasidagi ifodasidir. Ikkinchidan, har bir vosita kamida ikkita kasbiy muloqot vaziyatini qamrab oladi va kuzatiladigan mahsulot qoldiradi, bu esa to‘rtinchi tanlash mezoni – natija dalilini berishni ta’minlaydi.

Raqamli vositalar interfaol vositalardan ajralgan holda emas, balki ularning tayanchi sifatida qo‘llanadi. P.Mishra va M.Kyoler texnologiyaning samarasi uni fan mazmuni va pedagogik maqsad bilan uyg‘unlashtirishga bog‘liq ekanini asoslaydi [40]. Shu sababli raqamli vosita rivojlantirish bosqichidagi aniq didaktik funksiyani bajarsagina mashg‘ulotga kiritiladi.

Terminni anglash va mustahkamlash funksiyasini elektron glossariy va onlayn lug‘atlar bajaradi. Modulning elektron glossariysi 3.1-§ dagi terminologik kartochkalar asosida LMS dagi “Glossary” faoliyatida tuziladi: har bir yozuvda termin, o‘zbekcha muqobil, ta’rif, kollokatsiyalar, nutqiy qolip, muloqot formulasi va audio talaffuz beriladi. Talaba glossariyni mustaqil to‘ldiradi, o‘qituvchi esa yozuvni tasdiqlagandan so‘ng u guruhga ochiladi. Tushunchaning kasbiy ta’rifi Cambridge Dictionary tarkibidagi Business English lug‘ati va Investopedia iqtisodiy ensiklopediyasi orqali tekshiriladi; masalan, talaba “revenue” va “profit” ta’riflarini qiyoslab, glossariy yozuviga tushunchaviy farqni qo‘shadi.

Terminning kontekstdagi qo‘llanishini kuzatish funksiyasini korpus vositalari bajaradi. Ta’lim oluvchi korpus ma’lumotlari bilan bevosita ishlaydigan o‘rganish bo‘yicha A.Bulton va T.Kobb o‘tkazgan metatahlil bunday o‘rganishning umumiy samarasi yuqori ekanini, lug‘at va leksikogrammatikani o‘zlashtirishda esa katta va o‘rta darajadagi ijobiy natija berishini ko‘rsatadi [22]. Mashg‘ulotda o‘qituvchi 3.1-§ da tuzilgan kichik ixtisoslashgan korpusdan konkordans satrlarini AntConc dasturida chiqaradi yoki Sketch Engine tizimi orqali terminning so‘z eskizini ko‘rsatadi. Masalan, talabalar “cash flow” bilan birikadigan fe’llarni (“generate”, “improve”, “forecast”) va sifatlarni (“positive”, “negative”, “free”) ajratadi, kartochkani to‘ldiradi va kollokatsiyani o‘z gapida qo‘llaydi.

Topshiriqlar, mustaqil ish va baholashni tashkil etish funksiyasini LMS bajaradi. Moodle tizimida har bir modul kurs bo‘limi sifatida tuziladi: “Forum” faoliyatida asinxron muhokama va biznes yozishmalar almashinuvi, “Assignment” faoliyatida xat, hisobot va taqdimot yozuvini topshirish va rubrika bo‘yicha baholash, “Workshop” faoliyatida esa tengdosh baholash tashkil etiladi. Masalan, 3.2-§ dagi 7-topshiriqda talaba shikoyatga javob xatini “Assignment” ga yuklaydi, keyin “Workshop” orqali

ikki sherigining xatini janr tuzilmasi, registr va terminni aniq qo‘llash mezonlari bo‘yicha baholaydi. LMS shuningdek keys matnlari, vaziyat ssenariylari va terminologik portfolioni saqlash makonidir.

Terminlarni takrorlash funksiyasini interfaol mashq platformalari bajaradi. I.S.P.Neyshn so‘zni o‘zlashtirishni payqash, xotiradan qayta chaqirish va yangi kontekstda ijodiy qo‘llash jarayonlari orqali tushuntiradi [142]. Quizlet da har bir modul uchun terminologik to‘plam tuzilib, termin, o‘zbekcha muqobil va kollokatsiya bir kartochkada beriladi, talaba esa “Learn” va “Test” rejimlarida ularni mustaqil takrorlaydi. Wordwall va Kahoot platformalari auditoriyada terminni kollokatsiya va ta’rif bilan moslashtirish, so‘z yasalishi uyasini tiklash va qisqa test shaklida tezkor diagnostika uchun qo‘llanadi. Bu vositalarning vazifasi muloqotni almashtirish emas, balki muloqot topshirig‘i uchun til tayanchini yaratishdir.

Tinglab tushunish va muhokama funksiyasini video, podkast va autentik biznes materiallari bajaradi. Kompaniya rahbarining investorlar uchun taqdimoti, markaziy bank rahbarining matbuot anjumani, iqtisodiy yangiliklar va iqtisodiy mavzudagi podkastlar talabaga terminning tabiiy nutqdagi qo‘llanishini va taqdimotning tarkibiy belgilarini ko‘rsatadi. Material ko‘rishdan oldingi taxmin, ko‘rish jarayonida asosiy fikr va detallarni ajratish hamda ko‘rishdan keyingi muhokama tartibida ishlanadi. Masalan, markaziy bank matbuot anjumanidan parcha ko‘rgandan so‘ng talaba “The central bank decided to keep the policy rate unchanged because inflation expectations remain high” shaklida bir daqiqalik axborot beradi, guruh esa qarorning korxonalar uchun oqibatlarini muhokama qiladi.

Sun’iy intellekt vositalari aniq didaktik maqsad va cheklangan funksiya bilan qo‘llanadi. L.Konke, B.L.Murxaus va D.Zou ChatGPT ning til o‘qitish va o‘rganishdagi imkoniyatlari bilan birga uning kamchiliklari va bahsli jihatlarini tahlil qilib, o‘qituvchi va talabada bu vositadan axloqiy va samarali foydalanish uchun zarur raqamli kompetensiyalar bo‘lishini talab qiladi [35]. Tadqiqotimizda sun’iy intellekt ikkita funksiya bilan cheklanadi. Birinchisi – dialog mashqi: talaba mustaqil ta’limda suhbat robotini “sceptical bank officer” yoki “demanding customer” roliga kiritib, muzokara formulalarini mashq qiladi va suhbat yozuvini portfolioga kiritadi. Ikkinchisi – yozma matnga qayta aloqa: talaba o‘zi yozgan xatni registr va terminni aniq qo‘llash nuqtayi nazaridan izoh olish uchun yuboradi, biroq matnni o‘zi tahrir qiladi va qaysi izohni qabul qilganini asoslaydi. Ehtiyot choralari sifatida baholanadigan yozma ishni sun’iy intellekt yordamida tayyorlash taqiqlanadi, og‘zaki baholash topshiriqlari auditoriyada bajariladi, vosita bergan har bir iqtisodiy ma’lumot va ta’rif glossariy yoki autentik manba orqali tekshiriladi. Bunday chegaralanish refleksiv-baholovchi avtonomlik tamoyiliga mos keladi.


Interfaol va raqamli vositalar 3.2-§ dagi to‘rt bosqich bo‘yicha taqsimlanadi. Terminni tanishtirish va anglash bosqichida yetakchi raqamli vositalar elektron

glossariy, onlayn lug‘at, korpus va Quizlet bo‘lib, interfaol shakl sifatida axborot bo‘shlig‘i va juftlikda terminologik xarita tuzish qo‘llanadi; natija dalili – to‘ldirilgan kartochka va test natijasi. Termin asosida reproduktiv muloqot bosqichida rolli o‘yin, namunaviy telefon suhbati va grafik asosidagi axborot yetakchilik qiladi, raqamli tayanch esa Wordwall mashqlari, nutq yozuvi va LMS forumidagi standart xat almashinuvidir; natija dalili – kuzatuvchi chek-listi va nutq yozuvi. Kasbiy vaziyatda produktiv muloqot bosqichida keys-stadi, ishbilarmonlik o‘yini va taqdimot asosiy vosita bo‘lib, videokonferensiya, elektron jadval, LMS yozishmasi va “Workshop” orqali tengdosh baholash qo‘llanadi; natija dalili – tavsiya, bayonnoma, xat va rubrika bo‘yicha baho. Mustaqil kasbiy-kommunikativ faoliyat bosqichida simulyatsiya, loyiha va debat yetakchilik qiladi, LMS brifing va portfolio makoniga aylanadi, sun’iy intellekt esa belgilangan chegarada mustaqil ta’limda ishlatiladi; natija dalili – biznes-reja, hisobot, taqdimot yozuvi va refleksiv yozuv.

Interfaol vositalar, raqamli vositalar va baholashning rivojlantirish bosqichlari bilan bog‘liqligi 3.3-rasmda ifodalanadi. Sxemaning yuqori qatorida to‘rt bosqich chapdan o‘ngga joylashtirilgan va ularning ostida CEFR mo‘ljali B1 dan B1+, B2 va B2+ – C1 ga qarab ko‘rsatilgan. Har bir bosqich ustunida yuqoridan pastga uchta qator berilgan: interfaol vositalar, raqamli vositalar va ularning funksiyasi hamda natija dalili va baholash shakli. Ustunlar ostidagi strelkali tasma vaziyat ochiqligi va talaba mustaqilligining ortishini, tayanch hajmining esa kamayishini ko‘rsatadi. Eng pastda natijaviy-baholash bloki va uning uchta vositasi – analitik rubrika, terminologik portfolio hamda o‘z-o‘zini va tengdosh baholash – joylashgan; ulardan bosqichlar qatoriga qaytuvchi uzuq chiziqli strelka baholash natijasiga ko‘ra keyingi modulda vaziyat ssenariysi va tayanch hajmi tuzatilishini ifodalaydi.

Interfaol va raqamli vositalarning birligi namunaviy mashg‘ulot ishlanmasida ko‘rsatiladi. Mashg‘ulot “Moliya va bank ishi” modulining kasbiy vaziyatda produktiv muloqot bosqichiga tegishli bo‘lib, “Negotiating a business loan” mavzusida ikki akademik soatga (80 daqiqa) mo‘ljallangan. Maqsad – talabalar bank vakili bilan kredit shartlari bo‘yicha muzokara olib boradi, o‘z pozitsiyasini iqtisodiy terminlar asosida asoslaydi, shartli taklif va yumshatilgan rad javobi strategiyalarini qo‘llaydi hamda kelishuvni rasmiy xatda tasdiqlaydi. CEFR mo‘ljali – B1+ dan B2 ga. Iqtisodiy terminlar: produktiv qatlamda “loan” (kredit), “interest rate” (foiz stavkasi), “collateral” (garov), “repayment schedule” (to‘lov jadvali), “cash flow” (pul oqimi), “working capital” (aylanma mablag‘), “term of the loan” (kredit muddati), “grace period” (imtiyozli davr); retseptiv qatlamda “credit rating” (kredit reytingi) va “liquidity ratio” (likvidlik koeffitsiyenti). Muloqot formulalari: “What we are looking for is…”, “Would you be able to…?”, “We could agree to… on condition that…”, “I’m afraid that’s not quite what we had in mind”, “So, to summarise what we have agreed…”. Interfaol vositalar: ishbilarmonlik o‘yini va kuzatuvchi roli; raqamli

vositalar: Quizlet to‘plami, LMS dagi video, Wordwall mashqi, Moodle “Assignment” va “Workshop”.



3.3-rasm. Interfaol vositalar, raqamli vositalar va baholashning muloqot kompetensiyasini rivojlantirish bosqichlari bilan bog‘liqligi

Mashg‘ulotdan oldin talaba mustaqil ta’limda uchta topshiriqni bajaradi: Quizlet to‘plamidagi o‘n terminni takrorlaydi; LMS ga joylashtirilgan uch daqiqalik videoda tadbirkor va bank mutaxassisi suhbatini ko‘rib, kredit shartlariga oid uchta savol yozadi; korxonaning soddalashtirilgan pul oqimi jadvali bilan tanishib, kredit zarurligini ikki gapda asoslaydi.

Birinchi bosqich – motivatsiya va faollashtirish (10 daqiqa). O‘qituvchi juftliklarga “Why do small companies often have cash flow problems even when they are profitable?” savolini beradi, talabalar video va jadval asosida fikr bildiradi; Wordwall mashqida “collateral”, “grace period” va “repayment schedule” ta’riflar bilan bog‘lanadi. Bosqich iqtisodiy-terminologik komponentni faollashtiradi.

Ikkinchi bosqich – til tayanchini mustahkamlash (15 daqiqa). Talabalar videodan muzokara formulalarini ajratib, ularni “making a proposal”, “asking for flexibility”, “rejecting politely”, “summarising the agreement” funksiyalari bo‘yicha guruhlaydi va har bir funksiya uchun bittadan o‘z gapini tuzadi. Bosqich lingvopragmatik komponentga yo‘nalgan.

Uchinchi bosqich – ishbilarmonlik o‘yini (30 daqiqa). Guruh uchtaliklarga bo‘linadi: to‘qimachilik korxonasi moliya direktori, bankning kredit mutaxassisi va kuzatuvchi. Direktor kartochkasida korxona yangi uskuna uchun kredit olmoqchi ekani va past foiz stavkasi, olti oylik imtiyozli davr hamda uzoq muddatga intilishi, mutaxassis kartochkasida esa bank yetarli garov va qat’iy to‘lov jadvalini talab qilishi ko‘rsatilgan; garov qiymati kredit summasidan kam ekani manfaatlar bo‘shlig‘ini yaratadi. Birinchi raundda tomonlar pozitsiyani bayon etadi. O‘n besh daqiqadan so‘ng o‘qituvchi bank foiz stavkasini oshirganini ma’lum qiladi, ikkinchi raundda tomonlar yangi sharoitda shartli taklif izlaydi (“We could reduce the grace period to three months if you agree to a lower interest rate”). Kuzatuvchi chek-listda terminning aniq qo‘llanishini, shartli taklif va yumshatilgan rad javobi holatlarini qayd etadi. Bosqich diskursiv-strategik komponent va madaniyatlararo-kasbiy komponentni rivojlantiradi.

To‘rtinchi bosqich – hisobot va til shakliga e’tibor (15 daqiqa). Har bir uchtalik kuzatuvchisi kelishuv natijasini bir daqiqada bayon qiladi, guruh esa qayd etilgan xatolarni (“to take a credit” o‘rniga “to take out a loan”) birgalikda tuzatadi. Bu bosqich J.Uillis tuzilmasidagi til shakliga e’tibor bosqichini [175] iqtisodiy terminlar materialida amalga oshiradi.

Beshinchi bosqich – refleksiya va baholash (10 daqiqa). Talaba o‘z-o‘zini baholash varaqasida qo‘llagan terminlarni va bajara olmagan vazifasini belgilaydi. Uyga vazifa sifatida direktor rolidagi talaba kelishilgan shartlarni tasdiqlovchi 150 so‘zlik xatni Moodle dagi “Assignment” ga yuklaydi, mutaxassis rolidagi talaba esa uni “Workshop” orqali rubrika bo‘yicha baholaydi; xat va baholash varaqasi terminologik portfolioga kiritiladi. Joriy baholashda kuzatuvchi chek-listi va rubrikaning iqtisodiy-terminologik, lingvopragmatik va diskursiv-strategik ko‘rsatkichlari, yozma xatda esa madaniyatlararo-kasbiy ko‘rsatkichlar qo‘llanadi.

Muloqot kompetensiyasini baholash joriy va yakuniy shaklda tashkil etiladi. P.Blek va D.Uilyam tadqiqotlar sharhi asosida talabaga o‘z o‘rganishi haqida muntazam teskari aloqa beruvchi shakllovchi baholash o‘zlashtirishda sezilarli o‘sishga olib kelishini va bu samara o‘z-o‘zini baholash hamda o‘quv motivatsiyasi bilan uzviy bog‘liq ekanini ko‘rsatadi [19]. K.Topping oliy ta’limdagi tengdosh baholashning ishonchli va valid ekanini, yozma ishlar bo‘yicha talabaning yutuqlari va munosabatiga o‘qituvchi bahosidan kam bo‘lmagan shakllovchi ta’sir ko‘rsatishini hamda kompyuter vositasidagi tengdosh baholashning rivojlanayotgan yo‘nalish ekanini aniqlaydi [48]. Milliy tadqiqotlarda G.B.Prenova til portfoliosini talabaning

yutuqlari, o‘z-o‘zini baholashi va o‘rganish strategiyalarini aks ettiruvchi hujjat sifatida talqin etadi [150], B.B.Tangatov esa shakllovchi va yakuniy baholash mexanizmlarini kasbiy-kommunikativ kompetensiyalar kontekstida qo‘llashni va refleksiv essedan foydalanishni tavsiya etadi [168]. Shu asosda natijaviy-baholash bloki mashg‘ulotda uchta vosita orqali amalga oshadi: analitik rubrika, terminologik portfolio hamda o‘z-o‘zini va tengdosh baholash.

Analitik rubrika nutqiy mahsulotning har bir jihatini alohida baholash imkonini beradi. U muloqot kompetensiyasining besh komponenti bo‘yicha tuziladi va 2.3-§ da belgilangan uchta daraja – yuqori (ijodiy), o‘rta (produktiv) va past (reproduktiv) – uchun deskriptorlarni o‘z ichiga oladi. Iqtisodiy-terminologik komponent lingvistik-terminologik mezon, lingvopragmatik komponent va diskursiv-strategik komponent kommunikativ-faoliyat mezoni, madaniyatlararo-kasbiy komponent va motivatsion-refleksiv komponent esa pragmatik-strategik mezon bo‘yicha baholanadi. Deskriptorlar CEFR qo‘shimcha jildidagi taqdimot, rasmiy muhokama, maqsadga yo‘naltirilgan hamkorlik va yozishma shkalalarining B1, B2 va C1 tavsiflariga tayanadi, og‘zaki va yozma topshiriqlar esa BEC va Linguaskill Business formatlariga moslashtiriladi. Muzokara va taqdimot uchun rubrika namunasi 3.4-jadvalda keltiriladi.

3.4-jadval

Muzokara va taqdimotda muloqot kompetensiyasini baholash analitik rubrikasining namunasi

Komponent (mezon)	Yuqori (ijodiy) daraja	O‘rta (produktiv) daraja	Past (reproduktiv) daraja
Iqtisodiy-terminologik komponent (lingvistik-terminologik mezon)	Produktiv qatlamdagi terminlarni aniq va kollokatsion to‘g‘ri qo‘llaydi (“to take out a loan”, “to extend the repayment period”); retseptiv terminlarni zarur bo‘lganda izohlaydi; bo‘shliqni parafraza bilan sezilmas holda kompensatsiya qiladi	Asosiy terminlarni to‘g‘ri qo‘llaydi, ayrim kollokatsion xatolarga yo‘l qo‘yadi (“to take a credit”); terminologik bo‘shliqni asosan tasviriy ifoda bilan to‘ldiradi	Terminni tanib oladi, biroq nutqda kam qo‘llaydi yoki umumiy leksika bilan almashtiradi (“the money for the bank”); soxta ekvivalentlar (“credit” o‘rniga “loan”) uchraydi
Lingvopragmatik komponent (kommunikativ-faoliyat mezoni)	Registr va muloqot formulalarini vaziyat va suhbatdosh maqomiga mos, o‘zgaruvchan tanlaydi; nutq ravon va grammatik jihatdan aniq	Rasmiy registrni asosan saqlaydi, standart formulalarni to‘g‘ri qo‘llaydi; murakkab jumlalarda tutilish va xatolar bor	Registrni aralashtiradi (“I want money”); formulalarni faqat namuna asosida qo‘llaydi; uzoq pauzalar nutq mazmunini buzadi
Diskursiv-strategik komponent	Muzokarani boshlaydi, rivojlantiradi va kelishuv bilan	Pozitsiyani dalil bilan bayon qiladi, shartli taklif kiritadi, biroq	Tayyor replikalar bilan cheklanadi, suhbatdosh taklifiga moslasha

(kommunikativ-faoliyat mezoni)	yakunlaydi; shartli taklif, aniqlashtiruvchi savol va umumlashtirish strategiyalarini maqsadli qo‘llaydi; taqdimot aniq tuzilmada	muloqotni yakunlashda yoki kutilmagan savolda o‘qituvchi tayanchiga ehtiyoj sezadi	olmaydi; taqdimot tuzilmasi aniq emas, tarkibiy belgilar qo‘llanmaydi
Madaniyatlararo-kasbiy komponent (pragmatik-strategik mezon)	Yumshatilgan rad javobi, xushmuomalalik strategiyalari va yozishma janr me’yorlariga barqaror rioya qiladi; hamkorning ishbilarmonlik madaniyatini hisobga oladi	Asosiy xushmuomalalik me’yorlariga rioya qiladi; rad javobi ba’zan keskin; xat tuzilmasi asosan saqlangan	To‘g‘ridan to‘g‘ri rad javobi va norasmiy ifodalar uchraydi; xatda janr tuzilmasi (murojaat, asosiy qism, yakuniy formula) buzilgan
Motivatsion-refleksiv komponent (pragmatik-strategik mezon)	Topshiriqqa faol kirishadi; nutq yozuvi asosida o‘z xatolarini aniqlaydi, rubrika bo‘yicha bahosi o‘qituvchi bahosiga yaqin; portfolioni muntazam to‘ldiradi	Topshiriqni mas’uliyat bilan bajaradi; o‘z xatosini o‘qituvchi yoki tengdosh izohidan so‘ng aniqlaydi; portfolio asosan to‘ldirilgan	Muloqotga kirishishda ikkilanadi; o‘zini baholashda yuzaki; portfolio o‘qituvchi talabi bilan to‘ldiriladi

3.4-jadvaldagi rubrika nutqiy mahsulotni yaxlit baho bilan emas, balki besh komponent bo‘yicha alohida ko‘rsatkichlar shaklida baholaydi; bu o‘qituvchiga ham, talabaga ham keyingi topshiriqda qaysi komponentga e’tibor qaratish lozimligini aniq ko‘rsatadi. Iqtisodiy-terminologik komponent deskriptorlari terminni bilishni emas, balki uni vaziyatda kollokatsion to‘g‘ri qo‘llashni va terminologik bo‘shliqni kompensatsiya qilishni baholaydi; bu lingvistik-terminologik mezonning o‘ziga xosligini amaliy darajada ifodalaydi. Rubrika o‘qituvchi, tengdosh va talabaning o‘zi uchun yagona vosita bo‘lgani uchun uchala bahoni qiyoslash refleksiyani faollashtiradi.

Terminologik portfolio joriy baholashning jamlovchi vositasi bo‘lib, LMS da elektron shaklda yuritiladi va to‘rt bo‘limdan iborat: “Glossariy” (shaxsiy terminologik kartochkalar va korpusdan topilgan misollar), “Mahsulotlar” (xatlar, hisobotlar, taqdimot slaydlari, muzokara va taqdimot yozuvlari), “Baholash” (o‘qituvchi, tengdosh va o‘z-o‘zini baholash varaqalari) va “Refleksiya” (modul yakunidagi refleksiv yozuv va keyingi modul uchun shaxsiy maqsad). Portfolio modul yakunida pragmatik-strategik mezonning o‘z muloqot faoliyatini kuzatish va baholash ko‘rsatkichi bo‘yicha baholanadi: talabaning o‘z lug‘atidagi yetishmovchilikni aniqlashi, nutq yozuvi asosida xatosini tahlil qilishi va lug‘atni mustaqil to‘ldirish rejasini tuzishi ko‘rsatkich sifatida olinadi.

O‘z-o‘zini va tengdosh baholash ikki tashkiliy qoidaga tayanadi. Birinchidan, baholashdan oldin rubrika deskriptorlari namunaviy yozuv asosida muhokama qilinadi va talabalar bir xil yozuvni mustaqil baholab, natijalarni qiyoslaydi. Ikkinchidan, tengdosh baholashda balldan tashqari ikkita ijobiy jihat va bitta aniq tavsiya yoziladi (“You used ‘collateral’ and ‘repayment schedule’ correctly; try to soften your refusal”). Yakuniy baholash modul oxirida va semestr yakunida kasbiy vaziyatga asoslangan og‘zaki (muzokara yoki taqdimot) va yozma (biznes xat yoki hisobot) topshiriq hamda portfolio himoyasi shaklida o‘tkaziladi; topshiriqlar BEC Vantage va Linguaskill Business topshiriqlari turiga moslashtiriladi, TOEIC Speaking va Writing qismlaridagi ish joyidagi vaziyatlar esa telefon suhbati va elektron xat topshiriqlari uchun namuna bo‘ladi.

Paragraf yuzasidan quyidagi umumlashma chiqariladi. Olimlar qarashlari tahlili interfaol va raqamli vositalarni to‘rt mezon asosida tanlashga asos beradi; keys-stadi, rolli va ishbilarmonlik o‘yini, simulyatsiya, loyiha ishi, debat va muhokama uchun maqsad, bosqichlar va iqtisodiy misollar belgilanadi, raqamli vositalar esa aniq didaktik funksiya bilan qo‘llanadi.

Vositalar to‘rt bosqich bo‘yicha taqsimlanib, namunaviy mashg‘ulotda birlashadi, analitik rubrika, terminologik portfolio va tengdosh baholash orqali esa jarayoniy-texnologik va natijaviy-baholash bloklari yagona siklga aylanadi va tajriba-sinov ishlari uchun asos bo‘ladi.

Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar

1. Konsepsiya tamoyillari mazmunni tanlashning beshta operatsional talabiga aylantiriladi: termin terminosistemadagi o‘rni va kollokatsiyalari bilan olinishi, kasbiy vaziyatga biriktirilishi, mutaxassislik fanlari bilan muvofiqlashtirilishi, B1, B2 va C1 bo‘yicha tabaqalashtirilishi va formulalarning xalqaro me’yorlarga muvofiqligi. Ta’lim mazmunining eng kichik birligi sifatida iqtisodiy terminologik klaster tushunchasi kiritiladi.

2. Iqtisodiy terminologik minimumni tanlashning besh bosqichli metodikasi ishlab chiqiladi: ehtiyojlar tahlili, manbalar korpusini shakllantirish, terminni oltita mezon bo‘yicha baholash, ekspert tekshiruvi, terminlarni produktiv va retseptiv qatlamlarga ajratib modullarga taqsimlash; qatlamlararo harakat darajaviy izchillik tamoyilini amalga oshiradi.

3. Ta’lim mazmuni “Makroiqtisodiyot”, “Moliya va bank ishi”, “Marketing”, “Menejment”, “Buxgalteriya hisobi va audit” va “Xalqaro savdo” modullari asosida tashkil etiladi. 120 soatlik auditoriya mashg‘uloti va 180 soatlik mustaqil ta’lim oltita modulga teng taqsimlanadi, modul ichidagi auditoriya vaqti esa to‘rt bosqich o‘rtasida

4, 6, 6 va 4 soat nisbatida taqsimlanadi. Modullar mutaxassislik fanlari bilan sinxron va istiqbol yo‘nalishlarida integratsiyalanadi.

4. Iqtisodiy terminologik klasterning uch qatlamli nutqiy tarkibi – kollokatsiyalar, nutqiy qoliplar va muloqot formulalari – asoslanadi va terminologik kartochkada yagona tuzilmada beriladi. Klaster elementlari modul ichidagi to‘rt bosqichga taqsimlanib, mazmuniy blok va jarayoniy-texnologik blok o‘rtasidagi aloqani amalga oshiradi.

5. Mashqlar va topshiriqlar tizimiga oltita talab – terminologik asoslanganlik, vaziyatlilik, bosqichlilik va tayanchning kamayishi, komponent bo‘yicha yo‘nalganlik, faollik va hamkorlik, refleksiv yakunlanganlik – qo‘yiladi va mualliflik tasnifi ishlab chiqiladi. Mashq turlari muloqot kompetensiyasi komponentlari, CEFR deskriptorlari hamda BEC, Linguaskill Business va TOEIC formatlari bilan muvofiqlashtiriladi.

6. Mustaqil ta’lim topshiriqlari oldindan tayyorlovchi, mustahkamlovchi va ijodiy-tadqiqot turlariga ajratiladi va auditoriya mashg‘ulotlari bilan “mustaqil tayyorlov – auditoriya topshirig‘i – mustaqil mustahkamlash – keyingi auditoriya topshirig‘i” zanjiri orqali birlashtiriladi, mahsullar esa terminologik portfolioda jamlanadi. Shu tariqa kredit-modul tizimidagi mustaqil ta’lim kasbiy muloqotga tayyorgarlik vositasiga aylanadi.

7. Interfaol va raqamli vositalar to‘rt mezon asosida tanlanadi va sakkiz elementli vaziyat ssenariysi asosida loyihalanadi. Muloqot kompetensiyasi analitik rubrika, terminologik portfolio hamda o‘z-o‘zini va tengdosh baholash orqali baholanadi; natijada jarayoniy-texnologik va natijaviy-baholash bloklari yagona siklga birlashadi va metodik tizim tajriba-sinov ishlari uchun asos bo‘ladi.

XULOSA

Monografiyada olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Xorijiy, MDH va milliy olimlar qarashlari tahlili “kompetensiya”, “kommunikativ kompetensiya”, “muloqot kompetensiyasi” va “kasbiy muloqot kompetensiyasi” tushunchalarining talqini til tizimini bilishdan vaziyatga mos qo‘llashga, undan esa madaniyatlararo va kasbiy-predmet muloqotga tomon kengayib borganini ko‘rsatdi. Shu asosda iqtisodiyot yo‘nalishi talabalarining ingliz tilidagi muloqot kompetensiyasi kasbiy muloqot kompetensiyasining xususiy turi sifatida ta’riflandi: u iqtisodiy terminlar tizimini tushunchaviy mazmuni bilan egallaganlikka tayanib, taqdimot, muzokara, yig‘ilish, biznes yozishma va telefon orqali muloqot vaziyatlarida kasbiy vazifalarni CEFR ning B1–B2–C1 darajalariga muvofiq hal etish qobiliyati va tayyorligida namoyon bo‘ladigan integrativ shaxsiy-kasbiy sifatdir.

2. Muloqot kompetensiyasining tuzilmasi beshta o‘zaro bog‘liq komponent – motivatsion-refleksiv, iqtisodiy-terminologik, lingvopragmatik, diskursiv-strategik va madaniyatlararo-kasbiy komponentlar majmui sifatida asoslandi. Iqtisodiy-terminologik komponent tuzilmaning tizim hosil qiluvchi o‘zagi ekani aniqlandi, chunki iqtisodiy termin bir vaqtda til birligi, kasbiy tushuncha va muloqot vositasi vazifasini bajaradi; lingvopragmatik va diskursiv-strategik komponentlar operatsional, madaniyatlararo-kasbiy komponent kontekstual, motivatsion-refleksiv komponent esa tartibga soluvchi vazifani bajaradi.

3. Ingliz tilidagi iqtisodiy terminlar tuzilishiga ko‘ra oddiy, qo‘shma, so‘z birikmali va abbreviatura shaklidagi guruhlarga, tematik jihatdan makroiqtisodiyot, moliya, marketing, menejment, buxgalteriya hisobi va audit hamda xalqaro savdo kichik terminosistemalariga ajratildi. Ingliz va o‘zbek iqtisodiy terminlari o‘rtasida oltita ekvivalentlik turi – to‘liq, qisman, variantli, kalka asosidagi ekvivalentlik, muqobilsizlik va soxta ekvivalentlik – aniqlanib, har biri uchun kasbiy muloqotdagi xavf va lingvodidaktik vazifa belgilandi. Iqtisodiy terminni kasbiy muloqot birligi sifatida o‘zlashtirish semantizatsiya, tizimlashtirish, kollokatsion-kontekstual o‘zlashtirish va kommunikativ faollashtirish bosqichlaridan o‘tishi asoslandi.

4. Xorijiy va MDH tajribasi hamda amaldagi me’yoriy hujjatlar, ESP namunaviy dasturi, fan dasturlari va o‘quv rejalarining tanqidiy tahlili oltita muammoni aniqladi: iqtisodiy terminlarning muloqotdan ajratib o‘rgatilishi; iqtisodiyotga xos terminologik minimumning yo‘qligi; kasbiy muloqot vaziyatlariga asoslangan topshiriqlar tizimining yetishmasligi; mutaxassislik fanlari bilan integratsiyaning sustligi; maqsad darajasi, kurs darajasi va o‘quv hajmi o‘rtasidagi nomuvofiqlik; muloqot kompetensiyasini baholash mezonlarining ishlab chiqilmaganligi. Muammolarning umumiy manbai iqtisodiy terminologiyaning kursning leksik ta’minoti sifatida qaralishi ekani ko‘rsatildi.

5. Iqtisodiy terminlar asosida muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Uning yetakchi g‘oyasi: ingliz tilidagi iqtisodiy termin yodlash obyekti sifatida emas, balki kasbiy muloqot vaziyatlarida kasbiy vazifani hal etishning faol vositasi sifatida o‘zlashtirilganda muloqot kompetensiyasi barcha besh komponentning uyg‘unligida samarali rivojlanadi. Konsepsiyaning metodologik asoslari falsafiy, umumilmiy, aniq ilmiy va texnologik darajalarda aniqlandi, yetakchi g‘oya esa tizim hosil qiluvchi, mazmuniy va jarayoniy-baholash guruhlariga ajratilgan to‘qqiz tamoyil orqali metodikaga aylantirildi.

6. Konseptual muvofiqlik, zaruriylik va yetarlilik, boshqariluvchanlik, tekshiriluvchanlik va amalga oshirilish imkoniyati mezonlari asosida to‘rtta pedagogik shart-sharoit asoslandi: iqtisodiy terminologik minimum va ta’lim mazmunini kasbiy muloqot vaziyatlari asosida loyihalash; mutaxassislik fanlari bilan CLIL elementlari asosida fanlararo integratsiyani ta’minlash; kasbiy muloqot vaziyatlarini modellashtiruvchi interfaol va raqamli ta’lim muhitini yaratish; professor-o‘qituvchilarning ESP va Business English bo‘yicha tayyorgarligi va mezonli baholash tizimini ta’minlash. Shart-sharoitlar mazmuniy, jarayoniy va ta’minlovchi bog‘lanishlar orqali yaxlit tizim hosil qilishi ko‘rsatildi.

7. Muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish modeli me’yoriy-maqsadli, nazariy-metodologik, mazmuniy, jarayoniy-texnologik va natijaviy-baholash bloklaridan iborat, teskari aloqa orqali o‘z-o‘zini tuzatuvchi tuzilmaviy-funksional tizim sifatida takomillashtirildi. Modelda rivojlantirishning to‘rt bosqichi – terminni tanishtirish va anglash, termin asosida reproduktiv muloqot, kasbiy vaziyatda produktiv muloqot va mustaqil kasbiy-kommunikativ faoliyat bosqichlari – terminni o‘zlashtirish bosqichlari va CEFR ning B1, B2, C1 mo‘ljallari bilan muvofiqlashtirildi; natijaviy-baholash blokida lingvistik-terminologik, kommunikativ-faoliyat va pragmatik-strategik mezonlar hamda yuqori (ijodiy), o‘rta (produktiv) va past (reproduktiv) darajalar belgilandi.

8. Metodik tizimning mazmuniy asosi sifatida iqtisodiy terminologik klaster (termin – tushuncha – kollokatsiya – o‘zbekcha muqobil – kasbiy vaziyat) tushunchasi kiritildi va terminologik minimumni tanlashning besh bosqichli metodikasi ishlab chiqildi: ehtiyojlar tahlili va kasbiy muloqot vaziyatlari reyestrini tuzish, manbalar korpusini shakllantirish, oltita mezon bo‘yicha baholash, ekspert baholash va produktiv hamda retseptiv qatlamlarga ajratish. Ta’lim mazmuni “Makroiqtisodiyot”, “Moliya va bank ishi”, “Marketing”, “Menejment”, “Buxgalteriya hisobi va audit” va “Xalqaro savdo” modullari asosida tashkil etildi va mutaxassislik fanlari bilan sinxron hamda istiqbol yo‘nalishlarida muvofiqlashtirildi.

9. Iqtisodiy terminlar asosida muloqot kompetensiyalarini rivojlantiruvchi mashqlar va topshiriqlar tizimi to‘rt bosqich bo‘yicha – terminologik-kommunikativ mashqlar, namunaga tayanuvchi shartli nutqiy mashqlar, kasbiy-kommunikativ

topshiriqlar va mustaqil loyiha topshiriqlari shaklida ishlab chiqildi. Keys-stadi, rolli va ishbilarmonlik o‘yinlari, simulyatsiya, loyiha ishi, debat hamda elektron glossariy, korpus vositalari, LMS va interfaol platformalar vaziyat ssenariylari asosida qo‘llandi; joriy baholash analitik rubrika, terminologik portfolio hamda o‘z-o‘zini va tengdosh baholash orqali tashkil etildi.

AMALIY TAVSIYALAR

1. Iqtisodiy ta’lim yo‘nalishlari uchun “Xorijiy til” fani ishchi dasturlariga oltita tematik modul bo‘yicha taqsimlangan iqtisodiy terminologik minimumni kiritish va uni har o‘quv yili boshida mutaxassislik kafedralari bilan birgalikda yangilab borish tavsiya etiladi.

2. Fan dasturlarida har bir modul mavzusini kasbiy muloqot vaziyati (taqdimot, muzokara, yig‘ilish, biznes yozishma, telefon orqali muloqot) va CEFR darajasi bilan bog‘lash, auditoriya vaqtini to‘rt bosqichli sikl bo‘yicha taqsimlash hamda har bir modulni kasbiy-kommunikativ topshiriq bilan yakunlash maqsadga muvofiq.

3. Ingliz tili va mutaxassislik kafedralari o‘rtasida semestr boshida mavzular xaritasini kelishish, mutaxassislik faniga asoslangan keyslar va qo‘shma topshiriqlar tayyorlash orqali CLIL elementlari asosida fanlararo integratsiyani tizimli yo‘lga qo‘yish zarur.

4. Elektron glossariy, korpus vositalari, LMS va interfaol mashq platformalaridan vaziyat ssenariylari asosida foydalanish, talabalarning mahsulotlarini terminologik portfolioda jamlash va undan joriy baholashda foydalanish tavsiya etiladi.

5. Talabalarning muloqot kompetensiyasini lingvistik-terminologik, kommunikativ-faoliyat va pragmatik-strategik mezonlar bo‘yicha CEFR deskriptorlari bilan bog‘langan analitik rubrika asosida baholash, oraliq va yakuniy nazoratda og‘zaki va yozma kasbiy muloqot topshiriqlarini BEC va Linguaskill Business formatlariga moslashtirish lozim.

6. Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida hamda oliy ta’lim muassasalarida ingliz tili o‘qituvchilari uchun ESP va Business English, terminologik minimum bilan ishlash, vaziyat ssenariylarini loyihalash va rubrika bo‘yicha kalibrovka mavzularida muntazam treninglar tashkil etish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – URL: https://lex.uz/docs/5013007

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni. – URL: https://lex.uz/docs/4545884

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni. – URL: https://lex.uz/docs/5085085

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. – URL: https://lex.uz/docs/5841063

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni. – URL: https://lex.uz/docs/6600413

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-son qarori. – URL: https://lex.uz/docs/2126030

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-son qarori. – URL: https://lex.uz/docs/5426736

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 312-son qarori. – URL: https://lex.uz/docs/5431845

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 34-son qarori. – URL: https://lex.uz/docs/5831978

10. ESP Curriculum for Higher Education in Uzbekistan / R.West, J.Stanford, S.Irgasheva [et al.]. – Tashkent: Ministry of Higher and Secondary Specialised Education; British Council, 2020.

11. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 260 p. – URL: https://rm.coe.int/1680459f97

12. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Companion Volume. – Strasbourg:

Council of Europe Publishing, 2020. – 278 p. – URL: https://rm.coe.int/common-european-framework-of-reference-for-languages-learning-teaching/16809ea0d4

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar

13. Alejo R. Where does the money go? An analysis of the container metaphor in economics: The market and the economy // Journal of Pragmatics. – 2010. – Vol. 42, № 4. – P. 1137–1150.

14. Almagro Esteban A., Pérez Cañado M.L. Making the case method work in teaching Business English: a case study // English for Specific Purposes. – 2004. – Vol. 23, № 2. – P. 137–161. – DOI: 10.1016/S0889-4906(03)00016-4

15. Anthony E.M. Approach, method and technique // ELT Journal. – 1963. – Vol. 17, № 2. – P. 63–67.

16. Atadjanova Sh.A. Chet til ta’limida talabalar kasbiy malakasini shakllantirish: monografiya. – Toshkent: Fan, 2016. – 152 b.

17. Azimova D.M. Ingliz va o‘zbek tillaridagi buxgalteriya va audit terminlarining etimologik va leksik qatlamlar asosida tahlili // NamDU ilmiy axborotnomasi. – 2025. – № 12. – URL: https://journal.namdu.uz/archive/2025-issue-12/maqola-68623-1762877781/pdf

18. Belcher D. English for specific purposes: Teaching to perceived needs and imagined futures in worlds of work, study, and everyday life // TESOL Quarterly. – 2006. – Vol. 40, № 1. – P. 133–156.

19. Black P., Wiliam D. Assessment and classroom learning // Assessment in Education: Principles, Policy & Practice. – 1998. – Vol. 5, № 1. – P. 7–74. – DOI: 10.1080/0969595980050102

20. Boers F. Metaphor awareness and vocabulary retention // Applied Linguistics. – 2000. – Vol. 21, № 4. – P. 553–571.

21. Boers F., Demecheleer M. A few metaphorical models in (western) economic discourse // Discourse and Perspective in Cognitive Linguistics / ed. by W.-A. Liebert, G. Redeker, L. Waugh. – Amsterdam: John Benjamins, 1997. – P. 115–129.

22. Boulton A., Cobb T. Corpus use in language learning: a meta-analysis // Language Learning. – 2017. – Vol. 67, № 2. – P. 348–393. – DOI: 10.1111/lang.12224

23. Canale M. From communicative competence to communicative language pedagogy // Language and Communication / ed. by J.C.Richards, R.W.Schmidt. – London: Longman, 1983. – P. 2–27.

24. Canale M., Swain M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing // Applied Linguistics. – 1980. – Vol. 1, № 1. – P. 1–47.

25. Celce-Murcia M., Dörnyei Z., Thurrell S. Communicative competence: A pedagogically motivated model with content specifications // Issues in Applied Linguistics. – 1995. – Vol. 6, № 2. – P. 5–35.

26. Chung T.M., Nation P. Technical vocabulary in specialised texts // Reading in a Foreign Language. – 2003. – Vol. 15, № 2. – P. 103–116.

27. Coxhead A. A new academic word list // TESOL Quarterly. – 2000. – Vol. 34, № 2. – P. 213–238.

28. Ellis R. Principles of instructed language learning // System. – 2005. – Vol. 33, № 2. – P. 209–224.

29. Gatehouse K. Key issues in English for Specific Purposes (ESP) curriculum development // The Internet TESL Journal. – 2001. – Vol. 7, № 10. – URL: http://iteslj.org/Articles/Gatehouse-ESP.html

30. Ha A.Y.H., Hyland K. What is technicality? A Technicality Analysis Model for EAP vocabulary // Journal of English for Academic Purposes. – 2017. – Vol. 28. – P. 35–49.

31. Hojiyev A., Zinin S.I. O‘zbek tili ilmiy-texnikaviy terminologiyasini tartibga solish prinsiplari: monografiya. – Toshkent: Fan, 1986.

32. Hymes D.H. On communicative competence // Sociolinguistics: Selected Readings / ed. by J.B.Pride, J.Holmes. – Harmondsworth: Penguin, 1972. – P. 269–293.

33. Jabareen Y. Building a conceptual framework: philosophy, definitions, and procedure // International Journal of Qualitative Methods. – 2009. – Vol. 8, № 4. – P. 49–62. – DOI: 10.1177/160940690900800406. – URL: https://journals.library.ualberta.ca/ijqm/index.php/IJQM/article/view/6118

34. Kankaanranta A., Louhiala-Salminen L. “What language does global business speak?” – The concept and development of BELF // Ibérica. – 2013. – № 26. – P. 17–34.

35. Kohnke L., Moorhouse B.L., Zou D. ChatGPT for language teaching and learning // RELC Journal. – 2023. – Vol. 54, № 2. – P. 537–550. – DOI: 10.1177/00336882231162868

36. Konstantakis N. Creating a business word list for teaching business English // ELIA: Estudios de Lingüística Inglesa Aplicada. – 2007. – № 7. – P. 79–102.

37. Louhiala-Salminen L., Charles M., Kankaanranta A. English as a lingua franca in Nordic corporate mergers: Two case companies // English for Specific Purposes. – 2005. – Vol. 24, № 4. – P. 401–421.

38. Mamayoqubova Sh.O. Raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari: ped. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2026. – 53 b. – URL: https://api.ziyonet.uz/uploads/books/10013143/ap2Mm1Ecg5OlFYL.pdf

39. Maqsudova G.O. Intercultural Communicative Competence in English Language Teaching: Preparing Global Learners // Maktabgacha va maktab ta’limi. – 2026. – № 4(6). – B. 7–10.

40. Mishra P., Koehler M.J. Technological pedagogical content knowledge: A framework for teacher knowledge // Teachers College Record. – 2006. – Vol. 108, № 6. – P. 1017–1054.

41. Nation I.S.P. The Four Strands // Innovation in Language Learning and Teaching. – 2007. – Vol. 1, № 1. – P. 2–13.

42. Nickerson C. English as a lingua franca in international business contexts // English for Specific Purposes. – 2005. – Vol. 24, № 4. – P. 367–380.

43. Nurmanov A.T. Talabalarning samarali muloqot texnologiyasi va texnikasiga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari: monografiya. – Toshkent, 2016.

44. Pulatova D.R. The Potential of Corpus-Based Teaching Technologies in Enhancing Foreign Language Education and Professional Communicative Competence // Modern methodological approaches to teaching linguistics, foreign languages and literature: conference proceedings. – Tashkent, 2025.

45. Qosimova F.X. O‘zbek-ingliz tibbiy terminlarining semantik, sintagmatik va pragmatik tadqiqi: filol. fan. dokt. (DSc) diss. avtoref. – Farg‘ona, 2026. – URL: https://api.ziyonet.uz/uploads/books/10000184/5LfIPXsuHgBUbSi.pdf

46. Thomas J. Cross-cultural pragmatic failure // Applied Linguistics. – 1983. – Vol. 4, № 2. – P. 91–112.

47. Tojiyeva K.N. Koreys tili iqtisodiy-moliyaviy sohasiga oid terminlarning diaxronik tahlili // O‘zbekistonda xorijiy tillar. – 2025. – 11-jild, № 5 (64). – B. 45–62. – URL: https://journal.fledu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2025/11/tojiyeva-k.n.-x-2.pdf

48. Topping K. Peer assessment between students in colleges and universities // Review of Educational Research. – 1998. – Vol. 68, № 3. – P. 249–276. – DOI: 10.3102/00346543068003249

49. Widdowson H.G. Communication and community: The pragmatics of ESP // English for Specific Purposes. – 1998. – Vol. 17, № 1. – P. 3–14.

50. Yigitaliyeva N.F. Ingliz tilini o‘rganish jarayonida talabalarning kasbiy ko‘nikmalarini simulyatorlar yordamida rivojlantirishning didaktik tizimi: ped. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD) diss. avtoref. – Qo‘qon, 2026. – URL: https://api.ziyonet.uz/uploads/books/10004621/xqBdyccdbEQgQwD.pdf

51. Zhang Z. Towards an integrated approach to teaching Business English: A Chinese experience // English for Specific Purposes. – 2007. – Vol. 26, № 4. – P. 399–410. – DOI: 10.1016/j.esp.2006.10.006. – URL: https://hdl.handle.net/1959.11/10917

52. Агафонова Е.А. О формировании и развитии критического стиля мышления у студентов на занятиях по иностранному языку в техническом вузе // Молодой ученый. – 2012. – № 3 (38). – С. 337–339.

53. Веракса Н.Е. Модель позиционного обучения студентов // Вопросы психологии. – 1994. – № 3. – С. 122–129.

54. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии // Труды Московского института истории, философии и литературы. Т. 5. Сборник статей по языковедению. – М., 1939. – С. 3–54.

55. Дахин А.Н. Педагогическое моделирование: сущность, эффективность и… неопределенность // Педагогика. – 2003. – № 4. – С. 21–26.

56. Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. – 2003. – № 5. – С. 34–42.

57. Ипполитова Н.В., Стерхова Н.С. Анализ понятия “педагогические условия”: сущность, классификация // General and Professional Education. – 2012. – № 1. – С. 8–13.

58. Клименко Е.В. Формирование иноязычной профессиональной коммуникативной компетентности будущих финансистов: дис. … канд. пед. наук: 13.00.08. – Калуга, 2004. – URL: https://www.dissercat.com/content/formirovanie-inoyazychnoi-professionalnoi-kommunikativnoi-kompetentnosti-budushchikh-finansi

59. Куликова Е.В. Метод проектов и технология портфолио при формировании иноязычной компетенции студентов неязыкового вуза // Вестник Нижегородского университета им. Н.И.Лобачевского. – 2014. – № 3. – С. 124–130.

60. Маренникова Л.В. Формирование профессионально-коммуникативной иноязычной компетенции менеджеров в комплексе “лицей-вуз”: дис. … канд. пед. наук: 13.00.08. – Калининград, 2008. – URL: https://www.dissercat.com/content/formirovanie-professionalno-kommunikativnoi-inoyazychnoi-kompetentsii-menedzherov-v-kompleks

61. Махкамова Г.Т. Концепция формирования межкультурной компетенции студентов факультетов английского языка: монография. – Ташкент: Фан, 2010.

62. Нечаев В.Я., Добреньков В.И. Российская система развития личности // Человек и современный мир. – М.: ИНФРА-М, 2002. – С. 387–418.

63. Низамова Ч.И., Добротворская С.Г. Анализ и уточнение дефиниции и классификационных групп педагогических условий // Научные ведомости Белгородского государственного университета. Серия: Гуманитарные науки. – 2019. – Т. 38, № 4. – С. 623–628. – DOI: 10.18413/2075-4574-2019-38-4-623-628. –

URL:
https://kpfu.ru/staff_files/F1238336564/analiz_i_utochnenie_definitsii_i_klassifikatsionnyh_grupp_pedagogicheskih_usloviy.pdf

64. Попова Т.П. Формирование иноязычной коммуникативной компетенции у студентов заочного отделения языкового вуза: монография. – Н.Новгород, 2013. – 186 с.

65. Реформатский А.А. Что такое термин и терминология // Вопросы терминологии: материалы Всесоюзного терминологического совещания. – М.: Изд-во АН СССР, 1961. – С. 46–54.

66. Сериков В.В. Личностно ориентированное образование // Педагогика. – 1994. – № 5. – С. 16–21.

67. Тимохина Е.В. Модель формирования профессионально-коммуникативной компетенции будущего учителя иностранного языка // Современные проблемы науки и образования. – 2015. – № 1.

68. Уварина Н.В. Ядро педагогической концепции: закономерности, принципы актуализации творческого потенциала личности учащихся в образовательном процессе // Вестник ЮУрГУ. Серия “Образование. Педагогические науки”. – 2012. – № 4, вып. 15. – С. 34–37. – URL: https://vestnik.susu.ru/ped/article/download/1040/914

69. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003. – № 2. – С. 58–64.

70. Шарабайко О.Г. Педагогические условия формирования профессиональной компетентности специалиста: научный анализ понятия // Вестник Полоцкого государственного университета. Серия Е. Педагогические науки. – 2016. – № 15. – С. 29–34. – URL: https://elib.psu.by/bitstream/123456789/19104/5/29-34.pdf

71. Щербакова Т.Н. Коммуникативная компетентность учителя как профессиональный ресурс // Государственное и муниципальное управление. Ученые записки СКАГС. – 2014. – С. 199–204.

Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

72. 60410800 – Menejment ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv reja (bakalavriat, kunduzgi ta’lim, 2025/2026–2028/2029). – Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2025.

73. Abdullayeva D.M. Talabalarning kasbiy leksik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: ped. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD) diss. – Toshkent, 2025.

74. Allison J., Emmerson P. The Business 2.0. Pre-intermediate Student’s Book. – Oxford: Macmillan Education, 2013.

75. Anderson L.W., Krathwohl D.R. (eds.) A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom’s Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longman, 2001. – 352 p.

76. Anthony L. Introducing English for Specific Purposes. – London; New York: Routledge, 2018. – 212 p.

77. Ashurova N.M. Kredit-modul tizimida talabalarning o‘quv faoliyatini takomillashtirish metodikasi (ingliz tili misolida): ped. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD) diss. – Toshkent, 2025.

78. Asilova G.A. Bojxona va soliq yo‘nalishlari talabalarining davlat tilida kasbiy muloqot yuritish kompetensiyasini rivojlantirish: ped. fan. dok. (DSc) diss. avtoref. – T., 2017. – 66 b.

79. Axmedova N.M. Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish: ped. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD) diss. – Toshkent, 2020.

80. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2003. – 174 b.

81. Bachman L.F. Fundamental Considerations in Language Testing. – Oxford: Oxford University Press, 1990. – 408 p.

82. Bachman L.F., Palmer A.S. Language Assessment in Practice: Developing Language Assessments and Justifying their Use in the Real World. – Oxford: Oxford University Press, 2010. – 508 p.

83. Bargiela-Chiappini F., Nickerson C., Planken B. Business Discourse. – 2nd ed. – Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2013. – 288 p.

84. Basturkmen H. Developing Courses in English for Specific Purposes. – Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2010. – 160 p.

85. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: ped. fan. dok. diss. – Toshkent, 2007. – 305 b.

86. Bertalanffy L. von. General System Theory: Foundations, Development, Applications. – New York: George Braziller, 1968. – 289 p.

87. Bhatia V.K. Analysing Genre: Language Use in Professional Settings. – London: Longman, 1993. – 246 p.

88. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. – 4th ed. – Maidenhead: Open University Press; McGraw-Hill, 2011. – 389 p.

89. Brieger N. Teaching Business English Handbook. – York: York Associates, 1997. – 296 p.

90. Brown P., Levinson S.C. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 345 p.

91. Buber M. Ich und Du. – Leipzig: Insel-Verlag, 1923.

92. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. – Clevedon: Multilingual Matters, 1997. – 136 p.

93. Cabré M.T. Terminology: Theory, Methods and Applications. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 1999. – 247 p.

94. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge, Mass.: MIT Press, 1965. – 251 p.

95. Cohen L., Manion L., Morrison K. Research Methods in Education. – 8th ed. – London; New York: Routledge, 2018. – 916 p.

96. Cotton D., Falvey D., Kent S. Market Leader. Intermediate Business English Course Book. – 3rd ed. – Harlow: Pearson Longman, 2010.

97. Coyle D., Hood P., Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 173 p.

98. Creswell J.W. Educational Research: Planning, Conducting, and Evaluating Quantitative and Qualitative Research. – 4th ed. – Boston: Pearson, 2012. – 650 p.

99. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019.

100. Dick W., Carey L., Carey J.O. The Systematic Design of Instruction. – 8th ed. – Boston: Pearson, 2015. – 400 p.

101. Donna S. Teach Business English. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000. – 324 p.

102. Douglas D. Assessing Languages for Specific Purposes. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000. – 316 p.

103. Dudeney G., Hockly N., Pegrum M. Digital Literacies. – Harlow: Pearson Education, 2013.

104. Dudley-Evans T., St John M.J. Developments in English for Specific Purposes: A Multi-Disciplinary Approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – 301 p.

105. Dörnyei Z. Motivational Strategies in the Language Classroom. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 155 p.

106. Ellis M., Johnson C. Teaching Business English. – Oxford: Oxford University Press, 1994. – 237 p.

107. Ellis R. Task-based Language Learning and Teaching. – Oxford: Oxford University Press, 2003. – 398 p.

108. Eshchanova G.X. Flipped classroom modeli asosida talabalarda ingliz tili amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: ped. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD) diss. – Toshkent, 2025. – 164 b.

109. Fosnot C.T. (ed.) Constructivism: Theory, Perspectives, and Practice. – 2nd ed. – New York: Teachers College Press, 2005. – 308 p.

110. Frendo E. How to Teach Business English. – Harlow: Pearson Education Limited, 2005. – 162 p.

111. Gulyamova M.X. Ingliz tilini o‘qitishda talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga integrativ yondashuv: ped. fan. bo‘yicha fal. dok. (PhD) diss. avtoref. – T., 2019.

112. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – 5th ed. – Harlow: Pearson, 2015. – 446 p.

113. Hofstede G., Hofstede G.J., Minkov M. Cultures and Organizations: Software of the Mind. – 3rd ed. – New York: McGraw-Hill, 2010. – 561 p.

114. Hoshimov O‘.X., Yoqubov I. Ingliz tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Sharq, 2003. – 301 b.

115. Hunston S. Corpora in Applied Linguistics. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002. – 241 p.

116. Hutchinson T., Waters A. English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 183 p.

117. Hyland K. English for Academic Purposes: An Advanced Resource Book. – London; New York: Routledge, 2006. – 334 p.

118. Ikromxonova F.I. Ingliz tilidan kommunikativ-kognitiv korrektiv kurs nazariyasi va amaliyoti (nolisoniy oliy o‘quv yurtlari misolida): ped. fan. nom. diss. – T., 2012. – 137 b.

119. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi: chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 432 b.

120. Jalolov J.J., Makhkamova G.T., Ashurov Sh.S. English Language Teaching Methodology (theory and practice). – Tashkent: Fan va texnologiya, 2015. – 336 p.

121. Johnson D.W., Johnson R.T. Learning Together and Alone: Cooperative, Competitive, and Individualistic Learning. – 5th ed. – Boston: Allyn and Bacon, 1999.

122. Jones K. Simulations in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 1982. – 122 p.

123. Joyce B., Weil M., Calhoun E. Models of Teaching. – 9th ed. – Boston: Pearson, 2015. – 416 p.

124. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1984. – 256 p.

125. Kramsch C. Context and Culture in Language Teaching. – Oxford: Oxford University Press, 1993. – 295 p.

126. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.

127. Larsen-Freeman D., Anderson M. Techniques and Principles in Language Teaching. – 3rd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2011. – 272 p.

128. Lewis M. Implementing the Lexical Approach: Putting Theory into Practice. – Hove: Language Teaching Publications, 1997. – 223 p.

129. Lewis M. The Lexical Approach: The State of ELT and a Way Forward. – Hove: Language Teaching Publications, 1993. – 200 p.

130. Littlewood W. Communicative Language Teaching: An Introduction. – Cambridge: Cambridge University Press, 1981. – 108 p.

131. Long M.H. (ed.) Second Language Needs Analysis. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005. – 316 p.

132. Madvaliyev A. O‘zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.

133. Mankiw N.G. Principles of Economics. – 8th ed. – Boston: Cengage Learning, 2018.

134. Maqsudova G.O. Integrativ rivojlantiruvchi yondashuv asosida talabalarning chet til tayyorgarligini takomillashtirish: ped. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) … diss. – T., 2021.

135. Mascull B. Business Vocabulary in Use. Intermediate. – 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2017.

136. Mavlanova M.U. Tanqidiy fikrlash orqali bo‘lajak muhandislarda muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: ped. fan. bo‘yicha fal. dok. (PhD) diss. – T.: O‘zMPU, 2025.

137. Maxwell J.A. Qualitative Research Design: An Interactive Approach. – 3rd ed. – Thousand Oaks: Sage, 2013. – 218 p.

138. Mehisto P., Marsh D., Frigols M.J. Uncovering CLIL: Content and Language Integrated Learning in Bilingual and Multilingual Education. – Oxford: Macmillan Education, 2008. – 240 p.

139. Miles M.B., Huberman A.M. Qualitative Data Analysis: An Expanded Sourcebook. – 2nd ed. – Thousand Oaks: Sage, 1994. – 338 p.

140. Murodova U.A. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: ped. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD) diss. – Toshkent, 2025.

141. Musayeva A.A. Bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining refleksiv kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: ped. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) … diss. – T., 2025.

142. Nation I.S.P. Learning Vocabulary in Another Language. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2013. – 624 p.

143. Nation I.S.P., Macalister J. Language Curriculum Design. – New York; London: Routledge, 2010. – 224 p.

144. Negova F.Sh. Fanlararo aloqadorlik asosida talabalarning pragmatik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: ped. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD) diss. – Toshkent, 2025.

145. Nelson M. A Corpus-Based Study of Business English and Business English Teaching Materials: PhD thesis. – Manchester: University of Manchester, 2000.

146. Nunan D. Task-Based Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004. – 222 p.

147. Paltridge B., Starfield S. (eds.) The Handbook of English for Specific Purposes. – Chichester: Wiley-Blackwell, 2013. – 592 p.

148. Pardayeva D.T. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish: ped. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD) diss. – Toshkent, 2022.

149. Porsayev U.G. Talabalarda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: ped. fan. bo‘yicha fal. dok. (PhD) diss. – T.: O‘zMPU, 2026.

150. Prenova G.B. Talabalarda gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: ped. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD) diss. – Toshkent, 2026.

151. Rashidova F.M. O‘zbekiston uzluksiz ta’lim tizimida CEFRni tatbiq etishning konseptual-metodik asoslarini takomillashtirish (ingliz tili misolida): ped. fan. dok. (DSc) diss. avtoref. – Toshkent, 2017. – 67 b.

152. Reigeluth C.M. (ed.) Instructional-Design Theories and Models: A New Paradigm of Instructional Theory. Vol. II. – Mahwah: Lawrence Erlbaum Associates, 1999. – 715 p.

153. Richards J.C. Curriculum Development in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 321 p.

154. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – 410 p.

155. Riskulova K.J. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari sotsiolingvistik kompetentligini shakllantirish tizimi: ped. fan. dokt. … diss. avtoref. – Toshkent, 2018.

156. Sager J.C. A Practical Course in Terminology Processing. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 1990. – 254 p.

157. Sattorov T.K. Bo‘lajak chet tili o‘qituvchisining uslubiy omilkorligini rivojlantirish texnologiyasi. – Toshkent: TDYUI, 2003. – 192 b.

158. Saturova I.A. Mutaxassislik bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarda bo‘lajak chet (ingliz tili) til muallimining kasbiy-uslubiy malakalarini shakllantirish: ped. fan. dokt. … diss. – T., 2000. – 329 b.

159. Savignon S.J. Communicative Competence: Theory and Classroom Practice. – Reading, Mass.: Addison-Wesley, 1983. – 322 p.

160. Saydazimova D.X. Raqamli texnologiyalar vositasida bo‘lajak chet til o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi: ped. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD) diss. – Toshkent, 2025.

161. Schmitt N. Researching Vocabulary: A Vocabulary Research Manual. – Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2010. – 397 p.

162. Schmitt N. Vocabulary in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000. – 224 p.

163. Sharipov Sh.S. Talabalar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta’minlashning nazariyasi va amaliyoti: ped. fan. dok. diss. avtoref. – Toshkent, 2012. – 46 b.

164. Shodiyev M.B. Integrativ yondashuv asosida talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: ped. fan. bo‘yicha fal. dok. (PhD) diss. – T.: O‘zMPU, 2025.

165. Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation. – Oxford: Oxford University Press, 1991. – 179 p.

166. Spolsky B. Conditions for Second Language Learning: Introduction to a General Theory. – Oxford: Oxford University Press, 1989. – 272 p.

167. Swales J.M. Genre Analysis: English in Academic and Research Settings. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 260 p.

168. Tangatov B.B. Integrativ yondashuv asosida talabalarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: ped. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD) diss. – Toshkent, 2025. – 191 b.

169. Temmerman R. Towards New Ways of Terminology Description: The Sociocognitive Approach. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 2000. – 258 p.

170. The Business (pre-intermediate course): 60410100 – Iqtisodiyot ta’lim yo‘nalishi uchun fan dasturi (sillabus). XT 11106. – Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2025.

171. Usarova D.A. Ingliz tilini o‘qitishda talabalarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: ped. fan. bo‘yicha fal. dok. (PhD) diss. – T.: TDPU, 2024.

172. West R., Sheykhametova E. (eds.) The State of English in Higher Education in Uzbekistan: A Baseline Study. – Tashkent: British Council, 2017.

173. Wiggins G., McTighe J. Understanding by Design. – 2nd ed. – Alexandria: ASCD, 2005. – 370 p.

174. Williams M., Burden R.L. Psychology for Language Teachers: A Social Constructivist Approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 1997. – 240 p.

175. Willis J. A Framework for Task-Based Learning. – Harlow: Longman, 1996. – 183 p.

176. Wüster E. Einführung in die allgemeine Terminologielehre und terminologische Lexikographie. – Wien; New York: Springer, 1979. – 215 S.

177. Xorijiy til: nofilologik ta’lim yo‘nalishlari uchun fan/modul ishchi dasturi (XT1108). – 2022–2023-o‘quv yili.

178. Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – М.: ИКАР, 2009. – 448 с.

179. Андреев В.И. Педагогика: учебный курс для творческого саморазвития. – 2-е изд. – Казань: Центр инновационных технологий, 2000. – 608 с.

180. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1966. – 607 с.

181. Бабанский Ю.К. Педагогика. – М.: Просвещение, 1988. – 432 с.

182. Бабанский Ю.К. Проблемы повышения эффективности педагогических исследований: (дидактический аспект). – М.: Педагогика, 1982. – 192 с.

183. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – М.: Искусство, 1979. – 424 с.

184. Беликов В.А. Философия образования личности: деятельностный аспект. – М.: Владос, 2004. – 357 с.

185. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 1989. – 192 с.

186. Бим И.Л. Методика обучения иностранным языкам как наука и проблемы школьного учебника. – М.: Русский язык, 1977. – 288 с.

187. Блауберг И.В., Юдин Э.Г. Становление и сущность системного подхода. – М.: Наука, 1973. – 270 с.

188. Вербицкий А.А. Активное обучение в высшей школе: контекстный подход. – М.: Высшая школа, 1991. – 207 с.

189. Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Лабиринт, 1999. – 352 с.

190. Гальскова Н.Д. Современная методика обучения иностранным языкам: пособие для учителя. – 2-е изд. – М.: АРКТИ, 2003. – 192 с.

191. Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика. – М.: Академия, 2006. – 336 с.

192. Головин Б.Н., Кобрин Р.Ю. Лингвистические основы учения о терминах. – М.: Высшая школа, 1987. – 104 с.

193. Гринев С.В. Введение в терминоведение. – М.: Московский лицей, 1993. – 309 с.

194. Гриценко Л.И. Теория и практика обучения: интегративный подход. – М.: Академия, 2008. – 187 с.

195. Гусинский Э.Н., Турчанинова Ю.И. Введение в философию образования. – М.: Логос, 2000. – 224 с.

196. Даниленко В.П. Русская терминология: Опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 1977. – 246 с.

197. Загвязинский В.И., Атаханов Р. Методология и методы психолого-педагогического исследования: учеб. пособие. – 2-е изд., стер. – М.: Академия, 2005. – 208 с.

198. Зимняя И.А. Педагогическая психология. – Ростов н/Д: Феникс, 1999. – 477 с.

199. Зимняя И.А. Психология обучения иностранным языкам в школе. – М.: Просвещение, 1991. – 222 с.

200. Зорина О.С. Развитие коммуникативной компетентности будущих инженеров: дис. … канд. пед. наук. – Нижний Новгород, 2016.

201. Каган М.С. Мир общения: Проблема межсубъектных отношений. – М.: Политиздат, 1988. – 319 с.

202. Канделаки Т.Л. Семантика и мотивированность терминов. – М.: Наука, 1977. – 167 с.

203. Карабаев Б.Б. Формирование коммуникативно-методической компетенции будущего учителя английского языка средствами модульно-рейтинговой технологии обучения: дис. … канд. пед. наук. – Душанбе, 2005. – 184 с.

204. Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М.: Высшая школа, 1990. – 253 с.

205. Краевский В.В. Методология педагогического исследования: пособие для педагога-исследователя. – Самара: Изд-во СамГПИ, 1994. – 165 с.

206. Кунанбаева С.С. Современное иноязычное образование: методология и теории. – Алматы, 2005. – 264 с.

207. Кунанбаева С.С. Теория и практика современного иноязычного образования. – Алматы: Эдельвейс, 2010. – 344 с.

208. Лапидус Б.А. Проблемы содержания обучения языку в языковом вузе. – М.: Высшая школа, 1986. – 144 с.

209. Лейчик В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура. – 3-е изд. – М.: Изд-во ЛКИ, 2007. – 256 с.

210. Леонтьев А.А. Психология общения. – 2-е изд., испр. и доп. – М.: Смысл, 1997. – 365 с.

211. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Политиздат, 1975. – 304 с.

212. Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии: Вопросы теории и методики. – М.: Изд-во АН СССР, 1961. – 158 с.

213. Новиков Д.А. Статистические методы в педагогических исследованиях (типовые случаи). – М.: МЗ-Пресс, 2004. – 67 с.

214. Павлова Н.Ю. Формирование коммуникативной компетентности у студентов экономического вуза в процессе изучения иностранного языка: дис. … канд. пед. наук. – Хабаровск, 2005. – 198 с.

215. Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – 2-е изд. – М.: Просвещение, 1991. – 223 с.

216. Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. – М.: Междунар. отношения, 1974. – 216 с.

217. Сафонова В.В. Изучение языков международного общения в контексте диалога культур и цивилизаций. – Воронеж: Истоки, 1996. – 237 с.

218. Соловова Е.Н. Методика обучения иностранным языкам: продвинутый курс. – М.: АСТ: Астрель, 2010.

219. Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология: Вопросы теории. – М.: Наука, 1989. – 246 с.

220. Тарнопольский О.Б., Кожушко С.П. Методика обучения английскому языку для делового общения. – Киев: Ленвит, 2004. – 192 с.

221. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. – М.: Слово, 2000. – 624 с.

222. Хуторской А.В. Компетентностный подход в обучении: научно-методическое пособие. – М.: Эйдос; Изд-во Института образования человека, 2013. – 73 с.

223. Шатилов С.Ф. Методика обучения немецкому языку в средней школе. – 2-е изд. – М.: Просвещение, 1986. – 223 с.

224. Штофф В.А. Моделирование и философия. – М.; Л.: Наука, 1966. – 303 с.

225. Щукин А.Н. Методика преподавания русского языка как иностранного. – М.: Высшая школа, 2003. – 334 с.

226. Щукин А.Н. Обучение иностранным языкам: Теория и практика. – М.: Филоматис, 2004. – 416 с.

227. Юдин Э.Г. Системный подход и принцип деятельности: методологические проблемы современной науки. – М.: Наука, 1978. – 391 с.

228. Юцявичене П.А. Теория и практика модульного обучения. – Каунас: Швиеса, 1989. – 272 с.

229. Якиманская И.С. Личностно ориентированное обучение в современной школе. – М.: Сентябрь, 1996. – 96 с.

230. Яковлев Е.В., Яковлева Н.О. Педагогическая концепция: методологические аспекты построения. – М.: Гуманитар. изд. центр ВЛАДОС, 2006. – 239 с.

Elektron resurslar

231.https://www.cambridgeenglish.org/exams-and-tests/business- certificates/

232.https://www.cambridgeenglish.org/Images/business-english-certificates-handbook-for-teachers.pdf

233. https://www.cambridgeenglish.org/exams-and-tests/linguaskill/

234. https://www.cambridgeenglish.org/nl/Images/linguaskill-brochure-for-employers.pdf

235. https://www.ets.org/toeic/about/listening-reading.html

236. https://www.ets.org/toeic.html

MUNDARIJA

	SO‘Z BOSHI	**3**
I BOB.	**INGLIZ TILI TA’LIMIDA IQTISODIY TERMINLAR ASOSIDA TALABALARNING MULOQOT KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI**	**7**
1.1-§.	Iqtisodiyot yo‘nalishi talabalarining ingliz tilidagi muloqot kompetensiyasi tushunchasining mazmun-mohiyati va tarkibiy tuzilmasi	7
1.2-§.	Ingliz tilidagi iqtisodiy terminologiyaning kasbiy muloqot vositasi sifatidagi lingvistik va lingvodidaktik xususiyatlari	24
1.3-§.	Iqtisodiyot yo‘nalishi talabalariga ingliz tilini o‘qitishning xorijiy tajribasi va O‘zbekiston oliy ta’lim tizimidagi holati	42
	Birinchi bob bo‘yicha xulosalar	63
II BOB.	**INGLIZ TILIDAGI IQTISODIY TERMINLAR ASOSIDA MULOQOT KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH KONSEPSIYASI**	**65**
2.1-§.	Muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish konsepsiyasining metodologik asoslari, yetakchi g‘oyasi va tamoyillari tizimi	65
2.2-§.	Iqtisodiy terminlar asosida muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va ularni aniqlash mezonlari	82
2.3-§.	Ingliz tilidagi iqtisodiy terminlar asosida muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish modeli va uning tarkibiy bloklari	99
	Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar	114
III BOB.	**INGLIZ TILIDAGI IQTISODIY TERMINLAR ASOSIDA MULOQOT KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK TIZIMI**	**115**
3.1-§.	Ingliz tilidagi iqtisodiy terminologik minimumni tanlash va ta’lim mazmunini modulli asosda tashkil etish metodikasi	115
3.2-§.	Iqtisodiy terminlar asosida ingliz tilida muloqot kompetensiyalarini rivojlantiruvchi mashqlar va topshiriqlar tizimi	130
3.3-§.	Interfaol va raqamli vositalar asosida ingliz tili mashg‘ulotlarida muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish	147
	Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar	161
	XULOSA	**163**
	AMALIY TAVSIYALAR	**166**
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	**167**

Muharrir: **Sh. Muxitdinov**
Texnik Muharrir: **Sh. Muxitdinov**
Dizayner: **U.Badriddinov**
Sahifalovchi: **B.Maxmarov**

Nashr lits № 2930965
Bosmaxonaga berildi: 02.11.2026 Bosishga ruxsat etildi: 05.11.2026
Bichimi 60x84 1/16 Offset qog‘ozi. Timer New Roman garniturasi.
Shartli bosma tabog‘i 11,5 Nashr bosma tabog‘i 11,5
Adadi 50 nusxada. Buyurtma № 01-02
“ALIMENTATION SAINE MCHJ” nashiryoti.
Toshkent shahar, Bunyodkor shoh ko‘chasi 27 A-uy